ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2019

4-son
(iyul-avgust)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

TAHRIRIYAT

4 Ta'lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish davr talabi

TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

N. Raxmonov 7 Ta'lim muassasalarida yoshlar faoliyatini tashkil etishning ayrim tarbiyaviy jihatlari

F. Alkarova 13 Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim jarayonida o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini faollashtirish imkoniyatlari

Z. Mirzayeva 17 O'quvchilarning ehtiyojini hisobga olish adabiy ta'lim taraqqiyotining muhim faktori sifatida

G. Elmuradova 21 Til sathidagi paradigmatika va sintagmatika tushunchalari xususida ba'zi mulohazalar

D. Malikova 28 Yoshlar ma'naviyatini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodiyotining tutgan o'rni

TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

N. Ibragimov 33 O'quvchilarning matematik qobiliyatlarini maxsus masalalar yechish orqali rivojlantirish metodikasi

O. Mavlonov 41 Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalariga ingliz tilini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari

O'. Qurbonova
A. Sattorov 48 Uzluksiz ta'lim tizimida fizika fanining o'ziga xos jihatlari

I. Po'latova 53 Navoiy ijodida ranglar jilosi yoxud ta'lim tizimida ulardan foydalanishning samaralari

ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

A. Begbo'tayev 57 Laboratoriya ishlarining bajarilishini baholashda imitatsion virtual trenajorlardan foydalanish

D. Sadiqova 63 Umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitishda samarali texnologiyalarning mohiyati

KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH

B. Qodirov 67 O'quvchilarda milliy xalq hunarmandchilik ko'nikmalarini rivojlantirish usullari

MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH

K. Mamatqulova 72 Umumiy o'rta ta'lim maktab rahbarlarining ehtiyojlariga asoslangan malaka oshirish jarayonini tashkil etish mexanizmlari

S. Daminova 76 Xalq ta'limi rahbar va pedagog xodimlarining mustaqil malaka oshirish tizimining muammolari

S. Boboyorov 81 Malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarining pedagogik faoliyatini boshqarishning nazariy-metodologik asoslari



MUSIQA VA SAN’AT TA’LIMI

D. Nosirov 87 Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa darslarini o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish



MAKTABGACHA TA’LIM

Y. Irisboyeva 92 Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilarini bolalar bilan munosabatinining o‘ziga xos xususiyatlari

G. Umarov 96 Maktabgacha yoshdagi bolalarning nafosat tarbiyasini shakllantirishning ahamiyati



TA’LIMDA INNOVATSIYALAR

Z. Sariyeva 100 Ta’lim muassasalari o‘quv jarayonini tizimli tashkil etishda innovatsion yondashuv

B. Akbarov 104 Klaster tizimi umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarida kasbiy tafakkurni shakllantirishning asosiy omili sifatida



TA’LIMNI INFORMATIZATSIYALASH

F. Abdullayev 111 Ta’lim jarayonining sifat menejmentida axborot xizmatini modellashtirish



PSIXOLOGIYA

M. Shirinov 116 Tabiatshunoslik fanini o‘qitish uzviyligi va uzluksizligini ta’minlashning psixologik omillarii



QIYOSIY PEDAGOGIKA

F. Soliyeva 120 Janubiy Koreya tajribasi asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faoliyatini takomillashtirish usullari



ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

М. Байбаева 124 Особенности протекания конфликтов в образовательной среде



МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Д. Саъдуллаев, А. Нурманов 128 О повышении качества обучения русскому языку в национальной общеобразовательной школе на основе лингвокультурологического подхода



ИНФОРМАЦИОННЫЕ РЕСУРСЫ В ОБРАЗОВАННИИ

С. Аракелов 135 Школьная библиотека и процессы формирования информационной культуры нового поколения



TEACHING AND LEARNING METHODS

X. Ibraimov F. Baxtiyorova 138 Using folk literature in the primary english as a foreign language classrooms

TA'LIM MUASSASALARIDA HAMKORLIK ASOSIDA PEDAGOGIK FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH DAVR TALABI

Respublikamizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq davlatimiz tomonidan yoshlarni sog'lom va barkamol qilib voyaga yetkazishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Ularning ma'naviy va axloqiy jihatdan komil inson bo'lib ulg'ayishida barcha zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Shunga mos ravishda farzandlarimiz hayotimizning hal qiluvchi kuchiga aylanib bormoqda.

O'sib kelayotgan yoshlar ta'limi va tarbiyasiga faqat bir shaxs yoki tashkilotning ishi deb qarash orqali biror-bir natijaga erishish qiyin. Ayniqsa, mafkuraviy kurashlar qizg'in tus olgan bugungi kunda turli niqoblar ostidagi yot g'oyalar ta'siriga tushib qolmaslik uchun, avvalo, kishida ma'naviy himoya qobig'i bo'lishi shart. Tahdidlardan yoshlarni himoyalash, ularni umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda jamiyatimizning barcha a'zolari hech bir istisnosiz faol bo'lishi shart.

Chunonchi, har bir yurtning kuch-qudrati, salohiyati va nufuzi, avvalo, shu zamin aholisining intellektual salohiyati, ongu tafakkuri, yuksak ma'naviyati bilan o'lchanadi. Mahmudxo'ja Behbudiy aytganidek, "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bexabar millat boshqalarga poymol bo'lur".

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni asosida "Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan tamoyil davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangani albatta bejiz emas.

Jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, yuksak intellektual salohiyat, zamonaviy bilimlarga ega, mustaqil fikrlaydigan, kelajakka ishonch bilan qaraydigan barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish haqida g'amxo'rlik qilish ushbu siyosatning ustuvor yo'nalishidir.

Davr taqozo qilgan vazifalarni muvaffaqiyat bilan bajarish uchun o'sib kelayotgan yosh avlod oldida zamonaviy bilimlarni egallash va uni amaliyotga tatbiq etish masalasi dolzarb bo'lib turibdi. Jahon tajribasi bunday bilimlarning eng muhim tarkibiy qismi boshqarish san'ati va fani ekanligini ko'rsatmoqda.

Yuqorida qayd qilinganidek, dunyoda ko'pgina boshqarish nazariyalari va yondashuvlari ishlab chiqilgan. Biroq ularning hammasini ham to'g'ridan-to'g'ri, ko'r-ko'rona ko'chirish va amaliyotga joriy qilish maqsadga muvofiq emas.

O'zbekiston Respublikasi xalqi va davlatiga sadoqatli hamda jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga qodir shaxsni shakllantirish maqsadida ta'lim muassasalari, ota-onalar, oila, mahalla qo'mitasi, Ma'naviyat targ'ibot markazi, Yoshlar ittifoqi, ko'plab jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qilishga alohida e'tibor berilgan.

Hamkorlik konsepsiyasining asosiy maqsadi – har bir bolaning hayotda o‘z o‘rnini topishga, baxti uchun zamin yaratishga, mas’uliyatli, insonparvar bo‘lishiga qaratilgan. Hamkorlik pedagogikasi prinsiplari asosida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyatni rivojlantirish ta’lim sifatini ta’minlashning asosiy omillaridan biridir.

Ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligi, ya’ni o‘quvchilarda zamonaviy talablar darajasida bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, ulardan hayotiy vaziyatlarda samarali foydalana olish ko‘nikmalarini rivojlantirish ko‘p jihatdan umumta’lim maktablarida yaratilgan sharoitlardan foydalanib, barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta’lim muassasalari, davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligi konsepsiyasining maqsad va vazifalarini amaliyotga joriy etishga bog‘liq.

Zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot jamiyatimizdagi har bir shaxsning rivojlanishiga yangidan-yangi talablar qo‘ymoqda. Shu bois, pedagogik jamoatchilikning asosiy e’tibori pedagogik jarayonlarni, unda ishtirok etadigan barcha ijtimoiy institutlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va takomillashtirishga qaratilishi lozim.

Hamkorlik muammosining dolzarbligi quyidagilar bilan izohlanadi:

Birinchidan, jamiyatda ijtimoiy-pedagogik jarayonlarning faollashuvi (munosabatlarning insonparvarlashuvi va demokratlashuvi, inson tamoyili rolining oshib borishi, innovatsion jarayonlar asosida ta’lim-tarbiya sifatining oshayotganligi, keng xalq ommasining ta’lim sifati, maktab va uning muammolariga e’tibori kuchayib borayotganligi va h.k.).

Ikkinchidan, umumiy, ommaviy pedagogik amaliyotning holati (ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarning yetarli darajada qo‘llab-quvvatlanmayotganligi, o‘quv-tarbiya jarayonidan qoniqmayotganliklari, ta’lim beruvchilar ta’lim oluvchilarga nisbatan munosabatlarini o‘zgartirish zaruriyatini anglamasliklari, tushunmasliklari ayrim hollarda esa xohlamasliklari va b.

Uchinchidan, pedagog-amaliyotchilarning innovatsiyalarga intilishlari (bola shaxsini rivojlantirishga qaratilgan ta’limning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish va b.) bugungi kun talablariga javob bermasligi.

Mazkur muammoning yechimi ta’lim muassasalarida pedagogik xizmat ko‘rsatuvchilar va iste’molchilar hamkorligini ilmiy asosda tashkil etish imkonini berish bilan bir qatorda, pedagogika fanini ham boshqaruv nazariyasiga oid yangicha yondashuvlar bilan boyitadi.

Ta’lim muassasalari faoliyatini boshqarishda samaradorlikka erishishning muhim yo‘llaridan biri – bu “mazkur jarayonning katta miqdordagi mablag‘ bilan moliyalashtirilishigagina bog‘liq” degan yondashuvdan voz kechish, aksincha, innovatsion xarakterga ega ijtimoiy qarashlarni shakllantirishdan iboratdir. Shu nuqtayi nazardan ko‘plab falsafiy, sotsiologik, pedagogik va psixologik manbalarda ta’lim tizimida qaror topgan innovatsion harakat pedagogik tashabbuslarning majmuasi sifatigina emas, balki ma’lum ijtimoiy o‘zgarishlarning samarasi hamdir.

Hamkorlik pedagogikasi – an’anaviy o‘qitishdan farq qilib, bola bilan do‘stona munosabat o‘rnatishga qaratiladi. Endi oldingi an’anaviy “men” o‘rniga “biz”, ya’ni hamkorlikda – “subyekt” – “subyekt” munosabatlariga asoslangan holatda pedagogik faoliyat tashkil etiladi. “Hamkorlikda ishlash” tamoyili o‘quvchi shaxsini chuqur bilishga asoslaniladi. O‘quv topshiriqlarini bajarishdan oldin strategik maqsad belgilaniladi, so‘ngra uni bajarish uchun bolada o‘z kuchiga ishonch tuyg‘usi shakllantiriladi. Boshqacha qilib aytganda, hamkorlik pedagogikasi bola shaxsiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ta’lim-tarbiya jarayonida iliqlik, hamkorlik, o‘quvchi xohish-irodasini yagona maqsadga – ta’lim olishga yo‘naltiradi.

Hamkorlik pedagogikasi – pedagogikaning zamonaviy yo‘nalishlaridan biridir. O‘qituvchi, o‘quvchi, maktab rahbari, ota-onalar va mahalla hamkorligi hamkorlik masalalarining asosi hisoblanib, u ta’lim samaradorligining muhim omili sirasiga kiradi. Yakka shaxs faoliyati mavhumlikdir, u masalaga bir tomonlama yondashganlikni bildiradi. Hamkorlikdagi faoliyat nafaqat muloqot ehtiyojining qondirilishini bildiradi, balki bu jarayon o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialini yaxshi o‘zlashtirish vositasi hamdir.

Hamkorlikning samarali bo‘lishi uchun o‘qituvchi, avvalo, o‘quvchining shaxsiy xususiyatlarini bilishi darkor. Bu borada ota-onalar bilan ham ishlash lozim. Ta’lim-tarbiya jarayonida hamkorlikning bo‘lmasligi turli muammolarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. O‘zaro hamkorlikning maqsadi birgalikdagi harakatlar, munosabat va muloqotning boshqarish mexanizmini yaratishdir. Hamkorlikdagi faoliyatda o‘qituvchi va o‘quvchi birgalikdagi xatti-harakatning sistemasini tushunishi va bunday harakatlar o‘qituvchining o‘quvchiga ko‘rsatadigan yordamidan boshlanishi zarur. Sheriklik pozitsiyasi amaliy va aqliy harakatga aylanadi. Hamkorlik qilingandagina, ya’ni bir-biri bilan do‘stona pozitsiyada bo‘lgandagina bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtira olmaslik sabablari aniqlanadi va uning samaradorligi ta’minlanadi.

Shunday qilib, hamkorlik pedagogikasining asoslari quyidagilardan iborat:

- o‘quvchi shaxsini chuqur bilish;
- o‘quvchi shaxsiga insoniy yondashish;
- jamoaviy tarbiya;
- o‘qituvchining yuqori kasbiy salohiyati;
- maktabga jamoatchilik diqqat e’tiborini qaratish.

Har tomonlama barkamol, komil insonni tarbiyalash jamiyatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Bugungi kunda ro‘y berayotgan muhim ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar yoshlar ongiga ta’sir qilmasdan qolmaydi.

Yosh avlodni ma’naviy-axloqiy, madaniy-ma’rifiy jihatdan yetuk insonlar qilib tarbiyalash ishi birinchi navbatda oiladan boshlanadi. Bu borada barkamol avlodni tarbiyalashda ota-ona, mahalla va ta’lim muassasalarining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, ushbu hamkorlikni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish o‘smirlar orasida qarovsizlik, tartibbuzarlik, jinoyatchilik va shunga o‘xshash maishiy buzuqliklar bilan shug‘ullanishning oldini olishda muhim tarbiya vositasidir.

Mazkur vazifalarni hayotga tatbiq etishda oila, mahalla, ta’lim muassasalari, davlat va nodavlat tashkilotlarning o‘zaro hamkorligi alohida o‘rin tutadi.

Shunday ekan, joylarda “Jamoat tashkilotlari va ta’lim muassasasi” hamkorlik mexanizmini kuchaytirish, Jamoat kengashining Nizomi asosida hamkorlik ishlarini yo‘lga qo‘yish, hududiy Jamoat kengashlari tarkibini to‘g‘ri shakllantirish Jamoat kengashlari faoliyati samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim sifatini samaradorligini oshirish bo‘yicha oldimizda turgan vazifalar va muammolarning yechimini barcha sohalar bilan bir maqsad yo‘lida muvofiqlashtiradi hamda “Oila – mahalla – ta’lim muassasasi hamkorligi” Jamoat kengashlari faoliyatini kuchaytirib, o‘zaro hamkorlikni yanada mustahkamlashda o‘zining ijobiy samaralarini beradi.

Nodir RAXMONOV,
Toshkent Davlat texnika unversiteti,
jismoniy tarbiya kafedrasi
katta o‘qituvchisi

TA’LIM MUASSASALARIDA YOSHLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING AYRIM TARBIYAVIY JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada uyushmagan yoshlar bilan ishlashning va ular faoliyatini tashkil qilishning ayrim tarbiyaviy jihatlari haqida so‘z yuritiladi. Unda xususan, ushbu masalani hal qilishda davlat va mas’ul tashkilotlar tomonidan olib borilayotgan chora-tadbirlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar. Uyushmagan yoshlar, ta’lim-tarbiya, chora-tadbirlar, yoshlar bilan ishlash komissiyalari, oila, mahalla fuqarolar yig‘ini, siyosat, qadriyat.

В статье рассматриваются некоторые аспекты организации деятельности неорганизованной молодёжи и воспитательных работ в обществе. В ней описаны принимаемые меры по решению молодёжных проблем со стороны государства и соответсвующих организаций.

Ключевые слова. Неорганизованная молодёжь, образования, воспитание, принимаемые меры, комиссия, работа с молодёжью, семья, махалля, политика, ценность.

The article discusses some aspects of the organization the activities of unorganized youth and educational work in society. Specifically, it describes the measures taken to solve youth problems in this area by the government and responsible agencies.

Key words. Unorganized youth, education, measures, commission work with young people, family, mahalla, politics, value.

So‘ngi yillarda mamlakatimizda barkamol avlodni voyaga yetkazish, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg‘ularini shakllantirish, ularda milliy vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirish, fuqarolar totuvligi hamda farovonligini ta’minlash borasida salmoqli ishlar qilindi. Bunda yoshlar bandligini ta’minlash, ularni ijtimoiy jihatdan himoya qilish, turli yot, buzg‘unchi g‘oyalarga kirib ketmasligini oldini olish, ommaviy sportga jalb etish, mafkuraviy immunitetini yanada mustahkamlash borasidagi ishlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Aynan shu maqsadda 2017-yil 5-iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” gi PF-5106 Prezident farmonining ahamiyati katta bo‘ldi. Ushbu qonun va boshqa normativ hujjatlar asosida fuqarolar yig‘inlari huzurida “Yoshlar bilan ishlash komissiya”lari tashkil etilganligi olib borilayotgan yoshlarga oid tizimli davlat siyosatining natijasidir. Bugungi kunda yoshlarning bandligini, yosh oilalar mustahkamligini ta’minlash, oilaviy janjallarni tinch yo‘l bilan bartaraf etish, oilalarda ajralishlarni kamaytirish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, yoshlar orasida jinoyatchilikni qisqartirish, ularning bo‘sh

vaqtlarini to‘g‘ri tashkil etish va boshqa tadbirlarni tashkil etishga e’tibor masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston yoshlar mamlakatidir. Respublikada 18 yoshgacha bo‘lganlar aholining taxminan 40 foizini, 30 yoshgacha bo‘lganlar esa jami aholining salkam 64 foizini, yoshlarning mamlakatimiz aholisiga nisbatan umumiy soni 12 mln dan ortiqni tashkil etadi.[1] Yoshlar milliy qadriyatlarni kelgusi avlodlarga yetkazuvchi, vorisiylik an’anasini davom ettiruvchi qatlamdir. Bu esa o‘zbek xalqining boy moddiy va ma’naviy merosini, qadriyatlarini asrab avaylashda muhim o‘ringa ega bo‘ladi. Mamlakatimizda shaxs va jamiyat manfaatlari tizimida yoshlar omili alohida ahamiyat kasb etgan holda, milliy xavfsizlik tizimining ham muhim qismini tashkil etadi. Ular tabiatan taqlidga, ergashishga moyil, jamiyatga yangi g‘oyalarni tashuvchi, ongi to‘liq shakllanib ulgurmagan, ma’lum tahdidlarga moyillik darajasi aholining boshqa qatlamlariga nisbatan sust bo‘lgan demografik qatlamdir.[2]

Mazkur o‘ziga xos jihatlardan anglashning muhimligi shundaki, o‘sib kelayotgan yosh avlod, ayniqsa uyushmagan yoshlar vakillarini tashqi tahdidlardan himoya qilish, yoshlar manfaatlarini ro‘yobga chiqarish mamlakatimiz milliy xavfsizligini ta’minlash hamda taraqqiyotimiz strategiyasining ustuvor vazifasidir. Bu esa bizdan yoshlar, ayniqsa uyushmagan yoshlar bilan ishlashning zamonaviy shakllarini rivojlantirishni, bu borada yangicha loyihalarni taklif etishni taqozo etmoqda.

Xususan, ushbu masalaning davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi uyushmagan yoshlar muammolariga yuksak e’tibor qaratilganligi, mazkur yo‘nalishdagi ishlarning dolzarb ekanligini tasdiqlamoqda. Shu ma’noda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurish akademiyasida “Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlar tayyorlash instituti” tashkil etildi. Yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini yanada keng yoyish, kitob mutolaasi va kitobxonlikni keng targ‘ib qilishga yo‘naltirilgan qator tadbirlar o‘tkazib kelinmoqda. Ular qatorida “Yosh kitobxon” respublika tanlovining o‘tkazilishi, O‘zbekiston televideniyasi “Yoshlar telekanali” huzurida “Yoshlar press klubi”ning tashkil etilganligi, istiqbolda uyushmagan yoshlar muammolarini o‘rganishning ilmiy-amaliy jihatlari hamda samarali mexanizmlarini yaratishni, bu borada fundamental va kompleks asosga ega bo‘lgan taklif va tavsiyalarni ilgari surishni taqozo etmoqda.

Bugungi shiddatli o‘zgarishlar davrida uyushmagan yoshlarni ishga, o‘qishga, ishlab chiqarishga jalb qilish va jamoat ishlarida faol ishtirokini ta’minlash borasida talay muammolar borligi hech kimga sir emas. Buni birgina yoshlarni o‘qishga jalb qilish, ta’limga qamrab olish muammolarida ham yaqqol ko‘rish mumkin. Jumladan, keyingi ikki yil mobaynida mahallalarda olib borilgan o‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, o‘qishga kira olmasdan, uyushmagan yoshlar qatoriga tushib qolganlar umumiy yoshlar salmog‘ining uchdan bir qismini tashkil etar ekan. O‘z o‘rnida ushbu masala talay muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Jumladan, Davlat statistika qo‘mitasining 2017-yilgacha bo‘lgan ma’lumotlariga ko‘ra, respublikamizda 25 va undan katta yoshli aholining har 1000 nafaridan 163 nafari oliy ma’lumotli bo‘lgan. Umumiy aholining soniga nisbatan mamlakatimiz aholi-

[1] Statistik to‘plam. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010-yillar) asosiy tendensiya va ko‘rstkichlari hamda 2011-2015-yillarga mo‘ljallangan prognozlari –T., 2011. 93-bet.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. Xalq so‘zi gazetasi. 2017-yil 7-fevral.

sining bor yo‘g‘i 12 foizi oliy ma’lumotga ega ekan. Investitsiyalar davlat qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda 18,5 million o‘rta va oliy ma’lumotli kadr bor. Bu ko‘rsatkichlar oliy ta’lim qamrovi tor ekanidan dalolatdir.[3]

Agar ushbu ko‘rsatkichni Markaziy Osiyoning boshqa respublikalari bilan solishtirsak, ko‘rsatkich anchagina past ekaniga guvoh bo‘lamiz. Masalan, Qozog‘istonda 17 milliondan ortiq aholi yashashini inobatga olsak, 122 ta oliy o‘quv yurti mavjud va ularda 496 mingdan ortiq talaba tahsil oladi. Qirg‘izistonda 7 milliondan ortiq aholi mavjud bo‘lib, mamlakatdagi 56 ta oliy o‘quv yurti 230 mingdan ortiq talabani qamrab olgan. O‘zbekistonda esa 2018-yil 1-sentabr holatiga ko‘ra, 32 milliondan ortiq aholi uchun 81 ta oliy ta’lim muassasasi, 15 ta hududiy filial, xorijiy universitetlarning 7 ta filiali faoliyat yuritgan. 2018-yil birinchi choragiga muvofiq ulardagi talabalar umumiy soni 260 ming 905 tani tashkil etgan.[4]

Ushbu raqamlar oliy ta’lim qamrovi bo‘yicha ko‘rsatkichlarmiz anchagina past ekanligini, aholini, ayniqsa yoshlarni o‘qishga ko‘proq jalb etish zururatini tug‘dirmoqda. Shu bois, mamlakatimizda so‘ngi yillarda oliy ta’lim tizimini yanada isloh qilish borasidagi qator Prezident Farmonlari va Qarorlari qabul qilindi. Ayniqsa “2018-2019 o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalariga qabul qilish to‘g‘risida” Prezident Qarorida sirtqi va kechki ta’lim yo‘nalishlarini ochish, ular uchun umumiy kvotaning 30 foizi gacha belgilanishi, bakalavriat bosqichi ayrim yo‘nalishlarida 3 yillik ta’limning joriy etilishi va magistratura ayrim yo‘nalishlarida 1 yillik ta’limning joriy etilganligi muhim islohotlardan biri bo‘ldi.[5]

Darhaqiqat, o‘qishga kira olmagan, biror mutaxassislikka ega bo‘lmagan yoshlar qanday qilib ish topa olishi mumkin? Bu savol barchani o‘ylantirishi, shubhasiz. Ha, buning yechimi, hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotda va ijtimoiy sohada xususiylashtirish tizimini kengaytirish, kichik va o‘rta biznes uchun keng imkoniyatlar yaratishdir, bu yuzlab, minglab yangi ish o‘rinlari, demakdir. Albatta, bu tizim Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida allaqachon boshlanganligiga barchamiz guvohmiz.

Ushbu muammolarni to‘g‘ri anglagan va unga tanqidiy asosda yondashgan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida “Yurtimizda tadbikorlik nima uchun kutilgan darajada rivojlanmayapti? Chunki, ochig‘ini aytganda tadbirkorlikning erkin rivojlanishiga o‘zimiz, davlat idoralari yo‘l qo‘ymayapmiz. Hech kimga kerak bo‘lmagan tartib-tamoyillar hamon saqlanib qolmoqda, joylarda ko‘pgina amaldorlar faqat o‘z shaxsiy manfaatini o‘ylab ish ko‘rmoqda. Bundan buyon bu sohani qo‘llab-quvvatlash, biznes subyektlarini jadal barqaror rivojlantirish yo‘lidagi to‘siq va g‘ovlarni bartaraf etish bo‘yicha zarur choralar ko‘riladi”[6], deya qayd etadi.

Uyushmagan yoshlar muammolari qatorida so‘ngi yillardagi chuqur islohotlar natijasida umumiy o‘rta ta’limning 11 yillik tizimi joriy etilganligi va kasb-hunar ta’limining mazmuni va mohiyati o‘zgarganligi hech kimga sir emas. Barchani oliy ta’limga qamrab olish imkoniyati cheklanganligi bois, yurtimizda endi 9-sinfni bitirganlar kollejda

[3] Oliy ma’lumotlilar soni qachon oshadi? // Ma’rifat gazetasi. 2018-yil 30-may. №43 son.

[4] O‘sha joyda.

[5] “2018-2019 o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalariga qabul qilish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori // Ma’rifat gazetasi. –T., 2018-yil 6-iyun 45-son.

[6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so‘zi gazetasi. –T., 2017-yil 23-dekabr.

majburiy o‘qitilmaydi, yoppasiga majburan o‘rta maxsus ta’limga jalb etish shu paytgacha o‘zini oqlamadi. Shu bois o‘quvchi o‘rta ta’limni o‘tagach, ixtiyoriy ravishda o‘ziga kerakli soha bo‘yicha kollejda o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Respublikamizda 11 yillik o‘rta ta’limning joriy etilishi hamda oliy ta’lim qamrovining kengayishi, yoshlarni bo‘sh vaqtlariga o‘rin qoldirmaydi. Eng asosiysi o‘quvchi o‘z uyidan olisda joylashgan kasb-hunar kollejida emas, ya’ni ota-onadan uzoqda emas, balki uning bag‘rida o‘qib, kasb-hunar egallashi mumkin bo‘ladi. Bu esa oilaning, ota-onaning o‘z farzandi bilan to‘lqonli ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Yoshlarni vatanimiz, xalqimiz, milliy qadriyatlarimiz, tarixiy-ma’naviy merosimizga hurmat va sadoqat ruhida tarbiyalash, yoshlarning aql-zakovatini namoyon etishiga ko‘maklashish, ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalarida ularning dunyoqarashi, ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan turli illatlarning oldini olish, yoshlarning huquq hamda manfaatlarini himoya qilish va mustahkamlash kabilar ana shunday hal etilishi lozim bo‘lgan masalalar sirasiga kiradi.

Shunday ekan, bizningcha yoshlarni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ular shuurida vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, el-yurt sha’nini ardoqlash kabi ulug‘vor fazilatlarni kamol toptirishda “Mahalla posboni” va “Hududiy profilaktika inspektori”ning o‘rni katta bo‘lishi zarur. Bugungi kunda ushbu tuzilmalar ham o‘zining normativ-huquqiy maqomiga ega bo‘lib, mahalliy davlat hokimiyati tizimida o‘ziga xos o‘rin oldi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 19-apreldagi 180-sonli Qarori hamda 2014-yil 4-martda yangi tahrirda qabul qilingan 47-sonli qarori bilan tasdiqlangan Fuqarolar yig‘inining “Mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmasi to‘g‘risidagi Nizom bu borada muhim qadamdir.[7] Nizomning 15-bandiga asosan, jamoatchilik tuzilmasi a’zoligiga jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olishga qodir 18 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari qabul qilinishi belgilangan.[8]

Ayniqsa Respublika Prezidentining 2017-yil 3-fevraldagi yangi tahrirda qabul qilingan “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoniga ko‘ra[9] fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika Kengashi huzurida tashkiliy ishlar va uslubiy masalalar bo‘yicha rais o‘rinbosari, shuningdek, Respublika kengashi va hududiy kengashlar huzurida keksalar va faxriylar ishlari bo‘yicha rais o‘rinbosarlari lavozimi va mahallalarda “Qaynonalar kengashi” joriy etildi.[10] Ularning vazifalari faqatgina qaynonalar bilan ishlash emas, balki ayollar, ayniqsa qizlar, yoshlar, yosh oilalar bilan ishlashdan ham iborat bo‘lmog‘i lozim.

Shu o‘rinda yana bir raqamga e’tiborni qaratish muhim. Ma’lumotlarga ko‘ra birgina 2017-yilda mamlakatimizda qariyib 32 ming nikoh bekor qilingan, 2018-yilning to‘qqiz oyi mobaynida ushbu ko‘rsatkich respublika bo‘yicha 23,8 mingtani tashkil etgan. Achinarlisi, nikoh bekor qilinganlarning deyarli uchdan bir qismi o‘zining tayinli ishi va o‘qish joyiga ega bo‘lmagan, 16-20 yosh oralig‘ida turmush qurgan yoshlardir. Demak, ushbu Kengashning vazifalari yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan masalalar qatorida,

[7] Fuqarolar yig‘inining “Mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmasi to‘g‘risidagi Nizom. –T., 2014.

[8] Fuqarolar yig‘inining “Mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmasi to‘g‘risida Nizom. –T., 2014. Yana qaran: Fuqarolar yig‘ini mas’ul kotibi ishini tashkil etish bo‘yicha yuz savolga yuz javob. –T., 2014. 34-35-betlar.

[9] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. Xalq so‘zi gazetasi. 2017-yil 4-fevral.

[10] Ishquvatov V. Mahalla va oliy ta’lim munosabati. Pedagogika –T., 2018-yil 2-son. 19-bet.

yosh oilalar bilan ish olib borish, yangi hayotga qadam qo‘yayotgan va oila qurish ostonasida turgan bo‘lajak kelin-kuyovlarga tegishli maslahatlar berib borish, qaynona va qaynotalar bilan tizimli ishlar tashkil qilish, ajralishlarni oldini olishda mahalla fuqarolar yig‘inlariga yaqindan ko‘maklashish kabilardan ham iborat bo‘lishi zarur.

Bizningcha, uyushmagan yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, kasb-hunarga yo‘naltirish, mehnatga yaroqli, lekin vaqtincha ish bilan ta’minlanmagan yoshlarni ish bilan ta’minlash borasida tizimli ishlarni tashkil etish uchun quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish muhim:

– birinchidan, uyushmagan yoshlar bilan ishlashning yangicha mexanizmlarini yaratish borasida tegishli yuqori organlarga zarur taklif va tavsiyalar bilan chiqish;

– ikkinchidan, uyushmagan yoshlarda o‘qish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning yangicha mexanizmlarini yaratish hamda taklif va tavsiyalar berish uchun mahallalarda yoshlar bilan uchrashuvlar, sotsiologik so‘rovlar o‘tkazish;

– uchinchidan, yoshlar bilan ishlash mexanizmlarining aniq yo‘naltirilgan, tizimli loyihalarini yaratish uchun xorij tajribalarini muntazam o‘rganib borish;

– to‘rtinchidan, O‘zbekiston yoshlarining yutuqlari va istiqbolda amalga oshiriladigan rejalar aks etgan kataloglar, illyustratsiyalar hamda “O‘zbekiston yoshlari XXI asrda” nomli rangli albom yaratish kabilardir.

Xalqimizda azaldan kattaga hurmat, kichikka izzat, ko‘pchilik fikrining ustunligiga asoslanish, kattalar fikri bilan ish tutish xalqimiz milliy mentalitetining muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib kelgan. Bu borada fuqarolar yig‘inlari huzuridagi “Yoshlar bilan ishlash komissiyasi faoliyatini takomillashtirishga ko‘maklashish to‘g‘risida” qo‘shma qaror qabul qilingan. Ushbu qo‘shma qarorga asosan respublikamizdagi barcha fuqarolar yig‘inlari tarkibidagi “Yoshlar bilan ishlash komissiyalari” tashkil etilib, ular tarkibiga asosan 60 yoshdan oshgan fuqarolarning jalb etilganligi mazkur masalaning naqadar dolzarb ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi.

Fuqarolar yig‘inlari huzuridagi “Yoshlar bilan ishlash komissiya”sining vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

– yoshlarni Vatanimiz, xalqimiz, millatimiz, milliy qadriyatlarimiz, tarixiy-ma’naviy merosimizga hurmat va sadoqatli qilib tarbiyalash, yoshlarning jamoat ishlarida faolligini oshirish;

– uyushmagan yoshlarning aql-zakovatini namoyon etishiga ko‘maklashish, manaviy-axloqiy tarbiya masalalarida ularning dunyoqarashi, ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan turli illatlarning oldini olish;

– yoshlarning huquq hamda manfaatlarini himoya qilish va mustahkamlash, ularni milliy qadriyatlarimizga, mehr-oqibat ruhida tarbiyalash va. h.k.

Quyidagi ayrim muammolarni bartaraf etish muhim deb o‘ylaymiz:

– yoshlarni hayotga tayyorlash masalasida ko‘proq tajribali, nuroniy keksalarimiz maslahatlari asosida ish tutish;

– mahallada yosh oilalar o‘rtasidagi ajralishlarni kamaytirish, oilaviy janjallarni tinch yo‘l bilan bartaraf etish masalasida keksa avlod vakillari bilan turli uchrashuvlar tashkil etish;

– yoshlar o‘rtasida milliy mafkurani keng targ‘ib qilish, yosh oilalar totuvligi hamda farovonligini ta’minlashga erishishda tarixiy an’analarimizga tayanib ish tutish kabilar shular jumlasidandir.

Bizningcha, mamlakatimizda oila, mahalla, ta’lim muassasalari hamkorligi konsepsiyasiga bugungi zamon ruhi asosida tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish zarur. Unda jamiyatni modernizatsiyalash va yanada rivojlantirish sharoitida ta’lim-tar-

biya sohasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan masalalar ko‘zda tutilishi hamda ularning ijro mexanizmlarini aniq belgilab berish taklifi ilgari surilishi lozim. Bu shubhasiz, kelajakda aholining boshqa toifalari qatori uyushmagan yoshlar muammolarini hal qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bir so‘z bilan aytganda uyushmagan yoshlar bilan ishlash tizimini yanada kuchaytirishni davrning o‘zi taqozo qilmoqda, bu esa yangilanayotgan O‘zbekistonda ular bilan bog‘liq muammolarni bartaraf qilishda muhim omil bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. Mahalla gazetasi. –T., 2017-yil 4-fevral.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so‘zi gazetasi. –T., 2018-yil 29-dekabr.

3. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. –T.: Ma’naviyat, 1999. 228-bet.

4. Ishquvatov V. Mahalla va oliy ta’lim munosabati. Pedagogika. T., 2018-yil 2-son. 19-bet.

5. Ishquvatov V, Tolipov F. Mahalla: o‘tmishda va bugun. –T., 2014

6. Karimova G. Oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligini kuchaytirishning dolzarb masalalari. Pedagogik ta’lim. –T., 2012-yil. 34-bet.

7. Fitrat Abdurauf. Rahbari najot. –T.: Sharq, 2000. 176-b.

8. “2018-2019 o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalariga qabul qilish to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori // Ma’rifat gazetasi. –T., 2018-yil 6-iyun. 45-son.

9. Fuqarolar yig‘inining “Mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmasi to‘g‘risidagi Nizom. –T., 2014.

10. Shomutalova Sh. Poydevor mustahakam bo‘lishi uchun: yoxud bir oilaning buzilishiga ulkan fojia deb qarash zarur. // Mahalla ko‘zgusi jurnali. –T., 2018-yil 11-12-sonlar.

Feruza ALKAROVA,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI 1-bosqich tayanch doktoranti

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA’LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILARNING AMALIY KO‘NIKMALARINI FAOLLASHTIRISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini faollashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari, yo‘nalishlari, shu maqsadda tashkil etiladigan pedagogik vaziyatlar haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini faollashtirish usullari, imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tilgan hamda ushbu yo‘nalishda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tavsiflangan.

Kalit so‘zlar. Amaliy faoliyat, faollashtirish, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, subyekt, bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya, o‘quv vaziyatlari, pedagogik jarayonlar.

В статье рассматриваются особенности, направления и педагогические ситуации, которые могут быть использованы для повышения практических навыков учеников на основе компетентностного подхода. В нем также изложены пути, возможности для активизации практических навыков учеников и изложены шаги, которые необходимо предпринять в этом отношении.

Ключевые слова. Практическая деятельность, активация, компетентностный подход, обучение личностно-ориентированное обучение, знания, навыки, компетенция, компетентность, учебные ситуации, педагогические процессы.

The article discusses the features, directions and pedagogical situations that can be used to improve the practical skills of students through the competence approach. It also outlines ways and opportunities for enhancing students' practical skills and outlines the steps that need to be taken in this regard.

Key words. Practical activities, activation, competence approach, person directed to the education, subject, knowledge, skills, qualification, competence, learning situations, pedagogical processes.

Bugungi kunda ta’lim mazmunini yangilash, takomillashtirish, o‘qitish samaradorligini va o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ilg‘or pedagogik tajribalarni keng ommalashtirish bo‘yicha ham qator ishlar amalga oshirildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ta’lim tizimini isloh qilish, o‘quv dasturlarini takomillashtirish va yangi darsliklar yaratish davlatning asosiy ishlaridan biri bo‘ldi. Shuningdek, ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining tez sur’atlarda jadallik bilan rivojlanishi ta’lim tizimi xodimlaridan ta’lim tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishni talab etib, har bir tizim xodimi, ayniqsa o‘qituvchilar zimmasiga yanada yuksak mas’uliyatli vazifalarni yuklamoqda. Xususan, bu kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim jarayonida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Xo‘sh, o‘quvchilarning bu boradagi amaliy ko‘nikmalarini faollashtirish imkoniyatlari qay darajada ekanligini birma-bir ko‘rib chiqish mumkin.

Dastlab, o‘quvchilarni qobilyatlarini rivojlantirish uzluksiz ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida amalga oshiriladi. Bunda texnologik ta’lim jarayoni alohida ahamiyatga ega. Chunki texnologik ta’lim jarayonida o‘quvchilar amaliy faoliyatning ko‘plab turlari haqida aniq ma’lumotga ega bo‘lishadi. Jumladan, uy-ro‘zg‘or yuritish, dizaynerlik, tikuvchilik faoliyati kabi. Bunday faoliyat natijasida o‘quvchilarda shaxsiy rivojlanish va kasbiy tasavvurlar vujudga keladi. Buning uchun yangi mavzuga oid bilimlarning funksional jihatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda o‘quvchilarning fikrlash va kommunikativ faoliyatini rivojlantirish nazarda tutiladi. Chunki o‘quvchilarining fikrlash va kommunikativ faoliyatini rivojlantirish orqali ularni ijtimoiy faoliyatga tayyorlash jarayoni jadal kechadi. Nutq mehnat va amaliy faoliyat jarayonida o‘zaro muloqot va shaxslararo munosabat o‘rnatish vositasi hisoblanadi. O‘quvchilar muloqot jarayonida ijtimoiy munosabatlarga kirishish, fikrlash ko‘nikmalarini ham faol o‘zlashtiradi. Natijada, ular mehnat munosabatlariga kirishish tajribasiga ega bo‘ladilar. Mehnat munosabatlariga kirishish tajribasini egallash esa kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Psixolog olimlardan E. G‘oziyev, M. Davletshin, Sh.R. Baratov, L. Baxman, L.S. Vigotskiy, A.V. Zaporojets, A.N. Leontev, A.A. Leontev, V. Penfild, L. Roberts, S.N. Seytlinlarning ta’kidlashlaricha, o‘quvchilarning muloqot ko‘nikmalarini egallashlari uchun amaliy ko‘nikmalarni faollashtirilishi muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim – o‘quvchilarda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’limdir.

Texnologiya ta’limi jarayoni o‘quvchilarda amaliy mehnat va ijodkorlik ko‘nikmalarining faollashuviga samarali ta’sir ko‘rsatib, ularda mustaqillik, ijodkorlik, shaxsiy mas’uliyatlilikni shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda, texnologiya ta’limi jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uchun katta imkoniyatlar mavjud.

O‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini faollashtirish va salomatliklarini muhofaza qilish uchun texnologiya ta’limi o‘qituvchisining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. O‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini faollashtirish ularning aqliy mustaqillik ko‘rsatishlariga imkoniyat yaratadi. Shu bilan bir qatorda, egallangan yangi bilimlarning amaliy ko‘nikmalarga aylanishiga ko‘maklashadi. Natijada o‘quvchilar egallagan yangi bilimlarini amaliy faoliyat orqali nostandart va yangi vaziyatlarda qo‘llash usullarini o‘zlashtiradilar.

O‘quvchilarning amaliy faoliyat ko‘rsatish jarayonidagi mustaqilliklari fikriy faoliyat tadbirlarini o‘zlashtirish natijasida hosil bo‘ladi. Bu esa ularning o‘quv-biluv faoliyatlari samaradorligini ta’minlashga ko‘maklashadi. Shuningdek, yangi mavzuni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish imkonini beradi. Natijada, ularning bilishga qiziqishlari ortadi, aqliy-ijodiy mehnat ko‘nikmalari rivojlanadi.

O‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini faollashtirish usullari va yo‘llarini tahlil qilish bu sohada bir qator yo‘nalishlarni ajratish imkonini berdi:

- o‘quvchilarning o‘quv jarayoni subyekti sifatida shakllanishlarini ta’minlash;
- o‘quv jarayonini dialog asosida tashkillashtirish;
- shaxsga yo‘naltirilgan o‘zaro munosabat vaziyatini vujudga keltirish;
- o‘quv jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etish;
- o‘quv materiallarining o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni faollashtirish nuqtayi nazardan ahamiyatliligi ta’minlash;

• o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini faollashtirishda texnologiya ta’limining boshqa o‘quv predmetlari bilan aloqadorligi va integratsiyasini ta’minlash;

• yangi mavzuni o‘tish jarayonida o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini faollashtirish maqsadida qiziqarli vaziyatlarga jalb etish;

• o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini faollashtirishda muammoli ta’lim imkoniyatlaridan foydalanish;

• o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini faollashtirish maqsadida ularning ijodiy, yaratuvchilik xarakteridagi mustaqil ishlari ko‘lamini kengaytirish;

• o‘quvchilarning shaxsiy tajribalarini hisobga olgan holda yangi mavzuni o‘tish jarayonida amaliy ko‘nikmalarini faollashtirish usullarini qo‘llash;

• o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini faollashtirish maqsadida ular uchun qiziqarli bo‘lgan vaziyatlarni tashkillashtirish;

• yangi mavzuni o‘tish jarayonida muvaffaqiyat qozonishga undash natijasida amaliy-ijodiy ko‘nikmalarni faollashtirish usullarini qo‘llash kabilar.

O‘quvchilarning amaliy faoliyatlari darajasini imkon qadar ko‘proq tabaqalashtirish va uni faollashtirish yo‘llari taniqli pedagog V. Korotayevaning ishlarida batafsil yoritib berilgan. Bilish faolligiga ega bo‘lmagan o‘quvchilar o‘quv ishiga qiyinchilik bilan kirishadilar. Buning uchun o‘qituvchi tomonidan muntazam tarzda muayyan darajadagi pedagogik yordam ko‘rsatiladi. Qulay pedagogik-psixologik muhit yaratiladi, ularning noto‘g‘ri javob berish, xatolar qilishdan qo‘rqmasliklari kerakligi ta’kidlanadi. Faol bilish imkoniyatiga ega bo‘lgan o‘quvchilar o‘quv materiallariga nisbatan alohida qiziqishining mavjudligi, dars shakllariga alohida e’tibor qaratishlari bilan ajralib turadilar. Ularning amaliy ko‘nikmalarini faollashtirish osonroq kechadi. Amaliy ko‘nikmalar va nazariy bilimlarni faol qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lgan o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishda muammoli topshiriqlardan foydalanish, rolli o‘yinlar tashkil etish orqali ularning faolliklarini muayyan maqsadga yo‘naltirish mumkin. Amaliy ko‘nikmalarni faollashtirish jarayonida faollikning yuqori darajada namoyon bo‘lishi ijodiy faollik sifatida e’tirof etiladi.

Ammo,kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim jarayonida fikriy operatsiyalarni maqsadga muvofiq tarzda o‘zlashtirish imkoniyati “Texnologiya”ni o‘qitishda ham to‘liq amalga oshirilmayapti. Buning sabablaridan biri texnologik ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faoliyat turlari haqidagi bilimlari yetarli darajada rivojlantirmayapti, amaliy faoliyat texnologiyasi, uning tarkibiy qismlari haqida kam ma’lumot berilyapti. Aksariyat hollarda ta’lim jarayonida gender tenglik va farqlarga e’tibor qaratilmayapti. O‘g‘il bolalarga ham, qizlarga ham bitta o‘qituvchi dars berib, umumiy dars berilyapti.

O‘quvchilar mehnat turlariga oid bilimlar, amaliy ko‘nikmalarga muayyan darajada ega bo‘lsalar-da, ulardan maqsadga muvofiq tarzda foydalanish tajribasi yetarlicha shakllantirilmayapti. Texnologiya o‘quv predmetini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning aqliy rivojlanishlarini jadallashtirish orqali ularning amaliy faolliklarini ta’minlash mumkin. O‘quvchilarga yangi bilimlar taqdim etilgach, ularda ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida amaliy faoliyatning yuqori, ijodiy shakllariga o‘tish amalga oshiriladi.

O‘quvchilarda amaliy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Amaliy faoliyat ko‘nikmalarini hosil qilishning ichki mayllari ularning hayotiy tajribalarni egallashlariga ko‘maklashadi. O‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni faollashtirishning tashqi omili sifatida muammoli vaziyatlar vujudga keltiriladi. Bunday vaziyatlarda topshiriqlarni yechish o‘quvchilarga muayyan vaziyatlarda qiyinchiliklar tug‘diradi.

O‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini faollashtirish mexanizmlarini tatbiq etish

yangi mavzuni o‘zlashtirishlari, bilish qiziqishlarini yo‘naltirish va tanlovga asoslangan munosabatlarni shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda, o‘quvchilar faoliyatining izlanuvchanlik xarakteriga ega bo‘lishiga e’tibor qaratish uchun qulay sharoit yaratadi. Bunda o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini faollashtirish metodlari yordamida ularda o‘z mehnatlari natijasini ko‘rish imkoniyatini yaratish kerak.

Bugungi kunda amaliy ko‘nikmalarni faollashtirish jarayonining o‘ziga xos jihatlarini o‘qituvchi-o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligiga asoslangan munosabatlari tashkil qiladi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarga faoliyat maqsadini ochib beradi, uni o‘quvchilar anglashlariga sharoit yaratadi, yetakchi g‘oyalarni tahlil etadi, o‘quv predmetining mazmuni o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishi uchun zarur vaziyatlarni yaratadi. Taqdim etiladigan bilimlarning qiymatini ochib beradi, o‘quv jarayoni mantiqi va bu jarayonda yangi bilimlarni o‘zlashtirish, amaliy ko‘nikmalarni faollashtirishning ahamiyatli jihatlarini tahlil qiladi. Bu o‘rinda ikkilamchi didaktik loyihalardan samarali foydalanadi. Bunday faoliyat natijasida o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini faollashtirishga xizmat qiladigan vaziyatlar dasturlashtiriladi.

O‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini faollashtirish jarayonida ularning ijodiy faoliyat ko‘rsatishlari uchun qulay vaziyatlar yaratish ta’lim berishning samarali usuli hisoblanadi. Shuning uchun ham, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan pedagogik jarayonlarda o‘quvchilar asosiy subyekt sifatida faoliyat ko‘rsatadilar. Bunday vaziyatlarda shaxsiy yondashuv vujudga keltirilib, o‘quvchilar hamda o‘qituvchilarning imkoniyatlarini mujassamlashtirish usulidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday vaziyatda o‘qituvchi ham, o‘quvchi ham pedagogik jarayonning subyekti sifatida namoyon bo‘ladi. Buning natijasida o‘quvchilar ta’lim jarayonida muayyan mustaqillikni qo‘lga kiritadilar.

O‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini faollashtirish jarayonida bunday yondashuvga tayanish alohida ahamiyatga ega. Chunki o‘quvchilarning rivojlanish darajalari bilan ta’lim mazmuni va metodlari o‘zaro mutanosib bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli Qarori / www.lex.uz.*

2. M.M. Vahobov Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standartlarini joriy etish – zamonaviy ta’lim paradigmasi sifatida // “Zamonaviy ta’lim” j. – 2016-yil №6. – 3-10-betlar.

3. А.А. Вербитский Компетентностный подход и теория контекстного обучения /А.А. Вербитский. – М., – 2004. – С.85.

4. Е.В. Коротаева. Уровни познавателнoй активности // Народное образование. - 1995.-№ 10. – С. 156-159.

5. Safarova R., Yusupova F. va b. O‘quvchilarda o‘zaro do‘stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonini tashkil etish tamoyillari va parametrlari. – T.: Fan va texnologiya nashriyoti, 2013. – 142 b.

Zulxumor MIRZAYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
Davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
dotsenti, filologiya fanlari doktori

O‘QUVCHILARNING EHTIYOJINI HISOBGA OLISH ADABIY TA’LIM TARAQQIYOTINING MUHIM FAKTORI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada umumiy o‘rta ta’lim tizimida adabiyot fanini o‘qitishda o‘quvchilar (ma’naviy) ehtiyojini hisobga olishning ahamiyati, uning ilmiy metodologik asoslari jahon adabiy ta’limining ibratli nazariyalari, xorij olimlari qarashlari misolida qiyosiy tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar. Adabiy ta’lim nazariyalari, global ta’lim imkoniyatlari, ma’naviy ehtiyoj, o‘quvchi ehtiyoji, xalqaro standartlar.

В статье рассматривается важность учета потребностей учеников в преподавании литературоведения в системе среднего образования, а также их научно-методические основы в сравнительном анализе мировых теорий литературы и взглядов зарубежных ученых.

Ключевые слова. Теории преподавания литературы, возможности глобальные обучения, духовные потребности, потребности студентов, международные стандарты.

The article discusses the importance of taking into account the needs of students in the teaching of literature in the system of secondary education, as well as their scientific and methodological foundations in a comparative analysis of world literary theories and views of foreign scientists.

Key words. Literary teaching theories, opportunities of global education, spiritual need, student’s need, international standards.

Adabiyot o‘qitish metodikasi ham boshqa fanlar kabi o‘zgaruvchan, rivojlanish xususiyatiga ega. Qolaversa, bugun adabiyot (xususan, zamonaviy adabiyot) shakl va mazmun jihatdan rivojlanib, sharq va g‘arb tajribasiga asoslangan o‘ziga xos badiiy asar namunalari yaratilmoqda. Bugungi zamonaviy adabiyot dunyoviy tafakkur natijasi o‘laroq yaratilayotgan ekan, uni o‘rganishda, san’at darajasidagi jihatlarni kashf etishda ham yangicha yondashuvlar, jahon adabiy ta’limining ibratli nazariyalari, ilmiy metodologik qarashlar asosidagi yondashuvlaridan foydalanib, adabiyot o‘qitish metodikasini yuqori bosqichlarga olib chiqish vaqti keldi, degan fikrdamiz. Keyingi o‘n yil badalida jahon adabiy ta’limi maydonlarida adabiyot fanlarini o‘qitishning zamonaviy tamoyillari, xalqaro strategiyalari, adabiy ta’limning jahon standartlari darajasidagi ilmiy-nazariy, ilmiy-metodologik asoslari aks etgan ko‘plab tadqiqotlar yaratildi va hanuz yaratilmoqda. Dunyo miqyosdagi tadqiqotlarning mazmun mundarijasi takomillashib, mazkur nazariyalardan ta’lim berish va olish sifatiga ko‘ra jahon reytingining eng yuqori bosqichlaridan o‘rin egallagan mamlakatlar samarali foydalanmoqdalar.

Ta’lim berish (adabiy ta’lim nazarda tutilmoqda) metodlarining takomillashi barobarida o‘rganishning konstruktivizm, gumanizm kabi yangicha yondashuvlari, o‘rganish uslublariga xos klassifikatsiyalar, badiiy tahlilga kulturologik yondashuv, badiiy tahlilda metatil tushunchasi, tranzaksiya nazariyasi, ta’limda integrativ yondashuv nazariyalari, ta’limni individuallashtirish va personallashtirish kabi ko‘plab yangi tushunchalar paydo bo‘ldi. Milliy metodikaga oid manbalarni boyitish hamda uni xalqaro standartlarga mos rivojlantirish, tabiiyki, global ta’lim imkoniyatlaridan, birlamchi manbalardan bevosita, o‘rinli foydalanish va uni milliy adabiy ta’limga tadbiq etish orqali amalga oshiriladi.

Ingliz metodist olimlari Elli Chambers va Marshal Gregoriy (Ellie Chambers and Marshall Gregory) “bugun badiiy asarlarni o‘rganish avvalgidek “buni to‘g‘ri deb qabul qil”[1] (to get it right) mezonlariga to‘g‘ri kelmaydi, o‘quvchi badiiy asar haqidagi talqinlarini bemalol, o‘z dunyoqarashi, fikrlash, tafakkur darajasiga ko‘ra rivojlantira olish imkoniga egadirlar. Ammo ko‘p holatlarda o‘qituvchining ko‘p yillar kuchli an’anaga aylangan magistral (qonuniy) huquqi o‘quvchining erkin fikrlariga daxl qilib, uni “buni to‘g‘ri deb qabul qil” (to get it right) kabi mezonlarga ergashishga majbur qiladi. Oqibatda to‘g‘ri talqinlar va badiiy matn mohiyati talabalarning fikri, ular bilan o‘tkazilgan so‘rovnomalar, yoki ularning badiiy matn haqidagi munosabati xosilasi emas, balki, o‘qituvchining shaxsiy qarashlaridan paydo bo‘lgan umumiy xulosani tashkil etadi. Yanayam aniqroq qilib aytganda “To‘g‘ri fikr” yoki “To‘g‘ri munosabat” bu o‘qituvchining fikri, yoki qarashlari asosidagi yagona xulosadan iborat bo‘ladi,[2] degan fikrni aytadi.

Xorijda adabiyot o‘qitilishi, shu jumladan badiiy asar tahliliga yondashuvlarda bizdan farq qiladigan bir qancha jihatlari bor. Ta’lim standartlari o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan kompetensiyalarni belgilaydi. Ulardagi kompetensiyalar aniq va obyektiv belgilanib, spiralsimon shaklda rivojlanib boradigan kichik kompetensiyalarga bo‘linadi. Masalan, o‘quvchi asar syujetining tarkibiy elementlari, (perspektiva, retrospektiva...), badiiy asardagi stilistik figuralar (metafora, metonimiya kabi), ayrim epizodlarning badiiy matn mazmuniga ta’sirini izohlay olish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Shuningdek, standartlar o‘quvchida badiiy asarni to‘liq o‘qish ko‘nikmasini shakllantiradi. Bunda o‘qituvchilarga o‘quvchilar o‘qishi uchun tavsiya qilingan mualliflar va asarlar ro‘yhati beriladi. O‘qituvchi tavsiya qilingan ro‘yhatdagi adiblar va asarlarni o‘quvchilarining qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda o‘zi tanlaydi. Bunda o‘quv yili davomida o‘tilgan asarlar soni muhim rol o‘ynamaydi, tanlangan asarlar to‘liq o‘qiladi va badiiy matn atroflicha tahlil qilinadi.

Xorijdagi adabiyot darsliklarida “asar haqida” degan bo‘lim berilmaydi, balki savol va topshiriqlar vositasida o‘quvchining asarga munosabati shakllantiriladi. Savol va topshiriqlarning o‘quvchilarni asarga qiziqtirishi, asar mazmunini tushunishga tayyorlashi, badiiy matnni tushunish – tahlil qilishga, mustaqil fikrlashga, badiiy asar ustida chuqur mushohada yuritishga, adabiyotni san’atning boshqa turlari, boshqa fanlar va o‘quvchi hayoti bilan aloqasini ta’minlash, o‘quvchida og‘zaki va yozma nutqni, ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga qaratilganligi bilan o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Masalan, Angliya va Amerikada nashr qilingan adabiyot darsliklarining deyarli barchasida “Think critically” (tanqidiy tafakkur), “Connect to life” (asarning bugungi kun bilan bog‘liqligi) “Extend interpretation” (Keng ko‘lamli talqin) kabi qismlar mavjud bo‘lib, bularning bar-

[1] E.Chambers, M.Gregory. Teaching and Learning English literature.Sage Publications.London, 2006, P.11. Bu tamoyil jahon adabiy ta’limidagi an’anaviy “o‘qituvchi faol” (teacher centered- approach) ga yaqin tushuncha bo‘lib, adabiy tahlilda yakka fikrlilikka asoslanadi.

[2] Yuqoridagi manba.

chasi o‘quvchining tafakkuri rivojiga xizmat qiladigan savol va topshiriqlardan iborat bo‘ladi. Ularda badiiy matn bilan ishlashning muayyan bosqichlari (asarni o‘qishdan oldin, o‘qish davomida va o‘qishdan keyin) mavjud. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi bugun “mahalliy” o‘qitish strategiyalardan o‘qituvchi va o‘quvchining adabiy ta’lim haqidagi fikrlarini tiniqlashtirishga xizmat qiladigan global yondashuvlar tomon qadam tashlashi, adabiy matnni qanday o‘rganish emas nima uchun o‘rganish kabi muammolarni masala qilib qo‘yishi va badiiy asar mazmunini chuqurroq tushunishga olib borish yo‘llarini kashf etishi talab etiladi.

O‘zbek adabiyoti ta’limida mazmuniy uzviylikni ta’minlashda tabiiyki, o‘quv-uslubiy adabiyotlar, darsliklar sifatini yaxshilash, adabiyot fanidan beriladigan bilimlarning bosqichlararo uzluksizligini ta’minlash lozim. Bundan tashqari, o‘quvchi-talabalarning yosh xususiyatini ham hisobga olish zarur. Ushbu masalaning samarali yechimlari adabiyot fanlarini integratsiyalash va uzviylikka yordam beradigan o‘qitish turlarini aniqlashda ham aks etadi.

O‘zbek adabiy ta’limida o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olib uzviylik va uzluksizlikni ta’minlashda o‘rganuvchining ehtiyojlari (student’s needs; learner’s needs) ni ham e’tiborga olish kerak, degan fikrdamiz. 11-sinf adabiyot darsligidagi Yusuf Hoj Hojibning “Qutadg‘u bilik” (“Saodatga eltuvchi bilim”) asari turkiy adabiyotning ilk namunasi, o‘z davridagi ilg‘or ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy masalalarni ramziy obrazlar vositasida badiiy talqin qilgan asar sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Yoki Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni badiiy-g‘oyaviy xususiyatlari bilan o‘zbek klassik adabiyotining shoh asarlaridan sanaladi. Insoniyat taraqqiyotida, jahon adabiyoti, san’ati va madaniyati rivojida alohida o‘ringa ega bo‘lgan, har bir kitobxon mutolaa qilishi zarur deb hisoblangan milliy va jahon adabiyoti durdonalarining o‘quv rejadan o‘rin olishi har jihatdan to‘g‘ri va shunday bo‘lishi ham kerak. Ammo, shu o‘rinda ta’lim standartlarida mavjud tanlanma figuralar o‘quv rejani yaratgan mualliflarning badiiy asarga individual munosabati, fikr qarashlari, qiziqishlari va ularni “bilishi kerak” nuqtayi nazaridagi miopik (shaxsiy) qarashlari asosida tavsiya qilingan. Ma’lumki 17 yoshli o‘quvchining ma’naviy ehtiyoji 30-40 yoshli kitobxonning ma’naviy ehtiyojidan keskin farq qiladi. O‘qituvchi “qiziq” deb bilgan badiiy asar uning o‘quvchisi uchun u darajada muhim ahamiyatga ega bo‘lmasligi mumkin. Shu nuqtayi nazardan uzluksiz ta’lim bosqichlari uchun o‘quv rejalar shakllantirilayotgan jarayonlarda muayyan usullar (masalan, so‘rovnomalar, individual tartibdagi suhbatlar) orqali o‘quvchilarning ma’naviy ehiyojlarini ham hisobga olish lozim bo‘ladi. Masalaga bunday yondashuv, birinchidan, badiiy asar va o‘quvchi ma’naviy ehtiyoji o‘rtasidagi mutanosiblikni vujudga keltiradi va bu adabiyot darslarini yanada qiziqarliroq va jonliroq bo‘lishini ta’minlaydi. Ikkinchidan, ta’lim bosqichlarida badiiy asar mutolaasiga erkin yondashuv shakllanadi.

Adabiyot darslarida “nima uchun bu asarni o‘qishimiz kerak” yoki “falon asar o‘rniga falon asarni o‘rgansak bo‘lmaydimi?” degan savollarni ko‘p eshitamiz. O‘qituvchining mazkur savolga javobi o‘quvchining notanish badiiy asarga mehr muhabbatini uyg‘otishga bo‘lgan dastlabki qadam hisoblanadi. O‘qituvchining savolga munosabati talabalarni adabiyotga yaqinlashtirish va ularni badiiy asarga bog‘lashga, qiziqishini orttirishga rag‘bat berishi kerak. Zotan adabiyot o‘qituvchisi boshqa fan o‘qituvchilariga nisbatan maxsus intizom va tartibga, muayyan kognitiv maqsadlarga ega bo‘ladi. Uning eng muhim, fundamental maqsadlaridan biri mudom ma’naviy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishda bo‘lishdan iboratdir. Bugungi kunda ta’lim standartlari rivojlangan Buyuk Britaniya, Germaniya, Amerika kabi mamlakatlarning ilg‘or tajribalarini,

sinovdan o‘tgan yondashuvlarini milliy ta’limga olib kirish o‘qitish va o‘rganish sifatini o‘sishida, adabiyot darslarining samaradorligini oshirishda va sohani jahon standartlariga mos rivojlanishida muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi, deb o‘ylaymiz. Jumladan, Britaniya ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni ijodkorlik, faollik, fikrlash, mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan turli xil zamonaviy metodlardan foydalaniladi. Mana shunday rivojlangan metodlardan biri ‘‘Blum taksonomiyasi’’dir. 1950-yilda Benjamin Blum tomonidan ishlab chiqilgan mazkur modelning eng muhim jihati turli ehtiyoj va qobiliyat, dunyoqarash, tafakkur egalari bo‘lgan o‘quvchilarni dars jarayonlarida bir xil tarkibda va bir xil faollikda ishtirok etishlarini ta’minlaydi hamda asosiy e’tibor badiiy asarni o‘rganish strategiyalariga qaratiladi.

Blum taksonomiyasi xususida o‘zbek metodist olimlari ayrim ma’lumotlarni keltirib o‘tganlar. Pedagogika yo‘nalishidagi tadqiqotlarda esa blum taksonomiyasi, Gardner nazariyasi zamonaviy pedagogik texnologiyalar sifatida tilga olinadi.[3] Xulosa qilib aytganda, adabiyot o‘qitish metodikasining ko‘p yillik tarixi muayyan taraqqiyot bosqichlariga ega bo‘lsada hali hanuz milliy adabiy ta’limning jahon standartlari talabiga javob bera oladigan nazariy asoslari yaratilmagan. Yaratilgan tadqiqotlarning nazariy jihatdan puchligi, mavzu mundarijalari konseptual masalalar, ta’limdagi global muammolar qamrab olinmagani, tahlil jarayonlarida xorijiy manbalarning birlamchi nusxalari bilan tanishish imkoniga ega bo‘lmaslik, ayrim hollardagi plagyatizm va eng muhimi tadqiqotlarning amaliyotga tadbiqi faqat qog‘ozlardagina qayd etilib, ta’lim muassalarida izchil joriy etilmayotganligi va yana bir qancha bizga ma’lum bo‘lmagan sabablar o‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasini qashshoq holda qolishiga sabab bo‘lmoqda. Adabiy ta’limdagi plyuralistik tafakkur, fikrlar erkinligi asosida jahon adabiy ta’limidagi eng muhim va rivojlangan nazariyalari bilan milliy adabiy ta’lim imkoniyatlarini yanada kengaytirish, o‘qitish bilan birga o‘rganishning samarali usullarini yaratish, an’anaviylikdan zamonaviylik sari qadam qo‘yish orqali adabiy ta’lim taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqish bugunning dolzarb vazifalari qatoriga kiradi. Ulg‘ayotgan yangi avlod o‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasiga yangi nafas, olib kirishiga umid bildiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.Chambers, M.Gregory Teaching and Learning English literature.Sage Publications.London, 2006, P.11.

2. Pedagog olim J.G. Yo‘ldoshev va S.A. Usmonov hammuallifligida yaratilgan “Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish” nomli tadqiqotida Blum taksonomiyasi.

[3] Pedagog olim J.G. Yo‘ldoshev va S.A. Usmonov hammuallifligida yaratilgan “Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish” nomli tadqiqotida Blum taksonomiyasi, Gardner nazariyasi va boshqa zamonaviy o‘qitish texnologiyalari haqida ma’lumot berilgan. Ammo tadqiqotda tavsiya etilgan nazariy tushunchalar faqat oq qog‘ozlardagina qolib ketib, ular ta’lim tizimiga, xususan, adabiyot o‘qitish jarayonlariga tadbiq etilmagan, ayrim nazariy tushunchalar haqida esa juda qisqa ma’lumot berish bilan cheklanib, mazkur tushunchalar badiiy matn bilan bog‘liq aniq misollar bilan rivojlantirilmagan. Bu haqda qarang: J.G‘.Yo‘ldoshev.

Gulrux ELMURADOVA,
O‘zDJTU huzuridagi Chet tillarni o‘qitishning innovatsiyaviy metodikalarini rivojlantirish Respublika ilmiy-amaliy markazi katta ilmiy xodimi

TIL SATHIDAGI PARADIGMATIKA VA SINTAGMATIKA TUSHUNCHALARI XUSUSIDA BA’ZI MULOHAZALAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada tilshunoslikdagi paradigma termini tadqiqi hamda til birliklari o‘rtasidagi paradigmatik va sintagmatik munosabatlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Paradigmatika, sintagmatika, assotsiatsiya, paradigma, fonema, morfema, makroparadigma, mikroparadigma, til birliklari, til sathi, semantik, formal, funksional.

В этой статье исследуются термин парадигма в лингвистике и парадигматические и синтагматические отношения между языковыми единицами.

Ключевые слова. Парадигматика, синтагматика, ассоциация, парадигма, фонема, морфема, макропарадигма, микропарадигма, единицы языка, уровень языка, семантик, формал, функционал.

This article explores the term paradigm in linguistics and paradigmatic and syntagmatic relationships between language units.

Key words. Paradigmatics, syntagmatics, association, paradigm, phoneme, morpheme, macroparadigm, microparadigm, units of language, level of language, semantics, formal, functional.

Zamonaviy tilshunoslik tadqiqotlari F.de Sossyurning “til va nutq” dixotomiyasiga asoslangan holda o‘tkazib kelinmoqda. Til va nutqni bir biridan ajratish forma va substansiya o‘rtasidagi tafovutga ham sabab bo‘ldi. F. de Sossyur yozadi: “til substansiya emas, balki formadir”.

A.P.Yevdoshenko shunday deydi: “Tilda bir tomondan matn boshqa tomondan esa sistema namoyon bo‘ladi. Matn sintagmatik analiz qilinsa, sistema paradigmatik tarzda tahlil etiladi”.

Ferdenand de Sossyur tomonidan til elementlari o‘rtasida namoyon bo‘ladigan ikki asosiy munosabat ta’kidlanadi. Bular paradigmatika va sintagmatika bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan munosabatlardir.

Elementlarning to‘g‘ri chiziq bo‘ylab ketma-ket joylashuvini Sossyur sintagmatik munosabatga, til birliklari o‘rtasidagi turli munosabatni esa assotsiativ munosabatga qiyos etadi. “Paradigmatik munosabat tilda mavjud xarakter-xususiyatlar bilan bog‘lansa, sintagmatik munosabat esa nutq xususiyatlari bilan aloqador”, – deydi V.M. Solnsev.[1]

“Paradigmatik munosabat o‘zaro bog‘lanish xususiyatini o‘zida aks ettirmaydi, balki turli guruhga mansub til elementlari o‘rtasidagi “assotsiatsiya yordamida anglashiladigan” munosabatdir. V.M. Solnsev fikricha, paradigmatik munosabatni bir sinfni tashkil qiluvchi elementlar o‘rtasidagi ichki munosabat deb ham nomlash mumkin.

[1] В.М. Солнцев Язык как системно-структурное образование. – М., 1977,– С. 68, 75, 80.

Paradigmatik munosabatni yoritishda “paradigma” terminiga e’tibor qaratsak. Ingliz tilining izohli lug‘atlarida “paradigma”ga shunday ta’rif beriladi: *“paradigm – example or patter especially an inflected forms of noun or verb”,* ya’ni paradigma asosan ot yoki fe’l o‘zgarish sistemasi, misol yoki namuna ma’nolarida qo‘llaniladi.

Albatta, bunday izoh tor doirali bo‘lib, paradigma terminining izohlanishini cheklab qo‘ymoqda. Paradigma termini turli tilshunoslik manbalarida o‘z ta’rifini olgan. V.M. Solnsev fikricha, paradigma til birliklarining nutqdagi o‘rni tushunchasi bilan aloqador.

M.V. Panovning “Русская фонетика” kitobida paradigma terminiga ikki xil izoh bilan yondashilgan: “Paradigma – bu til birliklari qatori, til birliklarining bir-biridan farqli o‘rni yoki holati yordamida aniqlanadi”, “Ba’zan paradigma termini quyidagi ma’noda qo‘llaniladi. Bir o‘rinda uchraydigan til birliklari paradigma deb ataladi”.[2]

V.M. Panov yondashuviga quyidagi misolni keltirishimiz mumkin. Masalan, o‘zbek tilida: nam, nom so‘zlarini olamiz. Ushbu so‘zlar tarkibidagi a – o fonemalari paradigmatikaga mansub. Ingliz tilida ham xuddi shunga o‘xshash misollar bilan tahlilni olib borish mumkin. Masalan: cat, car, care, cake so‘zlarini o‘zbek tilidan farq qilgan holda ingliz tilida har bir fonemaning o‘ziga xos turli ko‘rinishdagi talaffuz qoidalari bor. Yuqoridagi so‘zlarimizdan “**s**” undosh tovushdan so‘ng qo‘llanilgan birgina “a” fonemasi to‘rt xil tovushni ifodalamoqda. Cat – [k**æ**t], car – [k**ɑ**:], care – [k**ɛə**], cake – [k**ei**k].

Demak, bu muayyan tildagi tovushlarning turli paradigmatik qatorda uchrashi mumkin bo‘lgan turli xil fonemalar mavjud bo‘lishini ko‘rsatadi.

Misolda o‘zbek tilidagi so‘zlarda a, o unli paradigmalar qatori ko‘rsatilsa, ingliz tilidagi misollarimizda birgina a fonemasining har xil tovushlarni ifoda etishi kuzatiladi. Ushbu misolda a^1 a^2 a^3 a^4 shaklida kichik paradigmatik qator tuzilishi mumkin. Bunday kichik paradigmalar ingliz tilidagi har bir unli tovushning variantlari o‘rtasida uchraydi.

Bu paradigma unlilar orasida mikroparadigmatik qatorni tashkil etsa, ularning makroparadigmalari umumiy unlilarni qamrab oladi. Paradigma tildagi eng kichik birlik bo‘lmish fonemalar sathidan boshlab, tilning katta birliklari sathlarida ham o‘z aksini topadi.

Ingliz tilida kichik paradigmalardan tashkil topgan katta unlilar paradigmasi V (Vowel – unli tovush) belgisi bilan berilsa, undoshlarning umumiy makroparadigmasi S (consonant – undosh tovush) belgisi yordamida izohlanishi mumkin.

Biz yuqorida keltirgan cat, car, so‘zlari SVS (ya’ni consonant undosh) + Vowel (unli) + Consonant shaklida tuzilgan so‘zlar paradigmasiga mansub bo‘lsa, care va cake so‘zlari esa SVSV shaklidagi (consonant + Vowel + consonant + Vowel) asosida tashkil topgan so‘zlardir.

Paradigma izohi va paradigmatik munosabatni yuqorida fonemalar misolida ko‘rib chiqqan bo‘lsak, navbatda uni so‘z sathida qay tarzda namoyon bo‘lishini quyidagi gaplar misolida ko‘ramiz:

1. Men kitob o‘qidim – I read a book.
1. Sen jurnal xarid qilding – You bought a magazine.
1. U maqola yozdi – He wrote an article.

Yuqoridagi gaplar sintaktik tuzilish jihatidan bir-biriga o‘xshash. Ularning tarkibidagi belgisiz qo‘llanilgan vositasiz to‘ldiruvchi (ingliz tilida Direct Object) bir xil qo‘llanilgan. Albatta, gaplardagi berilgan vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida kelgan ot so‘z turkumidagi so‘zlar otlar paradigmasiga mansub. Ular turli tilda turlicha grammatik vositalar bilan ifodalanishi mumkin.

[2] М.В. Панов Русская фонетика. – М., 1967, – С. 6.

O‘zbek tilida buni quyidagicha ifodalash mumkin:

Katta paradigma	Kitob	Kitobning Kitobni Kitobga Kitobda Kitobdan	Kichik paradigma
	Gazeta	Gazetaning Gazetani Gazetaga Gazetada Gazetadan	Kichik paradigma
	Maqola	Maqolaning Maqolani Maqolaga Maqolada Maqoladan	Kichik paradigma

Ammo, ingliz tilida yuqoridagi paradigma o‘zbek tilidagidan farq qiladi. Bizga ma’lumki, ingliz tilida ikkita kelishik bor. Bosh kelishik (Nominative case) va qaratqich kelishik (Genitive case). Shunga ko‘ra ingliz tilidagi book, magazine, article so‘zlarini quyidagi paradigmada ko‘rsatish mumkin.

Makro paradigma	book	Book Book’s	Micro paradigm
	magazine	Magazine Magazine’s	Micro paradigm
	article	Article Article’s	Micro paradigm

Til birliklari fonema, morfema hamda leksema singari abstrakt (mavhum) birliklarni qamrab oladi. Ana shunday mavhum birliklar faqatgina nutq jarayonida aktuallashadi.

V.M. Solnsev shunday yozadi: “Элементы языка образуют сверхпарадигмы, или максимально широкие парадигмы, парадигмы, подпарадигмы, малые парадигмы. Малые или низшие парадигмы входят в высшие парадигмы в качество элементов” V.M. Solnsev so‘zi bilan aytganda, tildagi elementlar umumlashgan holda umumiy katta paradigma sifatida shakllanadi. Kichik paradigmalar esa o‘z navbatida o‘zidan katta paradigma safida element tarzida o‘z o‘rnini egallaydi.[3]

Bizningcha ham, paradigmalarni katta va kichik guruh paradigmalariga ajratish katta ahamiyatga ega. Kichik paradigma – mikroparadigma, katta paradigma – makroparadigma nomlari bilan atash maqsadga muvofiq. Tildagi, har bir sath o‘zining makro va mikro paradigmatik qatorlarga ega. Fonematik sathda umumiy fonemalar makroparadigma deb atalish imkoniga ega bo‘lsa, uning tarkibida unlilar va undoshlarning alohida mikroparadigmatik qatorlari namoyon bo‘ladi. Unlilar makroparadigmasi o‘z navbatida, o‘ziga xos mikroparadigma (til oldi, til o‘rta, til orqa) kabilarga bo‘linsa, un-

[3] В.М. Солнцев Язык как системно-структурное образование. – М., 1977,С. 68, 75, 80.

doshlar jarangli va jarangsiz, portlovchi va sirg‘aluvchi singari paradigmatik guruhlarga ajraladi.

Tilshunos olimlarning ko‘pchiligi shuni ta’kidlaydiki, bir sathga xos til birliklari o‘rtasidagi asosiy ikki xil munosabat ya’ni paradigmatik va sintagmatik munosabatlar mavjud.

Paradigmatik munosabat o‘xshashlikka asoslangan munosabatdir. Bunda elementlar bir-biri bilan birikmaydi, ammo ular bir-birining o‘rnida kelish imkoniyatiga ega.

“Paradigmatik munosabat N. Krushevskiy va F. de Sossyur tushunchasi bilan aytganda, o‘xshashlik asosida tashkil topgan elementlar munosabatidir. Ularning nazaricha, bunday o‘xshashlik ikki shartga asoslanishi mumkin:

1) semantik va grammatik ma’no;

2) tovush, morfologik va sintaktik formalar, yani lingvistik birliklarning istalgan ichki yoki tashqi belgilarining o‘xshashlik xususiyatlaridir. Tilshunoslikka oid manbalarda grammatik, leksik, so‘z yasalishi, fonemalar paradigmasi xususida so‘z yuritilganligining guvohi bo‘lamiz.

Jumladan, L.L. Lofikning “Структурный синтаксис английского языка” kitobida bir necha paradigmatik qatorlar haqida gapirib o‘tiladi. Masalan, *ученик* so‘zining paradigmalari sifatida *ученика, ученику, учеником, об ученике* so‘zlari beriladi.

Yuqorida fonemalar paradigmasi bilan qisqacha tanishgan edik. Endi esa, morfologik paradigmaga diqqatimizni qaratsak. Morfologik paradigma – bir leksema formalarining umumiy yig‘indisidir. Masalan **play** fe’lining paradigmasi quyidagi so‘zlarda namoyon bo‘ladi: *played, plays, will play, is playing, was playing, will be playing, has played, had played, will have played, has been playing, had been playing, will have been playing*. **Boy** ot so‘z turkumidagi so‘zning paradigmasi: *boy-boys, boy’s-boys’* kabilarda namoyon bo‘ladi.

Bir o‘zakdan yasalgan so‘zlar oilasi so‘z yasalish paradigmasini hosil qiladi:

Masalan:

Love (ot – noun)	**love (fe’l – V)**
Lovely (sifat - A)	loving
Loveliness (ot - N)	lovable
Loveless (sifat - A)	loved
	Beloved
	Lover

Lingvistik birliklarning semantikasiga muvofiq leksik paradigmalarni misol keltirish mumkin.

S.D.Katsnelson fikricha, rus tilidagi *трусить, бояться, страшиться, пугаться, трепетать, ужасаться, испытывать робость* so‘zlari yaxlit sistemali o‘ziga xos paradigmatik qatorni hosil qiladi.

Paradigmatik munosabatning tadqiq jarayonida ko‘rilayotgan birliklar va ular o‘rtasidagi o‘xshashlik hamda farq inobatga olinishi lozim. Paradigmatik qatordagi elementlar til strukturasida yashaydi.

Paradigmatik munosabat leksik birliklar, aniqrog‘i so‘zlar qurshovida kelganda, sintaktik qurilmalar, ya’ni gap strukturalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bir nechta gaplarda bir xil so‘zni birdaniga o‘zgarishsiz holatda qo‘llashning imkoni yo‘q. Birinchidan, bu so‘z tuzilishi, ikkinchidan esa so‘z semantikasi bilan aloqador. Misol uchun:

1. Bu she’r emotsional bo‘yoqdor so‘zlar bilan boyitilgan ekan.

2. Mazkur she’rning birinchi satriga diqqat qiling!

3. Ushbu she’rda milliy qadriyatlarimizdan asar ham yo‘q.

4. She’rni yod oling!

Bundan ko‘rinib turibdiki, yuqoridagi gaplarda qo‘llanilgan *she’r* so‘zi har bir strukturada turlicha qo‘llanilgan hamda turli sintaktik vazifalarni ifoda etadi. Bundan tashqari, yuqorida qayd etib o‘tilgan so‘z semantikasi masalasiga ham oydinlik kiritsak. Ba’zan bitta so‘zni turli semantikalarda qo‘llash mumkin. Masalan:

1. Shu tobda piyoladagi qaynoq choy ko‘zimga o‘tdek ko‘rindi.

2. Jahl ustida Anvar piyolani do‘stiga qarata otdi.

3. Oqilaning onasi piyola ichidagi bir shoda marjonni unga ko‘rsatar ekan, ko‘ziga yosh olib, taqinchoq bilan bog‘liq voqeani esladi.

Shuni aytish joizki, leksik sathda namoyon bo‘luvchi paradigmatik munosabatlar tildagi leksemalarni qanchalik sermazmun ekanini isbotlashda katta omil bo‘lib xizmat qiladi. Yuqoridagi gaplarda keltirilgan piyola turli semantikalarni ifoda etgan, jumladan idish, qurol, quti ma’nosini beruvchi sxemalari.

Shu o‘rinda sintaktik paradigma xususida ham ba’zi mulohazalarni bildirib o‘tishni joiz topdik. Sintaktik paradigma sinparadigma atamasi bilan qisqartirilgan. Bu termin ham olimlarni murakkab holatga solib qo‘ydi.

Zamonaviy tilshunoslikda sinparadigmaga muayyan bir ta’rif berilmagan.

L.L. Lofik fikricha, sinparadigma birliklarini aniqlash mushkul. Ammo bunga sintaktik tomondan yondashilsa sinparadigma birligi sifatida gap va so‘z birikmasini tan olish lozim bo‘ladi.

Ba’zi lingvistlar fikriga ko‘ra, so‘z birikmalari paradigmasi sintaktik emas, balki morfologik paradigma mavqeiga ega. Masalan, so‘z birikmalari: *quvnoq bola, quvnoq bolaning, quvnoq bolaga* yoki *these book, these books* kabilar sintaktik paradigma hisoblanmaydi.

Bunday tadqiq etish e’tiborliroq yondashishni talab etadi. L.L. Lofik fikriga ko‘ra, so‘zlar bog‘lanmasi va so‘z birikmalari ajratilgan holdagi paradigma tarzida emas, balki gapning komponentlari paradigmasida tadqiq etilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Sintaksis bilan shug‘ullanuvchi tilshunoslar qarashlariga binoan, gap sintaktik paradigmaning birligi hisoblanadi.

Dastlab bu xususda keltirilgan fikrlarni “Грамматика современного русского литературного языка” asari orqali ko‘rib chiqish mumkin. Asarning “Sodda gaplarning paradigmatikasi” bo‘limida N.Y. Shvedova mulohazalari o‘ziga xos o‘rinni egallagan. Uning ta’kidlashicha, bir struktura asosda qurilgan gapning ifoda planida turli modal va zamon ma’nolarining o‘zgartirilishi (o‘zgarishi) **paradigmatik o‘zgarish** deb qaralishi lozim. Fikr isboti uchun N.Yu .Shvedova quyidagi misolni keltirib o‘tadi:

Сын учится
Сын учился — Uch xil zamon ko‘rinishi
Сын будет учиться

Darak formadagi bu uchta gap aslida bir xil strukturaviy va semantik asosda qurilgan. Faqat birgina farq ularda ishtirok etgan predikat zamonlarining o‘zgarishidadir.

Lingvistik adabiyotlarda bunday tushuncha sintaktik paradigma deb ataladi.

Bunday yondashish quyidagi xulosa bilan yakun topadi:

1. Gaplar paradigmasi fe’llarning morfologik paradigmasiga borib taqaladi.

2. Gap paradigmasi uchun fe’llar paradigmasi eng muhim o‘rinni egallar ekan, bunda zamon, mayl kabi fe’lga xos xususiyatlar ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Flektiv paradigmadagi gaplar bir-biriga o‘xshash. D. Uort fikricha, bunday gaplar so‘z o‘zgarishi bilan namoyon bo‘lsa, derivatsion esa – so‘z yasovchilardir.

D.Uort fikriga taqlidan L.L. Lofik shunday misol keltiradi:

I. Flektiv paradigma

1) bir safli: *собака лает, собаки лают*

2) safsiz: *он профессор, он был профессором*

II. Derivatsion paradigma.

Студенты читают книги ⟶ *Книги читаются студентами*

Bundan shunday xulosa chiqadiki, demak paradigma sintaktik xususiyatli ham bo‘lishi mumkin. Sintaktik paradigma gaplarga tegishli qatorni hosil qiladi hamda bunda sintaktik aloqaga kirishgan, o‘zaro bog‘langan elementlardan tashkil topgan gaplar ham paradigmatik qatorga ega bo‘ladi. Fe’llar esa bunday paradigmatik qator uchun muhim vosita hisoblanadi.

Sinparadigma ingliz tilida o‘zgacha ko‘rinishlarga ega. Ular ichki modelli hamda modellararo sinparadigmaga ajratilishi mumkin.

Ichki modelli paradigma – bir model variantlari umumlashmasi: barcha o‘zgarishlar u yoki bu modelda, unga putur yetkazmagan holda sodir bo‘ladi. Ichki modelli paradigma o‘z navbatida, shakl o‘zgartiruvchi va transformatsion turlarga bo‘linadi.

Ichki modelli shakl o‘zgartiruvchi sinparadigma – bu bir model variantlari jamlanmasi bo‘lib, bunda gapdagi komponentlar gapni shakllantirish pozitsiyasiga ko‘ra o‘xshash bo‘ladi.

Shakl o‘zgartiruvchi sinparadigmalar ingliz tilida quyidagicha tasniflanishi mumkin:

1) Son kategoriyasiga ko‘ra o‘zgaruvi (o‘zgarish).

The bird sings

The birds sing

2) Shaxs kategoriyasiga muvofiq o‘zgarish.

I write	*we write*
He writes	*you write*
She writes	*they write*
It writes	

3) Zamon kategoriyasiga ko‘ra o‘zgarish.

He writes	*he is writing*
He wrote	*he was writing*
He will write	*he will be writing*
He has written	*he has been writing*
He had written	*he had been writing*
He will have written	*he will have been writing*

Ingliz tilida fe’llar hozirgi zamonda 2 xil shaxs va son kategoriyasiga ega: 1) umumiy; 2) 3-shaxs birlik formasi.

O‘zbek tilidan farqli o‘laroq ingliz tilida fe’llarning ko‘plik formasidagi hurmat ma’nosi (ya’ni masalan dadam keldilar) yo‘q. Ingliz tilida ko‘plik formasi ham xuddi boshqa shaxslarniki (bundan 3-shaxs birlik mustasno) singari qabul qilingan.

3-shaxs birlikda mustaqil fe’llar hozirgi zamonda **-s (-es)** qo‘shimchasi orqali yasaladi.

Masalan:

He (U – o‘g‘il bola) – goes

She (U – qiz bola) – goes

It (U – jonsiz predmet) – goes

N.V. Frensis fikricha, ingliz tili gaplari strukturasidagi va 3-shaxs birlik kesimning moslashuvi eganing quyidagicha holatda kelganida namoyon bo‘ladi.

1) Birlik sondagi ot bilan ifodalansa;

2) Kishilik olmoshlari *he, she, it* yordamida;

3) Ko‘rsatish olmoshlari *this, that*.

4) Yuqorida keltirilganlar o‘rnida qo‘llanilgan so‘z birikmasi

5) Gerundiy yoki infinitiv orqali;

Eating candy causes tooth decay;

6) *either or neither nor yoki nor, not only but also* kabi birikmalar;

Either his mistakes or his bad luck keeps him poor.

7) Umumiy jamoani ifoda etgan jamlovchi otlar yordamida: *Our government is a people’s government.*

D. Uort ta’biricha, forma-o‘zgartiruvchi sinparadigma morfologik paradigmaning bir qismi, u muayyan sintaktik doirada (muhitda) yuzaga keladi.

Gap paradigmasi o‘zining barcha ishtirokchilari yoki bir necha ishtirokchilar yordamida namoyon bo‘ladi.

Bunday paradigmalar tarkibi quyidagicha:

1) gap modelidagi komponentlar soni;

2) ular ifodasidagi morfologik uslub;

3) gap komponentlari bo‘lgan so‘zlar semantikasi.

Shuni ta’kidlash joizki, tilda paradigma tushunchasi tilshunoslar tomonidan ko‘plab ta’riflar orqali izohlangan va hozirgi kunga qadar ham bu borada munozaralar davom etmoqda. Paradigma tushunchasi umumiy holatda aniq tavsiflarga ega bo‘lsada, biroq muayyan til birligining paradigmalarini tadqiq etish har bir tilshunosdan aniq, hamda izoh talab etmaydigan ta’rif va tushunchalar, shuningdek, fikr isboti uchun misollarni talab etadi. Zero, paradigmatika til birliklarining nutqda namoyon bo‘lgunga qadar yuzaga keladigan bog‘lanishdir hamda til unsurlarining o‘zaro assotsiativ munosabatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. W.N. Francis The structure of American English.– NY.,1958. – R. 331.

2. D.S. Worth The role of transformations in the definition of syntagmas in Russian and other Slavic Languages.

3. International Congress of Slavists. The Hague, 1963.

4. Irisqulov M., Tuxtasinov I., Qo‘ldoshev A. Theoretical English grammar. The second Revised Edition. –T., 2019.-P. 19-21.

5. Е.В. Бажановская, О.Е. Юнина. Основы теоретической грамматики английского языка. – Луганск: Элтон-2, 2013. – С. 88.

Dilrabo MALIKOVA,
Farg‘ona soliq kolleji o‘qituvchisi

YOSHLAR MA’NAVIYATINI RIVOJLANTIRISHDA XALQ OG‘ZAKI IJODIYOTINING TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada xalq og‘zaki ijodining barcha janrlarida xalqning tarbiyasiga muhim ta’sir ko‘rsatilishi va tarbiyaviy g‘oyalar, pedagogik ma’lumotlar va xalq pedagogikasining tarkibiy qismlari aytib o‘tilgan. Shuningdek, milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasining asosiy vazifalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Xalq og‘zaki ijodi, ma’naviyat, konsepsiya, folklorshunos, og‘zaki asar, yozma adabiyot.

В статье рассмотрены все жанры устного фольклора, оказывающие сушественное влияние на воспитание учеников, также изложены педагогические данные составляющие в народной педагогики и освящены основные цели концепции дальнейшего развития национальной культуры.

Ключевые слова. Фольклор, духовность, концепт, устная работа, письменная литература.

The article has an important impact on the education of the people in all genres of folklore and includes educational ideas, pedagogical information and components of folk pedagogy. It also outlines the main objectives of the concept of further development of national culture.

Key words. Folklore, spirituality, concept, folklore, oral work, written literature.

Ma’naviyat qadim zamonlardan inson dunyoqarashini, xatti-harakatini, jamiyatda tutgan o‘rnini, xalqqa, vatanga, atrofidagi odamlarga bo‘lgan munosabatini boshqaruvchi omil hisoblanadi. Ma’naviy qashshoq kimsa hayotda ro‘y berayotgan voqealarga loqayd bo‘ladi. Loqaydlik esa tuzatib bo‘lmas oqibatlarga olib keladi. Ma’naviy qashshoq odam uchun Vatan, xalq, oila kabi muqaddas tushunchalar yot. Shuning uchun keksa avlod, avvalo, farzandning ma’naviy dunyosini shakllantirish chorasini rejalashtirgan. Aslini olganda, xalq dostonlari, ertaklari, qo‘shiqlari, maqollari va boshqa o‘nlab janrdagi asarlar yosh avlodning ma’naviyatini boyitish, uni haqiqiy inson darajasiga yetishini ta’minlash maqsadini nazarda tutgan holda yaratilgan.

Bugungi kunda esa mustaqil o‘zbek xalqi madaniy hayotida qator yangiliklar ro‘y bermoqda. Jumladan, “O‘zbekiston xalq baxshisi” unvonining ta’sis etilishi, “Boysun bahori” bayramlarining o‘tkazilishi o‘zbek xalqi o‘tmishi bilan bugungi kunini bog‘lovchi o‘ziga xos ko‘prik bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xalq og‘zaki ijodiyotining doston janri o‘zining sodda va qiziqarliligi bilan bolalarni sehrli olamga olib kirib, ularning ma’naviy dunyosini boyitishga xizmat qilishi tabiiydir.

Ayniqsa, ularning mazmunida ifodalangan insonparvarlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, adolatparvarlik kabi xislatlar xalqimizning orzu-umidlari bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda asosiy manba bo'lib kelgan.

Insoniyat qadimdan hayotdagi sinalgan pedagogik qarashlarni avloddan avlodga o'tkazib kelgan. Ular turmush, ijtimoiy mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lib asta-sekin an'anaviy tus olgan, keyingi avlodlar uchun hayot sabog'i vazifasini o'tay boshlagan. Chunki xalq og'zaki ijodiyoti turkumiga kiruvchi barcha janrlar, dostonlar, ertaklar, maqollar, qo'shiqlar, topishmoqlar va boshqalar donishmandlik manbai hisoblanadi. Zero, xalqning tarixiy tajribasi, turmush saboqlari natijasida ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlar, qarashlar tarkib topgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida qator vazifalar belgilab berilgan. Unga ko'ra mamlakatimizda xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirish, madaniyat va san'at muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, soha vakillarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Konsepsiyaning asosiy vazifalari quyidagilar:

– madaniyat sohasiga oid normativ-huquqiy bazani, ushbu sohadagi institutsional tizimni va madaniyat muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish;

– tarixiy va madaniy merosimizni saqlash hamda uni yosh avlod tarbiyasida keng qo'llash;

– milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlarimiz ongiga singdirish, etnik madaniy an'analarni asrab-avaylash va shu asosda xalq ijodiyotini qo'llab-quvvatlash;

– aholi, jumladan, yoshlarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish va kengaytirish;

– madaniyat sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, madaniyatni yanada keng tadqiq va targ'ib etishda innovatsion g'oyalar va texnologiyalardan samarali foydalanish;

– fuqarolarning, jumladan, mehnat layoqatiga ega bo'lmagan shaxslarning madaniy hayotda faol ishtirok etishi va madaniy xizmatlardan foydalanishda ijtimoiy tengligini ta'minlash;

– madaniy sohada o'zaro samarali xalqaro munosabatlarni tashkil etish va rivojlantirish, milliy madaniyatga jahon madaniyatining ajralmas qismi sifatida qarash, bu borada teng huquqlilik va inson huquqlarini hurmat qilishga alohida e'tibor qaratish;

– qabul qilinayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniyat sohasiga oid qarorlarning ushbu sohadagi yagona davlat siyosatiga mosligini ta'minlash;

– madaniyat va san'at muassasalarining to'laqonli faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, ularning moddiy resurs bazasini yanada mustahkamlash, obyektlarni saqlash hamda muhofaza qilishda jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish nazarda tutilgan shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilishi ta'kidlanadi.

Ayni paytda milliy madaniyatni yanada rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan bir qator kamchiliklar mavjud. Jumladan:

– madaniyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, madaniyat va san'at muassasalari, ijodiy uyushma va birlashmalarning huquqiy maqomi, ijodkorlarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan yagona huquqiy baza yaratilmagan;

– yosh ijodkorlarga ta'lim-tarbiya berish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish borasida puxta tizim yaratilmagani madaniyat sohasida yagona davlat siyosatini samarali olib borish, aholining o'sib borayotgan madaniy eh-

tiyojlarini qondirish va madaniy xizmatlar sifatini keskin oshirish imkonini bermayapti;

– aksariyat madaniyat va san’at muassasalarining moddiy-texnik bazasi zamon talablari va xalqaro standartlarga mos kelmaydi, bu esa ularning to‘laqonli faoliyat ko‘rsatishi uchun imkon bermayapti;

– zamonaviy media makonda milliy madaniyatimiz munosib o‘rin egallamagani, sohaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari to‘liq joriy etilmagani sohani keng tadqiq va targ‘ib etish, xalqaro madaniy jarayonlarga talab darajasida integratsiya qilishga yo‘l bermayapti;

– madaniyat va san’at sohasidagi nufuzli xalqaro festival va tanlovlarda ijodkorlarimizning ishtirokini izchil ta’minlash va ularning sara asarlarini namoyish etish, milliy ijodiy mahsulotlarni eksport qilishning samarali tizimi yaratilmagani, xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik yetarlicha yo‘lga qo‘yilmagani ham soha rivojiga to‘sqinlik qilmoqda.

Xalqimiz og‘zaki ijodining davlat maqomida e’zozlanishini O‘zbekistonning mustaqillikka erishishining ijobiy natijasi sifatida baholash mumkin. Yurtimiz barkamol avlodini xalq og‘zaki ijodidan mukammal ma’lumotga ega bo‘lmagan holda tasavvur qilib bo‘lmaydi. O‘zbekning butun fazilati, falsafasi, donoligi, dunyoqarashi, oliy himmatliligi, turli hayotiy vaziyatlarga munosabati maqollarda aks etgan. Insondagi mehnatga muhabbat, ishq tuyg‘ulari qo‘shiqlarda eng go‘zal ichki kechinmalar sifatida ifodalangan. Ertaklarda xalqimizning eng oliy orzu-havaslari namoyon bo‘ladi. Ular bilan tanishgan yosh avlod o‘zbek uchun vatan, xalq, oila, mehnat, ilm, g‘urur naqadar muqaddas tushunchalar ekanini anglab yetadi.

O‘zining dastlabki yaratilish davridanoq xalq og‘zaki ijodi xalqning yozilmagan tarixiga aylandi. “Og‘zaki ijod”, “Xalq og‘zaki ijodi”, “Og‘zaki adabiyot”, “El adabiyoti” kabi nomlar bilan atalgan badiiy adabiyotning ilk namunalari ikkinchi tomondan turmush, hayot darsligi sifatida yosh avlodni tarbiyalashdek muhim vazifani bajarib keldi. Keyinchalik, yozuv madaniyati paydo bo‘lgach, o‘zida so‘z san’ati asarlarini yaratish iqtidorini his qilgan, xalq orasidan chiqqan odamlar bevosita xalq og‘zaki adabiyotiga suyangan holda individual – yakka shaxs ijodiga mansub dastlabki asarlarini yaratdilar.

Badiiy adabiyotning bu yo‘nalishi shakllanib rivojlangach, yozma adabiyot tushunchasi paydo bo‘ldi. Yaratilish usuliga ko‘ra farq qiluvchi og‘zaki va yozma adabiyot bir-birini inkor qilmadi, balki ijodiy hamkorlikni davom ettiraverdi. Ammo shu bilan birga har bir adabiyot o‘ziga xos xususiyatlarini ham yo‘qotmadi. Bu jihatdan xalq og‘zaki ijodi jahon folklorshunosligi fani tan olgan beshta xususiyatga ega. Ular:

1. An’anaviylik.
2. Og‘zakilik va badihago‘ylik.
3. Jamoalik va ommaviylik.
4. Variantlilik va versiyalilik.
5. Anonimlik (asarni yaratgan muallif ismining noma’lumligi).

Ayni paytda yillar davomida xalq og‘zaki ijodi asarlari bilan yaqindan munosabatda bo‘lish yana bir xususiyatning namoyon bo‘lishini tasdiqlamoqda.

Xalq og‘zaki ijodida jismoniy tarbiya g‘oyalari ham keng o‘rin olgan. Xalq azaldan yoshlarning sog‘lom, epchil va baquvvat bo‘lib o‘sishiga doimo e’tibor berib kelgan. Xalqda jismoniy barkamollik, vatan himoyasi va mardlik tushunchalari bilan chambarchas bog‘lanib kelgan. Navoiyning “Farxod va Shirin” dostonidagi Farxod obrazi so‘zimizga dalili bo‘la oladi.

Xalqning qahramonlik va mardlik haqidagi ideallari, sodiq do‘st, vafoli yor oqibatli jon-jigar to‘g‘risidagi orzu-umidlari dostonning asosiy ijobiy qahramonlari Alpomish, Barchinoy, Qorajon, Qaldirg‘och, Qultoy va Yodgorlar timsolida tasvirlanadi.

Biz bilamizki ota-bobolarimizning aytmoqchi bo‘lgan pand-nasihatlari, el e’zozlagan odam bo‘lishning talab-qoidalari, To‘maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi ajoyib yurt farzandlarining botirliklari, xalqimizning urf-odatlari, milliy fazilatlarimiz san’at darajasiga ko‘tarilgan so‘z tizimlaridan iborat maqol, qo‘shiq, ertak, doston, bolalarga bag‘ishlangan asarlar va boshqa janrlardagi namunalarda ifodasini topadi. Shuning uchun ham xalq og‘zaki ijodini milliy qadriyatlar deb atash odat bo‘lgan. Xalq og‘zaki ijodi ilmda folklor deb yuritiladi. Bu atamani ingliz olimi Uilyam Toms taklif qilgan bo‘lib, uning ma’nosi “Xalq donoligi” degan tushunchadan iborat. Aslini olganda, folklor deganda, xalq tomonidan yaratilgan hamma san’at namunalari tushuniladi.

Har bir san’at sohasida ish olib borayotgan mutaxassis o‘zi tanlagan turni “folklor” deb ataladi. Masalan, musiqachi xalq kuylarini, xoreograf xalq raqslarini, arxitektor xalq me’morchiligini, folklorshunos olim xalq dostonlari, ertaklarini folklor asari deb hisoblaydi. Biz so‘z san’ati sirlarini o‘rganuvchi sohada ish yuritganimiz uchun maqol, topishmoq, lof, askiya, latifa, qo‘shiq, ertak, dostonlarni folklor namunasi sifatida yozib olamiz, tahlil qilamiz. “Folklor” atamasini talaffuz qilganimizda xalq og‘zaki ijodini tushunamiz. Xalq og‘zaki ijodini o‘rganuvchi olim folklorshunos hisoblanadi. Folklorshunoslik hozirgi paytda adabiyotshunoslikning tarkibiy qismidir. Badiiy adabiyot xalq og‘zaki ijodidan boshlanadi. Binobarin, adabiyot tarixining birinchi qismini folklor tashkil etadi.

Xalq og‘zaki ijodining so‘z san’ati ekanligini tushunishdan avval san’atning o‘zi nimaligini bilish lozim. 5 jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da (3-jild. 442-b): “San’at” – ish, mehnat; mahorat; kasb-hunar deb ko‘rsatilgan. Agar izohdagi so‘zlarga e’tibor bersak, san’at deganda, mahorat bilan amalga oshirilgan mehnat tushuniladi.

Haqiqiy san’at asari bilan muomalada bo‘lganimizda esa ruhiyatimizda muayyan hissiy o‘zgarishlarni sezamiz. San’at asari odamda inson iqtidori, mahorati, aqli, zakovati, o‘ziga xos kashfiyoti bilan mazkur asarga nisbatan hayrat, qoyil qolish tuyg‘usini uyg‘otishi kerak. Aynan shu fazilati bilan san’at namunasi ruhiyatimizni boshqaradi. Xalq og‘zaki ijodi so‘z san’ati ekanini aytdik. Bu fikr og‘zaki ijodning san’at sifatini ta’minlaydigan asosiy omil so‘z ekanini tasdiqlaydi. Har bir san’at turining o‘z quroli bo‘lganidek, og‘zaki ijodning ham o‘z quroli bor. Bu qurol so‘z hisoblanadi.

Albatta, badiiy adabiyotning, xususan, og‘zaki ijodning so‘z san’ati sifatidagi fazilatlari yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan belgilar bilan chegaralanib qolmaydi. Masalan, og‘zaki asarlarda ham, yozma adabiyotda ham ijodkor majoziy fikr yuritish usulidan foydalanishi mumkin. Majoz so‘zi lug‘aviy jihatdan “o‘tish joyi” ma’nosini ifodalaydi. Lekin bu so‘zning boshqacha aytish, ko‘chma ma’no ifodalash ma’nosi ham bor. Badiiy adabiyotda majoz, asosan, vosita tushunchasida qo‘llanadi. Ya’ni biror fikrni bildirish uchun boshqacha yo‘l tanlanadi. Masalan, masallarda turli jonivorlar, narsa-predmetlar vositasida odamlar o‘rtasidagi munosabatlar yoritiladi. Xalq og‘zaki ijodidagi ko‘p janrlarda majoziy fikr yuritishdan keng foydalanilgan. Ayniqsa, maqollarda bu usul yetakchi hisoblanadi. “Sichqon sig‘mas iniga, g‘alvir bog‘lar dumiga”, “Otning yag‘iri toyga qolar”, “Tuyaga yantoq kerak bo‘lsa, bo‘ynini cho‘zar” kabi yuzlab maqollar mazmun-mohiyatan ko‘chma ma’no ifodalovchi hikmatlardan iboratdir. Shu bois badiiy asarlar bilan tanishganda, muallif bir fikrni ifodalash bilan qanday maqsadni nazarda tutganini tushunmasak, asarning asl bahosini bera olmaymiz.

“Xalq og‘zaki ijodi – so‘z san’ati” deganimizda, shuningdek, ertakchi, baxshi, qo‘shiqchi, askiyaboz, latifachi ijrochilarning tinglovchilarga bag‘ishlayotgan ma’naviy lazzatini ham unutmaslik lozim. Xalq qo‘shiqlarida aks etgan his-tuyg‘u, ichki kechinmalar; ertaklardagi g‘aroyib voqealar; dostonlardagi go‘zal tasvirlar, eng avvalo, tanlangan so‘zlardan iboratligi, ikkinchidan, ularning mahorat bilan ijro qilinishi asrlar davomida xalqimizga zavq bag‘ishlagan. Shuning uchun ham mazkur asarlar o‘zbek xalqi ma’naviy xazinasining bebaho qadriyatlari sifatida hamisha e’zozlangan.

Xalq og‘zaki ijodi, ajdodlarimizning bizga qoldirgan ma’naviy boyligi – pand, o‘gitlari, el-yurt qadrini e’zozlash, millatimiz g‘ururini himoya qilishdek oliy tuyg‘ular bilan bog‘lanadi. Haqiqatan ham, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, avvalo, milliy qadriyatlarga sadoqat mezoni bilan o‘lchanadi. Zero, o‘z qadrini bilmagan farzand o‘zganing qadriga yetmaydi. Xalqimiz og‘zaki ijodidagi asarlarda esa aynan ana shu g‘oya o‘z ifodasini topgan. Har bir ertak, doston, maqol, topishmoq, latifa ijro etilgani zahoti tinglovchilar orasidagi ma’lum iqtidorga ega shaxs tomonidan qayta hikoya qilinishi mumkin. Qayta hikoya qilayotgan ijrochi esa asarni og‘zaki eshitgani va og‘zaki ijro etayotgani uchun har bir so‘z, jumlani o‘zgarishsiz takrorlash lozimligidan o‘zini xoli hisoblaydi. Natijada, asarning mazmuni, g‘oyasi, qahramonlari tavsifi asosan saqlangani bilan yangi ijrochi o‘z asarida shaxsiy hayotiy kuzatishlarini, tajribalar xulosasini ifodalash imkoniga ega bo‘ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, xalq og‘zaki ijodining barcha janrlarida xalqning tarbiyasiga muhim ta’sir ko‘rsatadi. Ulardagi tarbiyaviy g‘oyalar, pedagogik ma’lumotlar va o‘z ifodasini topgan xalq tarbiya tajribasi xalq pedagogikasining tarkibiy qismlaridir.

Xalq og‘zaki ijodida xususan, dostonlarda insonning qadr-qimmati, go‘zal fazilatlari, xulq-odobi haqida so‘z yuritiladi. Ona yurt uchun kurashda ko‘rsatilgan qahramonlik ulug‘lanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.

2. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – T.: O‘qituvchi, 1990. 142-169 b.

Nodir IBRAGIMOV,
Termiz Davlat universiteti tayanch doktoranti

O'QUVCHILARNING MATEMATIK QOBILIYATLARINI MAXSUS MASALALAR YECHISH ORQALI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya

Maqolada yuqori sinf o'quvchilarining matematik qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beruvchi masalalar tuzish metodikasi yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirishda maxsus masalalarni tanlash va fazoviy tasavvur qilish qobiliyat turlari namoyon bo'lishi masalasi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar. Matematik qobiliyat, mantiq, xotira, umumlashtirish, fikrlash, fazoviy tasavvur.

В статье описывается методология решения проблем, которая позволяет ученикам развивать свои математические способности, рассмотрены выборы конкретных задач для развития математических способностей учащихся, а также типы пространственного воображения.

Ключевые слова. Математические способности, логика, память, обобщение, мышление, пространственное воображение.

The article describes a problem-solving methodology that allows students to develop their mathematical abilities. We also discussed the selection of specific tasks for the components in the development of students' mathematical abilities, as well as the types of spatial imagination.

Key words. Mathematical abilities, logic, memory, summarize, thinking, space imagination.

Ta'limda har doim matematikani o'qitish jarayonini samarali amalga oshirish va o'quvchilarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirish eng dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Shuning uchun ham talaba va o'quvchilarning qobiliyatlarini shu jumladan, matematik qobiliyatlarni rivojlantirishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar olib borilgan va turli usullar taklif qilingan. Aytish joizki aynan matematik qobiliyatlarni rivojlantirish usullari yoritilgan ilmiy izlanishlar nihoyatda kam. Bu boradagi izlanishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki taklif qilingan usullar ichida eng samaralisi matematik qobiliyatni aniqlovchi komponentlarni o'rganish va ularni rivojlantiruvchi masalalarni tuzish o'quv jarayonida qo'llashidir.

V.A. Krutetskiyning kitobida turli o'quvchilarning matematik qobiliyat komponentlari ilmiy jihatdan o'rganilib 9 ta turdagi matematik qobiliyat komponentlariga jamlangan. Jumladan, bu kitobda o'quvchilarning matematik qobiliyatlarini eksperimental o'rganish davomida matematik qobiliyat tuzilishini o'rganishga, ularning aqliy faoliyati xususiyatlarini tushunishga muvaffaq bo'ldi.

I.Y. Kaplunovich esa, o'zining ishlarida o'quvchilarning matematik qobiliyatlari komponentlarini namoyon qilish imkonini beruvchi masalalarni tadqiq qilgan. U masa-

lalar yechish jarayonida fazoviy fikrlash strukturasini rivojlantirish, matematik fikrlashning hukumron tuzilishini aniqlash usullarini o‘rgangan.

T.U. O‘tapov tadqiqotida 7-9-sinf o‘quvchilari uchun 12 ta turdagi matematik qobiliyat komponentlarini taklif etgan va ularni namoyon etuvchi test topshiriqlarini tuzgan.

Lekin yuqoridagi tadqiqotlarda taklif qilingan komponentlarni namoyon qiluvchi masala (test)lar tuzishda nimalarga e’tibor berilishi yetarli darajada bayon qilinmagan. Ularning ayrimlari intuitiv tarzda tanlangan deyish mumkin. Birinchi va beshinchi masala (test)lar o‘z nomi bilan matematik qobiliyatli o‘quvchilarni tanlab olishdagina ishlatilishi mumkin. Tanlab olingan o‘quvchilar matematik qobiliyatlarini tizimli rivojlantirishga mo‘ljallangan masalalar to‘plamlari bugungi kunda mavjud emas. Demak ularni tuzish usullari ham ishlab chiqilmagan.

Aniqlab olingan matematik qobiliyat komponentlaridan masala yechimiga olib keladigan jarayonlar ketma-ketligi zanjirini mantiqiy qura olish qobiliyati, umumlashtira bilish qobiliyati va fazoviy tasavvur qilish qobiliyatlarini o‘quv jarayonida rivojlantirish imkonini beruvchi 8-9-sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan manbalardan masalalar tuzish usullariga to‘xtalamiz.

I. Masala yechimiga olib keladigan jarayonlar ketma-ketligi zanjirini mantiqiy qura olish qobiliyati. Jarayonlar ketma-ketligi zanjirini mantiqiy qura olish – bu tushunchani tur va shakl orqali aniqlay olish, obyektlarni berilgan xususiyatlariga ko‘ra guruhlashni bilish, deduktiv mulohaza yurita olish, misollar yordamida umumiy fikr, o‘ylangan farazlarni ifodalay olish va savollar quya bilish, algoritm bo‘yicha ish olib borish, geometrik chizmalardagi qonuniyatlarni seza bilish, mustaqil fikrlash, isbotlay olish, ketma-ketlik zanjirining biri ikkinchisidan kelib chiqishini tushunish kabilardir. Ushbu jarayonda idrok xotira va tasavvur faollashadi, natijada matematik obyekt to‘g‘risida xulosa chiqarish imkoni tug‘uladi.

Masala yechimiga olib keladigan jarayonlar ketma-ketligi zanjirini mantiqiy qura olish qobiliyatini rivojlantirish uchun mantiqiy ko‘rinishdagi masalalar, ayniyatni va quyidagi isbotlash ko‘rinishdagi masalalarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

1-masala. Berilgan kasrning maxrajidan k ni ayiramiz. Endi suratdan qanday sonni ayirsak, hosil bo‘lgan kasr berilgan kasrga teng bo‘ladi?

Yechish. Ushbu masala o‘quvchini ketma-ketlik zanjirini mantiqan qura olishga undaydi. Chunki o‘quvchi, kasr maxrajidan ayrilgan sonni topish uchun kasr suratidan qanday sonni ayrishi to‘g‘risida o‘ziga savol qo‘yadi. U bunday farazni ifodalay olgandan so‘ng, tenglama tuzishga kirishadi. Masalani yechishda berilgan kasrni $\frac{A}{B}$ ko‘rinishda yozib, talab etilgan shartlardan foydalanib quyidagicha tenglama tuzadi $\frac{A}{B}=\frac{A-x}{B-k}$. Bundan noma’lum $x=\frac{kA}{B}$ sonini ko‘rinishda aniqlaydi. Shunda o‘quvchi topilgan noma’lumni tekshirib ko‘rish maqsadida berilgan kasrni misol uchun $\frac{7}{8}$ ga teng deb, deduktiv mulohaza yurita olishi orqali quyidagicha bayon etadi. Kasr maxrajidan $k=2$ ni ayirsa. U holda, bu kasr berilgan kasrga teng bo‘lishi uchun uning suratidan $x=\frac{2\cdot 7}{8}=\frac{7}{4}$

ni ayirish kerakligini o‘zida xulosa qiladi. Bu esa o‘quvchining masala yechimiga olib keladigan jarayonlar ketma-ketligi zanjirini mantiqiy qura olish qobiliyatini rivojlantiradi.

2-masala. a ning qanday qiymatida $ax^2 + x - 2 = 0$ ildizlarining ayirmasi 3 ga teng bo‘ladi?

Yechish. O‘quvchi tenglamada qatnashgan a parametr hamda ildizlarini topish uchun muammoning ketma-ketlik zanjirini mantiqiy qura olish mahoratini nomoyon etishga ro‘baro keladi. Bunda kvadrat tenglama ildizlarini Viet teoremasida yozish kerakligi va noma’lumlar soni uchta ekanligini hisobga olgan holda shartdagi berilgan ifodadan $x_1 - x_2 = 3$ yechim kelib chiqishini o‘quvchi tushunib yetadi**.** Tenglamaning ildizlari x_1 va x_2 bo‘lsin, u holda Viet teoremasiga ko‘ra $x_1 + x_2 = -\frac{1}{a}$, $x_1 \cdot x_2 = -\frac{2}{a}$ va $x_1 - x_2 = 3$. Uchunchi tenglikdan $x_2 = x_1 - 3$ ni topib, birinchi va ikkinchi tengliklarni quyidagi ko‘rinishga keltiradi $x_1 = \frac{1}{2} \cdot \left(3 - \frac{1}{a}\right)$ va $x_1(x_1 - 3) = -\frac{2}{a}$ bu esa masala yechimining ketma-ketligi zanjirini qura olishini ifodalaydi. x_1 ning qiymatini ikkinchi tenglamaga qo‘yib: $\frac{1}{2} \cdot \left(3 - \frac{1}{a}\right)\left(\frac{1}{2}\left(3 - \frac{1}{a}\right) - 3\right) = -\frac{2}{a}$ ko‘rinishdagi ifodaga keladi va bundan $\frac{1}{a^2} + \frac{8}{a} - 9 = 0$ kvadrat tenglamaga keladi. Demak, qilingan mulohaza to‘g‘ri ekanligiga ishonch bo‘ladi va yechim $a_1 = -\frac{1}{9}$; $a_2 = 1$ ko‘rinishida ekanligini topadi. Bundan esa o‘quvchining masala yechimiga olib keladigan jarayonlar ketma-ketligi zanjirini mantiqiy qura olish qobiliyati rivojlanishidan dalolat beradi.

8-sinf “Algebra” (mualliflar Sh.A. Alimov, O.R. Xolmuhamedov, M.A. Mirzahmedov) darsligining III-bobida tengsizliklar sistemasini yechish mavzusidagi 202, 203-masalalari, mashqlar yechish mavzusidagi 228, 229-masalalar, “Geometriya” (muallif A.A. Rahimqoriyev) darsligining trapetsiyaning o‘rta chizig‘i mavzusidagi 137, 139-masalalar, Fales teoremasi tatbiqiga doir masalalar mavzusidagi 155, 157-masalalar. 9-sinf “Algebra” (mualliflar Sh.A. Alimov, O.R. Xolmuhamedov, M.A. Mirzahmedov) darsligining IV-bobida funksiyaning aniqlanish sohasi mavzusidagi 197,198-masalalar, V-bobida sinuslar yig‘indisi va ayirmasi, kosinuslar yig‘indisi va ayirmasi mavzusidagi 365, 375-masalalar, “Geometriya” (mualliflar B. Haydarov, E. Sariqov, A. Qo‘chqorov)

darsligining I-bobida o‘tkir burchakning sinusi, kosinusi, tangensi va kotangensi mavzusidagi 6, 7-masalalar, uchburchak o‘xshashligining uchunchi alomati mavzusidagi 7,9-masalalar, qo‘shimcha adabiyotdan “O‘quvchilarni matematik olimpiadalarga tayyorlash” (mualliflar M.A. Mirzahmedov, D. Sotiboldiyev) qo‘llanmasidagi 134,136,137, 922, 924, 965-masalalardan o‘quvchilarning masala yechimiga olib keladigan jarayonlar ketma-ketligi zanjirini mantiqiy qura olish qobiliyatini rivojlantirishda foydalanish mumkin.

II. Umumlashtira bilish qobiliyati – psixologiyada umumlashtirish predmet va hodisalarni asosiy xossalari bo‘yicha bitta umumiy obyektga birlashtirish kabi aniqlanadi. Mantiqda bu kategoriya fikrlash jarayonining asosiylaridan biri hisoblanadi. Uning yordamida predmetning butun sinfiga tegishli muhim alomatlarini qidirish amalga oshiriladi. Umumlashtirishning didaktik mohiyati-o‘rganilayotgan predmetning umumiy, juda muhim alomatlarini, sifatlashlarini ajratish hamda o‘rganilayotgan predmetga olib keluvchi tushunchalar, qonunlarni shakllantirish va ifodalashdir.

Umumlashtirish jarayoni o‘rganilayotgan obyekt va hodisalar to‘plamini to‘laroq tasvirini olish uchun diqqat, idrok xotira va tasavvurlarni faollashtirishdan boshlanadi. Ta’limda predmet xossalari, haqiqiy voqea-hodisa, xususiyatlar va alomatlar, munosabatlar, aloqalar, jarayonlar umumlashtirish obyekti bo‘lishi mumkin. Obyekt qancha murakkab bo‘lsa, materialni umumlashtirish o‘quvchiga shuncha qiyin bo‘ladi.

Shu bilan birga fikrlash o‘rganilayotgan materialda asosiy tushunchalar, sifatlashlar yoki munosabatlarni ajratish. Fikrlash, jarayonida taqqoslash obyektlar yoki hodisalarning umumiy muhim xossalari va munosabatlarini aniqlash mumkin. Umumlashtirish jarayoni tasavvur, tahlil, sintez, taqqoslash, xotira va tushunchalarni o‘z ichiga oluvchi fikrlash jamlanmasidan iborat bo‘lib, jarayonlar yoki hodisalarning ilg‘or g‘oyalari to‘g‘risida xulosa chiqarish, ma’lum qonuniyatlarni ifodalash imkonini beradi.

Umumlashtira bilish qobiliyatini rivojlantirish uchun, ushbu ko‘rinishdagi masalalarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

1-masala. Quyidagi yig‘indini hisoblang $S = 1 + 2x + 3x^2 + ... + nx^{n-1}$.

Yechish. Ushbu ko‘rinishdagi masalalarning ahamiyatli jihati shundaki, o‘quvchidan yig‘indini topishda no’malum sonlar o‘rniga son qo‘yib tekshirishni va undan turli xulosalar chiqarishni o‘rgatadi. Bundan ma’lum bir umumlashgan formulani topish imkonini yaratadi va bu esa, o‘quvchining umumlashtira bilish qobiliyatini rivojlantiradi. O‘quvchi yig‘indini $x = 1$ da tekshiradi va quyidagi yig‘indini oladi $S = 1 + 2 + 3 + ... + n.$ Ma’lumki yig‘indini topishda arifmetik progressiya formulasini qo‘llaydi bu o‘quvchining xotirasi ishga tushganidan dalolat beradi va ushbu $S = \frac{n(n+1)}{2}$ formulaga keladi. So‘ng yig‘indini $x \neq 1$ larda tekshiradi. U holda $S = 1 + 2x + 3x^2 + ... + nx^{n-1}$ yig‘indi arifmetik progressiyani hosil qilmasligi ma’lum va olingan formulani unga qo‘llab bo‘lmaydi. Shu sababli o‘quvchidan yechimni izlashda yangi g‘oya topishni talab etadi, O‘quvchi bir necha bor urinishlaridan so‘ng yig‘indining ikkala tamonidan *Sx* ni ayirib yuboradi va ushbu ifodaga keladi $S - Sx = 1 + x + x^2 + ... + x^{n-1} - nx^n$. Natijada quyidagini topadi $S(1-x) = \frac{1-x^n}{1-x} - nx^n$ va bulardan umumiy xulosalab quyidagini yozadi.

$$S=\begin{cases}\dfrac{1-(n+1)x^{n}+nx^{n+1}}{(1-x)^{2}}, & агар\ x\neq 1 бўлса,\\ \dfrac{n(n+1)}{2}, & агар x=1 бўлса.\end{cases}$$


Formulani hosil qilish jarayoni, o‘quvchining umumlashtira bilish qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradi.

2-masala. Trapetsiyaning katta asosi a ga, yon tomonlari *b* va $c(b<c)$ ga teng. Katta asosga yopishgan burchaklari *2:1* nisbatda bo‘lsa, uning kichik asosini toping (1-rasm).


Yechish. O‘quvchi ushbu masalalaning berilgan shartlari bo‘yicha quyidagicha chizib oladi (1-rasm *a*). Demak, shartga ko‘ra *AVSD* – trapetsiya *AD=a, AB=b, CD=c, b<c*.

$$\frac{\angle BAL}{\angle CDK}=2,\ \angle CDK=\beta,\ \angle BAL=2\beta.$$

Topishi kerak *VS=x* ni. Berilgan trapetsiyaning *V* va *S* nuqtalaridan *AD* asosga perpendikulyar tushirib quyidagicha chizib oladi (1-rasm *b*). O‘quvchi chizma orqali ushbu analitik ifodani tuzib olib *AD=AL+LK+KD=a* formulani tahlil qiladi. Bu esa o‘quvchida umumiy obyektga nisbatan birlashtirish jarayonini ifodalaydi.



a)



b)

1-rasm

Bunda ΔABL va ΔCDK dan $AL=b\cos 2\beta$, $KD=c\cos\beta$ ekanligini topadi. Shunda *BC=LK=x* ga tengligini hisobga olib, $a=b\cos 2\beta+x+c\cos\beta$ ko‘rinishdagi tenglikka keladi. Bundagi $\cos\beta$ va $\cos 2\beta$ noma’lum ifodalarni aniqlash maqsadida ΔABL va ΔCDK lardan yana bir tenglama tuzib olishga urinadi. *VL=SK=u* tomonlari teng, shunga ko‘ra u quyidagicha $y=b\sin 2\beta,\ y=c\sin\beta$ ifodani hosil qiladi. So‘ng ulardan *u* larni tenglashtirib $\cos\beta=\dfrac{c}{2b}$ ekanligini topadi. Bunda trigonometrik formulalar orqali $cos2\beta=\dfrac{c^{2}}{2b^{2}}-1$ ekanligini topib, so‘ng topilgan natijalarni umumlashtirib tenglamaga qo‘yadi $x=a-b\cos 2\beta-c\cos\beta$ va quyidagini oladi

$$x=a-\frac{c^{2}}{2b^{2}}-b\left(\frac{c^{2}}{2b^{2}}-1\right)=\frac{b^{2}+ab-c^{2}}{b}.$$

Bu jarayon esa, o‘quvchining umumlashtira bilish qobiliyatini rivojlantiradi.


8-sinf “Algebra” (mualliflar SH.A. Alimov, O.R. Xolmuhamedov, M.A. Mirzahmedov) darsligining III-bobida sonning moduli, modul qatnashgan tenglama va tengsizliklar mavzusidagi 209, 210-masalalari, kvadrat tenglama va uning ildizlari mavzusidagi 303-masalalar, “Geometriya” (muallif A.A. Rahimqoriyev) darsligining yuzni o‘lchash mavzusidagi 237, 238-masalalar, to‘g‘ri to‘rtburchakning yuzi mavzusidagi 248, 249-masalalar. 9-sinf “Algebra” (mualliflar SH.A. Alimov, O.R. Xolmuhamedov, M.A. Mirzahmedov) darsligining V-bobida sinusning yig‘indisi va ayirmasi, kosinusning yig‘indisi va ayirmasi mavzusidagi 369, 370, 378, 379-masalalar, “Geometriya” (mualliflar Haydarov B., Sariqov E., Qo‘chqorov A.) darsligining II-bobida 23-masala. Masalalar yechish mavzusidagi 9, 10-masalalar, ba’zi burchaklarning sinusi, kosinusi, tangensi va kotangensini hisoblash mavzusidagi 7-masalalar, qo‘shimcha adabiyotdan “O‘quvchilarni matematik olimpiadalarga tayyorlash” (mualliflar M.A. Mirzaahmedov, D. Sotiboldiyev) qo‘llanmasidagi 199, 200, 202, 897, 901-masalalardan umumlashtira bilish qobiliyatini rivojlantiruvchi yuqoridagidek ko‘rinishdagi masalalar sifatida foydalanish mumkin.

III. Fazoviy tasavvur qilish qobiliyati – fazoviy, ya’ni noverbal tasavvurga bo‘lgan qobiliyat – u matematik obyektlar yoki hodisalar, ularning turli kesimlari, kattaligi, shakli, tekislik, fazoda nisbiy joylashishi va harakatini tushunish hamda fikran tasavvur qila olish qobiliyatidir.


Fazoviy tasavvur qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun, ushbu ko‘rinishdagi masalalarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

1-masala. To‘g‘ri burchakli parallelepiped asosining tomonlari 7 sm va 24 sm. Parallelepipedning balandligi 8 sm. Diagonal kesimning yuzini toping.

Yechish. O‘quvchi ushbu fazoviy masalani yechishda parallelepiped chizmasini quyidagi ko‘rinishda tasavvur etadi (2-rasm). Bunda shartga ko‘ra parallelepiped dioganal kesimini esa 3-rasmdagidek chizib oladi va diagonal kesimning yuzini topish uchun parallelepiped asosining diametrini quyidagi ko‘rinishida izlaydi.




2-rasm



3-rasm


Ma’lumki parallelepiped asosining tomonlari *a=7* sm, *b=24* sm balandligi *h=8* smga teng. $d = \sqrt{a^2 + b^2} = \sqrt{24^2 + 7^2} = 25\,см$. Demak, parallelepiped dioganal kesimining yuzini quyidagicha topadi $S = d \cdot h = 25 \cdot 8 = 200\,см^2$. Demak, ushbu masala o‘quvchining fazoviy tasavvur qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

2-masala. Muntazam to‘rtburchakli piramidaning ichiga shar joylashtirilgan va *V* uchidan asosining qarama-qarshi tamonlarini teng ikkiga bo‘luvchi kesm o‘tkazilgan. Kesmdan hosil bo‘lgan teng yonli uchburchakka aylana ichki chizilgan uning asosi *2a*, balandligi *h* ga teng. Shu uchburchak asosiga parallel ravishda aylanaga urinma o‘tkazilgan. Urinmaning uchburchak yon tomonlari orasidagi qismi uzunligini toping (4-rasm).



4-rasm

Yechish. O‘quvchi masalani yechishda uning chizmasini tasavvur qilib quyidagi shaklga keltiradi (4 -rasm *a*, *b*). Hosil bo‘lgan shakl orqali uchburchakning xossalarini hayolidan o‘tkazadi. Bunda Pifagor teoremasini qo‘llashi, uchburchakga aylananing ichki chizilganda, aylananing tomonlariga urinish nuqtalari yoki uchburchakning yon tomonlarini tutashtiruvchi kesmaning xolatini fikran tasavvur etib, u orqali uchburchak o‘xshashligini qo‘llaydi. Berilgan: *AVS* – teng yonli uchburchak, *AS=2a, AD=a, AB=BC, BD=h.*



5-rasm *a)* *b)*

Pifagor teoremasi orqali $AB^2 = AD^2 + BD^2 = a^2 + h^2$, $AB = \sqrt{a^2 + h^2}$ ni topadi va uchburchakga aylananing ichki chizilganda, aylananing tomonlarga urinish nuqtalari xossasidan $AD = AD_1$ ekanligini topadi. Shundan so‘ng $BD_1 = AB - AD_1 = \sqrt{a^2 + h^2} - a$ ga tengligi $\Delta ABD \sim \Delta A_1BK$ uchburchaklar o‘xshashligini fazoviy tasavvur(fazoda nisbiy joylashishini) qiladi. Uchburchalarning o‘xshashlik xossalaridan $\frac{A_1C_1}{AC} = \frac{BK}{h}$, $A_1C_1 = \frac{2a \cdot BK}{h}$ tenglikni oladi. Ikkinchi tomondan, aylanaga bir nuqtadan o‘tkazilgan urinma va kesuvchi xossasiga asosan $BD_1^2 = BK \cdot BD$ ekanligini va bundan, $BK = \frac{(\sqrt{a^2 + h^2} - a)^2}{h}$ tenglikni topadi. U holda natija $A_1C_1 = \frac{2a(\sqrt{a^2 + h^2} - a)^2}{h^2}$ ko‘rinishda ekanligiga ishonch hosil qiladi. O‘quvchi bu masalani yechishi davomida fazoviy tasavvur qilish qobiliyati rivojlanadi.

8-sinf “Geometriya” (muallif A.A. Rahimqoriyev) darsligining uchburchakning yuzi mavzusidagi 261(*a, b, c*)-masalalar, trapetsiya va parallelogramning yuzi mavzusidagi 272, 277-masalalar. 9-sinf “Geometriya” (mualliflar Haydarov B., Sariqov E.,

Qo‘chqorov A.) darsligining I-bobida 18-masalalar yechish mavzusidagi 5, 4-masalalar, II-bobida 25-masalalar yechish mavzusidagi 7, 8-masalalar. Qo‘shimcha adabiyotdan “O‘quvchilarni matematik olimpiadalarga tayyorlash” (mualliflar M.A. Mirzahmedov, Sotiboldiyev D.) qo‘llanmasidagi 930, 931, 938, 942, 943-masalalardan fazoviy tasavvur qilish qobiliyatini rivojlantiruvchi yuqoridagidek ko‘rinishdagi masalalar sifatida foydalanish mumkin .

Xulosa qilganda, o‘quvchilarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirishda komponentlarga maxsus masalalarni tanlash va ularni yechishda masala yechimiga olib keladigan jarayonlar ketma-ketligi zanjirini mantiqiy qura olish, umumlashtira bilish va fazoviy tasavvur qilish qobiliyat turlari namoyon bo‘lishi masalasi ko‘rib chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. В.А. Крутецкий Психология математических способностей школьников. Москва:. “Просвещение” 1998. – С. 410.

2. И.Я. Каплунович. Развитие структуры пространственного мышления. // Вопросы психологии. – Москва, 1986, – № 2. – С. 57-66.

3. Л.В. Антонова Роль задач в развитии математических способностей. // Вестник Бурятского Государственного Университета. –Улан-Удэ, 2010, № 15. – С. 8-14.

4. M.SH. Mamatov. O‘quvchilar ongida matematik tushunchalarni shakllantirishda mantiq // Xalq ta’limi. – T., 2003,- № 4. -B. 96-99.

5. T.U. O‘tapov Matematika ta’limi jarayonida o‘quvchilarning matematik iqtidorini anqlash va rivojlantirish metodikasi. Ped. fan. nom. dis. –T., 2008. –53 b.

6. N.SH. Ibragimov. O‘quvchilarning matematik qobiliyatlarini maxsus masalalar yechish yordamida rivojlantirish // Pedagogika. –T., 2017, - №5. – 73-80 b.

7. M.A. Mirzaahmedov, D.A. Sotiboldiev. O‘quvchilarni matematik olimpiadalarga tayyorlash. – T.: O‘qituvchi, 1993, – 420 b.

8. Н.В. Метельский. Дидактика математики. Общая методика и ее проблемы. – Минск: Изд-во БГУ, 1982

9. SH.A. Alimov, O.R. Xolmuhamedov, M.A. Mirzahmedov Algebra 8-sinf. – T.: O‘qituvchi, 2010. – 222 b.

10. A.A. Rahimqoriyev Geometriya 8-sinf – T.: Yangiyo‘l polygraf servis, 2010. 160 b.

11. SH.A. Alimov, O.R. Xolmuhamedov, M.A. Mirzahmedov Algebra 9-sinf. – T.: O‘qituvchi, 2010. 238 b.

12. Haydarov B., Sariqov E., Qo‘chqorov A. Geometriya 9-sinf. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010. 158 b.

Otabek MAVLONOV,
Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti
gumanitar-iqtisodiy fanlari kafedrasi o‘qituvchisi

TEXNIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARIGA INGLIZ TILINI O‘QITISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada texnika oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitishning boshqa ta’lim dargohlaridan farqli jihatlari yoritib berilgan. Shuningdek, ta’limning so‘nggi bosqichlarida modulning umumiy yoki sohaga ko‘ra maqsadli o‘rgatish talabalarning kelajakdagi rejalariga ko‘ra muloqotga asoslangan yoki akademik foaliyatga mo‘ljallangan kurslarga ajratish bo‘yicha turli xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Kommunikativ kompetensiya, o‘quv jarayoni, til ko‘nikmalari, tilni umumiy holatlar uchun o‘qitish, sohaga ko‘ra tilni o‘qitish, fanlararo, chet tilini yuksak darajada egallash, terminologik birliklar, maxsus matn, tarjima.

В этой статье освещаются различия между преподаванием английского языка в технических вузах и в других учебных заведениях. Кроме того, имеются различные выводы о том, как модуль можно разделить на общие или отраслевые учебные курсы, основанные на будущих планах студентов по коммуникационной или академической деятельности в конце курса.

Ключевые слова. Коммуникативная компетентность, процесс обучения, языковые навыки, студенты технических вузов, преподавание языка в целом, преподавание языка, междисциплинарность, овладение иностранным языком, терминологические единицы , специальный текст, перевод.

This article highlights the differences between teaching English in technical schools and other educational institutions. In addition, there are various conclusions about how the module can be divided into general or sectoral training courses based on students' future plans for communication or academic activities at the end of the course.

Key words. Communicative competence, teaching process, language skills, language for general purposes (LGP), language for special purposes (LSP), interdisciplinary, mastering, terminological units, special text, translation.

Zamonaviy hayotning har bir jabhasida tinimsiz va tez sur’atlar bilan rivojlanish sharoitida, maslakdoshlar va hamkorlar bilan muntazam ravishda raqabotbardoshlikni saqlab qolish uchun har qanday korxona, tashkilot yoki kompaniya yuksak malakali mutaxassislarga ehtiyoj sezadi. Bugungi kunning nuqtayi nazari bilan olib qaraganda, yuksak malakali mutaxassis bo‘lib yetishish uchun ma’lum bir sohani mukammal yoki shunga yaqin darajada o‘rganishning o‘zi yetarli emasdek go‘yo. Balki, o‘sha soha bilan bog‘liq bo‘lgan barcha o‘zgarish va yangiliklardan muntazam xabardor bo‘lib borish, ularni tahlil qilish va yurtimizda ham uning muqobilini ya-

ratishga harakat qilish ham muhim masalalar jumlasiga kiradi. Buning uchun, bo‘lajak mutaxassislardan turli chet tillarini o‘rganish talab etiladi. Masalaning boshqa tomoni shundaki, rus tili MDH davlatlarida ham o‘z nufuzini yetarlicha saqlab qolgan bo‘lsada, turli fan va texnika sohalarida rivojlanish va ilmiy kashfiyotlar borasida mazkur davlatlarning so‘nggi yillardagi ishlari maqtanadigan darajada emas. Shunday ekan, rus tilidan tashqari boshqa xorijiy tillarni ham o‘rganish har bir soha vakili uchun dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Hozirda, dunyoda keng tarqalgan tillar orasida ingliz tilining yetakchi ekanligi hech kim uchun sir emas. Biz yashab turgan davrning ko‘pgina mutaxassislar tomonidan ilmiy texnika va axborot texnologiyalar asri ekanligi turli manbalar va ommaviy axborot vositalarida bot-bot eslatilib qaytarilib turilganligi tufayli bunga ortiqcha to‘xtalishning hojati yo‘q deb hisoblaymiz. Har qanday mamlakat aholisining farovonligini ta’minlashda nafaqat siyosiy va davlat arboblari, ijtimoiy soha vakillari balki, muhandis va texnologlarning ahamiyati ham juda kattadir. Mazkur mutaxassislarning chet tilini o‘rganishi ular uchun qo‘shimcha imtiyoz va qulaylik hisoblanadi. Yuqorida ta’kidlanganidek rus tilini bilgan kishiga MDH davlatlari eshiklari ochilsa, ingliz tili orqali esa dunyodagi barcha mamlakatlar eshigini “taqqillatish” mumkin bo‘ladi.

Xorijiy tillarni o‘qitish murakkab jarayon hisoblanib professor-o‘qituvchidan katta mehnat va yuksak salohiyatni talab qiladi. Ayniqsa, har qanday ta’lim muassasasida ham moddiy-texnik sharoitlarning talab darajasida emasligi (hozirgi kunda bosqichma-bosqich mazkur muammolar aksariyat ta’lim dargohlarida bartaraf etilmoqda), ajratilgan dars soatlarining yetarlicha bo‘lmasligi va ba’zi o‘rganuvchilarda ishtiyoqning o‘ta pastligi bu jarayonni yanada murakkablashtirib yuborishi ham mumkin. O‘qituvchi har bir guruh bilan uning darajasi, salohiyati va dunyoqarashidan kelib chiqqan holda metodni va unga mos keluvchi adabiyotni tanlashi zarur bo‘ladi. Biroq, deyarli barcha o‘quv yurtlarida ma’lum guruh va kurslarga avvaldan belgilab qo‘yilgan adabiyotlar bo‘lib ular asosida dars o‘tilishi pedagog uchun ham ba’zida qulay, ba’zida turli noqulaylik va nomutanosibliklarni kelib chiqishiga olib boradi. O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan xorijiy va xususiy ta’lim muassasalarida mazkur masalalar bo‘yicha pedagog xodimlarga birmuncha erkinlik taqdim etiladi, asosiy jihat semestr yoki o‘quv yili oxirida talabalarning chet tilidan bilim darajasi boshidagiga nisbatan sezilarli darajada o‘sishga erishgan bo‘lishidadir.

Hozirgi kunda, chet tillarini o‘qitishda kommunikativ kompetensiyaga urg‘u berish ustuvor maqsadlardan biri hisoblanadi. Bugungi jamiyatda ingliz tili insonlar o‘rtasidagi o‘zaro muloqot, ta’lim va mustaqil tayyorgarlik, ikki va ko‘p tomonlama hamkorlik va munosabatlarda muhim vosita sifatida gavdalanadi. Ingliz tilini o‘rganishga qiziqadigan talabalarning katta qismi nafaqat dunyodagi turli madaniyatlar bilan tanishish, balki zamonaviy ish bozorida xodimlardagi bu kabi xususiyat yuksak qadrlanayotganligi uchun ham ularda qiziqish paydo bo‘lmoqda. Bugungi kun biznes faoliyatida potensial xodimlardan xalqaro miqyosda raqobat qila olish ishtiyoqi ham talab qilinmoqda. Natijada, turli ta’lim dargohlari hozirgi real sharoitlar va professional muhitni hisobga olgan holda talabalarni kelgusi professional hayotga tayyorlashlari lozim bo‘ladi. Bu asosan ularning bo‘lajak sohalari lingvistika, tarjima yoki til o‘qitish bilan bevosita bog‘liq bo‘lmasa-da ulardagi til bilish qobiliyatida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Bu boradagi izlanish olib borgan mualliflarning texnika bilim yurtlarida ingliz tilini o‘qitish bo‘yicha yondashuvlari turlicha bo‘lgan. Ulardan biri kasbga yo‘naltirilgan shaxsning ijtimoiy-madaniy shakllanish modeliga asoslangan interdissiplinar o‘quv

dasturlarini ishlab chiqishdan iboratdir. Kommunikativ kompetensiya, madaniyatlararo kompetensiya, kasbiy malaka, ish jarayonidagi o‘zaro munosabatlar va til ko‘nikmalari ingliz tili o‘qitilish jarayonining asosiy komponentlari sifatida qayd etilgan. Ta’limning modul tizimi ham talabalarga axborotni tahlil qilish, ijodiy yondashish va yuqori darajadagi madaniy kompetensiyani shakllantirish maqsadida ishlab chiqilishi muhim masala hisoblanadi. Tilni maqsadli o‘qitish borasida turli universal multimedia o‘quv dasturlarini yaratish bo‘yicha ham ko‘plab ishlar olib borilgan. Xorijiy tillarni zamonaviy axborot tenologiyalari xususan internet yordamida o‘qitishning sifatini oshirish masalalari ham ba’zi mualliflarning ishlarida o‘z aksini topgan. Har qanday holatda ham zamonaviy ta’limda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish chet tillarini o‘qitishda ustuvor maqsad bo‘lib qolmoqda.

Bugungi kunda barcha ta’lim dargohlarida chet tillarining biri majburiy fanlar sirasiga kiradi. Ta’lim dasturlari maktab, akademik litsey va kollejlarda berilgan bilimlarning mantiqiy va tadrijiy davomi sifatida tuziladi. U necha yillik bo‘lishiga qaramay, o‘quv kursi yakuniga ko‘ra texnika bilim yurti talabalari kundalik muloqot, umumiy va madaniy sohaga oid dialogik va monologik nutqlarni tushuna olishi, kundalik hayotda kerak bo‘ladigan og‘zaki va yozma mulaqot uchun zarur bo‘lgan grammatik qoidalardan yaxshi xabardor bo‘lishi, kasbiy faoliyatda qo‘llaniladigan eng zarur so‘zlarni o‘zlashtirishi, lug‘atlardan foydalangan holda umumiy va ma’lum bir sohaga taalluqli bo‘lgan adabiyotlar, matnlar va internet materiallarini o‘qib tushuna olishi, hisobotlar tayyorlay olish, umumiy, ilmiy va madaniy mavzulardagi turli munozaralarda qatnasha olishi, o‘z kasbiga oid mavzularda yuksak yozma nutqga ega bo‘lishi va sohaga doir bo‘lgan adabiyotlarni tarjima qila olish kabi ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari lozim bo‘ladi.

Ta’lim jarayonida ingliz tili o‘qituvchilarining birinchi duch kelishi mumkin bo‘lgan muammosi bu guruh talabalarining bilim darajasining har xilligidadir. Har qanday muassasada talabalarning bilim darajasiga ko‘ra guruhlarga bo‘lishning imkoni har doim ham mavjud bo‘lavermaydi. Bu esa, o‘ziga yarasha individual yondashuv va bosqichma-bosqich amalga oshiriluvchi ta’lim dasturlarini talab qiladi. Bunday holat ayniqsa boshlang‘ich bilim darajali guruhlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Vaholanki, aksariyat bilim yurtlarda darsliklar va o‘quv yili, yil oxiridagi imtihon materiallari hamma uchun bir xil qilib tuziladi. Bundan tashqari, texnika bilim yurti talabalariga ingliz tilini nafaqat umumiy maqsadda, balki sohaga ko‘ra ham o‘rgatilishi zamonaviy lingvistikada zamon talabi sifatida baholanmoqda. Terminlarni o‘rgatish ham talabalardan, ham o‘qituvchidan yuksak bilim va malakani talab qiladi. Zero, terminlarni o‘rganmay turib biror sohani anglab yetishlik amri maholdir. Odatda xorijiy til oliy ta’limda asosan o‘qishning birinchi yoki dastlabki ikki yilida o‘qitiladi. Bu darvda esa talabalarning katta qismi bo‘lajak kasblarining nozik va o‘ziga xos xususiyatlari haqida yetarlicha tasavvurga ega bo‘lmaydilar. Shunday ekan, fanning ta’lim dasturidagi boshqa fanlar bilan interdissiplinar bog‘liqliklari o‘qituvchi ishini yengillashtirishi mumkin bo‘ladi.

Ba’zi mutaxassislar ingliz tilini o‘rgatishda turli bosqichlarga bo‘lib o‘qitishni taklif qilganlar. Unga ko‘ra ta’limning birinchi bosqichida umumiy ingliz tili, ya’ni kundalik hayotda kerak bo‘ladigan til ko‘nikmalar bilan chegaralanadi. Ikkinchi bosqichdan esa kasbga yo‘naltirilgan ingliz tili o‘qitilishi boshlanadi va uchinchi bosqichda ham buni davom ettirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ta’limning so‘nggi yilida tanlov bitiruvchi talabalarning o‘ziga beriladi, ular umumiy yoki kasbga yo‘naltirilgan til kursini tanlashlari mumkin bo‘ladi. Birinchi bosqichdanoq umumiy va kasbga yo‘naltirilgan guruhlarga tasniflab chet tilini o‘qituvchi ba’zi universitetlar uchun ham yaxshi samara berishi

mumkin. Biroq, yuqorida ta’kidlanganidek hamma ta’lim dargohlarida ham xorijiy til hamma bosqichlarda ham o‘qitilavermaydi yoki yetarlicha soat ajratilmaydi. Shunday ekan, bu masalalar yuzasidan mamlakatdagi umumiy holatdan kelib chiqqan holda har bir texnika va muhandislikka ixtisoslashgan ta’lim muassasalari o‘z dasturlarini qayta ko‘rib chiqishi lozim bo‘ladi. Texnika bilim yurti talabalarining ustun jihatlaridan biri ular zamonaviy kommunikatsion texnologiyalardagi yutuqlar va o‘zgarishlarni tez qabul qiladilar, bundan esa pedagog mustaqil ta’lim va onlayn o‘qitishda unumli foydalanishi mumkin bo‘ladi.

Birinchi bosqichda o‘qituvchi asosan talabalarning talaffuzini yaxshilash, so‘z tuzilishi va grammatik ko‘nikamlarini shakllantirish, so‘zlarning yasalishi va so‘z birikmalarni o‘rganishga e’tiborini qaratadi. Tanlangan matn va mavzular ham oila, do‘stlar, bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazish, salomatlik, tabiat va atrof muhit va shu kabi soddaroq materiallardan iborat bo‘ladi.

Grammatikani o‘rgatish kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi bo‘lib ingliz tilidagi og‘zaki va yozma nutqning shakllanishida muhim omilllardan biri hisoblanadi. Muloqot mobaynida grammatikani turli holatlarda ishlata olish qobiliyati tilning ekstralingvistik omillari bilan bog‘liq bo‘lgan holatlarda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Grammatikani o‘qitishning birinchi bosqichida sanaladigan va sanalmaydigan otlar, o‘tgan, hozirgi va kelasi zamondagi ish-harakatni ifodalovchi fe’llar, vaziyat va miqdorni ifodalovchi ravishlar, so‘roq va inkor shakllar, modal fe’llar, sifat darajalari, ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplar kabi mavzular yuzasidan mashg‘ulotlar olib boriladi.

O‘rgangan bilimlarini mustahamlash maqsadida muloqotga kirishish, savol-javob, berilgan ma’lumotga asosan shaxsni kimligini aniqlash, biror holatga nisbatan o‘z fikri va yondashuvini ifoda etish, doktor qabulida bo‘lish, do‘kon yoki savdo shaxobchasidan biror narsa xarid qilish kabi interaktiv mashqlarni tashkil qilish mumkin bo‘ladi. Ta’limning ikkinchi yil oxiridan boshlab talabalarning bilim darajasiga qarab umume’tirof etilgan baholash tizimlari haqida ma’lumot berish va keyinchalik ularni mazkur tizimlar asosida bilimini aniqlab ko‘rishga yo‘naltirish va targ‘ib qilish o‘rinli bo‘ladi.

Agar guruhdagi talabalarining bilim darajalari va qobiliyatlari bir-biriga mutanosibligi, mazkur guruhlarga kasbga doir leksikonlarni o‘rgatishni boshlash uchun yetarlicha asos bo‘ladi, lekin ba’zilarining fikriga ko‘ra esa texnikaga oid terminlar asosiy-dominant so‘zlar bo‘lib qolmasligi lozim bo‘ladi. Bu sohada ish olib borgan ba’zi mutaxassilarning fikriga ko‘ra ingliz tilini maqsadli ya’ni talabalarning bo‘lajak sohasiga ko‘ra o‘qitish ta’limning barcha bosqichlarida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Biz faoliyat olib borayotgan universitetda aksariyat talabalarning chet tili bo‘yicha bilim saviyasi yetarli bo‘lganligi, ingliz tilining faqatgina ikki o‘quv yilida o‘qitilishi va ta’lim tili ingliz tili bo‘lganligi tufayli terminlar va kasbga yo‘naltirilgan ingliz tili birinchi bosqichdayoq, alohida fan sifatida o‘qitiladi. Buning ham ijobiy va salbiy tomonlari bo‘lishi tabiiy hol, bu haqda alohida izlanish va atroflicha to‘xtalish mumkin. Ta’limning ikkinchi bosqichida tarjima qilish va tildagi turli qoidalarni o‘rganish bilan bir qatorda texnik matnlarning qisqacha mazmunini aytib berishga o‘rgatsa ham bo‘ladi. Bu texnik kontekst asosida to‘rttala til ko‘nikmalarni rivojlantirib borishni o‘z ichiga oladi, kasbiy matnlarni tarjima qilish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish ham shular jumlasiga kiradi. Vazifa va mashqlarda beriladigan va tasvirlanadigan xolatlar kasbiy muloqot doirasida bo‘lishi lozim bo‘ladi. Uchinchi bosqichda talabalarda ma’lum bir matnni tarjima qilish va masalaning asl mohiyatini tushunish uchun zarur bo‘lgan tayanch bilimga ega bo‘ladilar.

Aynan texnikaga oid ingliz tilini o‘qitishda va maxsus texnik matnlarni tarjima qi-

lishda terminlarni o‘rganishning ahamiyati kattadir. Kasbga oid so‘zlarning o‘rganilishi asosan shu sohaga bog‘liq bo‘lgan matnlarni o‘qish jarayonida sodir bo‘ladi. Bu mashina, dastgohlar, asbob-uskunalar va ishlab chiqarish jarayonini tasvirlab berishni o‘z ichiga oladi. Shu bosqichda tarjima qilinayotgan tildagi so‘zlarga mos muqobilni o‘z tilidan topa olish va tarjimadagi umumiy ko‘nikmalar hosil qilinadi. Bunday materiallar bilan ishlashda obyektlar, jismlar, tushunchalar va fe’llarni tasvirlovchi o‘ziga xos xususiyat va ko‘plab ma’noni bildiruvchi so‘z va so‘z birikmalari, ibora va ma’lum millatga xos bo‘lgan idiomatik birliklarni tarjima qilishda turli muammolarga duch kelishi mumkin. O‘qitishning grammatik aspekti ham predikativ konstrutsiya va majhul nisbatni tarjima qilishni yengillashtiruvchi omil sifatida xizmat qilishi kerak.

Chet tilini maqsadli o‘qitishdagi tarjima qilinayotgan so‘zlar va so‘z guruhlarini terminologik tizimda ularga mos tarzda tasniflash asosida o‘rganish eng muhim aspektlardan biri hisoblanadi. Ularning asosiy vazifasi ma’lum bir tushunchani ma’lum bir sohaga bog‘liqligini ifodalashdan iborat bo‘lib, mazkur sohaga aloqador bo‘lmagan insonlardan boshqa hech kim bu kabi til birliklari haqida yetarlicha tushuchaga ega bo‘lishi amri maholdir. Texnika bilim yurti talabalari fanning aniq bir yo‘nalishiga taalluqli bo‘lgan va energetika, qurilish va aviatsiya kabi keng rivojlangan sohalarni anglash uchun zarur bo‘lgan maxsus til birliklarini o‘rganadilar. Ular ta’lim jarayonida bo‘lajak sohasiga oid zarur terminlar tizimi, terminologik lug‘atlar, kerakli adabiyotlar va internet materiallari bilan bemalol ishlay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi lozim. Shu o‘rinda, bir holatni ta’kidlab o‘tish lozimki, biror terminning ma’nosi tarjima jarayonida o‘sha tarjima qilinayotgan tildagi tegishli muqobillari qidiriladi, aksariyat holatlarda texnikaga oid terminologiya agar u neologizm bo‘lmasa tarjima qilayotgan va tarjima qilinayotgan tillarning terminologik tizimida mos doimiy muqobili mavjud bo‘ladi. Agar terminni tarjima qilishda mos muqobili mavjud bo‘lmasa, u holda matndan kelib chiqib mantiqiy va lingvistik tahlillar asosida aniq bir monosemantik muqobil tanlash lozim bo‘ladi. Ba’zi terminlarni ko‘p ma’noligi maxsus matnlarni tarjima qilishda talabalardan yanada e’tiborliroq bo‘lishni talab qiladi. Ko‘plab terminlar bir ma’noli bo‘lsa ham, terminologik tizim ko‘p ma’noli birliklarni o‘z ichiga oladi va ularning tarjimalari konteksdan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Talabalar terminlarning tuzilishidagi o‘ziga xosliklarni ham bilishlari lozim. Ularning ba’zilari bitta so‘zdan va ba’zilari bitta kalit so‘zga ega bo‘lgan bir necha so‘zlar, birikmadagi asosiy elementning ma’nosini boshqa so‘zlar bilan moslashtiruvchi va uni to‘liqroq ifoda etuvchi bir yoki bir necha qo‘shimcha so‘zlardan iborat ham bo‘lishi mumkin. Bir necha so‘zdan iborat bo‘lgan terminlar asosan maxsus adabiyotlarda uchraydi va ularni tarjima qilishda ma’lum qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Masalan, bir necha unsurdan iborat bo‘lgan so‘z birikmasini ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishda o‘qituvchi talabalarga birikmaga bog‘langan otni tarjima qilib olish (so‘z guruhidagi eng oxirgi so‘z), ular o‘rtasidagi semantik aloqani aniqlab olish, ularni ma’nolariga ko‘ra kichik guruhlar bo‘lish (chapdan o‘ngga) kabi tarjimadagi nozik usullarni bosqichma-bosqich o‘rgatib borishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bundan tashqari, shakli bir-biriga juda o‘xshash ma’nosi esa bir-biridan butunlay farq qiladigan so‘zlarni tarjima qilish talabalarda tez-tez uchrab turadigan xatolar sirasiga kiradi. Bunga sabab sifatida talabalarning mazkur so‘zlarning o‘z ona tilidagi so‘zlar bilan ma’nosi mutanosib deb hisoblashi yoki mazmunni o‘zgartirib yuboradigan darajada emas deb taxmin qilishlarini ko‘rsatish mumkin. Ular so‘zlardagi shakliy o‘xshashlikni semantik yaqinlik sifatida va birliklarni bir-birlarini o‘rnini almashtira oladigan ba’zi terminlar bilan adashtirib yuborishlari ham mumkin. Shunday ekan, turli tillardagi

shakli o‘xshash biroq, ma’nosi har xil bo‘lgan so‘zlarning ro‘yhatini tuzib ularga alohida-alohida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu kabi so‘zlarning ayrimlariga misol keltirib o‘tamiz: ingliz tilidagi *operator* so‘zi hamma taxmin qilganidek qo‘lida kamera ko‘tarib olgan tasvirchini bildirmaydi, balki texnik termin sifatida mexanik, mashinist, radist kabi ma’nolarda qo‘llaniladi. *Apparatus* so‘zining apparat va apparatura ma’nolari ko‘pchilikka ma’lum, lekin uning moslama, asbob-uskuna, dastgoh, mexanik vosita kabi ma’nolarini hamma ham bilavermaydi. *Resin* termini rezina sifatida emas, balki qoramoy, kanifol, kamed kabi semantik muqobillari mavjud.

Mazkur jarayonning keyingi bosqichida talabalar oldida kasbiy faoliyatni boshlash yoki o‘qishni davom ettirish kabi tanlov turadi. Agar ular magistratura va undan keyingi bosqichlardagi o‘qishni davom ettirmoqchi bo‘lsalar akademik ingliz tilini o‘rganishlariga to‘g‘ri keladi. Avvalo ularga ingliz tili kirish imtihonlar uchun kerak bo‘ladi, unda asosan o‘qish, gapirish va tarjima qila olish ko‘nikmalari baholanadi. Ikkinchidan, har qanday akademik faoliyat ayniqsa, bakalavr bosqichidan keyingi faoliyatlarda ilmiy ishni yozish jarayonida boshqa mamlakatlardagi olimlar va hamkasblar bilan ishlash, ularning faoliyatlari bilan tanishish, sohaga oid so‘nggi ilmiy yangiliklardan boxabar bo‘lish maqsadida ingliz tilidagi bilimlarini yanada chuqurlashtirish talab etiladi. Uchinchidan, xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, seminar va simpoziumlarda ma’ruza va taqdimotlar bilan ishtirok etish, chet tilida ilmiy maqolalar yozish shaxsning ilmiy salohiyati va fanning rivojlanishiga katta xissa qo‘shadi. Bu esa o‘z navbatida, ilmiy matnning stilistik talablaridan yetarlicha xabardor bo‘lishni, so‘z va boshqa til birliklaridan mos va oqilona foydalana olishni talab qiladi. Ilmiy g‘oyalar, kashfiyotlar, tadqiqotlar haqida ma’lumot berish, turli gipotezalarni istoblash, takomillashtirilgan va qayta ko‘rib chiqilgan konsepsiyalar va fenomenlarni tushuntirish uchun ham maxsus til ko‘nikmalari zarur bo‘ladi. Argumentlar (qarshi fikr) keltirish, tadqiqot natijalarini e’lon qilish va xulosa chiqarishda ma’lum til vositalaridan foydalanish ham shular jumlasiga kiradi. Mazkur bosqichda o‘rganiladigan til birliklar sirasiga quyidagilar kiradi: *hypothesis, phenomenon, scrutiny, objective, empiricism, verification, bias, aspect, procedure, facet* kabi mavhum otlar; fe’lardan esa *infer, point out, presume, suppose, replicate, duplicate*; sabab va oqibatni anglatuvchi bog‘lovchi va konstruksiyalardan *it follows that, so, thus, to imply, to involve, to lead to, to result in, since, therefore* kabi so‘zlar shular jumlasiga kiradi. Bundan tashqari, ilmiy maqola va ishlarni yozayotgan ahamiyatga molik joylarini o‘quvchiga va mutaxassislarga yetkazish maqsadida urg‘uni anglatuvchi ravishlarni ham o‘rgatib ketish ham muhim hisoblanadi.

Boshqa talabalarga nisbatan ingliz tilidan bilim darajasi yuqori bo‘lgan talabalar o‘qish yoki ilmiy faoliyatlarini xorijiy davlatlarda davom ettirmoqchi bo‘lsalar odatiy emas, balki yuqorida sanab o‘tilgan akademik kurslarda ishtirok etishlari va ma’lum darajadagi til ko‘nikmalaraga ega bo‘lishlari kerak. O‘qituvchilar ham o‘z navbatida bunday talabalarga sohaga oid maxsus adabiyotlarni o‘qib yurishni, televizor va shu kabi vositalar orqali turli ko‘rsatuvlarni kuzatib borishni tavsiya qilishi lozim. Biznes uchun ingliz tilini bilish ishbilarmon doirada samarali muloqot qilishga imkoniyat yaratadi va bitiruvchilarga karyera pog‘onalardan ildamroq harakat qilish va o‘sishlarida yuksak ishtiyoqni shakllantarishda katta ahamiyat kasb etadi. Bunday bitiruvchilardan chet tilidagi bilimlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, uni namoyon qilishni ham talab etiladi. Qisqa xabarlar, elektron pochtaga kelgan xatlarni o‘qiy olish va ularga javob yozish, turli rezyumelar tuzish, jadval va grafiklarni tanishtirish, telefon qo‘ng‘iroqlariga javob berish va biznesga oid har xil mavzularda suhbatlasha olish mazkur bitiruvchilar

uchun talab hisoblanadi. Shu kabi holatlarga taalluqli ishlar va biznes faoliyatga oid bilimlarni mustahkamlab borish ham mana shu bosqichda amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida taklif qilingan texnika bilim yurtlari uchun mo‘ljallangan ta’lim bosqichlari har qanday o‘quv yurtida o‘ziga moslashtirgan holda foydalanishi mumkin. Mazkur jarayonning birinchi bosqichida asosan chet tilining umumiy qoidalari o‘rgatiladi, qolgan davrlarda esa kasbga yo‘naltirilgan holda o‘qitiladi. Ikkinchi bosqichda to‘laligicha texnik matnlar bilan ishlash, ularga mos ravishda terminlarni ham o‘rganib borish va texnikaga oid kontekstda kelib chiqqan holda barcha til ko‘nikmalarini rivojlantirib borishga bag‘ishlanadi. Akademik ingliz tilini tanlagan talabalardan til ko‘nikmalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ilmiy til uslublarini o‘rganish natija sifatida kutiladi. Boshqa guruhdan esa ishbilarmonlar muhitida biznes uchun ingliz tili kursida o‘rgangan til ko‘nikmalarni amalda qo‘llay olish talab etiladi. Ba’zi mutaxassislar yuqorida keltirilgan bosqichlarni bir-biridan qat’iy ajratishni tavsiya qiladilar. Chunki har bir bosqichdan mazmuni, lug‘at va grammatik qoidalar, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishni o‘z ichiga olgan asosiy maqsad va vazifalar bo‘ladi. Bizning fikrimizcha ta’lim dargohi talabalarning bilim va dunyoqarashidan kelib chiqqan holda ba’zi bosqichlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishi u qadar salbiy oqibatlar ko‘rsatmaydi va bu narsa o‘rgangan va yetarlicha tahlil qilingan holda amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.N. Bobeyeva. Peculiarities of Teaching English as a Foreign Language to Technical Students. Procedia - Social and Behavioral Sciences. Volume 182. 2015, Pages 104-109, ISSN 1877-0428, https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2015.04.744.

(http://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1877042815030190)

2. Y.V. Dulepova, (2013). Formation of general cultural competence of the modern specialist graduate of the technical university at the classes of foreign languages. Proceedings of Oryol State University. Series: Humanities and Social Studies. 5, pp. 235–238.

3. N.A. Frolova, I.V. Aleshchanova (2013). Professionally-oriented approach in teaching of foreign languages in the technical university. Bulletin of Volgograd State Technical University. Vol. 14. # 16 (119), pp. 88-90.

4. N.R. Latipov, D.R. Sabirova (2013). Competence-based Approach to Aeronautical Engineering Education: Language Aspect. Interactive Collaborative Learning (ICL), 2013 International Conference. Digital Object Identifier: 10.1109/ICL.2013.6644664, KSTU, Kazan, pp. 617-618.

5. T.V. Molchanova (2011). Revisiting the formation of mediacompetence of technical universities students by means of the foreign language. Culture. Science. Education. # 1 (18), pp. 149-158.

6. Oksana Efremova, Inna Plotnikova, Anna Ustyuzhanina. Forming Linguistic Competence of Foreign Students at the Preparatory Department of a Technical University. Procedia – Social and Behavioral Sciences. Volume 215. 2015. Pages 72-78, ISSN 1877-0428. https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2015.11.576.

7. (http://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1877042815059315)

O‘g‘iloy QURBONOVA,
Toshkent Davlat texnika universiteti
raqamli elektronika va mikroelektronika kafedrasi dotsenti
Abdujalol SATTOROV,
Toshkent Davlat texnika universiteti
raqamli elektronika va mikroelektronika kafedrasi assistenti

UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA FIZIKA FANINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada yarimo‘tkazgich materiallarning metallardan fundamental farqlari, ya’ni ularning solishtirma qarshiligini haroratni o‘zgartirish va kirishma atomlarini kiritish yo‘li bilan nihoyatda katta oraliqda boshqarish mumkinligi ko‘rsatilgan. Yarimo‘tkazgichlarning mana shu xossalari hozirgi zamon elektronika fanini shakllanishi va uni rivojlanishining asosi ekanligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar. Yarimo‘tkazgich, metall, kirishma atomlari, fundamental, solishtirma qarshilik, harorat, elektronika, energetika, mikroelektronika, elektron, kovak, zaryad tashuvchilar.

В данной статье показано фундаментальное различие полупроводниковых материалов от металлов, т.е. возможность управления их удельного сопротивления в очень широком интервале путем изменения температуры и введения примесных атомов. Подчеркнута, что эти свойства полупроводников являются основой формирования и развития современной электронной дисциплины.

Ключевые слова. Полупроводник, металл, примесные атомы, фундаментальный, удельное сопротивление, температура, электроника, энергетика, микроэлектроника, электрон, дырка, носители зарядов.

This article shows the fundamental difference between semiconductor materials and metals, i.e. the ability to control their resistivity in a very wide range by changing the temperature and annealing impurity atoms. It is emphasized that these properties of semiconductors are the basis for the formation and development of modern electronic discipline.

Key words. Semiconductor, metal, impurity atoms, fundamental, resistivity, temperature, electronics, energy, microelectronics, electron, hole, charge carriers.

Ijodiy fikrlash, tafakkur qilish insonning hali yuzaga chiqmagan ichki qobiliyati, talanti va o‘zining nimalarga qodir ekanligini namoyish etish amallarining asosidir. Shuning uchun ham maktabdan boshlab o‘quvchilarni ijodiy fikrlashni rivojlantirish, o‘zlariga ishonchni uyg‘otish, tafakkur va chuqur mulohaza qilish qobiliyatini yuzaga keltirish mamlakatga o‘ta zarur yuqori malakali kadrlar tayyorlashning ham asosidir. Buning uchun maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy o‘quv yurtlarida laboratoriya mashg‘ulotlarini shunday olib borilishi lozimki, ular o‘quvchilarni o‘ylashga, tafakkur qilishga, olgan bilimini amaliyotga tadbiq etishga uzluksiz manbaa bo‘lib xizmat qilish asosida ijodiy fikrlash tuyg‘ularini shakllantirsh lozim. Bugungi kunda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ko‘p jihatdan mamlakatimizni modernizasiya qilish jarayonlari bilan hamohang tarzda olib borilmoqda. Bunda asosiy

yo‘nalishlar sifatida oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimida o‘quv-uslubiy va ilmiy faoliyatini modernizasiya qilish, ta’lim tadqiqot jarayonlardagi innovatsion yo‘nalishlarni kuchaytirish tadbirlari izchil amalga oshirilmoqda. Xalqimizning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlari zamonaviy madaniyati, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalar asosida yetuk mutaxassislar tayyorlash tizimi ishlab chiqildi va jadal sur’atlar bilan hayotga tadbiq etilmoqda. Ta’lim tizimini rivojlantirish va yoshlarni tarbiyalash ta’lim tizimini qayta shakllantirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ko‘p davlatlar qatori bizning davlatimizda ham aniq fanlarga, jumladan fizika faniga alohida e’tibor berilayotgani bejiz emas, chunki yuqori texnika va texnologiyalar rivoji bevosita fizika bilan bog‘liq. Fizikaning turli sohalari qatori bugungi kunda juda ko‘pchilik qiziqib o‘rganayotgan yarim o‘tkazgichlar fizikasi ham eng qiziqarli va muhim yo‘nalishlardan biridir, bunda asosiy maqsadlardan biri – tashqi ta’sirlarga chidamli issiqlik ta’sirlarida barqaror va turli radiatsiyaga chidamli yangi yarimo‘tkazgich materiallar izlash bilan bog‘liq.

Elektronika va mikroelektronika sohasi – energetika va alternativ energiya manbalar sohasida alohida o‘rin tutadi, chunki davlatimizning kuchi, qudrati xalq farovonligi, rivoji mana shu sohani to‘liq egallagan, ularni tadbiq qila oladigan, ijodiy fikrlay oladigan yoshlarga bog‘liqdir.

Hozirgi zamon fan-texnika va sanoatining barcha tarmoqlari rivojlanishini elektronikasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Elektronika bu avtomatlashtirish, kosmos, aviatsiya, tibbiyot, tolali aloqa tizimlari, energetika va kundalik hayotimizdagi barcha qulayliklarning asosidir. Qaysi mamlakatda elektronika fani yaxshi rivojlangan bo‘lsa, shu mamlakatning iqtisodiy quvvati va xalq turmush darajasi yuqorilashib boradi. Bugungi mavjud elektronika va uning yangi yo‘nalishlari mikroelektronika va nanoelektronikaning asosi yarimo‘tkazgich materiallardir. Agar bunday materiallar kashf etilmaganida, hozirgi elektronika fani mavjud bo‘lishi ham mavhum bo‘lardi.

Shuning uchun har bir o‘quvchi yarimo‘tkazgich materiallarning qanday fundamental xossalari metallardan farq qilishini hamda ularning mohiyatini tushunishi va bilishi lozim.

Yarimo‘tkazgichli materiallarning eng muhim fundamental xossalarini quyidagi 1-jadvalda eng ko‘p ishlatiladigan toza yarimo‘tkagich materiallarning solishtirma qarshiligi bilan solishtirma qarshiligi eng kam va eng ko‘p bo‘lgan metallar keltirilgan (T=300 K).

1-jadval

	Yarimo‘tkazgich				Metall		
Material	**InSb** indiy surma	**Ge** germaniy	**Si** kremniy	**GaAs** galiy arsenid	**Au** oltin	**Al** alyuminiy	nixrom*
T=300K dagi solishtirma qarshiligi (ρ) [Om·sm]	$1,8\cdot10^{-2}$	47	$2,3\cdot10^{5}$	$4\cdot10^{8}$	$5,32\cdot10^{-6}$	$6,7\cdot10^{-6}$	$1,1\cdot10^{-4}$

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, mavjud metallarning solishtirma qarshiligi bir-biridan 10-100 martagacha farq qilar ekan. Endi yarimo‘tkazgich materiallarga e’tibor bersak, InSb materialining (Antimonid indiy to‘q-kulrang kumushsimon metall yoki shisha yorqinligidagi kukun ko‘rinishiga ega. 500 °C dan yuqori haroratlarda eriydi, bunda bu

ko‘rinishdagi surma va uning oksidlari uchib chiqadi. Rux aldovchisi turidagi kristall struktura 0,648 nm doimiy kristalli panjaraga ega bo‘ladi. Antimonid indiy InSb–polikristallari va monokristallari “Chokhral” usuli bilan bo‘ylama o‘qi yo‘nalishi bo‘yicha olinadi solishtirma qarshiligi germaniydan Sof germaniy metall ko‘rinishiga ega, nisbatan yuqori qattiqlik va mo‘rtlik bilan xarakterlanadi. U olmos tarkibida kristallanadi, 937 °C haroratda eriydi.

Germaniy qattiq holatda – odatda kovalent kristalldir. Kristall germaniy xona haroratida havoda kimyoviy jihatdan chidamli. Suvda ozgina eriydi va tuzli hamda suyultirilgan sulfat kislotalarda erimaydi. Oddiy sharoitlarda faol hal qiluvchi germaniyning faol eritmalari bo‘lib azot va gidroflorik kislotalarning aralashmasi hamda vodorod peroksid eritmasi hisoblanadi uch ming marta, kremniy (Kremniy kengroq taqiqlangan zonaga ega bo‘lganligi tufayli, kremniyning solishtirma qarshiligi germaniyning xususiy qarshiligidan uch martadan ortiq ustundir. Xona haroratida kremniy kristalli past reaksiyaga ega; u kremniy dioksidning yupqa plenkasi bilan qoplangan bo‘lib, havoda juda barqarordir. Kremniy suvda erimaydi, ammo ko‘p kislotalar bilan reaksiyaga kirishmaydi. Faqat azot va gidroflorik kislotalar aralashmasida va qaynoq gidroksidida yaxshi eriydi) materialidan o‘n uch million marta, GaAs materialidan yigirma milliard marta kam ekanligini ko‘ramiz.

Bunda yarimo‘tkazgich materiallarning solishtirma qarshiligi $10^{-2} \div 10^{8}$ oraliqda o‘zgarmoqda, ya’ni metallarnikiga qaraganda juda katta oraliqda o‘zgarar ekan. Bundan chiqadigan asosiy xulosa, yarimo‘tkazgich materiallar solishtirma qarshiliklari (T=300 K) juda ham katta oraliqda o‘zgarar ekan.

Jadvalda berilgan nixrom-nikel va xrom (Ni,Cr) aralashmasidan iborat bo‘lgan metall qotishma.

Endi 2-jadvalda yuqoridagi yarimo‘tkazgich va metallar solishtirma qarshiliklarining harorati 100 K dan 500 K gacha bo‘lgan oraliqdagi o‘zgarishi keltirilgan.

2-jadval

Yarimo‘tkazgich va metallarning solishtirma qarshiligi (ρ) [Om·sm]					
Temperatura (K) Material	**100**	**200**	**300**	**400**	**500**
Si	$17 \cdot 10^{25}$	$7.09 \cdot 10^{10}$	$2.3 \cdot 10^{5}$	590	15.68
Ge	$1.1 \cdot 10^{15}$	$8.9 \cdot 10^{4}$	47	0.9	0.09
Cu	$2.54 \cdot 10^{-6}$	$3.3 \cdot 10^{-6}$	$4.06 \cdot 10^{-6}$	$4.82 \cdot 10^{-6}$	$5.6 \cdot 10^{-6}$
Au	$3.39 \cdot 10^{-6}$	$4.4 \cdot 10^{-6}$	$5.32 \cdot 10^{-6}$	$6.29 \cdot 10^{-6}$	$7.2 \cdot 10^{-6}$

Bundan ko‘rinib turibdiki, metallarda bu harorat oralig‘ida ularning solishtirma qarshiliklari eng ko‘pi bilan ikki marta oshganligini ko‘ramiz. Endi shu harorat oralig‘ida elektronikaning eng asosiy materiali bo‘lgan kremniy materialining solishtirma qarshiligi metallardan farqli holda oshmasdan, aksincha kamayadi. Bu kamayish oddiy kamayish emas, tasavvur qilib bo‘lmaydigan darajadagi katta kamayish yuz berayotganini ko‘rish mumkin. Bunda harorat bor yo‘g‘i 100 K dan 500 K ga, ya’ni 5 marta o‘zgarmoqda, kremniy materiallarining solishtirma qarshiligi esa ming, million, trillion emas, balki trillion marta ko‘p darajada, ya’ni 10^{25} marta kamaymoqda. Xuddi shunday hodisa barcha yarimo‘tkazgich materiallar uchun mavjuddir. Bu juda ajoyib misli ko‘rilmagan fizikaviy hodisa ekanligidan dalolat beradi. Demak, ikkinchi xulosa, yari-

mo‘tkazgich materiallarning solishtirma qarshiligi metallardan farqli ravishda harorat oshishi bilan ortmasdan, balki juda katta tezlik bilan kamayar ekan.

Bundan yana bir ajoyib xulosa kelib chiqadiki, agar harorat T=1K gacha pasaytirilsa, yarimo‘tkazgichlar solishtirma qarshiligi juda yuqori tezlik bilan oshib boradi va ular umuman tok o‘tkazmaydigan dielektriklarga aylanadi. Aynan shu haroratda juda ko‘p metallarning (qo‘rg‘oshin-7.2K, indiy-3.4K, alyuminiy-1.2K) solishtirma qarshiligi yo‘qolib, ular o‘ta o‘tkazuvchan holatlarga o‘tishi aniqlangan.

Fizikada ma’lumki metallarda tok o‘tishida ishtirok etadigan zarrachalar faqat elektronlardir – ya’ni, ye=1,6 $\cdot 10^{-19}$ Kl manfiy zaryadga ega va massasi m=9.1$\cdot 10^{-31}$kg bo‘lgan elementar zarrachalardir. Endi yarimo‘tkazgichlarga kelsak, ularda metallardan farqli ravishda bitta emas, balki ikki xil zaryad tashuvchilar – zaryadlari bir-biriga teng, ammo qarama-qarshi ishoraga ega bo‘lgan elektronlar va kovaklardan iborat bo‘ladi. Demak, yarimo‘tkazgichlarda 2 xil tok tashuvchilar elektronlar va kovaklar mavjud. Yarimo‘tkazgichlarning mana shu eng noyob xossasigina ular asosida metallarda yaratish mumkin bo‘lmagan elementlar: diodlar, tranzistorlar va o‘ta nozik mikrosxemalar yaratish imkonini beribgina qolmay, bunday elementlar o‘lchovlarini tasavvur qilib bo‘lmaydigan darajada kamaytirishga (10^{-4}-10^{-7}sm) va hozirgi zamon elektronika-mikroelektronikaning yaratilishiga asos bo‘lgan**.** Albatta, buni oxirgi chegara deya olmaymiz.

Uchinchi jadvalda eng ko‘p qo‘llanadigan yarimo‘tkazgichli toza kremniy materialiga qo‘shimcha ba’zi element atomlari kiritilganda material solishtirma qarshiligining kirishma atomlari miqdoriga mos o‘zgarishi keltirilgan.

3-jadval

1kg Si ga har xil miqdorda kirishma atomlar kiritilganda uning solishtirma qarshiligining o‘zgarishi						
	Toza kremniy	Kirishma atomlar	**1mg**	**10mg**	**100mg**	**1g**
Solishtirma qarshiligi (ρ) [Om·sm]	$2\cdot10^{5}$	P	$1.18\cdot10^{-1}$	$1.18\cdot10^{-2}$	$1.18\cdot10^{-3}$	$1.18\cdot10^{-4}$
		As	$2.7\cdot10^{-1}$	$2.7\cdot10^{-2}$	$2.7\cdot10^{-3}$	$2.7\cdot10^{-4}$
		B	$1.92\cdot10^{-1}$	$1.92\cdot10^{-2}$	$1.92\cdot10^{-3}$	$1.92\cdot10^{-4}$
		Al	$4.9\cdot10^{-1}$	$4.9\cdot10^{-2}$	$4.9\cdot10^{-3}$	$4.9\cdot10^{-4}$

Bunda bir kilogramm toza kremniy materialiga, bir gramm emas, balki bir milligramm (10^{-6} kg), ya’ni kremniy massasidan million marta kam bo‘lgan Al, B yoki P (Fosforning quyidagi turlari mavjud: oq, qizil, qora. Molekulyar tuzilishga ega bo‘lgan oq fosforning eng beqaror shakli hisoblanadi. Qizil fosfor oq ko‘rinishdagi fosforning polimer tuzilishidagi turidir. Qora fosfor oq fosforni 200 ^{0}C gacha qizdirganda olinadi), As kiritilganda, uning solishtirma qarshiligi million marta kamayishi kuzatiladi. Bu esa, juda ajoyib va o‘ta muhim fizik hodisa ekanligidan dalolat beradi. Agar kirishma atomlar massasini 1 milligrammdan 10,100,1000 milligramgacha oshirib borsak, unga mos ravishda solishtirma qarshilik ham o‘n million, yuz million va milliard marta kamayar ekan.

Demak, yana bitta o‘ta muhim xulosa yarimo‘tkazgichlarning fundamental parametrlaridan biri bo‘lgan solishtirma qarshiligini, unga kirishma atomlarini o‘ta kam miqdorda kiritish orqali ularning solishtirma qarshiligi milliard martagacha o‘zgartirish mumkinligi eksperimental tadqiqotlar yordamida aniqlangan. Metallarda esa kirishma atomlari (hatto teng miqdorda) kiritilganda ham ularning solishtirma qarshiligi eng ko‘pi

bilan 5÷10 foizga oshishi mumkinligi isbotlangan.

Shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, kirishma atomlari tabiatiga qarab, ya’ni ularning tashqi valent elektronlar soni kremniy atomining tashqi valent elektronlari (4 ta) sonidan ko‘p bo‘lgan holatda (P, As, Sb bu elementlarda 5 ta tashqi valent elektronlar mavjud) kremniydagi elektronlar konsentratsiyasini, agar kirishma atomlar tashqi valent elektronlari kam bo‘lganda (B, Al elementlarida 3 ta vakant elektronlar mavjud) esa kremniydagi kovaklar konsentratsiyasini boshqarish mumkin ekan. Bu degan so‘z 5-guruh elementlarini kremniyga kiritish bilan elektronli – kremniy (n – tipli) yoki unga 3-guruh elementlari kiritish orqali kovakli kremniy, ya’ni r – tipli olinadi. Shundan kelib chiqqan holda n va r tipdagi kremniy asosida r – n o‘tishi mavjud bo‘lgan barcha eng oddiy qurilmalardan eng murakkab qurilmalar yaratish mumkin.

Yuqorida keltirilgan eksperimental natijalar shuni ko‘rsatadiki:

1. Yarimo‘tkazgichli materiallarning solishtirma qarshiligi ularni tabiati va tuzilishiga qarab, metallardan farqli holda juda katta oraliqda o‘zgaradi.

2. Metallardan farqli holda yarimo‘tkazgichli materiallarning solishtirma qarshiligi harorat oshganda ortish o‘rniga juda katta tezlik bilan kamayar ekan. Bu degan so‘z yarimo‘tkazgich materiallarni solishtirma qarshiligi haroratga juda sezgir ekan. Shuningdek, ularning past haroratlarda dielektirik xususiyatini namoyon qilishi aniqlandi.

3. Yarimo‘tkazgichlarda metallardan farqli holda 2 xil zaryad tashuvchilar ya’ni, elektronlar va kovaklar mavjud bo‘ladi. Bu esa hozirgi zamon elektronika va mikroelektronika fanining paydo bo‘lishiga asos soldi.

4. Yarimo‘tkazgichli materiallarning atomlari konsentratsiyasiga nisbatan juda kam kirishma atomlarini kiritish yo‘li bilan ularning xossalarini juda katta miqdorda (ming, million, milliard martagacha) o‘zgartirish mumkin, metallarda esa bunday o‘zgarishlarni amalga oshirish mumkin emas.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yarimo‘tkazgichli materiallarning yuqorida bayon qilingan ajoyib va noyob xossalari asosida hozirgi zamon elektronikasi yaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.K. Baxodirxonov, X.M. Iliyev, N.F Zikrillayev. Yarimo‘tkazgichlar fizikasi. Darslik. – “Extremum-press”, 2016-y.

2. М.К. Бахадирханов, И.Б. Ортиков. Малый энциклопедический справочник по полупроводниковым материалам. – Т., 2006 г.

3. Кухлинг Х. Справочник по физике Москва, Мир 1982 г.

4. Q.P. Abduraxmonov, V.S. Xamidov, N.A. Axmedova. Fizika. – T., 2018-y.

5. А.А. Щука, Электроника. Санкт-Петербург: БХВ Петербург, 2005 г.

Iroda PO‘LATOVA,
Toshkent viloyati O‘rta Chirchiq tumanidagi
9-umumiy o‘rta ta’lim maktabining
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

NAVOIY IJODIDA RANGLAR JILOSI YOXUD TA’LIM TIZIMIDA ULARDAN FOYDALANISHNING SAMARALARI

Annotatsiya

Maqolada Navoiy ijodida ranglar jilosi yoxud ta’lim tizimida ulardan foydalanishning samaralari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif Alisher Navoiy ijodida ranglar tasviri shoir falsafiy qarashlarini ifoda qilishda muhim o‘rin tutishi va “Xamsa” turkumiga kiruvchi “Sab’ai sayyor” dostonida aynan ranglar jilosi asar mazmunini boyitgani, qahramonlar xarakterini ranglar asosida tahlil qilib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Rang, ijod, ta’lim, doston, jilo, falsafiy qarashlar, samara, funksiya, an’anaviy usul, javohir, ma’rifat.

В статье рассматриваются преимущества использования цветовой палитры в работах Навои или их использования в системе образования. Автор также подчеркивает важность цвета в произведениях Алишера Навои при выражении философских взглядов поэта и цветовой палитры произведения “Сабъаи саййар” книги Хамсы, которая обогащает содержание произведения.

Ключевые слова. Цвет, творчество, воспитание, эпос, сенсация, философские взгляды, эффективность, функция, традиционный метод, копье, просветление.

The article discusses the advantages of using the colour palette in the works of Navoi or their use in the education system. The author also emphasizes the importance of colour in the works of Alisher Navoi in expressing the poet’s philosophical views and the colour palette of the Khamsa book’s “Sab’ai Sayyar”, which enriches the content of the work.

Key words. Colour, creativity, education, epic, sensation, philosophical views, effectiveness, function, traditional method, javelin, enlightenment.

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy umumbashariyat madaniy xazinasidan munosib o‘rin olgan o‘lmas asarlarini aynan ona tilimizda yaratib, uning shuhratini butun dunyoga tarannum etdi. Ham adabiy va ilmiy asarlari, ham go‘zal insoniy fazilatlari bilan barchaga o‘rnak bo‘lib kelayotgan Alisher Navoiyning rang-barang ijodi vaqt atalmish oliy hakamni ham o‘z izmiga bo‘ysundirgani, dunyodagi eng oliy mo‘jiza – so‘z qudrati va uning go‘zal o‘zbekona ifodasi sifatida umumbashariyat mulkiga aylangani rad etib bo‘lmas haqiqatlardan. Shu bois, ma’naviyatning umrboqiy sarchashmalariga doimiy ehtiyoj sezadigan bashariyat farzandlari bugungi kunda ham Navoiyning o‘lmas satrlarida tajassum topgan hayotiy hikmatlardan ko‘proq bahramand bo‘lishga harakat qiladi.

Bu muazzam ijodni o‘rganish, tadqiq va talqin etish Navoiyning hayotligi davrlaridayoq boshlangan bo‘lib, o‘tgan besh asr davomida so‘z san’ati bilan shug‘ullanadigan

ko‘plab olim va ijodkorlar turli shaklda Navoiy merosini o‘qib-o‘rganish va boshqalarni ham bahramand etishga harakat qilganlar. Shuni aytish kerakki, Navoiy ijodini bor bo‘y-basti bilan xolislik va ilmiylik mezonlariga mos holatda o‘rganish va o‘rgatish imkoniyati istiqlol sharofati bilan yanada kengaydi.

Yoshlar ma’naviy dunyosining milliylik va insonparvarlik zaminida shakllanishiga g‘oyat kuchli va samarali ta’sir ko‘rsatadigan, ayni paytda, o‘zbek mumtoz adabiyoti va o‘zbek milliy ma’naviyatining shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini anglash yo‘lida ochqich – kalit vazifasini bajaradigan Navoiy ijodini o‘rganish orqali yoshlarda sog‘lom tafakkur tarzini shakllantirish, o‘zbek adabiyoti tarixining eng muhim davri haqida har tomonlama bilim hosil qilish, ma’naviy dunyosi mukammal bo‘lishiga ko‘maklashish bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan masalalardan hisoblanadi.

Bu dunyo biz bilgan va bilmagan sir-sinoatlarga, mo‘jizalarga boy. Birgina ranglarni olaylik. To‘g‘risi, bu olamning go‘zalligini ranglar jozibasisiz tasavvur etish mushkul. Ruhshunos olimlar ranglarning inson ruhiyatiga ta’siri haqida juda ko‘p tadqiqotlar olib borishmoqda. Hozirda bir qancha davlatlarda shu yo‘nalishda maxsus institutlar, ilmiy markaz laboratoriyalar mavjud. Buyuk ajdodlarimiz esa ranglarning inson hayotidagi o‘rni, shifoviy, tarbiyaviy, ruhiy jihatlari haqida juda ko‘p sinoatlarni qadimdan bilganlar.

Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Mineralogiya” asarida 200 ga yaqin ranglar hamda ularning kelib chiqishi haqida fikr yuritgan.

Hassos ijodkorlar ijodida ranglar tasviriga ham alohida e’tibor qaratilishi bejiz emas. Xususan, Alisher Navoiy ijodida ranglar tasviri shoir falsafiy qarashlarini ifoda qilishda muhim o‘rin tutgan.

Misol uchun:

Xil’atim to aylamish jonon qizil, sarig‘, yashil,
Shulai ohim chiqar har on qizil, sarig‘, yashil.

Shishadek ko‘nglimdadur gulzori husning yodidin,
Tobodoning aksidek alvon qizil, sarig‘, yashil.

G‘azalda inson ruhiy holatlari nozikligi, sirliligi, tashqi dunyo va odam surati bilan uyg‘unlikda ekani juda nozik holatda tasvirlangan. Shoir tanlagan uch rang qizil, sariq, yashil – o‘zining barcha tovlanishlari bilan nomoyon bo‘ladi. U garchi yor tavsifiga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, yuqoridagi satrlarni o‘qib, sizning xayolingizda ham bugun butun dunyoda mashinalarning qatnovini tartibga solib turgan svetofor gavdalanganiga shubha yo‘q.

Ma’lumki, qizil rang taqiq belgisi, yor dastlab oshiqning sevgisini rad etadi, noz qiladi. Sariq rang tayyorgarlik, oshiqning rangi sarg‘ayib fig‘oni ko‘kka o‘rlayvergach, jononaning ko‘ngli ham unga iliy boshlaydi. Yashil rang bu yo‘l ochiq degani. G‘azalda ham yor turfa ranglardagi kiyimlarda ko‘rinish berib, oshiqning ko‘nglini ezadi. U yashillikka burkanganda vasl ayyomi boshlanadi. Darvoqe, Navoiy baytlarida ilk bor namoyon bo‘lgan bu ramz – svetofor amerikalik olim Garret Morgan tomonidan 1916 -yilga kelibgina kashf qilindi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilariga yuqorida keltirilgan g‘azalni shunchaki ifodalab emas, balki uning mohiyatiga e’tibor qaratib, svetofor ranglariga ishora ekanini aytish juda qiziqarli. Beshinchi yoki oltinchi, boringki, yuqori sinf o‘quvchilariga shu tarzda dars o‘tilsa, ularga bu bir umr saboq bo‘ladi. Ushbu dars umuman ularning xayolidan chiqmaydi.

“Xamsa” turkimiga kiruvchi “Sab’ai sayyor” dostonida aynan ranglar jilosi asar mazmunini boyitishda, qahramonlar xarakterini ochishda muhim badiiy vosita bo‘lgan.

Ma’lumki an’anaga ko‘ra, “Xamsa”ning 4-dostoni Bahrom Go‘r tarixiga bag‘ishlanmog‘i kerak edi. Navoiy ulug‘ salaflari an’anasini davom ettirar ekan, Bahrom bilan Dilorom haqida go‘zal ishq dostonini yaratadi. Dostonning kompozitsion tuzilishi “Xamsa”ning boshqa dostonlaridan birmuncha farq qiladi: doston “hikoya ichida hikoya” tarzida shakllangan.

Qoliplovchi hikoya Bahromning rassom Moniy tufayli Diloromdan xabar topgani, sevgilisi vasliga yetgani, lekin kutilmagan mojaro tufayli ayriliq, hijron azobida qolganligi voqeasi bilan boshlanadi. Hijron iztiroblarida yongan Bahromning kunlari g‘amqayg‘uda o‘tadi. Uning dardiga chora topolmagan tabiblar maslahatiga ko‘ra, Bahrom uchun yetti iqlimning yetti shohi yettita qasr qurishadi. Qasrlar bitgach, yana tabiblar maslahatiga ko‘ra Moniy boshchiligida qasrlarni turli ranglarda bezash ishlari boshlab yuboriladi. Nihoyat, yetti xil rangdagi qasrlar qurilishi nihoyasiga yetadi. Har bir qasrga yetti iqlimning yetti shohi qizlarini joylaydi. Qoliplovchi hikoyaning so‘nggi bobi shu yerda tugaydi va asosiy qismi boshlanadi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, tabiblar aynan Bahromning dardiga chora izlash mobaynida qasrlarni muvofiq rangda bezatishni ma’qul ko‘radilar.

Asosiy qism Bahromning birinchi, ya’ni shanba kuni qora qasrga borish tafsilotiga bag‘ishlangan bo‘lib, shunday sarlavha bilan boshlangan: *“Shanba kuni Bahromning mushkfom liboslar kiyib gunbazi mushkunga xirom qilib, g‘izoli mushkuli bila bodai mushkin ichgani va bu mashg‘ullik bilan hijron o‘tining dudu aro qilg‘on kunin shomha yetkurgani”.*

Ushbu hikoyada qora rangga alohida urg‘u berilgan. Chunki qora rang tushkunlik, motam, noaniqlik hisoblanadi. Bahrom uchun hijron tufayli qora kunlar boshlangan. Qora rang orqali uning holati, ruhiy kechinmalari talqin etilgan.

Lekin boshqa jihatdan qora rang ulug‘vorlik, kamolga yetganlik ramzi ham hisoblanadi. Xususan, birinchi iqlim yo‘lidan kelgan musofirdan tinglangan Farrux va Axiy haqidagi hikoya qahramonlari uchun qora rang muruvvat, yaxshilik ramzi bo‘lib qolgan. Shuni ta’kidlash joizki, qora rang Navoiy ijodida yoshlik ramzi ham hisoblanadi. Zero, insonning yoshligini uning sochlari qora ekanligi belgilaydi.

“Sab’ai sayyor” dostonining ikkinchi – yakshanba kun voqealari quyidagi sarlavha ostida berilgan: “Yakshanba kuni Bahromning quyoshdek libos kiyib zarnigorga azm qilib soriq xillalig‘ bazmi aysh oltin sog‘arda asfar mayini ichgani, yoinkim, quyoshning sariq guli uchirg‘oni chog‘din oftob zardig‘acha anga bir yilcha kechgani”.

Sarlavhaning o‘zidanoq hamma narsalar sariq rangga burkanganligi ta’kidlamoqda. Sariq rang azaldan quyosh, nuri iliq, ko‘tarinkilik ruhi ramzi hisoblangan. Yana sariq rang azaldan oltin bilan bog‘liq. Shuning uchun yakshanba kuni tasvirida aynan mazmuni oltin bilan bog‘liq hikoya keltirilgan. Ya’ni Zayd Zahhob degan zargarning sarguzashtlari to‘g‘risida.

Uchinchi, ya’ni dushanba kun voqealari yashil rang bilan uyg‘unlikda tasvirlangan. Ma’lumki, yashil rang Sharq xalqlari tasavvurida hayot, tiriklik, o‘sish ramzi hisoblanadi. Navoiy tasavvurida ham bu rang hayot va go‘zallik timsoli sifatida talqin etilgan. Uchinchi iqlim yo‘lidan kelgan musofir ham yashil shahar – Shahrisabzdan. U so‘zlab bergan hikoya qahramoni Sa’d pirovardda baxtli kelajakka erishadi. Demak, Navoiy talqinida yashil rang o‘tmish va kelajak timsoli hamdir.

Bahrom seshanba kuni to‘rtinchi qasrda vaqtini o‘tkazadi. To‘rtinchi hikoyada hamma narsa qizil rangda tasvirlangan. Qizil rang jo‘shqinlik, xursandchilik, g‘alaba

ramzi bo‘lishi bilan birgalikda iztirob, telbalik, halokat ramzini ham ifodalaydi. Chunki to‘rtinchi iqlim yo‘lidan kelgan musofir ezgulik va yovuzlik kuchlari o‘rtasida bo‘lgan murosasiz jang va qonli kurash natijasida erishilgan yaxshilik g‘alabasi haqida hikoya aytib beradi. Bu hikoyaning aynan shu kun tasvirida keltirilishi bejiz emas. Axir, seshanba kun homiysi ham Mirrix, ya’ni jang-u jadal timsoli qizil sayyora-ku.

Beshinchi kun – chorshanba. Bu bob quyidagi sarlavha bilan boshlangan: *“Chorshanba kuni Bahromning moviy kisvat bila gumbazi nilufariyga mayl qilib xurshid osmoniy libos bila jomi firuzagin aro kabudan mayidek boda solib no‘sh qilg‘oni va no‘shono‘sh uning toqi nilufardin oshirg‘ani”.*

Moviy rang g‘am va qayg‘u ramzlari hisoblanadi. Bundan tashqari ochiq osmon va dengiz rangi sifatida o‘zida yuksaklik va chuqurlikni ifoda etadi. Ruhshunoslar ko‘k rang inson asabiga tinchlantiruvchi ta’sir ko‘rsatishini aniqlaganlar.

Navoiy bu bobda dengiz bilan bog‘liq hikoyani kiritadi. Hikoya qahramonlari ko‘p sinovlardan o‘tadi va oshiqlar visolga yetganlarida ko‘k rangda motam libosini kiyishadi, chunki otalari vafot etadi.

Oltinchi bob sandaliy (och sariq) rangli qasr tasviri bilan boshlanadi. Bu rang xotirjamlik rangi. Bahrom ham dardiga chora topganday. U avvalgiday g‘amgin emas, kelajakka umid bilan qaraydi. Maqsad-murodi yaqin bo‘lganday ko‘ngil xotirjam. Ushbu bobdagi hikoya qahramonlari ham o‘z qilmishlariga yarasha ajr olishadi, haqiqat g‘alaba qozonadi.

“Sab’ai sayyor” keyingi bobi juma kuni, Bahrom oq liboslar kiyib kofuriy ya’ni oq qasrga borishi haqida. Oq rang tozalik musaffolik, yorug‘lik, haqiqat va ezgulik ifoda ramzi. Lekin boshqa tomondan u motam va qayg‘u ramzi ham hisoblanadi.

Bahrom ayni shu kuni sevgilisi haqida xabar topadi. Ko‘p o‘tmay uning vasli ham nasib etadi. Lekin eshitgan ibratli hikoyalaridan yetarli xulosa chiqarib olmagani uchun yana aysh-ishratga beriladi. Oqibatda navbatdagi ovga chiqishlaridan birida fojea yuz beradi: Bahrom, Dilorom va barcha a’yonlarni yer o‘z qariga tortib ketadi.

E’tibor bersangiz, dostonning birinchi hikoyasidan to so‘ngi – yettinchi hikoyasigacha ranglar o‘zaro uyg‘unlikda. Seshanba Mirrix, ya’ni Mars sayyorasi kuni ekanini eslatgan edik. Fors tilida Mirrix Bahrom ham deyiladi. Aynan shu kundan boshlab ranglar so‘na boshlaydi: moviy, sandaliy, oq... Ya’ni Bahrom halokati yaqin va muqarrar ekanligi ta’kidlanadi.

So‘z san’atida beqiyos mo‘jizalar yaratgan hazrat Navoiy ranglar jilosidan shu qadar mohirlik bilan, o‘rinli foydalanganki, oradan ko‘p asrlar o‘tgan bo‘lsa ham bu asardagi shakl va ma’no uyg‘unligi ta’rifiga yetguday so‘z topmoq mushkul. Biz buni birgina “Sab’i sayyor” dostoni misolida tahlil qilishga harakat qildik. Zero, Navoiyni o‘qish, Navoiyni anglash baxtim nasib etgan ekan, ming bor shukronalar aytib, ulug‘ shoir ijod gulshanini sayr aylamoq va yangidan-yangi qirralarini kashf etmoq biz, minnatdor avlodlar uchun yuksak sharafdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. – T.: O‘zME.

2. “Alisher Navoiy va XXI asr”: maqolalar to‘plami; / mas’ul muharrir Sh. Sirojiddinov. – T.: Tamaddun, 2017. – 316 b.

A'zaam BEGBO'TAYEV
Jizzax Davlat pedagogika instituti
katta o'qituvchisi

LABORATORIYA ISHLARINING BAJARILISHINI BAHOLASHDA IMITATSION VIRTUAL TRENAJORLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada trenajorlarni loyihalashning avtomatlashtirish tizimi vazifalari va imkoniyatlari aniqlangan. "Tarmoq laboratoriyalari" qobiq dasturiga kiritilgan quyi tizimlar, shuningdek, trenajorlarni loyihalashning avtomatlashtirilgan tizimining natijalarini baholash mezonlarini belgilash metodlari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Tizim, virtual trenajor, tekshirish modeli, "Tarmoq laboratoriyalari", dastur, baholash mezonlari.

В статье определены задачи и возможности системы автоматизации проектирования виртуальных тренажёров. Рассмотрены подсистемы, входящие в программу "Сетевые лаборатории", а также процесс разработки модели проверки и задание критериев оценки результатов работы системы автоматизации проектирования.

Ключевые слова. Система, виртуальный тренажёр, модель проверки, "Сетевые лаборатории", программа, критерии оценки.

The article identifies tasks and capabilities of virtual simulators design automation system. It considers sub-systems included into program "Network Laboratory" and process development of results checking model as well as results evaluation criteria setting in design automation system.

Key words. System, virtual simulator, check model, "Network Laboratory", program, evaluation criteria.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yuqori malakali mutaxassislar sifati va miqdoriga bo'lgan talabning keskin ortib borishi, shuningdek, ta'limni axborotlashtirish makon va vaqt doirasi bilan chegaralanmagan, yangi o'qitish shakllarini yaratishga imkon beruvchi innovatsion ta'lim metodikasi va texnologiyalarini ishlab chiqish hamda joriy etish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Bunday talablarga ta'lim oluvchilarning hududiy joylashuviga bog'liq bo'lmagan va ishlab chiqarishdan ajralmagan holda, individual ta'limiy dasturini e'tiborga olib internet orqali sifatli ta'lim olishni ta'minlovchi masofaviy o'qitish g'oyasi to'laligicha javob beradi.

Jahonning ko'pgina mamlakatlari oliy o'quv yurtlarida masofaviy ta'lim tizimini uzoq vaqtdan beri muvaffaqiyatli ishlatib, "talaba-o'qituvchi"ning o'zaro ta'sirlashuv imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Bunday tizimlarni ishlab chiqishda, asosan, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'rtasidagi muloqot uchun o'quv materiallari va vositalarini joylashtirish imkoniyatlariga ko'proq e'tibor qaratiladi. O'zlashtirishning muvafaqqiyati o'z navbatida, har xil testlarni o'tkazish va bajarilgan ishlarni tashkillashtirish imkoniyatidir. Zero, mashg'ulotlarda testlardan foydalanish tekshirilayotgan bilim-

lar ko‘rinishiga cheklovlar qo‘yadi: test yordamida faqat talabaning akademik bilimini aniqlash mumkin, ammo bunda qo‘yilgan masalani amaliy yechish bo‘yicha bilimlar to‘liq qamrab olinmaydi, ya’ni e’tibordan chetda qoladi.

Tarmoq texnologiyalari bo‘yicha laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish xonasida uskunalarni o‘rnatish va ishlatish uchun ko‘plab texnika vositalarini joriy etish muammoli vaziyatlar keltirib chiqaradi. Ushbu muammoni hal qilish uchun talaba laboratoriya ishlarini bajarishi mumkin bo‘lgan dasturiy ta’minot yoki imitatsion virtual trenajor tizimini ishlab chiqish zarur. Laboratoriya ishi natijalari keyinchalik o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinishi uchun tekshirilishi va saqlanishi lozim.

Imitatsion virtual trenajor (ingliz. “train” – “tarbiyalamoq”, “o‘qitmoq”, “mashq qildirmoq”) – elektron shakldagi o‘quv-mashqlantiruvchi qurilma bo‘lib, u yordamida mehnat faoliyatining real sharoiti modellashtiriladi, muayyan faoliyat (m: mashina (mexanizm) ni boshqarish, murakkab stanokda ish bajarish yoki harbiy texnika sirlarini o‘zlashtirish) ko‘nikmalari shakllantiriladi, ko‘nikmalar malakalarga aylantiriladi hamda hosil bo‘lgan malakalar takomillashtiriladi.

“Tarmoq texnologiyalari” fanida o‘qitishning muhim qismlari bu tarmoq topologiyasini yaratish va qurilmalar parametrlarini sozlashlar (IP manzil, tizimosti niqobi, shlyuz, DHCP, SSID), tarmoq tarkibiga kiruvchilar (Tarmoq kartalari bilan shaxsiy kompyuterlar, yo‘naltirgichlar (router), kommutatorlar, simsiz ulanish nuqtasi, tarmoq print-serverlari va boshqalar) hisoblanadi.

Bunday tizim tomonidan hal qilinishi kerak bo‘lgan vazifalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish;
- laboratoriya topshiriqlarini bajarish;
- laboratoriya ishlarining bajarilishini nazorat qilish;
- laboratoriya ishlarining natijalarini qayd etish;
- laboratoriya ishlarining bajarilish natijalari tahlili;
- topshiriqni baholashni shakllantirish.

Tizim quyidagi funksional imkoniyatlarni ta’minlashi kerak:

- ta’lim oluvchilarni ro‘yxatga olish;
- talabalarga tizimdagi topshiriqlarni yuklab olish imkoniyati, shuningdek, topshiriqni bajarishda yordam beradigan materiallar (uslubiy ko‘rsatmalar, o‘quv adabiyotlar) yoki ularga havolalar;
- baholashda topshiriqning turli mezonlari uchun murakkablik va ahamiyatlilik koeffitsiyentlarini belgilash imkoniyati;
- tayinlash mezonlarini belgilash imkoniyati (tezlik, to‘g‘ri ulanishlar soni, qo‘shimcha uskunalar soni va boshqalar);
- tugallangan vazifalarni tizimga yuklab olish imkoniyati;
- talaba va o‘qituvchining topshirig‘i bo‘yicha tahlillarni olish imkoniyati;
- o‘qituvchining talaba bajargan vazifani ko‘rish imkoniyati;
- o‘qituvchining tizim tomonidan o‘rnatilgan baholarni tuzatish imkoniyati.

Ushbu tizim ikkita bajariladigan komponentlardan (tarkibiy qismlardan) iborat bo‘lgan alohida dastur qobig‘i ko‘rinishida ishlab chiqilgan: virtual trenajyorlar yaratish va virtual trenajyorlarni ijro etish tarkibiy qismlari.

Laboratoriya muharriri, foydalanuvchi bilan muloqot davomida laboratoriyani ma’lumotlar (nazariy materiallar) bilan to‘ldirish, shuningdek, harakat va vositalarni boshqarishni ta’minlaydi. Virtual trenajyorlar yaratish komponenti virtual laboratoriyani qurish jarayonini muvofiqlashtirib, asosiy rolni bajaradi.

Imitatsion virtual trenajor muharriri asosiy funksiyasi obyektlarning namunalarini yaratish, ularni tahrirlash va saqlashdan iborat bo‘lganligi sababli ular quyidagi vazifalarni bajarishlari kerak:

- laboratoriya ishi haqida umumiy ma’lumotni yaratish va tahrirlash;
- laboratoriya ishlarining komponentlarini yaratish va tahrir qilish;
- komponentlar orasidagi bog‘lanishlarni yaratish va tahrir qilish;
- komponentlarning parametrlarini yaratish va tahrir qilish;
- belgilashda turli mezonlar uchun ahamiyatlilik koeffitsientlarini yaratish va tahrirlash.

Virtual trenajyorlar quyi tizimining asosiy vazifasi – o‘quv materiallari va foydalanuvchi bajaradigan virtual laboratoriya ishi haqida ma’lumot yig‘ishdan iborat bo‘lib, u quyidagi vazifalarni bajaradi:

- laboratoriya tuzilmasi fayldan yuklash;
- laboratoriya resurslarini o‘qish (matn va tasvirlar);
- laboratoriya ishlarini bajarish;
- foydalanuvchi tomonidan laboratoriya ishlarini bajarish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish va saqlash.

Ishning boshlanishida o‘qituvchi laboratoriya ishining yangi hujjatini yaratadi va unga nom beradi. Shundan so‘ng, trenajorning ishchi maydoniga tarmoq topologiyasi komponentlari qo‘shiladi, sozlash qism tizimida topologiyani yaratish va tekshirish uchun sarflanadigan ish vaqtini tezlashtirish zarur bo‘lgani uchun komponentlar avtomatik shakllantiriladi.

Yechiladigan masalaga bog‘liq holda avtomatik sozlashni o‘qituvchi o‘zgartirishi mumkin. Ushbu komponentda tarmoq tarkibiy qismlari buyruq qatori oynasini ishlatmasdan avtomatik ravishda tekshiriladi. Keyingi harakatlar bog‘lanishlarni shakllantirishdan iborat bo‘lib, agar ular laboratoriya ishlarini bajarishning boshlang‘ich shartlarida kerak bo‘lsa, ammo hech qanday aloqalar mavjud bo‘lmasa, u holda topshiriqlarni yaratishga o‘tish mumkin. O‘rnatilgan HTML muharrir yordamida o‘qituvchi virtual laboratoriya ishining maqsad va qadamlarini shakllantiradi va uning mavzusiga oid nazariy materiallarni taqdim qiladi.

Nazariy materiallar to‘plangandan so‘ng, o‘qituvchi baholash mezonlarini va laboratoriya ishining turli xil parametrlarining muhimlik koeffitsientlarini belgilaydi (nol koeffitsient bilan ballarni hisoblashda mezonlar hisobga olinmaydi). Mezonlar talabalar laboratoriya ishini bajarishda namoyon etish kerak bo‘lgan, tekshiriluvchi bilim va ko‘nikmalar ko‘p xilligidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

“Tarmoq texnologiyalari” fani bo‘yicha bajariladigan laboratoriya ishlarini beshta asosiy baholashning quyidagi mezonlari aniqlanadi:

- laboratoriya topshiriqlarining bajarilish vaqti;
- o‘rnatilgan ulanishlar soni;
- tugunlar soni;
- tugunlarning muvaffaqiyatli tekshiruvlar sonining umumiy tekshiruvlar soniga nisbati;
- tarmoqda kechiktirilishlarning maksimal vaqti.

Har bir mezonlar uchun o‘qituvchi 0 dan 1 gacha bo‘lgan muhimlik koeffitsientini belgilashi mumkin, bu yerda 0 – mezon hisobga olinmaydi va 1-boshqalarni hisobga olmasdan, ushbu mezondan olingan barcha baholar. Shunga asoslanib, barcha koeffitsientlarning yig‘indisi har doim 1 ga teng bo‘lishi kerak:

$$k_t + k_m + k_n + k_z + k_d = 1, \quad (1)$$

bu yerda $\mathbf{k_t}$ - laboratoriya ishini bajarish vaqtining mezonlari uchun muhimlik koeffitsient; $\mathbf{k_m}$ – o‘rnatilgan ulanishlar sonining mezoni uchun koeffitsient; $\mathbf{k_n}$ – tugunlar soni mezonlari uchun koeffitsient; $\mathbf{k_z}$ – tugunlarning muvaffaqiyatli tekshiruvlar sonining umumiy tekshiruvlar soniga nisbati mezonlari uchun koeffitsient; $\mathbf{k_d}$ – tarmoqda kechiktirilishlarning maksimal vaqti mezonlari koeffitsienti.

Laboratoriya ishlarining davomiyligi bir necha daqiqalarda o‘lchanadi va o‘qituvchi tomonidan belgilanadi. Talabaning ushbu mezon bo‘yicha to‘plash mumkin bo‘lgan ballari soni T quyidagicha aniqlanadi:

$$\begin{cases} T = \left(1 - \frac{t_s}{t}\right) * k_t * 100 \\ t_s \le t, \end{cases} \quad (2)$$

Bu yerda mos ravishda, ts – talabaning bajarish vaqti va t – o‘qituvchi bajarish uchun belgilagan vaqt muddati.

Tarmoq topologiyasi qattiq talabda ko‘rsatilganda va bog‘lanishlar soni o‘qituvchiga oldindan ma’lum bo‘lsa, o‘rnatilgan ulanishlar sonini tekshirish mumkin. Bu shuningdek, topologiyadagi tugunlar soni uchun ham amal qiladi. Ushbu mezonlarga tegishli **M** va **N** ballari quyidagi formulalar bo‘yicha hisoblanishi mumkin:

$$\begin{cases} M = \left(1 - \frac{|m - m_s|}{m}\right) * k_m * 100 \\ m_s \le 2m, \end{cases} \quad (3)$$

$$\begin{cases} N = \left(1 - \frac{|n - n_s|}{n}\right) * k_n * 100 \\ n_s \le 2n, \end{cases} \quad (4)$$

Bu yerda: $\mathbf{m_s}$ – talabalar tomonidan belgilangan ulanishlar soni, **m** – o‘qituvchi tomonidan berilgan ulanishlar soni, $\mathbf{n_s}$ – talaba tugunlarining soni, **n** – o‘qituvchi tomonidan ko‘rsatiladigan tugunlar sonlari.

Tugunlar mavjudligini tekshirishning umumiy soniga muvaffaqiyatli tekshiruvi munosabati me’yori bilimlarning sifatini nazorat qilish va asosiy tarmoq sozlamalarini tushunish bilan bog‘liq muammolarni aniqlash imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Bu mezon o‘qituvchi tomonidan foiz hisobida belgilanadi va talabaning qabul qiladigan ballari soni quyidagi formuladan foydalanib hisoblanishi mumkin:

$$\begin{cases} Z = \left(1 - \frac{|z - z_s|}{z}\right) * k_z * 100 \\ z_s \le 2z, \end{cases} \quad (5)$$

Bu yerda mos ravishda, $\mathbf{z_s}$ – talabani muvaffaqiyatli tekshiruvi foizi va **z** – o‘qituvchi tomonidan belgilangan foiz.

Tarmoqdagi maksimal kechikish vaqti tugunlar orasidagi paketli tranzit vaqtini iloji boricha uzoqroq boshqarishga imkon beradi. Ushbu mezon tarmoq ishiga maksimal erishish uchun turli xil topologiyalarni optimallashtirish imkonini beradi:

$$\begin{cases} d = \left(1 - \frac{d_s}{d}\right) * k_d * 100 \\ d_c \le d, \end{cases} \qquad (6)$$


Bu yerda, $\mathbf{d_s}$ – talaba tarmog‘idagi kechikish vaqti va **d** – o‘qituvchi tomonidan ko‘rsatilgan maksimal qiymat.

A balining umumiy natijasi beshta mezondan iborat (1-rasm):


$$A = T + M + N + Z + D. \qquad (7)$$

Virtual laboratoriya ishining barcha bosqichlarini muvaffaqiyatli tugatganidan so‘ng talaba HTML-muharriridan olingan ish bo‘yicha xulosalar yozish va laboratoriya ish faylini saqlab qolishi mumkin. O‘qituvchi saqlangan laboratoriya ishini dastur muharririning kichik tizimida ochadi. U yerda ishlashning to‘g‘riligini tekshirib ko‘rish, talabaning hisobotini ko‘rish, laboratoriya ishining natijasini ko‘rish, shuningdek, o‘quvchilarning laboratoriya ishi va vaqtini baholash uchun holatlar jurnali mavjud.

O‘qituvchi tomonidan amalga oshirilgan laboratoriya ishini tekshirishda o‘qituvchi faoliyatining “LIT” (1-rasm) va “MOD” (2-rasm) ma’lumotlar oqimining diagrammalariga qaralsa, bunday tizimdan foydalanish bajarilgan laboratoriya ishini o‘qituvchi, shuningdek, inson omillarining xatosini yuzaga keltirishni kamaytiradi.



3-rasm. “LIT” (Laboratoriya ishini tekshirish) Ma’lumot oqimi diagrammasi



4-rasm. “MOD” Ma’lumot oqimi diagrammasi

Shunday qilib, “Tarmoq laboratoriyalari” qobiq dasturi tizimida laboratoriya ishining bajarilishini tekshirish uchun ushbu moduldan foydalanish quyidagilarga imkon beradi:

1. Muhim koeffitsientlardan foydalanib modulning moslashuvchan konfiguratsiyasini ishlab chiqish.

2. Laboratoriya va amaliy topshiriqlar bajarilishining to‘g‘riligini tekshirish hamda natijalarni baholash jarayonlarini avtomatlashtirish.

3. Talaba tarmoq topologiyasini noaniq tahlil qilishdagi xatoliklarni kuzatib borish;

4. Sinash algoritmidan chetlanish mavjud bo‘lganda laboratoriya ishlariga berilgan bahoni o‘qituvchi tomonidan tahrir qilish.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim tizimini isloh qilishning muhim yo‘nalishlaridan biri axborot va telekommunikatsion texnologiyalari bilan ta’lim jarayonini tizimli integratsiyalash va uni boshqarish hisoblanadi. Islohotlar jarayonida oldingi o‘rinlarda o‘quv jarayonini tashkil etish va uning mazmunini tubdan yangicha yaratish, kompyuterlashgan muhitda o‘qituvchining pedagogik faoliyati va talabaning ta’lim jarayonini tashkil etish turadi. Oliy ta’lim tizimida tarmoq texnologiyalari fani bo‘yicha laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish va uni baholashda trenajyor qobiq dasturidan foydalanish o‘qitish samadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.A. Muslimov, D.M. Sayfurov, M.H. Usmonboyeva, A.B. To‘rayev. Web texnologiya asosida elektron axborot ta’lim resurslarini yaratish va ularni amaliyotga joriy etish. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T., 2015. – 128-b.

2. А.А. Антоников Разработка модуля системы дистанционного обучения для проверки знаний в области программирования // А.А. Антоников, С.В. Чискидов, Е.Н. Павличева // Информационные ресурсы России. 2012. № 3. – С. 32-34.

3. A.E. Begbo‘tayev. Virtual laboratoriya ta’lim oluvchilarning bilim sifatini oshirish vositasi. “Tafakkur ziyosi” ilmiy-uslubiy jurnali. Jizzax: 2018. №1.

Dilafruz SADIQOVA,
Nizomiy nomli TDPU
zoologiya va anatomiya kafedrasi
o‘qituvchisi

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA SAMARALI TEXNOLOGIYALARNING MOHIYATI

Annotatsiya

Maqolada pedagogik texnologiyalardan biri, ya’ni o‘qitishning rivojlantirish funksiyasi yoritilgan. Shuningdek, muallif biologiyani o‘qitish jarayonida samara beruvchi bir qancha taklif hamda tavsiyalarini keltirib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Texnologiya, obyekt, uzluksiz ta’lim, qadriyat, takomillashtirish, ma’naviyat, fikr, anglash, tizimli, rivojlanayotgan funksiya.

В статье освещена одна из педагогических технологий, развивающая функция обучения. Автор также дал ряд полезных предложений и рекомендаций по преподавании биологии.

Ключевые слова. Технология, объект, непрерывное обучение, ценность, совершенствование, духовность, мысль, сознание, системность, развивающая функция.

The article describes one of the pedagogical technologies, the developing function of learning. The author also gave a number of useful suggestions and recommendations in teaching biology.

Key words. Technology, object, continuous learning, value, improvement, spirituality, thought, consciousness, systematic, developing function.

Mamlakatimizda uzluksiz ta’lim va ilm-fan tizimini rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan keng ko‘lamli izchil ishlar yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun zarur bo‘lgan sharoitlarni ta’minlashga zamin yaratdi.

“O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ga muvofiq, uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, umumiy o‘rta ta’lim sifatini oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo‘lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganish, ya’ni oliy va umumiy o‘rta ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, o‘qitishning zamonaviy shakl va texnologiyalarini joriy etish, mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan yangi davlat ta’lim standartlarining joriy etilishi o‘rta maktab o‘qituvchilari zimmasiga qator dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda.

Rivojlanayotgan O‘zbekiston uchun chuqur bilimli, o‘tkir zehnli va keng tafakkurga ega o‘quvchilarni tarbiyalashda o‘qituvchilarni dars jarayonida har xil pedagogik texnologiyalardan foydalanishini talab qiladi.

Innovatsion texnalogiyalar inglizchadan “innovaton” yangilik kiritish – pedagogik jarayon, ya’ni o‘quvchi va o‘qituvchi faoliyati o‘zgarish, yangilik kiritish, o‘quv jarayonida interaktiv metodlardan to‘liq foydalanishni o‘z ichiga oladigan vositalar esa o‘quvchining birgalikda faoliyati orqali ta’lim mazmuniga ta’sir ko‘rsatadigan vositalarni o‘z ichiga oladi. Bundan hamkorlikning o‘ziga xos xususiyatlari quydagilardan iborat:

– o‘quvchining dars davomida befarq bo‘lmasdan, ijodiy fikrlashi va izlanlanuvchanlik imkonini yaratish;
– o‘quvchining bilim olish ishtiyoqini muntazam oshirib borish;
– o‘quvchining har qanday muammoga ijodiy yondashuviga o‘rgatish;
– pedagog va o‘quvchi faoliyatining o‘zaro hamkorligini ta’minlash.

Pedagogik texnalogiyalar – o‘quvchi va o‘qituvchining kafolatlangan natijaga erishish uchun o‘quvchi bilan o‘qituvchining hamkorligidagi faoliyatidan iborat. Bu jarayon o‘qish va interaktiv vositalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Bu jarayonda kafolatlangan natijaga erishish o‘qituvchi bilan o‘quvchining hamkorligida faoliyati, o‘quvchining ijodiy ishlash, mustaqil fikrlash, izlanishi, tahlil qilishi va xulosalay olishi, o‘quvchining o‘ziga va guruhga, guruhning o‘quvchiga baho berishiga imkon yaratilishi bilan bog‘liq. Har bir darsga o‘quvchilar qiziqishi mavzu mazmuni va maqsadidan kelib chiqqan holda o‘ziga xos texnologiya qo‘llaniladi.

Pedagogik texnologiya, keng ma’noda – bu shunchaki o‘qitishning texnik vositalari va kompyuterdan foydalanish emas, balki ta’lim samaradorligini oshiradigan omillarni tahlil qilish yo‘li bilan, o‘quv materiallari bilan ishlashning yangi usullarini yaratish va qo‘llash, shuningdek, qo‘llanilayotgan metodlarni baholash vositasi hamda ta’lim jarayonini optimallashtirish tamoillarini aniqlash va usullarini ishlab chiqishdir.

Pedogogik texnologiya asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o‘z munosabatlarini bildirish, ularni fikrlashga, o‘z nuqtayi nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Zamonaviy o‘qituvchining vazifasi – o‘quvchilarning bilim faoliyatini ustirish, ularni faollashtirish, mustaqil ishlash uchun sharoit yaratish, predmetga qiziqtirish, turmushda bo‘ladigan hodisalarni chuqur anglatishni maktabda oladigan bilimlar yordamida amalga oshirishdir.

O‘quvchilarning fan asoslarini egallashga bo‘lgan qiziqishini orttirish va bilim olishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish, ta’lim-tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini ta’minlash, inson, jamiyat va atrof-muhitning o‘zaro munosabatlarini uyg‘unlashtirish, ta’lim oluvchilarda ongli intizom, insoniy qadr-qimmat tuyg‘usi, yuksak ma’naviyat, ijtimoiy me’yorlarga asoslangan xulq-atvor, estetik boy dunyoqarash, mantiqiy va ijodiy fikrlashni tarkib toptirish maqsadida biologiyani o‘qitishga yangicha yondashildi. Yangi yondashuvning asosiy mohiyati, an’anaviy ta’limda ko‘zda tutilgan natijalarni bermayotgan majburan o‘qitishdan voz kechish va uning o‘rniga:

– zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish;
– mustaqil ish va mustaqil faoliyatni amalga oshirish;
– tegishli talablarni jamoa orqali qo‘llashni amalga oshirish muhim sanaladi.

Shu sababli barcha o‘quv fanlari kabi biologiyani o‘qitishda ham pedagogik texnologiyalardan foydalanish zamon talabi sanaladi.

Biologiya fanini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashdan maqsad: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining davlat ta’limi standartlaridagi talablaridan biri, dars

jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarni mazkur fandan olgan bilimlarni chuqurlashtirish va takomillashtirish.

Pedagogik texnologiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari, mohiyati va mazmuniga ko‘ra ikki guruhga ajratiladi:

1. Pedagogik jarayonning xarakteri, borishi va mazmunini o‘zgartirishda qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar.
2. Biologiya darslarida foydalaniladigan texnologiyalar.

Pedagogik jarayonning xarakteri, borishi va mazmunini o‘zgartirishda qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar guruhiga:

– ta’lim jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish texnologiyasi;
– shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar;
– rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari;
– ta’limni differensiallashtirish va individuallashtirish kiradi.

Biologiya darslarida foydalanadigan texnologiyalar guruhiga:

– didaktik o‘yin texnologiyasi, muammoli ta’lim texnologiyasi, modulli ta’lim texnologiyasi, hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi, loyihalash texnologiyasi, an’anaviy ta’lim texnologiyalari va ko‘pgina boshqa texnologiyalar kiradi.

Rivojlanayotgan ta’lim texnologiyasida asosiy urg‘u taqqoslash va fikrlashga qaratilgan. Ta’lim texnologiyasining maqsadi o‘quvchilarga tanqidiy, tahliliy, bog‘lanishli, mustaqil, mantiqiy tizimli, ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalarini tarkib toptirish, o‘quv bahsi va munozaralarni o‘tkazish imkonini beradi. Bu jarayonda o‘quvchining avval o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarni yangi va kutilmagan vaziyatlarda qo‘llash va egallashdan iborat.

Rivojlanayotgan ta’lim texnologiyaning asosiy xususiyatlari:

– o‘quvchilarini o‘z bilish faoliyatining subyektiga aylantirib, fikr yuritish mexanizmini shakllantirib, rivojlantiradi;
– o‘quvchilarning bilish faoliyati emperik va nazariy bilish yaxlitligida tashkil etilib, o‘qitish jarayonida bilimlarni deduktiv usulda o‘rganish ustuvor bo‘ladi;
– o‘qitish jarayonining asosini o‘quvchilarning o‘quv topshiriqlarini bajarish orqali vujudga keltiriladigan mustaqil faoliyati tashkil etadi;
– o‘quvchilarning aqliy rivojlanishiga zamin tayyorlab, bu jarayonda tanqidiy va ijodiy fikr yuritishni shakllantirish ustuvor yo‘nalish sanaladi.

O‘qituvchi ta’lim hajmdagi ilmiy dalillar, to‘g‘risida ma’lumot beradi. O‘quvchi esa bunga mustaqil ravishda javob qidiradi. Bunda o‘quvchining fikrlash faoliyati ijodiy xarakterga ega. Chunki o‘qituvchi o‘quvchini mustaqil fikr yuritishga, berilgan savollarga to‘g‘ri javob berishga undaydi, dialog tashkil qiladi, o‘rtaga tashlangan muammoni muhokama qiladi. Mustaqil fikrlash rivojlanish va oldinga qarab harakatlanishga yordam beradi. Mustaqil fikrlash uchun inson o‘zi va dunyoqarashi ustida ishlashi zarur.

Biologik ta’lim va tarbiyaning muammolarini hal qilishga qaratilgan, o‘qituvchining o‘qitish faoliyati va u bilan bog‘liq bo‘lgan o‘quvchining fikrlash faoliyati o‘qitish usullari sifatida e’tirof etiladi.

Fikrlash operatsiyalari turlari bir nechta bo‘lib, bular:

– analiz;
– sintez;
– taqqoslash;
– umumlashtirish;
– tasniflash;
– konkretlashtirish.

Analiz – butunni qismlarga fikran bo‘lish yoki narsa va hodisalarni fikran bo‘lib, ayrim qismlari, belgilari, xossalariga ajratish.

Sintez – alohida qism, belgi xossalardan fikran qo‘shib, predmet va hodisalarni bunyodga keltirish. Analiz va sintez yagona jarayonni tashkil etadi.

Taqqoslash jarayoni yordamida borliq obyektlaridagi o‘xshashlik va farqlar aniqlanadi.

Umumlashtirish – narsa va xodisalarni ular uchun umumiy bo‘lgan xossa va belgilarni ajratish asosida bir-biri bilan fikran birlashtirishdir.

Konkretlashtirish – abstraksiyaga qarama-qarshi, abstrakt xossa va belgilardan konkret voqelikga, sezgi tajribasiga o‘tishga imkon beradi.

Ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalari ijodiy faoliyat tajribalarining asosini tashkil etadi. Ijodiy faoliyat tajribalarini egallashda o‘quvchilar aqliy faoliyat usullari bo‘lgan o‘rganilayotgan obyektni tahlil qilish, taqqoslash, tarkibiy qismlarga ajratish, sintezlash, sabab-oqibat bog‘lanishlarini tasavvur qilish, umumlashtirish va xulosa yasashni egallagan bo‘lishlari lozim.

Ijodiy faoliyatning asosini tashkil etadigan xususiyatlar:

– tanish obyektlarning yangi xususiyatlari va vazifalarini topishi.

– tanish vaziyatlardagi muammolarni mustaqil ravishda hal etish.

– bilim va ko‘nikmalarni yangi kutilmagan vaziyatlarda qo‘llash orqali muammoni hal etish.

– o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda ijodiy qo‘llashga o‘rganishi mumkin.

O‘quvchilarda mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirishning muhim sharti, o‘quvchilarning o‘z fikrlarini dalillash va asoslash sanaladi. Shu sababli, o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalari asosan, o‘quv munozaralari va bahslar orqali rivojlantiriladi.

Qobiliyatli, izlanuvchan, erkin fikr yuritadigan hamda ijodkorlikka ishtiyoqi bor farzandlarimizni o‘zi qiziqqan axborot-kommunikatsion texnologiyalari yo‘nalishida chuqurlashtirilgan saboq olishi, ularni kelajakda albatta yuksak malakali mutaxassislar bo‘lib yetishshishlarida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim sohasida pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan, internet axborot ta’lim resurslaridan hamda konferensiya usulidan foydalanish o‘quvchilarining olayotgan bilimlarni yuqori saviyada bo‘lishida samarali yordam beradi va ularning kelgusida malakali mutaxassislar bo‘lib chiqishiga imkoniyat yaratadi.

Yangi pedagogik texnologiya tushunchasi azaliy va abadiy harakatdagi davrlarning taraqqiyot talabiga mos ravishda yangilanib turuvchi jarayon bo‘lib, har bir davrning o‘ziga xos shaxsini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. 2018-y.

2. Uzluksiz ta’limni rivojlantirishda ta’lim muassasalari faoliyatlarini takomillashtirish muammolari. Ilm-fan. 2012.

3. J.O. Tolipova, A.T. G‘ofurov “Biologiya o‘qitish metodikasi”. –T., 2002-y.

4. J.O. Tolipova “Biologiyani o‘qitishda pedagogik texnologiyalar”. –T., 2011-y.

Baxtiyor QODIROV,
Termiz Davlat universiteti tayanch doktoranti

O‘QUVCHILARDA MILLIY XALQ HUNARMANDCHILIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘quvchilarda milliy xalq hunarmandchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish usullari yoritilgan. Shuningdek, milliy hunarmndchilik orqali o‘quvchilarning o‘zligini anglashda o‘tmishning boy madaniy-ma’naviy merosi dinamikasi haqida bilim va malakalarini shakllantirish imkoniyatlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Ta’lim, tarbiya, milliy hunarmandchilik, tasviriy san’at, amaliy san’at, amaliy bezak san’ati, texnologiya, milliy g‘urur.

В этой статье рассказывается о способах позволяющие ученикам развивать свои навыки народного ремесленничество. Это также предоставлены возможности узнать о динамике богатого культурного и духовного наследия прошлого, помогающие ученикам понять свою идентичность.

Ключевые слова. Образование, обучение, народные промыслы, изобразительное искусство, прикладное искусство, декоративно-прикладное искусство, техника, национальная гордость.

This article talks about ways that students can develop their handicraft skills. It also provides opportunities to learn about the dynamics of the rich cultural and spiritual heritage of the past, helping students understand their identity.

Key words. Education, training, folk arts, visual arts, applied art, decorative and applied arts, technology, national pride.

Mehnat insonni ulug‘laydi. Orzu-havaslarning ushalishiga yo‘l ochadi. Shunday ekan farzandlarimizning bolaligidan o‘z iqtidori, qiziqishlariga monand biror-bir hunarning sir-asrorlarini o‘rganishlariga ko‘maklashishning ahamiyati kattadir. Chunki hunar o‘rganish davomida o‘g‘il-qizlarimiz o‘zlarida mehnatsevarlik, biror amalni nihoyasiga yetkazmaguncha erinmasdan, qunt bilan ishlashdek ajoyib fazilatlarni ham o‘zlarida mujassam eta borishadi. Shu bois, azaldan yurtimizda hunar sohiblari ardoqlangan.

Hozirgi kunda esa xalq hunarmandchiligining ahamiyati va uni takomillashtirish, rivojlantirish to‘g‘risidagi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 17-noyabrdagi “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5242-son farmoni sohani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, ushbu farmonda shunday deyiladi: “…yoshlarni xalq san’ati ustalarining ko‘nikmalariga o‘qitib, o‘rgatish uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltirishda amaliy yordam ko‘rsatish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklarining, respublika vazirliklari va idoralarining eng muhim vazifasi deb hisoblansin”.

Umuman olganda, respublikamizda xalq hunarmandchiligining 150 dan ziyod turlari mavjud bo‘lib, o‘ziga xos xususiyatlaridan amaliyligi, ishlab chiqarish mazmundorligi, ijodiyligi, milliyligi, mahalliy xom-ashyolarni topish va ta’mirlashda qulayligi, o‘g‘il va qiz bola mehnatini uyg‘unlashtira olishligi, asosiy hollarda murakkab qurilmalar, uskunalar, asboblar, stanoklar talab qilmasligi, mashg‘ulotlarni tashkil etishning soddaligi bilan ajralib turadi. Natijada bu sohani yetarlicha o‘rgangan ma’lum kasblarni egallagan yoshlarning ishsiz qolmasliklari mehnat bozorining raqobatbardoshliligi bilan alohida e’tiborga molikdir. Shu o‘rinda umumiy tushunchalarni keltirib o‘tsak.

Milliy hunarmandchilik – moddiy madaniyatimizning eng qadimiy muhim turlaridan hisoblanadi va tasviriy hamda amaliy san’atning ko‘pdan ko‘p sohalari bilan uyg‘unlashib ketadi. Ammo, tasviriy hamda amaliy san’at, buyumlarga badiiy ishlov berish jarayonining, xalq hunarmandchiligining o‘ziga xosligi, yo‘llari, xususiyatlari, o‘xshashliklarini va qolaversa, bir-biridan farqlarini ajratish muhimdir. Shuning uchun quyida tasviriy va amaliy san’at, xalq hunarmandchiligining mavjud ta’riflari taqqoslandi.

Tasviriy san’at – rangtasvir, haykaltaroshlik, grafikani birlashtirgan nafis san’at turi; voqealikni, uning osongina ilg‘ab olinadigan fazoviy shakllarda ko‘rgazmali obrazlarda aks ettiradi.

Amaliy san’at, amaliy bezak san’ati – bezak san’ati sohasi; ijtimoiy va shaxsiy turmushda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan badiiy buyumlar tayyorlash va kundalik turmush ashyolari (asbob-anjomlar, mebel, mato, mehnat qurollari, kiyim kechaklari, taqinchoqlar, o‘yinchoqlar va boshqalar)ni badiiy ishlash bilan bog‘liq ijodiy mehnat sohalarini o‘z ichiga oladi.[1]

Hunarmandchilik – milliy-an’anaviy mayda tovar ishlab chiqarish, oddiy mehnat qurollari yordamida yakka tartibda va qo‘l mehnatiga asoslangan sanoat turi: shunday mahsulotlar tayyorlanadigan kasblarning umumiy nomi. Yirik sanoat ishlab chiqarishi vujudga kelishiga qadar keng tarqalgan, ayrim sohalari keyin ham saqlangan. Rivojlanmagan mamlakatlarning xalq xo‘jaligida hozir ham muhim o‘rin egallaydi.

O‘quvchilar umumiy o‘rta ta’lim maktablarida texnologiya fani bo‘yicha puxta, chuqur bilim oladilar. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning o‘quv, umummehnat, umummilliy, umummadaniy bilimlari, boshlang‘ich kasbiy ma’lumotlari, dastlabki ijtimoiy va mehnat munosabatlari shakllantirilib boriladi.

Texnologiya fanida xalq hunarmandchiligini sinfda va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda yosh avlodlarga o‘rgatish asosiy muammo sifatida bo‘lib turibdi.

O‘quvchilar xalq hunarmandchiligiga oid egallashlari lozim bo‘lgan bilimlar:

- xalq hunarmandchiligi va ularning turlari to‘g‘risida ma’lumotlar;
- yog‘och o‘ymakorligi va ularning turlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, yog‘och o‘ymakorligining o‘ziga xos xususiyatlari, badiiy manzarali talablar;
- iste’mol buyumlari (tovoq, lagan, qoshiq), qurilish buyumlari (ustun, rom), mehnat buyum (beshik, sandiq, shkaf)larni yasash texnologiyasi, ketma-ketligi;
- amaliy hunarmandchilik tarmoqlari (bo‘yrachilik, savat to‘qish, zargarlik, temirchilik, kulolchilik, pichoqchilik va boshqa), ularning ish uslublari, o‘ziga xos xususiyatlari.

O‘quvchilarda shakllanishi lozim bo‘lgan ko‘nikma va malakalar:

– o‘quvchilarning o‘zi qiziqqan xalq hunarmandchiligi turi bo‘yicha biror buyum eskizini chizishi, loyihalashi va shu eskiz asosida buyumning o‘zini yasashi, dizayn talablari asosida buyumga badiiy ishlov berishi;

[1] Bulatov S. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati. Metodik qo‘llanma.–T.: Mehnat nashriyoti 1991.-384 b

– o‘quvchi bir vaqtda bir necha materiallarga badiiy ishlov berishi;

– xalq hunarmandchiligining bir necha turi bo‘yicha buyumlarni loyihalash, yasashni o‘zlashtirish mumkin. Bu uning mahorati darajasi yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

– 1-4-sinflarda xalq hunarmandchiligining yo‘nalishlari haqida ma’lumotlar oladi va elementar, qo‘lda ishlov beriladigan buyumlar yasash jarayonida kasblar tanlanadi, 5-7-sinflarda ushbu yo‘nalishlardan ayrimlari tanlanadi va 8-9-sinflarda shu tanlangan yo‘nalishlarga muvofiq holda xalq hunarmandchiligi, ishlab chiqarish asoslari va kasbga yo‘naltirish bo‘limlari o‘qitiladi.

Ushbu yo‘nalishlardan kelib chiqqan holda biz o‘quvchilarga xalq hunarmandchiligiga oid bilim va ko‘nikmalarni o‘rgatishda quyidagi muammolar aniqlandi:

► yoshlarda xalq hunarmandchiligiga oid ma’lumotlar kamligi;

► xalq hunarmandchiligi kasblari asosan ko‘p mehnatni talab qilishi;

► xalq hunarmandchiligi buyumlarini yasashda asosan qo‘l mehnati tashkil etishi;

► yoshlar xalq hunarmandchiligi kasblarida zamonaviy asbob va uskunalardan foydalanmasligi;

► yoshlarda milliy g‘urur hamda qadriyatlarning to‘laqonli ta’lim jarayoniga tatbiq etilmaganligi;

► xalq hunarmandchiligiga nisbatan o‘quvchilarning qiziqishi yo‘qligi;

► xalq hunarmandchiligi bo‘yicha ma’lumot beradigan metodik manbalarning yetishmasligi;

► texnologiya fani o‘qituvchilarning xalq hunarmandchiligiga oid bilim, ko‘nikma va malakalarning yetishmasligi;

► xalq hunarmandchiligiga oid mashg‘ulotlarni tashkil etishda innovatsion texnologiyalarning yetarlicha qo‘llanilmasligi.

Yuqoridagi xalq hunarmandchiligiga oid bilim va ko‘nikmalarni o‘rgatishda muammolarni quyidagicha bartaraf etish mumkin:

a) o‘qituvchilar, to‘garak rahbarlari, psixologlar hamda sinf rahbarlari sinfda va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida xalqimizning boy tarixi, ota bobolarimiz, xususan, Sohibqiron Amir Temur hunarli kishilarni e’zozlagani, Ahmad Donish, Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Al Xorazmiy, Abu Ali Ibn Sinolarning hunar haqidagi fikrlari, Shayxul Mashoyix Abu Said Xarroz – etikdo‘z, Al-Forobiy bog‘bonchilik, shoir Sakkokiy pichoqchilik, shoir Zavqiy esa mahsido‘zlik bilan tirikchilik qilgan. Bobomiz Xo‘ja Bahovuddin Naqshband ham hunarmandchilik bilan shug‘ullanib, Turkistonda birinchilardan bo‘lib odamlarni hunar o‘rganishga va hunarmandchilik bilan shug‘ullanishga chorlaganliklari haqida ma’lumotlar berish lozim.

b) sinf rahbari, fan o‘qituvchilari, mahalla faollari hamda ota-onalar hamkorligida ko‘proq yoshlarni mehnatsevarlik g‘oyalari asosida mehnat faxriylari bilan davra suhbatlari, tadbirlar tashkil etish.

Tadbirlarni uyushtirishda quyidagi psixologik-pedagogik asoslarga amal qilish zarur:

- o‘quvchilarda jamoa manfaati uchun mehnat qilishga qiziqishni shakllantirish;
- mehnat qilish ehtiyoji va zaruriyatini rivojlantirish;
- turg‘un iroda sifatlarini tarbiyalash;
- mahalla jamoatchilik tarbiyasini tarkib toptirish;
- o‘quvchilar ruhiyatiga va yosh xususiyatlariga mos munosabatda bo‘lish;
- o‘quvchilarga dunyoning rivojlangan mamlakatlarida, xususan, Angliya, Fransiya, Italiya, Yaponiya va boshqa davlatlarning savdo rastalarida zamonaviy dast-

gohlarda yasalgan buyumdan ko‘ra to‘liq qo‘l mehnati bilan tayyorlangan hunarmandchilik buyumlarni qadrlashini tushuntirib borish.[2]

Ma’naviy madaniyatni shakllantirishning asosi bo‘lgan milliy g‘ururni shakllantishda tarbiyaviy tadbirlarning o‘rni beqiyosdir. Bunday tarbiyaviy tadbir uchun material tanlashda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi.[3]

► o‘quvchilarning yoshi, ruhiy holatiga mosligi;

► o‘quvchilarning aqliy zakovati, hissiyoti, irodasi va ma’naviy dunyosi hamda amaliy faoliyatiga ta’siri;

► o‘zligini anglashda o‘tmishning boy madaniy-ma’naviy merosi dinamikasi haqida bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish imkoniyatlari;

► milliy qadriyatlardagi munosib o‘rni;

► o‘quvchilarning shaxsiy, hududiy imkoniyatlari va sharoitiga mosligi;

► o‘quvchilarda xalq hunarmandchilik kasblariga qiziqish uyg‘otish;

► o‘quvchilarda xalq hunarmandchilik buyumlariga hurmat hissi va ularni asrab-avaylash tuyg‘ularini shakllantirish;

► o‘quvchilarda milliy g‘ururni shakllantirishga erishish;

► mashg‘ulot jarayonida o‘rganilgan mavzuni mustahkamlash, to‘ldirish, tarbiyaviy ta’sirchanligini oshirish va chuqurlashtirishga xizmat qilish.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida texnologiya fani bo‘yicha tashkil etilgan mashg‘ulotlarni kuzatish va tahlil qilish natijasida mashg‘ulotlarni takomillashtirishda quyidagi omillar aniqlandi:

1. Texnologiya mashg‘ulotlari mazmuni, asosan, qo‘l bilan bajariladigan amaliy ish harakatlariga yo‘naltirilmog‘i lozim. Bu o‘z navbatida turli xil elektrlashtirilgan, mexanizatsiyalashtirilgan, avtomatlashtirilgan vositalar, qurilmalar, stanoklar bilan ta’minlashdagi tanqislikning, turli xildagi jarohatlanishlarning, materiallar tanqisligi va boshqa kutilmagan holatlarning oldini olishga yordam beradi.

2. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tashkil etilayotgan texnologiya fani mashg‘ulotlari mazmunini tanlashda, tarixiy, milliy, mahalliy, mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish kerak. Bu xususiyatlarni ta’minlashda xalq hunarmandchiligi sohalari uchun zarur bo‘lgan barcha pedagogik, didaktik talablarni to‘liq ta’minlaydi.

3. Texnologiya ta’limi mashg‘ulotlari mazmunida xalq hunarmandchiligining o‘rganilishi, ta’limning hayot bilan bog‘liqligi, ishlab chiqarishga yaqinligi, amaliyligi, moddiy-texnik ta’limotni tashkil etishning qulayligiga e’tibor berish kerak.

4. Xalq hunarmandchiligi bo‘yicha turli xil mazmundagi mashg‘ulotlarni texnologiya fani negizida tashkil etish maqsadga muvofiq. Chunki ularda qator umumlashtiruvchi xususiyatlar mavjud.

5. Xalq hunarmandchiligi Sharq xalqlarining moddiy qadriyatlariga oid madaniyatning yorqin namunasi sifatida o‘rganishning pedagogik, didaktik, uslubiy, psixologik, falsafiy, metodologik jihatlari alohida tahlilni talab qiladi.

6. Xalq hunarmandchiligining texnologiya fani negizida o‘rganilishi, mazkur soha o‘quv-uslubiy jarayon mazmunining yangilanishini taqozo etadi. Shuning bilan bir qatorda, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida texnologiya fani konsepsiyasini yaratish, o‘quv reja va dasturlarini ishlab chiqish lozim. Shuningdek, yaratilgan darsliklar mazmunini takomillashtirish, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar bilan boyitish, ushbu soha bo‘yicha didak-

[2] G‘oziyev E. “Oliy maktab psixologiyasi” – T.: O‘qituvchi. 1997 y

[3] Norbo‘tayev X. Milliy tafakkurni shakllantirish omillari. // “Ta’lim tizimida ijtimoiy gumanitar fanlar”, 2007. 53-b

tik va tarqatma materiallarni yaratish hamda har bir mashg‘ulotda ko‘rsatmalilikni tashkil etish zarur.

7. Xalq hunarmandchiligi milliy qadriyatlarning muhim yo‘nalishi sifatida ta’lim tizimida mukammal o‘rganilishida tarbiyaviylik, axloqiylik imkoniyatlari yoritilib berilishi lozim.

8. Milliy qadriyatlarning ta’lim-tarbiya tizimida, xususan, o‘quvchilarning texnologik tayyorgarligini takomillashtirishda xalq hunarmandchiligi misolida o‘rganilishi ta’lim tizimining milliylik, tarixiylik, mahalliylik, mintaqaviylik xususiyatlari namoyon etilishi asosida qayta qurishni taqozo etadi.

9. Xalq hunarmandchiligini ta’lim-tarbiya tizimida yanada mukammal o‘rganishda boshqa o‘quv fanlaridan unumli foydalanish imkoniyatlari chuqurroq qarab chiqilishi lozim. Masalan, shakllarning yanada diqqatga sazovor bo‘lishi simmetriya qonunlari, geometrik va steriometrik munosabatlar imkoniyatiga murojaat qilish maqsadga muvofiq.

10. Ta’lim-tarbiyaning mantiqiy birligiga to‘la erishishda fanlararo bog‘lanishdan foydalanish uchun texnologiya fanining imkoniyatlarini hisobga olish darkor.

Xulosa qilib aytish mumkinki, xalqimizning qadimiy tarixi va madaniy hayotini har tomonlama keng yoritish, nomoddiy madaniy merosimiz bo‘lgan ko‘p qirrali o‘zbek milliy hunarmandchiligini keng namoyish qilish, uning noyob namunalarini targ‘ib etish, shuningdek, ushbu yo‘nalishda o‘zaro tajriba almashish orqali turli xalqlar o‘rtasida do‘stlik va hamkorlik rishtalarini yanada mustahkamlash, madaniy-gumanitar aloqalarni xalqaro miqyosda kuchaytirish, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan kasbiy an’analar va hunarmandchilik maktablarini saqlash va qayta tiklash azaliy maqsadlarimizdandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017., PF-5242-son. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017.

2. G‘oziyev E. Oliy maktab psixologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1997. 275-b.

3. Norbo‘tayev X. Milliy tafakkurni shakllantirish omillari. // “Ta’lim tizimida ijtimoiy gumanitar fanlar”, 2007. 53-b.

5. Bulatov S. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati. Metodik qo‘llanma. – T.: Mehnat nashriyoti 1991. 384-b.

6. N.R. Ashurov O‘quvchilarni mehnat va kasbga tayyorlashni takomillashtirishda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari(xalq hunarmandchiligi misolida).// Ped.fan.nomz. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – T.: 2007. 66-b.

Kimyoxon MAMATQULOVA,
A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB RAHBARLARINING EHTIYOJLARIGA ASOSLANGAN MALAKA OSHIRISH JARAYONINI TASHKIL ETISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya

Maqolada, umumiy o'rta ta'lim maktabi direktorlarining kasbiy va boshqaruv ehtiyojlaridan kelib chiqib, malaka oshirish kurslarini tashkil etish mexanizmlari bayon etilgan. Shuningdek, rahbar xodimlarning ta'limiy ehtiyojlari tarkibi aniqlangan va uni rivojlangan davlatlarda o'rganilgan ma'lumotlar asosida qiyosiy tahlil qilingan. Zamonaviy boshqaruv kompetensiyalariga ega bo'lgan rahbar xodimlarni tayyorlashda ehtiyojlarga asoslangan malaka oshirish tizimini amaliyotga joriy etish zaruriyati o'rganilgan.

Kalit so'zlar. Menejer, rahbarlik sifatlari, ehtiyoj, ta'limiy ehtiyoj, variativlik, tabaqalashtirish.

В статье описываются механизмы организации курсов повышения квалификации на основе профессиональных и управленческих потребностей директоров общеобразовательных школ. Кроме того, был определен состав образовательных потребностей руководителей и проведен сравнительный анализ на основе информации, полученной из развитых стран. Исследована необходимость внедрения системы повышения квалификации с учетом потребностей управленческого персонала с современными управленческими компетенциями.

Ключевые слова. Потребность, образовательные потребности, педагогическое мастерство.

The article describes the mechanisms for organizing advanced training courses based on the professional and managerial needs of principals of general education schools. In addition, the composition of the educational needs of managers was determined and a comparative analysis was conducted based on information obtained from devoloped countries. Investigated the need to introduce a system of managament personnel with modern managament competencies.

Key words. Manager, leadership qualities, Need, educational needs, variability, differentiation.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoni, "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-son qarori[1] bugungi kunda xalq ta'limi tizimida faoliyat olib borayotgan barcha xodimlarga juda katta vazifalarni belgilab berdi.

[1] Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2018-y., 07/18/3931/1841-son

Mazkur vazifalarni bajarishdan ko‘zlangan asosiy maqsad ilmiy taraqqiyot va fan-texnika sohasidagi rivojlanishdan ortda qolmaslik, zamon talabiga mos keladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdan iborat. Bugungi globallashib borayotgan davr ta’lim jarayonini mehnat bozorining talab va ehtiyojlarini inobatga olgan holda tashkil etish va boshqarishni talab etmoqda.

Falsafa qisqa izohli lug‘atida “ehtiyoj organizm yoki tizimning holatidan kelib chiqadigan borliqdagi narsa va hodisalarga bo‘lgan munosabati”[2], deb izohlangan.

S.M. Suxorukova o‘z tadqiqot ishlari jarayonida ehtiyoj va manfaat o‘rtasidagi aloqadorlikka to‘xtalib, ehtiyoj-zaruriyatni, manfaat esa zaruriyatga munosabatni ifodalaydi, deb ta’riflagan.[3]

Demak, jamiyatda shaxs ehtiyojlari qatori ta’lim ehtiyojlari ham mavjud bo‘lib, ta’lim tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ta’lim ehtiyojlari – bilim, ko‘nikma, malakalarni egallash va bashorat qilingan kompetentlilik modelida ko‘zda tutilgan sifatga erishishda ta’lim oluvchilarning muhim hayotiy muammolarini xal etishga qaratilgan ehtiyoj bo‘lib, u ta’limni harakatga keltiruvchi asosiy kuchni ifodalaydi”.[4]

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, jamiyat rivojlanib borgani sari insonlarning har tomonlama ehtiyojlari ortib boradi. Mazkur holatni ta’lim sohasi bilan bog‘laydigan bo‘lsak, umumta’lim maktab rahbarlarining ham zamon rivojlanishi bilan birga ta’limiy ehtiyojlari davrlarga qarab o‘zgaradi. Sababi, xalq ta’limi tizimida yaxshi natijalarga erishish maktab rahbarlarining boshqaruv salohiyatiga bog‘liqdir. Samarali boshqaruv salohiyatiga ega bo‘lishlari uchun ular o‘zlarining faoliyati davomida rahbarlik malakalarini tinmay oshirib borishlari zarur.

Bugungi kunda jahonda malaka oshirish tizimini takomillashtirish, yo‘nalishlarida juda ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda asosiy e’tibor mashg‘ulotlarni tashkil etish, turli xil yangi metod va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash muammolariga qaratilgan bo‘lib, juda ko‘p rivojlangan davlatlarda ehtiyojlarga asoslangan malaka oshirish tizimi tashkil etilgan. Xalqaro tajribalarni o‘rganish yuzasidan olib borgan izlanishlarimiz asosida shuni ta’kidlash mumkinki, O.M. Fridmanskaya fikricha “Olmoniya malaka oshirish kurslarida: tinglovchilarning nisbatan ko‘p vaqtlari mustaqil ishlarga, ya’ni seminar va amaliy mashg‘ulotlarga ajratiladi. Ko‘pchilik pedagoglar o‘zlarining ta’til paytlarida oliy o‘quv yurtlariga jalb e’tilib, bir-ikki hafta muddat ichida maxsus ilmiy-metodik majmualar va muammolarni muhokama qilib seminarlarda ishtirok etishadi. Yangi ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari bilan tanishib, labaratoriyalarda mustaqil ravishda tajriba-sinov ishlarini olib borishadi”.[5] Demak, ushbu fikrlardan ko‘rinib turibdiki malaka oshirish kursining asosiy vazifasi tinglovchilarning kasbiy ehtiyojlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Darhaqiqat, Respublikamizda ham pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, uni tashkil etish va boshqarish yo‘nalishida juda ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan lekin, umumta’lim maktab rahbarlarining malaka oshirish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu nuqtayi nazardan amalga oshirilgan ishlar bilan bir qatorda bugungi kunda umumta’lim

[2] Falsafa qisqa izoxli lug‘at / mualliflar M.N. Abdullayeva, Abdurashidov M., Abilov U. va boshq. Mas’ul muxarrir: Jalolov. A. – T.: Sharq, 2004. – 363-b.

[3] С.М. Сухорукова. Экономика и политика – М.: “Высшая школа”, 1988. – С-27.

[4] Основы андрагогики. Терминологический словарь // Сост. В.В. Маслова.: - Мариуполь: 2004. – С-3.

[5] О.М. Фридманская Система повешения квалификации в Германии. Сов. Педагогика, 1984.– С-12-13.

maktab rahbarlarining malaka oshirish mexanizmlarini takomillashtirish ya’ni, ehtiyojlarga asoslangan malaka oshirish mexanizmini tashkil etish zarurati mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni[6]da ham aynan xalq ta’limi tizimida qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha juda ko‘plab vazifalar belgilab berilgan.

Ushbu vazifalardan kelib chiqib, rivojlangan mamlakatlar amaliyotini tadbiq etgan holda, umumta’lim maktab rahbarlarining ehtiyojlarga asoslangan malaka oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga doir andragogik xossalarini aniqlashtirish, joriy etish bosqichida subyektlar bilan bog‘liq kuzatiladigan muammolarni aniqlash, muntazam monitoring qilish orqali davlat talablaridan kelib chiqib, o‘quv jarayonini hamkorlik asosida tabaqalashtirilgan holda tashkil etish zaruratini keltirib chiqaradi.

Sababi, tinglovchi malaka oshirish jarayonidagi qisqa muddat ichida qanday yangiliklarga ega bo‘ldi? Ushbu yangiliklar uning boshqaruv faoliyatida muhim hisoblanadimi? Malaka oshirish kursi davomida egallagan bilimi undagi ta’limiy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qildimi? Albatta, bu kabi savollarga javob olish uchun amaldagi malaka oshirish kursi jarayonini monitoring qilish muhim hisoblanadi.

Monitoring qilish o‘z navbatida malaka oshirish kurslarini tashkil etish jarayonidagi barcha omillarni qamrab olishi zarur. Agar malaka oshirish kursiga jalb qilingan tinglovchi o‘z xohishiga ko‘ra bilim olib, ta’limiy ehtiyojini qondira olsa unda malaka oshirishga nisbatan motivatsiya paydo bo‘ladi.

Buning uchun amaldagi malaka oshirish jarayoni monitoringi va tinglovchining malaka oshirish kursiga jalb etilgan muddatgacha bo‘lgan faoliyatining monitoringi juda muhimdir. Bunda subyektlarni hamkorlikdagi faoliyati orqali oldindan malaka oshirish muddati yaqinlashgan umuta’lim maktab rahbarlarining ta’limiy ehtiyojlari aniqlanib uning natijalariga tayangan holda malaka oshirishga buyurtmalar berish maqsadga muvofiq.

Bu jarayonini tashkil etishda umumta’lim maktab rahbarlarining ta’limiy ehtiyojlari qanday aniqlanadi? Savolga javob topish juda ko‘p obyektiv va subyektiv sabablarga bog‘liq. Buning uchun amaldagi malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning o‘quv kursi boshlanishi va oxiridagi olgan bilim darajasi qiyosiy tahlil qilinadi. Lekin, ehtiyojlarga asoslangan malaka oshirish jarayonini tashkil etish uchun buning o‘zi yetarli emas. Bu jarayon uchun shunday mexanizm yaratilishi zarurki, tinglovchilarning ta’limiy ehtiyojlari reja asosida kamida to‘rt oy oldin aniqlanib keyin buyurtmalar shakllantirilishi lozim. Bizningcha, ehtiyojlarga asoslangan malaka oshirish mexanizmini amalga oshirish uchun davlat va jamiyat ehtiyojlari hamda tinglovchilar ehtiyoji hisobga olinib so‘ng o‘quv reja va dasturlar takomillashtirilishi maqsadga muvofiq. Bu jarayonda asosiy masala umumta’lim maktab rahbarlarining boshqaruv jarayonidagi ta’limiy ehtiyojlarini aniqlash bilan bog‘liqdir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki ehtiyojlarga asoslangan malaka oshirish mexanizmini amalda qo‘llash uchun quyidagi ketma-ketlikda ishlarni bajarish zarur. Jumladan, **birinchi bosqichda:**

– umumta’lim maktab rahbarlarining malaka oshirish jarayonida turli xil anketa so‘rovnomalari, suhbatlar o‘tkazish;

– rahbarlik qilayotgan muassasasining mavjud xolatidan kelib chiqib qanday muammolari mavjud ekanligini aniqlash;

[6] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2019-y., 06/19/37/5712/3034-son.

– aniqlangan muammolarini yechishga bo‘lgan urinishlarda qanday yo‘nalishdagi bilimlar zarur ekanligini tahlil qildirish;

– ushbu sanab o‘tilgan vazifalarni amalga oshirilgandan so‘ng tahliliy xulosa tayyorlash va ehtiyojlar yo‘nalishlarini tabaqalashtirish.

Ikkinchi bosqichda:

– umumta’lim maktab direktorlarining boshqaruv sohasidagi ta’limiy ehtiyojlarini aniqlash uchun anketa so‘rovnomasini ishlab chiqish(ushbu so‘rovnomalarni ishlab chiqishga psixologik yondashuv zarur);

– xududlar kesimida malaka oshirish muddati yetib kelishiga kamida 4-5 oy qolgan umumta’lim maktab rahbarlarini rejaga asosan aniqlash;

– ularni viloyat, tuman XTBlar ko‘magi asosida bir joyga yig‘ish;

– ishlab chiqilgan anketa-so‘rovnomasi va joriy malaka oshirish jarayonida amalda foydalanib kelinayotgan modullar asosida test sinovini o‘tkazish;

– anketa-so‘rovnomalarini tahlil qilish va asosli xulosalar tayyorlash;

– xulosalarga tayangan holda umumta’lim maktab direktorlarining ta’limiy ehtiyojlarini tabaqalashtirish.

Uchinchi bosqichda:

– umumta’lim maktab direktorlarining ehtiyojlarga asoslangan malaka oshirish jarayonini amalda sinab ko‘rish uchun buyurtmalarni shakllantirish;

– ehtiyojlarni aniqlash bo‘yicha olingan tahliliy ma’lumotlar asosida umumta’lim maktab diretorlari malaka oshirish kursi o‘quv reja va dasturlarining variativ variantlarini ishlab chiqish;

– olingan tahliliy xulosalar asosida bir oylik kurs dasturlarining vazifalarini belgilash;

– ushbu variativ dasturlarning manzilli yetib borishiga erishish;

– variativ dasturlarni o‘qitish qay darajada samara berganligini aniqlash uchun baholash mezon va ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish.

Yuqoridagi vazifalar umumta’lim maktab rahbarlarining ehtiyojlarga asoslangan malaka oshirish jarayonini tashkil etish mexanizmining bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2019-y., 06/19/37/5712/3034-son.

2. I.A. Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2011.–78-b.

3. О.М. Фридманская. Система повешения квалификации в Германии. Сов. Педагогика, 1984. – С-12-13.

4. С.М. Сухорукова. Экономика и политика. М, “Высшая школа”, 1988, С-27.

5. В.Н. Сапунов О роли факультетов повышения квалификации педагогов. Вестник вышей школы, 1988.– С-40-41.

6. Falsafa qisqa izohli lug‘at / mualliflar M.N. Abdullayeva, Abdurashidov M., Abilov U. va boshq. Mas’ul muharrir: Jalolov A. – T.: Sharq, 2004. – 363- b.

7. Основы андрагогики. Терминологический словарь / Сост. В.В. Маслова: - Мариуполь: 2004. – С-3.

8. Pedagogik atamalar lug‘ati / Tuzuvchilar R.X. Djurayev va boshqalar. – T.: Fan, 2008. – 150-b.

Shoxista DAMINOVA,
A.Avloniy nomidagi XTTRMXQTMO instituti tayanch doktoranti

XALQ TA’LIMI RAHBAR VA PEDAGOG XODIMLARINING MUSTAQIL MALAKA OSHIRISH TIZIMINING MUAMMOLARI

Annotatsiya

Maqolada mustaqil malaka oshirish tizimining metodologiyasi, xalq ta’limi tizimi rahbar va pedagog xodimlarining o‘z-o‘zini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari, innovatsion marketing konsepsiyasining maqsadi, refleksiv faoliyat, malaka oshirishni individuallashtirish masalalari to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Innovatsion marketing, individuallashtirish, mustaqil o‘rganish, refleksli harakatlar.

В статье рассматривается методология системы самостоятельного обучения, особенности саморазвития управленческих и педагогических кадров системы народного образования, цель концепции инновационного маркетинга, вопросы рефлексивной деятельности и индивидуализации повышения квалификации.

Ключевые слова. Инновационный маркетинг, индивидуализация, самостоятельное обучение, рефлексивные действия.

The article discusses the methodology of the system of independent learning, features of self-development of managerial and pedagogical personnel of the public education system, the goal of the concept of innovative marketing, issues of reflexive activity and individualization of advanced training.

Key words. Innovative marketing, individualization, independent learning, reflexive actions.

Mamlakatimizda uzluksiz ta’limni isloh qilish yo‘nalishlari va tashkil etish, rivojlantirish tamoyillaridan kelib chiquvchi har bir ta’lim turi oldiga qo‘yilgan vazifalarda bugungi globallashuv davrining ijtimoiy-ta’limiy talablari aks etgan. Bunday talablar uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini – xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish tizimi faoliyatida yangicha tarkib va mazmunni shakllantirish, kasbiy treninglarning ilg‘or texnologiya va uskunalarini shuningdek, murakkab, ta’lim menejmenti, boshqaruvni tashkil etishda o‘ziga xoslik, fan yutuqlarini talab qiluvchi texnologik jarayonlar imitatorlarini ishlab chiqish kabi muhim vazifalarda ko‘rinadi.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash samaradorligini oshirish” kabi yo‘nalishlar belgilanib, bu borada ta’lim xodimlarining malakaviy bilimlarini doimiy yangilashga qulay shart-sharoit yaratish, mustaqil malaka oshirish tizimi samaradorligiga erishish muhim ahamiyat kasb etgan. Mazkur islohatlarni izchilligini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy

etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-sonli Qarorining qabul qilinishi ayni muddao bo‘ldi.[1]

Ta’lim to‘g‘risida qabul qilingan xalqaro Deklaratsiyalarda[2] pedagog shaxsining, xususan, rahbar va mutaxassislarning ta’lim sifatini oshirishda muhim o‘rin egallashi, ta’lim sohasidagi har qanday islohotning muvaffaqiyati unda rahbar va soha mutaxassislarning faol ishtirokiga bog‘liqligi e’tirof etiladi. Ularda rahbarlarning oldiga qo‘yilgan vazifalardan kelib chiqib, ishdan ajralmagan holda malaka oshirish dasturlaridan foydalanishi, zarur darajadagi resurslar orqali qo‘llab-quvvatlanishi qayd etilgan.

Malaka oshirishni tashkil etishning o‘ziga xos jihatlari ko‘plab olimlar, ilmiy tadqiqotchilar va mutaxassislar tomonidan ilmiy izlanishlar maqolalarda yoritib berilgan. Malaka oshirishning e’tibordan chetda qolayotgan shakllaridan biri bu – mustaqil o‘qib bilim orttirish, ya’ni mustaqil malaka oshirish shaklidir.

Mustaqil ta’lim – bu insonning o‘zi tanlagan vositalar, internet, o‘zaro tajriba almashinish, kuzatish, o‘rganish, o‘rganganlari asosida o‘z faoliyatini doimiy nazorat qilish orqali rivojlantirishga yo‘naltirilgan shaxsiy harakatlar jarayoni. Bunda insonning ichki dunyosi, his-tuyg‘ulari, mustaqil fikrlash qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil ta’limni o‘z-o‘zini anglash, aqliy faoliyatni shakllantirish, o‘z-o‘zini tahlil qilish ko‘nikmalarini egallamasdan amalga oshirib bo‘lmaydi. Mustaqil malaka oshirishga tayyorgarlikning mustaqil ta’lim olish uchun kerakli bo‘lgan manbalar va mustaqil ta’lim shaklini to‘g‘ri tanlay olish, mazkur jarayonni amalga oshirishda ish faoliyatini rejalashtirish, ishlash uchun qulay joyni tanlash, o‘z faoliyatini boshqarish, o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘z-o‘zini baholay olish kabi shartlari mavjud.[3]

Rahbarlarning malakasini oshirish jarayonida boshqaruv faoliyatiga tayyorlash samaradorligi nafaqat ta’lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etishga, balki mustaqil ta’limni yo‘lga qo‘yish, rahbar va pedagoglarda o‘zini-o‘zi tarbiyalash ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek, refleksiv faoliyatni hamda o‘zaro ta’sir jarayonini tashkil etish zarur.

Mustaqil ta’lim jarayonida o‘zaro ta’sirni amalga oshirmay, refleksiv faoliyatni tashkil etish bilan rahbar va pedagoglarning ta’lim jarayoniga qiziqishini shakllantirib bo‘lmaydi. Bunda bevosita ta’lim oluvchi (malaka oshiruvchi) shaxs faoliyatida pedagogik jarayon va uning bevosita ishtirokchilari hamda muloqot jarayoni eng samarali o‘zaro ta’sir jarayonga aylanadi. Shu bilan birga shaxslararo munosabatlar rivojlanadi va o‘zaro ta’sir jarayoni ishtirokchilarining shaxsiy rivojlanishi, boshqaruv va pedagogik kompetensiyasining rivojlanishi hamda o‘z ustida mustaqil ishlash, mustaqil malaka oshirish ko‘nikmalarining rivojlanishi amalga oshadi.

Shaxsiy rivojlanishning asosiy omili muntazam ravishda mavjud bo‘lgan o‘zaro ta’sir jarayoni hisoblanadi. Refleksiv ta’limiy muhit jarayonida rahbar va pedagog o‘zaro ta’sir malakasini o‘zlashtiradi va uni kelgusida o‘zining boshqaruv yoki pedagogik faoliyatida amaliyotga tadbiq etadi.

O‘zaro ta’sirning mazmun va mohiyati hamkorlik faoliyati tizimining shakllanishi sifatida tavsiflanadi. O‘zaro ta’sir individual harakatlar majmuasining hamkorlikdagi yaxlit tizimi sifatida shakllanishini ta’minlaydi.

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2018-yil 5-sentabrdagi PQ-3931-sonli Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.09.2018 y., 07/18/3931/1841-son.

[2] Генеральная Ассамблея ООН. Декларация Организации Объединенных Наций об образовании и подготовке в области прав человека. Резолюция принятая Генеральной Ассамблеей 19 декабря 2011г., http://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/hr_education.shtml

[3] И.О. Ганченко, Развитие личности педагога в системе непрерывного профессионального самообразования. – Ставрополь: Автореф... дисс. докт. пед. наук, 2004. – С-18.

Zamonaviy rahbar va mutaxassislarni malaka oshirish jarayonida boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda mustaqil ta’lim muhim ahamiyat kasb etib, ta’lim jarayonida refleksiv faoliyatni hamda o‘zaro ta’sir jarayonini tashkil etish rahbarlarda o‘zini-o‘zi tarbiyalash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning shaxsiy bilim va tushunchalarini, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning kreativ va refleksiv qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, tashkil etilgan refleksiv ta’limiy muhit rahbarlarda o‘zaro ta’sir malakasini va uni kelgusida o‘z boshqaruv faoliyatida amaliyotga tadbiq etish ko‘nikmalarini shakllantirishiga imkoniyat yaratadi.

Mustaqil malaka oshirish jarayonini nazorat qilish subyektlari sifatida ta’lim muassasasi rahbari, rahbar o‘rinbosarlari, hududiy boshqaruv organlari, malaka oshirish muassasalari, eng asosiysi malaka oshiradigan rahbar yoki pedagogning aynan o‘zi hisoblanadi. Ta’lim muassasasi xodimning malaka oshirishga bo‘lgan ehtiyoji, mahorati, faoliyati davomida erishgan yutuqlari, o‘zining kasbiy, boshqaruv va ma’naviy kompetentliligini oshirib borishga yo‘naltirib borish bilan bir qatorda, xodimning malaka oshirishini tashkillashtirib borishi lozim. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, joylarda malaka oshirish ishlarini tashkillashtirish bilan bog‘liq muammolardan biri bu asosan davriylik bilan chegaralanib qolayotganida namoyon bo‘lmoqda. O‘z ustida muntazam ishlaydigan, ijodkor, tashabbuskor, innovator, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ishlashning amaliy ko‘nikmalarini egallagan, o‘zini o‘zi kamol toptirish jarayoniga tanqidiy va ijodiy yondasha oladigan xodimlarni malaka oshirish jarayonini rag‘batlantirib borish mexanizmi mukammal ishlab chiqilishi jamoani o‘z ustida yanada ko‘proq ishlashga, ta’lim muassasasida sog‘lom raqobatni keltirib chiqarishga, innovator-pedagoglarning safini kengaytirishga, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni bartaraf etilishiga qolaversa, malaka oshirishga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirishga xizmat qilishi ayni muddaodir.

Malaka oshirish faoliyatini tashkil qilish hamda tinglovchilarning individual xususiyatlaridan kelib chiqishi lozim. Malaka oshirish kurslarini tabaqalashtirish malaka oshirish jarayonida ijtimoiy-psixologik mayllar, qiziqishlar, yo‘nalishlar, psixofiziologik xususiyatlari (yosh, mahorat, tajriba, bilish imkoniyatlari) va pedagogik, boshqaruv kompetensiyalari hamda shaxsiy sifatlarini hisobga olishdan iborat. Shu asosda tinglovchilarning umumiy xususiyatlaridan kelib chiqib, ma’lum qoidalarga istisno tariqasida va mustaqil malaka oshirishning o‘ziga xos xususiyati, pedagogning uzluksiz malaka oshirishi hamda o‘qituvchi mehnatining sifatlari[4] ehtiyojlarga asoslangan dasturlar, individual rejalar asosida malaka oshirishni tashkil qilish kerak.

Bugungi kunda malaka oshirish tizimi innovatsion marketing konsepsiyasini ishlab chiqishning zarurati xalq ta’limi tizimida yuqori kompetentlikka ega rahbar va mutaxassislarni tayyorlash, raqobatbardosh kadrlarni aniqlash, ularning tajribalaridan foydalanish, ommalashtirish, ta’lim sifati, samaradorligini oshirish va xarajatlarni pasaytirish ekanligini inobatga olgan holda, malaka oshirishda umr buyi ta’lim olish uzluksizligi tamoyillaridan hamda “guruhda” ta’lim olishdan[5] mustaqil malaka oshirish tamoyillarini ishlab chiqishda ko‘zga ko‘rinadi. Bu esa, malaka oshirishning mustaqil o‘qib bilim orttirish shaklida mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Zamonaviy ta’lim muassasalarida bugungi kunda o‘qituvchi uzluksiz innovatsion izlanishda bo‘lishi, fikrlashi, psixologik munosabatlarini o‘zgartirishi, shuningdek, bosh-

[4] И.Г. Вертилецкая. Активизация самообразования учителя в системе повышения квалификации. – Новокузнецк: Автореф...канд. пед. наук, 2007. – С-13.

[5] D.X. Shadimetova . Ta’lim xizmatlari bozorida malaka oshirish tizimi marketing strategiyasini takomillashtirish. – T., 2011. – 51-b.

qalarda ham innovatsion g‘oyalarni shakllantirish asosida faoliyat ko‘rsatishi zarur. Bunday pedagoglar bilan ishlash, ya’ni jamoani o‘ziga ergashtira oladigan xodimlarni boshqarish va ularning faoliyatini tashkil etish o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Shuning uchun ta’lim muassasasi direktorlari yangilik yaratish va ularni tadbiq etish, ixtirochilar salohiyatidan samarali foydalanish, ularning tajribasini targ‘ibot qilish, ommalashtirish, innovatsion faoliyatlarining natijalarini baholash bo‘yicha, ayniqsa, maktab va pedagogik jamoa darajasida zaruriy bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarga ega bo‘lishi zurur.

Tarbiyaviy munosabatlar – insonlar o‘rtasidagi doimiy munosabat (aloqalar) bo‘lib, ular inson shaxsini rivojlantirishga, ya’ni mustaqil ma’lumot, mustaqil ta’lim olish va o‘zini-o‘zi tarbiyalashni shakllantirishga xizmat qiladi, shuningdek, bu boshqaruv jarayonida rahbarlar bilan xodimlar o‘rtasidagi munosabatlarda turli shakllarda namoyon bo‘ladi, ya’ni rahbarlarning bilimi, muomala va muloqot madaniyati, kiyinishi, gavda harakatlari, boshqaruvchanlik qobiliyati, fan-texnika, san’at va tabiatga bo‘lgan munosabati hamda qiziqishi xodimlarning faoliyatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Shunday ekan, rahbarning bilimi, ilmiy darajasi, ilmiy-ijodiy ishlari – kompetentliligi uning jamoadagi mavqeiga hamda jamoaning faoliyatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bunda rahbarning o‘z ustida muntazam ishlashi, fan-texnika yangiliklari, innovatsiyalardan o‘z vaqtida xabardor bo‘lishi, badiiy va zaruriy adabiyotlarni mutolaa qilishi muhim bo‘lib, u o‘zi o‘tkazadigan yig‘ilishlarda har bir so‘zini ilmiy asoslangan ma’lumotlarga, kitob va boshqa manbalarga bog‘lab ma’ruza qilishi, nutqining ravon bo‘lishi o‘qituvchi-xodimlar va o‘quvchilar bilan bo‘lgan munosabatlarda o‘z samarasini ko‘rsatadi.

Rahbar yaratgan ilmiy yangiliklar, innovatsion g‘oyalari, uning ilmiy-ijodiy mehnati, qo‘llanma yoki ilmiy-uslubiy maqolalari o‘z jamoasidagi tarbiyaviy munosabatlarni tartibga solib borishda asosiy vasitalardan biri sifatida xizmat qilishi mumkin, ya’ni ta’lim muassasasi rahbari shaxsan o‘zi turli mavzulardagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda o‘z maqolalari bilan ishtirok etib borsa, fan va texnika, o‘qitish va o‘rganishning zamonaviy usullarini joriy etishda turli o‘quv, amaliy seminarlarni tashkil etib borsagina, jamoaning ilmiy ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanishi uchun zaruriy sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda o‘qituvchilarning o‘z ustida ishlashi, bilim, tajriba, ko‘nikmalarini rivojlantirib borishi, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishi uchun talab qiladigan ijodiy muhitning vujudga kelishiga zamin yaratgan bo‘ladi.

Rahbar va pedagog xodim o‘z faoliyati doirasidagi vazifani bajarishda hal qiluvchi kuch ekanligini anglashi, uning o‘zi shaxs va o‘z kasbining mutaxassisi sifatida muntazam takomillashtirishga o‘z-o‘zini rivojlantirishga undovchi buyurtmachi sifatida hisoblanadi. Binobarin, u o‘z shaxsi va kasbiy kompetentlilik darajasi bilan jamiyat rivojini, sohadagi globallashuvni, innovatsiyalarga intilishning muhimliligini anglashi – o‘zini takomillashtiruvchi ehtiyoj (motiv) tarzida namoyon bo‘ladi.

Pedagogika fanlari doktori S.T. Turg‘unov maktab direktorlarida boshqaruv yo‘nalishida amaliy ko‘nikma va malakalar hosil qilish hamda kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan tushunchalar bilan qurollantirish qayta tayyorlash va malaka oshirish, mustaqil ta’lim, tajriba almashish hamda qisqa muddatli kurslarni tashkil etish jarayonlarida amalga oshirilishi mumkin[6], deb hisoblaydi.

Bizning fikrimizcha, quyida berilgan talablar mazkur dasturlarni ishlab chiqishda asosiy ahamiyat kasb etadi:

[6] S.T. Turg‘unov Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorlari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari. – T.: diss. ped. fan. dok, 2007. – 113-b.

– mustaqil ta’limni malaka oshirishning boshqa shakllari bilan intergatsiyalash;

– tinglovchilarning bilish va imkoniyatlarini inobatga olib ularni moddiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash;

– motivatsiya berish;

– rahbar, mutaxassislarning ongli ravishda o‘z imkoniyatlarini tahlil qilish, faoliyati davomida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish va ehtiyojlarni qondirish, o‘zini-o‘zi rivojlantirishga yo‘naltiruvchi baholash mezonlarini ishlab chiqish;

– kasbiy mahorat va tajribalarini inobatga olgan holda rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish;

– ta’lim muassasalarida o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan sog‘lom raqobat muhiti hamda shart-sharoitlar yaratish va h.k.

Xulosa qilib aytganda, malaka oshirish ta’lim xizmatlarining xilma-xilligi xalq ta’limi tizimini, jumladan, boshqaruv va pedagogik faoliyatni rivojlantirish konsepsiyasi va asosiy tamoyillari talablaridan kelib chiqib, bosqichma-bosqich takomillashtirib borishni taqozo etadi. Endilikda xalq ta’limi rahbar xodimlari, mutaxassislari va pedagoglari malakasini, kompetentliligini, kasbiy va boshqaruv mahoratini rivojlantirish jarayonlari boshqa sohalar xodimlari salohiyatini oshirish va rivojlantirib borish jarayonlariga nisbatan tezkorlik, samaradorlik va jadallikni talab qiladi. Mustaqil malaka oshirish mexanizmlarini takomillashtirish va amaliyotga joriy etish orqali davlat byudjetini iqtisod qilish, xalq ta’lim xodimlarining kasbiy kompetentligini oshirib borish, soha xodimlarining uzluksiz malaka oshirishiga to‘liq erishish, yetuk mutaxassislarni rag‘batlantirish orqali sog‘lom raqobat muhitini rivojlantirish kafolatlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. И.Г. Вертилецкая, Активизация самообразования учителя в системе повышения квалификации: Автореф...канд. пед. наук. Новокузнецк, 2007.

2. И.О. Ганченко, Развитие личности педагога в системе непрерывного профессионального самообразования: Автореф... дисс. докт. пед. наук. – Ставрополь, 2004. С-18.

3. Ma’rifat gazetasi. – T., 2017-yil 30-sentabr, 1-b.

4. ООН Генеральная Ассамблея. Декларация Организации Объединенных Наций об образовании и подготовке в области прав человека. Резолюция, принятая Генеральной Ассамблеей 19 декабря 2011 года.http://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/hr_education.shtml

5. S.T. Turg‘unov. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorlari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari: diss. ped. fan. dok. –T.: 2007.

6. D.X. Shadimetova, Ta’lim xizmatlari bozorida malaka oshirish tizimi marketing strategiyasini takomillashtirish: diss. iqt. fan. nomz. –T.: 2011.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi PQ-3931 Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2018-y., 07/18/3931/1841-son.

Shuhratjon BOBOYOROV,
Navoiy Davlat pedagogika instituti huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi bo'limi boshlig'i

MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK FAOLIYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada pedagogning kasbiy malakasi darajasini baholash nuqtayi nazaridan, o'zini-o'zi tashkil qilish malakasining mazmunini belgilashga imkon beruvchi "malaka", "kasbiy pedagogik madaniyat", "pedagogik malaka" tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Kasbiy-pedagogik kompetentlilik, kasbiy pedagogik madaniyat, pedagogik mahorat, qobilyat, fikrlash, kasbiy mahorat, innovatsiya.

В статье расскрывается сущность понятия навык, профессионально-педагогическая компетенция, профессионально-педагогическая культура, педагогические навыки которые помогают развитию профессиональных навыков и самообразованию педагогов.

Ключевые слова. Профессионально-педагогическая компетенция, профессионально педагогическая культура, педагогические навыки, способность, мышление, профессиональное мастерство,новаторство.

The article reveals the essence of the concept of skill, professional and pedagogical competence, professional pedagogical culture, pedagogical skills that help the development of professional skills and self-education of teachers.

Key words. Professional and pedagogical competence, professional pedagogical culture, pedagogical skills, ability, thinking, professional skills, innovation.

Pedagogning kasbiy malakasi muammolari bo'yicha tadqiqot tahlili mazkur tushunchaning yagona ta'rifi mavjud emas, degan xulosaga kelishga imkon berdi.

Malaka tushunchasining mazmun-mohiyati quyidagicha tushuniladi:

- kasb, mutaxassislik;
- kasbiy tayyorgarlik darajasi, mehnatning qandaydir turiga yaroqlilik darajasi;
- sifatini aniqlash va baholash.

Faoliyatning ma'lum bir turidagi ishning murakkablik darajasini va mehnat funksiyalarini bajarishni aniqlash imkonini beradi, ba'zan malaka tinglovchi qobiliyatining darajasi sifatida belgilanadi. Shu nuqtayi nazaridan, tinglovchi ega bo'lgan va uning uchun muhim xarakteristika bo'lgan malaka nazariy va amaliy malakalar hajmi sifatida belgilanadi.

E.M. Nikitin pedagogik malakani asosiy ta'lim tizimida olingan (bazaviy tayanch) pedagogik ta'lim (o'rta maxsus yoki oliy) yoki qayta tayyorlash natijasi sifatida baholay-

di, muallifning fikricha, uning doirasida malaka egallangan bilim turining darajasi bilan belgilanadi va tegishli hujjat bilan tasdiqlanadi.

Olimlardan V.G.Onushkin, Ogarev I.larning fikricha, malaka – bu kasb yoki mutaxassislikni egallash, uning egasi o‘z kasbiga tayyorgarlik darajasining ko‘rsatkichi bo‘lib hisoblanadi.

V.A. Slastenin kasbiy malaka belgisini o‘qituvchi bilimlarini pedagogik faoliyat maqsadi, sharoitlari va usullariga mos kelishi sifatida belgilaydi.

P.G. Shedrovitskiydan keyin malakani biz ham faoliyat malakasi, unga mustahkamlangan alohida ustqurmalar sifatida quyidagicha baholaymiz:

a) faoliyatga munosabat usullari;

b) mazkur faoliyatni tashkil qilish va qayta tashkil qilish usullari;

v) mazkur yagona faoliyatga murakkab jamoaviy va hamkorlikdagi faoliyat shakllarini qo‘shish shakllari.

Muallif tafakkur va faoliyat rivoji tendensiyalarini ko‘ra oladigan va tushunadigan mutaxassisni malakali deb atashni taklif qildi, shu bilan birga, o‘zining shaxsiy kasbiy faoliyatidagi muhim o‘zgarishlarni refleksiyalashtirish zarurligini ta’kidlagan.

“Malaka” tushunchasi “kasbiy-pedagogik kompetentlik”, “kasbiy (kasbiy-professional) pedagogik madaniyat”, “pedagogik ko‘nikma” tushunchalari bilan uzviy bog‘liq.

I.V. Krupina, V.Y. Krichevskiy professinal kompetentlilikni mavjud bilimlar bilan bog‘laydilar. Shu bilan birga, I.V. Krupina birinchi o‘ringa, oliy va o‘rta ta’lim tayanch o‘quv rejasi va davlat standarti bilan belgilanadigan o‘qituvchining fanlar bo‘yicha bilimlarini ilgari suradi.

Qator tadqiqotlarda o‘qituvchi kompetentliligini uning kasbiy ma’lumotlardan xabardorliligi, kasbiy-professional faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bilim va malakalar majmuasi mavjudligi, shu bilan birga, yetakchi pedagogik mehnat sifatida tahliliy malaka, mehnat funksiyalarini muhokama qilish va ma’lum vazifalarini bajarishga imkon beruvchi bilimlarga egalik, boshqa tadqiqotchilar kasbiy bilim va shaxsiy xislatlarga egalik sifatida ko‘rsatilgan.

N.V. Karnaux pedagogik kompetentlikni kasbiy-professional nazariy bilimlar, amaliy malaka va kasbiy ahamiyatli shaxsiy xususiyatlar integratsiyalangan hodisa sifatida ta’riflaydi.

Biz tamonimizdan esa kompetentlikni o‘z kasbiy-professional-pedagogik funksiyasini sotsiumda qabul qilingan me’yorlar va standartlarga muvofiq bajarishga tayyorgarlik yoki qobiliyatga ega integral kasbiy-professional-shaxsiy xarakteristika sifatida o‘rgandik.

Kasbiy-professional kompetentlik pedagogning o‘z kasbiy-professional faoliyatini egallaganlik darajasining sifatli xarakteristikasi sifatida quyidagilarga asoslanadi:

– mazkur faoliyat uchun o‘z maqsadlarini anglash;

– o‘z shaxsiy xususiyat va xislatlarini baholash;

– o‘zining kasbiy-mutaxassislik sohasida shakllanishi, o‘zini tarbiyalash, o‘zini takomillashtirish.

Tadqiqotchilardan V.A. Slastenin, N.V. Kuzmina pedagogik mahoratni o‘qituvchining nazariy (fundamental) bilimlari va ularga asoslangan malaka sifatida xarakterlaganlar.

Pedagogik tadqiqotda turli pedagogik mahorat va pedagogik ijodkorlik xususiyatlariga e’tibor qaratilgan. “Pedagogik ijodkorlik” tushunchasi “pedagogik mahorat” tushunchasiga yaqin, biroq bir xil ma’noni anglatmaydi.

Mahoratli mutaxassis deb o‘z kasbini mukammal egallagan xodimga aytiladi, sa-

babi katta tajribaga ega bo‘ladi, odatda, yosh mutaxassis o‘qituvchilar ijodkor bo‘lsada, tajribaga ega bo‘lmaguncha, mahoratli bo‘la olmaydi.

Mahorat empirik yoki ilmiy-nazariy bosqichda asoslangan bo‘lishi mumkin. Kasbiy-professional mahoratni tavsiflash uchun quyidagi: “kasbiy-professional mahorat”, “novatorlik”, “tadqiqotchilik yondashuvi” kabi tushunchalarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Qator tadqiqotlarda pedagogik kompetentlik tushunchasini pedagogik mahorat va pedagogik madaniyat tushunchalariga muvofiqlashtirilgan.

Ayrim tadqiqotlarda kompetentlik tushunchasi mazmun-mohiyatida kasbiy-professional va umumiy madaniyat tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligi sifatida ko‘rib chiqilgan (T.G. Braje), V.G. Voronsov pedagogik madaniyatni insoniy madaniyat mazmunida tushunishni taklif etgan. Kasbiy-professional pedagogik madaniyat strukturasiga quyidagi: dunyoqarash madaniyati, tadqiqot, metodik, axborot, kommunikativ, metodologik madaniyat kabi elementlar kiradi.

Pedagogik madaniyat tushunchasini o‘qituvchining savodxonlik darajasi, o‘qimishliligi, kasbiy-professional kompetentlik sifatida tushunish zarur, ya’ni u pedagogik madaniyatni “o‘qituvchilarning kasbiy bilimlarini o‘zlashtirishi va yuqori darajada yutuqlari erishish mezoni” sifatida qaragan.

Pedagogik madaniyat “pedagog shaxsiy xususiyatlarining ifodasi majmui, uning kasbiy e’tiqodi, kasbiy-professional kompetentligi, ijtimoiy pozitsiyasi” sifatida ko‘rsatish mumkin.

V.A. Slastenin fikriga ko‘ra, kasbiy pedagogik madaniyat tushunchasi o‘qituvchilarga nisbatan qo‘llanilganda, o‘zida tartibga solingan umuminsoniy g‘oyalar yig‘indisi, kasbiy-professional-qadriyatli yo‘nalganlik va shaxsiy xususiyatlar, bilishning universal usullari hamda psixologik-pedagogik faoliyatning gumanistik texnologiyalari sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotimiz uchun pedagogik madaniyat tushunchasini ta’riflashda tadqiqotchilardan V.G. Onushkin va Ogarev I.lar fikri qiziqish uyg‘otdi, ular mazkur fenomenni ta’lim va tarbiya sohasida yutuqlar yig‘indisi sifatida qarashni taklif etganlar.

Pedagogik madaniyat tushunchasi o‘z ichiga bevosita pedagogik mehnatda zarur bo‘lgan umuminsoniy madaniyat tushunchasini namoyon etadi. Shundan kelib chiqib, pedagogik madaniyat belgilari sifatida quyidagilarni ko‘rsatgan:

- qiziqish va ehtiyojlarni qat’iy yorqin ifodalangan pedagogik yo‘nalganlik;
- har tomonlama aqliy, ma’naviy, estetik rivojlanish;
- pedagogik mahorat;
- muloqotchanlik, o‘z ishiga qiziquvchan, mehribon xulqga egalik;
- doimiy o‘zini takomillashtirish;
- temperament madaniyati;
- keng ilmiy va badiiy-estetik dunyoqarash;
- ijodiy faoliyatga oson va tabiiy holda o‘tish, o‘z emotsional, intellektual va irodaviy jarayonlarini faollashtira bilish.

Pedagogik madaniyat konsepsiyasini tadqiqotchi-olimlar pedagogik faoliyatda ijodiy qobiliyat va o‘qituvchining shaxsiy yutuqlari, pedagogik amaliyot namunalarini yaratishda umuminsoniy pedagogik qadriyatlarning dinamik tizimi sifatida ta’riflaganlar. Shu bilan birga, pedagogik madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlarida uning obyekti, maqsadi va natijalari bo‘lib, inson va uning ma’lumoti, shaxsiy rivoji turishini ta’kidlaganlar. Mazkur ierarxiyalashgan tizim, pedagogik amaliyotning turli bosqichlari-

da namoyon bo‘ladigan komponentlari, jumladan, pedagogik kasbiy-professionallik va pedagogik mahoratni alohida ta’riflaganlar.

K.K. Platonovning fikricha, “shaxsiy xususiyatlar va uning qobiliyatlari o‘rtasida hech qanday farq mavjud emas. Qobiliyat – bu ham shaxsiy xususiyat bo‘lib, biroq ma’lum bir faoliyat nisbati sifatida qaraladigan sifatlardan biridir” “Qobiliyat tushunchasi shaxs strukturasining shunday qismiki, unda xususiyat sifatidagina belgilanmaydi, balki faoliyat ma’lum bir ko‘rinishda dolzarblashadi”. Shu bilan birga, mualliflar tomonidan malaka “inson tomonidan u yoki bu faoliyatni bajarish, “qobiliyat” yoki ilgari olingan tajribalar asosida amalga oshiriladigan harakat” sifatida ko‘rib chiqilgan.

“Malaka – bu shaxsiy xususiyat bo‘lib, mazkur faoliyatdagi elementar qobiliyatni ifoda etadi, uning uchun mazkur malaka talab etiladigan va oliy darajadagi inson xislati bo‘lib, uning shakllanishi pedagogik jarayonning natijaviy xususiyati, uning yakuni bo‘lib hisoblanadi”.

Muallif malaka tushunchasini mazkur faoliyat maqsadi va uning sharoitlari, amalga oshirish usullarining o‘rtasidagi nisbat bo‘lib, malaka strukturasiga nafaqat bilim va malaka, balki tafakkur ham kiradi.

K.K. Platonovning fikricha, egallangan malakalar qobiliyatni yanada murakkab analogik faoliyat sifatida rivojlantiradi, biroq qobiliyatning barcha strukturasi ularni butunlay o‘rnini almashtira olmaydi.

Malaka qobiliyat bilan aynan mos emas, biroq uning rivojlanishi qobiliyatning shakllanishi uchun yetarli bo‘lmaydi, sababi uning elementlariga shaxsning quyidagi barcha to‘rtta strukturasi elementlari: yo‘nalganlik va shaxsiy munosabatlar; shaxsiy tajriba (bilim, malaka, ko‘nikma, odatlar); psixik jarayonlarning individual xususiyatlari; shaxsning biopsixik xususiyatlari kiradi.

Malakaning mumkin bo‘lgan darajasini hisobga olib, malaka va ko‘nikmalar nisbati haqidagi masalaning hal etilishiga muvofiq yanada ishonchli holat taqdim etilgan. Masalan, A.A. Stepanov bu haqda quyidagicha yozgan:

“Malaka deb harakatlarni eng elementar darajada bajarilishi va faoliyatning mazkur turida inson mahoratiga aytiladi. Birinchi sinf o‘quvchisi haqida u o‘qiy oladi deb aytadilar. Kattalar ham o‘qishni biladi-ku. Dastlabki bilim va tajriba harakatlari ortidan keladigan hamda u yoki bu mahorat malakasini ifoda etadigan mahoratni shakllantiradigan elementar malakalarni farqlashni bilish zarur”.

Ko‘nikma – harakatlarning bajarilishini tartibga solingan usulidir. Ko‘nikmalarni hosil bo‘lish xususiyatlari ularni asta-sekin avtomatlashtirish bo‘lib hisoblanadi. O‘rnashgan ko‘nikmalar ularning bajarilishida ong tomonidan nazoratni talab etmaydi.

Turli mualliflarning turlicha yondashuvlariga qaramay, malaka so‘zining mazmun-mohiyatini aniqlashtirishda asosiy mezon bo‘lib ko‘pincha ularning amaliy yo‘nalishi bo‘lib hisoblanadi. Malaka faoliyatning tarkibiy komponenti bo‘lib, uning asosini egallangan bilim va malakalarni amaliy qo‘llanishini tashkil etadi.

Shu bilan birga, bilimni qo‘llay olish qobiliyatida o‘zgaruvchan sharoitlarda bilimlarni qo‘llay bilish, ularning psixologik asosi, faoliyat maqsadlari va uni bajarish usullari o‘rtasidagi o‘zaro munosabat tushuniladi.

Shu tariqa, qator mualliflarning fikrlari malakani yuqori darajada anglanganlik ekanligiga e’tiborimizni qaratadi, shaxs malakasini belgilashda, eng avvalo, uning o‘zgaruvchan vaziyat, o‘zini nazorat qilish talablariga ongli moslashish kabi jihatlarini hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi. Malakani ong, o‘zini boshqarish, maqsadga intilish va boshqa shaxsiy xususiyatlar bilan aloqadorligini ta’kidlaganlar.

Pedagogik malakaga ta’rif berar ekanmiz, uning rivojlanishida bilimlarning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi, uning fikricha, ta’lim va tarbiya usullariga ega bo‘lish psixologik-pedagogik hamda metodologik bilimlardan ongli ravishda foydalanishga asoslanadi. O‘qituvchining amaliy malakalari uning nazariy bilimlarining amal qilish shakli bo‘lib hisoblanadi.

Bunday ta’riflarning tahlili shunday xulosaga olib keladiki, pedagogik malaka nafaqat amaliy faoliyat tajribalariga, balki ongli ravishda nazariy, psixologik-pedagogik va metodik bilimlardan foydalanishga asoslanadi.

O‘qituvchilar uchun muhim ijtimoiy va kasbiy funksiyalarning bajarilishi zarur bo‘lgan asosiy malakalarni quyidagilardan iborat deb hisoblaydi:

— o‘quv jarayonini tashkil etish va o‘quvchilar bilish faoliyatini boshqarish bo‘yicha;

— o‘quvchilar bilan tarbiyaviy ishlar o‘tkazish va mustaqil tarbiyada ularni boshqarish bo‘yicha;

— ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish va umumlashtirish bo‘yicha;

— shaxsiy tajribani tahlil qilish va umumlashtirish bo‘yicha;

— mustaqil ta’lim ishlari sohasida malaka va ko‘nikmalar.

Tadqiqotimizda malakani takomillashgan faoliyatni fenomenal qayta loyihalashtirish, uning tahlilini tanqidiy mezonlarini amalga oshirish, ya’ni fenomenal rekonstruksiya natijalarini tasavvurdagi faoliyat bilan solishtirish, dastlabki faoliyatning o‘zgarishlariga kiritish hamda muvofiq mezonlarni aniqlashtirish yo‘llarini topishni qobiliyatning o‘zini-o‘zi tashkil etish faoliyatining asosiy ko‘rsatkichi sifatida ko‘rib chiqdik.

Shu tariqa, o‘qituvchining pedagogik faoliyatda o‘zini-o‘zi tashkil etish va boshqarish malakalarini ajratib ko‘rsatish muammolari bo‘yicha tadqiqot tahlili uning kasbiy-professional malakasini xarakteristikasi sifatida quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon berdi:

1. Agar malakani pedagogning refleksiv malakasi bilan bog‘liq, faoliyatning refleksiv qurilmasi sifatida qaralsa, unda refleksiv harakatning asosiy komponenti sifatida o‘zini tashkil qilish pedagog malakasining kasbiy-professional ahamiyatli ko‘rsatkichiga aylanadi.

2. Pedagogning boshqa kasbiy-professional xarakteristikalari bilan bog‘liq o‘zini-o‘zi tashkil etish malakasi quyidagilarni, jumladan: pedagogik kompetentlik, pedagogik mahorat, pedagogik ijod, pedagogik madaniyatni o‘z ichiga oladi. Agar kompetentlik mazkur bilimlarga asoslangan qaysidir malaka haqida fikr yuritish, ma’lum bir funksiyalarni bajarishni ta’minlash imkonini beruvchi bilimga egalikni anglatsa, o‘zini-o‘zi tashkil etish malakasi pedagoglarga o‘z harakatlarida onglilik va asoslanganlikni ta’minlaydi.

Pedagogik kompetentlik malakasi va o‘zini-o‘zi tashkil etish malakasi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan xarakterga ega, biroq aynan o‘xshash emas. Pedagogik kompetentlilikning shakllanishi, bilim va diagnostika metodlari, o‘quvchilarda bilish madaniyatining qo‘llanish darajasi, bilimlarning ma’lum sharoitlarda ongli qo‘llanishi malakasi masalasi o‘zini-o‘zi tashkil etish malakasini ta’minlaydi. Shu bilan bir vaqtda, o‘zini-o‘zi tashkil etish malakasi diagnostikada bilish madaniyati darajasi bilan bilimlarga ega bo‘lishni ko‘zda tutadi.

3. O‘zini-o‘zi tashkil etish malakasini o‘zlashtirish darajasi pedagogning malaka darajasi kabi motivatsion, operatsional va refleksiv komponentlar shakllanganligi bian belgilanadi.

Motivatsion komponent o‘zini-o‘zi tashkil etishda pedagogning maqsadlarga erishishda faol harakatlarini, kasbiy-professional vazifalarni hal etishda qiyinchiliklarni yengib o‘tish uchun iroda kuchini namoyon etishni anglatadi.

Operatsional komponent o‘zini-o‘zi tashkil etish maqsadlariga erishishning texnologikligi bilan belgilanadi.

O‘zini-o‘zi tashkil etishning refleksiv komponenti faoliyatning ichki mexanizmining anglanganligi, uning mezonli tahlili va shaxsiy faoliyatni qayta me’yorlashtirish orqaligina emas, balki o‘zini-o‘zi tashkil etish bo‘yicha mukammal faoliyat fenomenal rekonstruksiyasi orqali ta’minlanadi.

4. Pedagogik kompetentlik va o‘zini-o‘zi tashkil etish malakasi muhim kasbiy-professional malaka xarakteristikasiga ega bo‘lib, pedagogning pedagogik mahorati darajasini xarakterlaydi.

5. Pedagogik ijodkorlik va o‘zini-o‘zi tashkil etish malakasi o‘zaro bog‘liq, biroq bir xil ma’noni anglatmaydi. O‘zini-o‘zi tashkil etish malakasi pedagogik ijodda ilmiy-nazariy bosqichida ijodiy fikrlashga asosan namoyon bo‘ladi.

6. O‘zini-o‘zi tashkil etish malakasi o‘qituvchi malakasining xarakteristikasi sifatida ifodalanadi, uning kasbiy-professional madaniyatining komponenti bo‘lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-sentabrdagi “Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3289-sonli Qarori. – “Xalq so‘zi” gazetasi, – T., 2017-yil, 27-sentabr, № 194 (6888).

3. SH.M. Mirziyoyev Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko‘taramiz. –T.: O‘zbekiston, 2018. – 89-b.

4. Н.В. Карнаух. Освоение отечественного опыта как условие формирования профессиональной компетентности современного учителя: Дисс. на соиск. уч. степ. к. п. н. - СПб., РАО ИОВ, 1995. – С-178.

5. В.И. Кашницкий. Формирование коммуникативной компетентности будущего учителя: Дисс. на соиск. уч. степ. к. п. н. - Кострома, 1995. – С-18.

6. Н.В. Кузьмина. Способности, одаренность, талант учителя: В помощь лектору. - Л.: Знание, 1985. – С-32.

7. И.В. Крупина. Профессиональная компетентность преподавателя вуза // Педагогическая компетентность, мобильность и творчество. /Под ред. Н.Н.Лобановой. - СПб.: ИОВ РАО, 1994. – С-18-21.

8. Э.М. Никитин Неизбежность перемен: развитие системы повышения квалификации // Нар. образование. - 1995. - N2. – С-9-13.

9. В.Г. Онушкин, Е.И. Огарев. Образование взрослых: Междисциплинарный словарь терминалогии. - СПб. - Воронеж, 1995. – С-232.

Dilmurodjon NOSIROV,
Qo'qon Davlat pedogogika instituti
o'qituvchisi

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA DARSLARINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa darslarini o'qitishning sifati va samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati xususidagi fikrlar keltirilgan. Shuningdek, o'quvchilarning qiziqishiga qarab u yoki bu musiqiy cholg'uga yo'llash kabi asosiy faoliyatlarni tashkil etish metodikasi bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Musiqa ta'limi, musiqa savodxonligi, pedagogik texnologiya, qadriyat, vokal-hor mashqlari.

В статье дается обзор значимости педагогических технологий в повышении качества и эффективности преподавания уроков музыки в общеобразовательных школах. В нем также описывается метод организации основных видов деятельности, таких как направление на музыкальный инструмент, в интересах учащихся.

Ключевые слова. Музыкальное образование, музыкальное образование, педагогическая технология, ценность, традиции, вокал и хоровые упражнения.

The article provides an overview of the importance of pedagogical technologies in improving the quality and efficiency of teaching music lessons in secondary schools. It also describes the method of organizing basic activities, such as translating to a musical instrument, in the interests of students.

Key words. Music education, music literacy, pedagogical technology, value, traditions, vocals and choral exercises.

Musiqa ta'limining yangi mazmuni yosh avlodni milliy musiqiy merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan, madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazishni nazarda tutadi. Hozirgi zamon yoshlari aqliy kamolotining rivojlanib borayotganligi, ularning ilm o'rganishga chanqoqligi, mustaqil fikrlashi va ilmiy-ijodiy izlanishlari, yangiliklar va kashfiyotlarga nisbatan cheksiz qiziqishi va ta'lim mazmuniga talabchanligi, o'qituvchining o'z ustida ishlash, malakasini oshirib borishi va ongini yanada rivojlantirishi, ta'lim tizimidagi barcha yangiliklardan boxabar bo'lib borishi kerakligiga asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Binobarin, estetik tarbiya muammolariga doimiy va jiddiy e'tibor, insonni qurshab olgan borliqdagi go'zallikka, yoshlarni adabiyot va san'at olamiga yaqinlashtirish maktab hamda barkamol shaxsni tarbiyalash tizimining o'ziga xos qat'iy xususiyatlaridan biridir. Xususan, umumta'lim maktablarining, umuman yosh avlodni o'qitish va tarbiya-

lash tizimining keyingi rivojlanishi bilan maktabda adabiyot va san’atning mavqei mustahkamlanib bormoqda. O‘quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari badiiy-ijodiy faoliyati shakl va metodlarni rivojlantirish g‘oyalarining vujudga kelishi hamda mustahkamlashni alohida ahamiyat kasb etib, hozirgi sharoitda maktabning rivojlanishi uchun eng samarali omil bo‘lmoqda. Shuningdek, musiqaviy estetik tarbiya masalalari hozirgi zamon pedagogikasida tarbiyaning umumiy muammolari bilan bog‘liq holda qaraladi. Musiqaviy estetik tarbiyada musiqani idrok qilish malakalarini faol rivojlantirish, san’at va atrof-muhitdagi go‘zal narsalarga muhabbat tuyg‘usini hamda o‘z his tuyg‘ularini musiqa tilida ijodiy namoyon qilish qobiliyatini shakllantirirish katta rol o‘ynaydi. Musiqadagi go‘zallikni faol idrok etish tafakkur faoliyatini talab qiladi. Musiqa ijodida va idrokida intelektual asosni qaror toptirishdan hech qachon voz kechmaslik kerak. Musiqani tinglar ekanmiz, u yoki bu holatlarni his etib boshdan kechiribgina qolmasdan balki idrok qilmayotgan materialni farqlaymiz.

Bugungi kunda, o‘quv jarayonini yangilangan dastur va standart talablariga javob beradigan darslar asosida tashkil etish shart va zarur, ya’ni zerikarli darslar o‘rniga darslarni tashkil etishga mas’uliyat bilan yondashadigan, kasbiy bilimdon, metodik mahoratga ega mas’uliyatli, zamonaviy, interfaol pedagogik texnologiyani mukammal o‘zlashtirib olgan, innovatsiyalar asosida ta’limni tashkil eta oladigan o‘qituvchilarga talab oshib bormoqda. Ta’limda moddiy baza standart, o‘quv rejalar, dastur va darsliklar qanchalik takomillashtirilmasin, kutilgan asosiy natijaga erishish, chuqur va puxta bilim berish, yuqori sifatdagi o‘zlashtirishga erishish bevosita nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni olib boruvchi o‘qituvchining ijodkorligi, izlanuvchanligi, malakasiga pedagogik mahoratiga bog‘lanib qolaveradi, o‘quv-biluv markazida esa o‘quvchi turmog‘ini taqozo etadi. Har qanday ta’lim o‘quvchi shaxsiga, uning qiziqish xohish istagiga, ehtiyojiga qaratilmog‘i lozim. Ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligi o‘quvchining o‘quv mazmunini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan mustaqil mutolaa bilan samarali shug‘ullanishi, mustaqil fikr yuritishi va tafakkur faoliyatiga bog‘liq.

Umuman olganda, so‘nggi yillarda pedagogika fani, ta’lim tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, yangi-yangi pedagogik-psixologik tushunchalar, interfaol metodlarni ta’lim beruvchi tomonidan o‘zlashtirilib va qo‘llanib borilishi ta’lim mazmunini tubdan o‘zgartirib yubordi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Zamonaviy o‘qituvchi dars jarayonida “aktyor” emas, aksincha “rejissor” bo‘lishi kerakligini anglashi lozim. U o‘z o‘quvchilarini musiqa faniga bo‘lgan ijodkorlik nuqtayi nazari bilan qarashlarini tashkil qilishi, ularda izlanuvchanlik xususiyatlarini shakllantirishi va albatta, yangi pedagogik texnologiyadan foydalangan holda darsni tashkil etishi kerak bo‘ladi. Buning uchun esa u bir necha yangicha ta’lim usullarini yaxshi bilishi lozim. Yoshlarimizni o‘zligini anglash, mustaqil, ongli fikrlashga o‘rgatish, ularning tafakkurida bo‘shliq vujudga kelishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun maktab o‘quvchisining nutq boyligi, musiqa savodini oshirishimiz, badiiy asar va mumtoz kuy-qo‘shiqlarimizga qiziqishini rivojlantirishimiz, ularning musiqiy tafakkuri qay darajada rivojlanishini aniqlashimiz kerak bo‘ladi. Musiqaning muhim jihati ham shundaki, u eng avvalo, his-tuyg‘ular bilan bevosita bog‘lanadi, qolaversa o‘rganilayotgan har bir musiqiy asar yuksak insoniylik va ma’naviy poklikni namoyish etadi. Musiqa san’ati u bilan shug‘ullanuvchilardan yuksak insoniylik, ma’naviy poklik va nihoyatda nozik didni talab etadi. Yoshlarni ma’nan barkamol, ruhan tetik qilib tarbiyalashda musiqiy nafosat olamining o‘rni beqiyosdir. Bugungi kunda musiqa san’ati va madaniyati darslarini ilmiy-metodik jihatdan har tomonlama takomillashtirib, zamon talablariga mos

ravishda olib borishlik musiqa o‘qituvchisi oldiga qo‘yilgan dolzarb vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Binobarin, musiqa san’ati nafosat tarbiyasining muhim omili bo‘lib, yosh avlodni kamolotga yetishishi uchun eng tez ta’sir etuvchi vosita hisoblanadi. Mazkur jarayon aslida maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlab shakllanadi, biroq maktabda rivojlantiriladi va yosh avlodning ichki dunyosini boyitib, butun hayoti mobaynida unga hamroh bo‘lib, bu kabi nafosat tarbiyasi uchun asosan musiqa madaniyati darslari muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich sinflarda musiqa madaniyati darslarini unumli o‘tish va bolalarning mustahkam bilim olishlari uchun, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi musiqa madaniyati darslarida beriladigan barcha o‘quv materiallarni puxta o‘zlashtirib olishi lozim. Eng avvalo, boshlang‘ich sinflar uchun ishlab chiqilgan davlat talablari hamda dastur asosida yaratiladigan darsliklarni ishlab chiqishda musiqa asarlarini oddiydan murakkab tamoyili asosida ta’limning uzluksizligi va izchilligini ta’minlagan holda tayyorlash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun eng avvalo, boshlang‘ich sinflarda musiqa darsining sifat va samaradorligini oshirishni ta’minlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ma’lumki, musiqa darslari quyidagi kabi asosiy faoliyatlarni o‘z ichiga oladi:

- musiqa tinglash;
- musiqa savodi;
- jamoa bo‘lib kuylash;
- o‘quvchilarning qiziqishiga qarab u yoki bu “musiqiy cholg‘u”ga yo‘llash.

Darsning har bir faoliyat turida bolalar turli musiqa asboblarida chalish, kuy va qo‘shiqlarga mos raqs harakatlarini bajarish, musiqa asboblarini chalishni qo‘l harakatlari bilan taqlid qilish, chapak chalish va dirijyorlik qilish kabi elementlardan keng foydalanish darslarning yanada qiziqarli va jozibali bo‘lishini ta’minlaydi. Barcha dars faoliyatlari bir-biri bilan uzviy, mantiqiy bir butunlikni vujudga keltirishni taqozo etadi. Musiqiy faoliyatlarni esa o‘zaro mantiqiy uyg‘unlik natijasi, o‘qitishning rivojlantiruvchi, ta’lim va tarbiya vazifalari amalga oshiradi. Musiqa madaniyati darslarini mazmunli, hamma uchun foydali o‘tishini ta’minlashda fortepiano cholg‘usi bilan bir qatorda o‘zbek xalq yoki qardosh xalqlar milliy cholg‘ularidan keng foydalanish yuqori samara beradi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlari, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlari, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi.

Yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llagan holda o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan dars jarayoni metodikasini har bir o‘qituvchi o‘z fani (o‘quv predmeti) sharoitidan hamda o‘quvchilarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda o‘zgartirishi yoki shular asosida o‘qitish jarayonida o‘zining mualliflik texnologiyalarini yaratishi mumkin.

Masalan, darsning musiqa savodi faoliyatida “Baland” va “past” tovushlarni registrlar orqali o‘rganish. Registrlar, odatda, baland (yuqori), o‘rta va past turlarga bo‘linadi. Registrlar haqida o‘quvchilarga tushuncha berishda o‘qituvchi o‘rganilgan yoki bolalarga tanish bo‘lgan biror qo‘shiqni fortepianoning turli (yuqori, o‘rta va past) registrlarida ijro etib beradi. O‘quvchilar esa qo‘shiq yuqori registrda chalinayotgan bo‘lsa, qo‘llarini yuqoriga ko‘tarishadi, o‘rta registrda chalinganda qo‘llarini oldinga uzatishadi, pastki registrda chalinganda esa qo‘llarini pastga tushirishadi.

Bu o‘yin-mashqni tikka turib bajarish yaxshi samara beradi va ko‘zlangan asosiy maqsadga erishish bilan birga o‘quvchilarda jismoniy, ruhiy tetiklik va yuqori kayfiyat hosil bo‘ladi.

Bundan tashqari, musiqa savodi faoliyati uchun musiqaning ifoda vositalari, ya’ni musiqaning dinamik belgilari va notalarni topish uchun rebuslar tuzib, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Darsning musiqali harakatlar faoliyatida “Raqs tabassum”, “Pantomima”, “Mahorat ko‘chasi” kabi interfaol usullarni tavsiya qilish mumkin. Bunda kuy tavsifiga mos holda raqs harakatlarini qo‘llash mumkin. “Yallama yorim”, “Andijon polkasi”, “Lazgi” kuylaridan foydalanilsa, dars sifati yanada quvnoq o‘tadi.

Qatnashchilar davra shaklida o‘tiradilar. Bir o‘quvchi yoqimli musiqa ostida barcha o‘quvchilarni raqsga taklif etadi.

O‘quvchilar erkin raqsga tushadilar. Musiqiy kuy tugagach, yonidagi yoki ro‘parasida turgan do‘stiga tabassum bilan qarab olqishlovchi so‘z aytishi kerak.

O‘quvchilarga tanqid qiluvchi yoki ko‘ngilni qoldiruvchi so‘zlar aytish qat’iy taqiqlanadi. Ularga quyidagicha murojaat qilish kerak: “Sizni ko‘rganimdan xursandman”, “Siz juda chiroyli tabassum qilar ekansiz”, “Siz juda chiroyli raqsga tushar ekansiz”, “Sizni raqsingiz menga zavq bag‘ishlayapti” va hokazo.

Mashg‘ulot yakunida o‘quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

1. Musiqa sizga qanday ta’sir ko‘rsatdi?
2. Atrofdagilarning tabassumini ko‘rganda nimalarni his qildingiz?
3. Kimning olqishi sizga ko‘proq ma’qul bo‘ldi? Nima uchun?

Darsining musiqa ijodkorligi faoliyatida o‘zbek xalq cholg‘u asboblari to‘g‘risida bilimga ega bo‘lish uchun “Tarmoqlar” (klaster) usulidan foydalanish yaxshi natija beradi.

Bu usul berilgan mavzuni chuqur o‘rganish, avvalo o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi nazarga olinadi. O‘quvchilarni mavzuga oid tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog‘langan holda tarmoqlashga o‘rgatadi. Shuningdek, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o‘zlashtirish, umumlashtirish hamda o‘quvchilarning shu mavzu bo‘yicha tasavvurlarini chizma shaklda ifodalashga undaydi.

Bu kabi mashg‘ulotlarning har biri o‘zining tuzilish xususiyati, vazifasi, maqsadi va metodik asoslariga egadir. Boshlang‘ich sinflarda musiqa darslarini o‘yin tarzida (qo‘shiqlarni o‘yin orqali tashkil etish, musiqa, raqsga tushish “chigil yozdi o‘yin”lari) olib borilganda o‘quvchilarning faolligi oshadi va ular berilgan topshiriqlarni nisbatan oson bajaradilar.

Yuqorida aytib o‘tilganlarning barchasi ham musiqa darslarini o‘z tabiatiga ko‘ra yangi-yangi o‘ziga xos va zamonaviy interfaol usullardan foydalanishda keng imkoniyatlariga ega ekanligini ko‘rsatadi. Yana bir bor shu o‘rinda ta’kidlash joizki, musiqa o‘qituvchisining zukkoligi, mahorati, ish tajribasi va qanday texnologiyalardan foydalana olishi uning kasbiy mahoratiga bog‘liqdir. Musiqa madaniyati o‘qituvchisi qanday faoliyat turlarini qo‘llashdan qat’i nazar, uning dars mavzularini o‘tishda pedagogik shart-sharoit mavjudligi va albatta, o‘quvchilarning darsga qiziqishi va imkoniyatlarini hisobga olgan holda pedagogik texnologiyalarni tanlashi va qo‘llashi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Musiqa madaniyati darslarining tashkiliy tuzilishi va shakllariga ko‘ra yana keng qo‘llaniladigan quyidagi turlarini ham ko‘rsatib o‘tish mumkin:

– tashkiliy darslar;

– aralash darslar;

– dominantali (darsdagi biron bir faoliyat turi qo‘shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqa savodxonligi, musiqiy ijodkorlik va boshqalardan ustunroq bo‘ladi) darslar;

– umumlashgan darslar;

– intervyu darslar;

– yakunlovchi darslar.

Hozirgi vaqtda ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish haqida turli-tuman fikrlar, qarashlar va yondashuvlar mavjud. Bu ham tasodifiy emas, albatta. Zamonaviy, ilg‘or pedagogik texnologiya asosida o‘qitishni yo‘lga qo‘yish, ta’lim jarayonini o‘quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli tashkil etish uchun tinimsiz izlanish o‘qituvchining muhim vazifasi bo‘lib qolmoqda.

Umumta’lim maktablari “musiqa madaniyati” darslarida ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanib darslarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning musiqiy-nazariy bilimlari, amaliy ijrochilik ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan tadqiqot izlanishlar, amaliy ishlarning samarali natija berishi yuqorida ta’kidlab o‘tilgan xulosaviy fikrlar bilan izohlanadi.

O‘qituvchi bunday ta’lim texnologiyalarini qo‘llashi natijasida o‘quvchilarning ushbu darslarga qiziqishi yanada ortadi, ularning diqqatini jalb qiladi va xotirasini mustahkamlaydi. Dars jarayonida o‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri tanlangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarga bilim berish, ularni ma’naviy tarbiyalashda o‘z samarasini ko‘rsatadi. Qayd etilgan pedagogik texnologiyalar o‘qituvchi tomonidan musiqa madaniyati darslari jarayonida qo‘llanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, musiqa madaniyati dars mashg‘ulotlarida pedagogik texnologiya usullarini qullagan holda dars o‘tish o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga qiziqtirish ya’ni “Muzyorar bilan boshlanadi”. Har bir dars mashg‘ulotiga o‘qituvchi puxta tayyorlanmog‘i kerak. Dars uchun ko‘rgazmali qurollar, tarqatmali materiallar, rebuslar tayyorlashi kerak buladi. Chunki musiqa madaniyati mashg‘ulotlari orqali inson ma’naviy jihatdan shakllanadi. Har bir dars uchun dars mashg‘uloti ishlanmalari pedagogik texnologiya usullari qo‘llangan holda rejalashtirib tayyorlanadi. Mashg‘ulotlar musiqa asboblari va chapaklar yordamida olib borilsa dars mashg‘uloti qiziqarliroq olib boriladi deb o‘ylayman. Mashg‘ulot davomida o‘rganiladigan qo‘shiqlar o‘quvchilar yosh darajasiga mos bo‘lsa yanada yaxshiroq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abralova M., Galiyeva D. “Musiqa” 2-sinf. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.

2. Gulboyev T. Yangi pedagogik texnologiyalar va ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish. – Navoiy, 2001. 6. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: “Moliya”.

3. A.I. Odilov, J.J. Kozimov, “Musiqa madaniyati darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish” Zamonaviy ta’lim 2016.

4. Panjiyev Q. “Umumta’lim maktablarida musiqa darslarini o‘qitishning sifat va samaradorligini oshirish masalalari” Zamonaviy ta’lim 2017.

Yoqutxon IRISBOYEVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARI TARBIYACHILARINI BOLALAR BILAN MUNOSABATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada tarbiyachilarning pedagogik faoliyatlarini o'rganish, pedagogik mehnatning eng murakkab tomonlaridan biri muloqot hisoblanishini va unda uchraydigan muammolar haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, tarbiyachilarning bolalar bilan munosabati jarayonini o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Muloqot, munosabat, shaxs, bola, pedagog, tarbiyachi, psixolog, ta'lim, tarbiya, sifat.

В статье рассматривается педагогическая деятельность педагогов, подчеркнута что одним из наиболее сложных аспектов педагогической работы является общение и проблемы возникающие в процессе общения. Также выявлены особенности процесса взаимоотношений воспитателей с детьми.

Ключевые слова. Общение, отношение, личность, ребёнок, педагогика, педагог, психолог, образование, обучение, качество.

The article considers the pedagogical activity of teachers, it is emphasized that one of the most difficult aspects of pedagogical work is communication and problems that arise in the process of communication. Also revealed the features of the process of relations of educators with children.

Key words. Communication, attitude, personality, child, pedagogy ,teacher, psychologist, education, training, quality

Maktabgacha ta'lim tizimi har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashning muhim bosqichidir. Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolaga singdirilgan bilim va qadriyatlar uning kelgusidagi hayotini belgilab berishi sababli maktabgacha ta'lim uyg'un rivojlangan shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli Farmonida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish ta'kidlangan.[1] Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil

[1] Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabr, PF-5198-sonli Farmoni.

21-noyabrdagi 929-son qarorining 1-ilovasi va O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi to‘g‘risidagi Nizomda “... maktabgacha ta’lim muassasalarini milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o‘qishga qiziqish uyg‘otuvchi o‘quv-metodik, didaktik materiallar, rivojlantiruvchi o‘yin va o‘yinchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan ta’minlash, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratish belgilab qo‘yilgan”.[2] Shu bois, maktabgacha yoshdagi bolalarni xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida ma’naviy-axloqiy kamol toptirish muhim o‘rin tutadi.

Maktabgacha yosh davridagi bolalarning zamonaviy ta’lim tizimi kattalarni bolaga, uning qiziqishlari va huquqlarini tushunish va hurmat qilishga muhtoj bo‘lgan rivojlanuvchi shaxs sifatidagi yangi insonparvarlik yondashuviga yo‘naltiradi. Shuning uchun pedagog shaxsini shakllantirishning tashkiliy qismlaridan biri uni bolalar bilan muloqotga tayyorlash hisoblanadi.

Insonning rivojlanishini, ijtimoiylashishini, individ shaxs bo‘lib shakllanishini, uning jamiyat bilan bo‘lgan aloqasini muloqotsiz aslo tasavvur etib bo‘lmaydi. Muloqot ham o‘ziga xos ehtiyoj. Gudaklik va o‘smirlik davrlarida muloqot yetakchi faoliyatga, ya’ni yangi psixologik xususiyatlarning shakllanishiga bevosita ta’sir kursatuvchi faoliyat sifatida gavdalanadi.

Ammo zamonaviy bosqichda MTMlarda tarbiyachilarning pedagogik faoliyatlari tajribasini o‘rganish, pedagogik mehnatning eng murakkab tomonlaridan biri muloqot hisoblanishini ko‘rsatdi. Ko‘pincha uchraydigan muammolar orasida quyidagilarni ajratish mumkin:

– bolalar bilan aloqa o‘rnatishni bilmaslik;

– bolaning ichki psixologik holatini tushunmaslik;

– munosabatlarni qurish va ularni aniq bir vaziyatga ko‘ra qayta qurishni bilmaslik;

– mashg‘ulotlarda dialogni tashkil etishdagi qiyinchiliklar va boshqalar.

Pedagogning kasbiy madaniyati ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘lgan faoliyatning samaradorligi sharoitlarini o‘rganish juda muhim hisoblanadi.

Shuningdek, muloqotni ixtiyoriy hamkorlikdagi faoliyatning ajralmas qismi sifatida tushunish kerak, unda muloqot qiluvchilarning bir-birlariga va o‘zlariga, hamkorlikdagi faoliyatlari va uning natijalariga munosabatlari ifodalanadi. Tarbiyachining bola bilan muloqot jarayoni ko‘p jihatdan bolaning psixik rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Bu ko‘pgina mahalliy va xorijiy psixologlar tomonidan tan olingan. Pedagogga kuchli e’tibor, uning shaxsining kuchli axloqiy ta’sirini tan olish psixologik-pedagogik fikr tarixida chuqur an’analarga egadir.

Muloqotga ehtiyoj ijtimoiy tabiatga egadir, uning yuzaga kelish shartlari esa katta insonning bolaga munosabati va tashabbuskor murojaati hisoblanadi. Bolaning psixik rivojlanishining asosiy sharti uning katta inson bilan muloqoti hisoblanib, bu jarayonda “yaqin rivojlanish sohasi” yaratilishi, unda hamkorlik asosida bola o‘zining potensial imkoniyatlarining amalga oshishi, interiorizatsiya mexanizmi yordamida xatti-harakatlarning ichki sohasi shakllanadi.

Muloqot jarayonida o‘zini va boshqani anglash sodir bo‘lishini, o‘z ichiga yaxlit affektiv-kognitiv inson kompleksni qamrab oluvchi, bunda affektiv qism baholash bilan, kognitiv esa, o‘zi va boshqa inson to‘g‘risidagi tasavvur bilan bog‘liq bo‘lgan inson obrazi shakllanadi. Muloqot jarayonida boshqa inson orqali mazkur boshqa insonning

[2] Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabr, PF-3261-sonli Qarori.

shaxsiy yo‘nalgan murojaat etishi asosida o‘zini anglash sodir bo‘lishi ta’kidlash lozim.

Bunda katta insonning diqqati, emotsional jalb etilganligi, individual yo‘nalganligi bolaning imkoniyatlarini oshirishi, yangi qiziqishlari va xatti-harakat usullarining paydo bo‘lishiga ko‘maklashishi kelib chiqadi.

Ammo insonni ko‘p qirrali mavjudod sifatida, muloqot motivi individ kirishadigan o‘zaro munosabatda boshqa insonlarning sifatlari hisoblanadi va kommunikativ faoliyat motivlarining uch turini ajratiladi. Bular ishbilarmonlik, bilishga oid va shaxsiy.

Muloqot faoliyatining mahsuli o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish, boshqa inson va o‘z-o‘zining obrazini shakllantirish hisoblanadi. O‘zaro munosabatlarning muloqotga ehtiyoj mazmuniga bog‘liqligi katta insonlar, hamda tengdoshlari bilan muloqot sohasi sifatida o‘rganilgan.

Muloqot ontogenezi muammosi, “bolada o‘z-o‘zini obrazi turli hayotiy amaliyot: individual faoliyat tajribasi va muloqot tajribasi davomida yuzaga keladi”. Bola va katta insonning o‘zaro munosabati jarayonida bola ongi va o‘z-o‘zini anglashi yadrosi – “umumiy o‘z-o‘ziga baho” shakllanib, u muallifning konsepsiyasida ahamiyatli kattalarning bolaga munosabati xususiyatlari orqali “bolaning o‘ziga qadriyatli munosabati” sifatida shakllanadi. Bundan bola o‘zini predmetli olamdan emas, balki unga taalluqli bo‘lgan boshqa insondan ajratishi kelib chiqadi.

Shu tariqa, yuqorida keltirilgan asosida katta insonning bola bilan o‘zaro munosabati – bu katta insonning bolaga individual yondashuvi asosida “katta inson-bola” tizimida ikki subyektlar o‘rtasida kechadigan, ixtiyoriy faoliyatning strukturaviy elementlariga ega bo‘lgan, ijtimoiy tabiatga ega va bolaning psixik rivojlanishining sharti hisoblangan, shuningdek bolaning o‘z subyektligi va shaxsini ifodlovchi o‘z-o‘zini anglashini shakllantirishning asosi bo‘lib xizmat qiluvchi, katta insonning yetakchi roliga bog‘liq.

Hozirgi vaqtda, MTMlar zamonaviy pedagogik jarayonini takomillashtirish, tarbiyaning shaxsiy yo‘naltirilgan modelini qurish, tarbiyachining bolalar bilan muloqoti shaklini o‘zgartirish, bolaning imkoniyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari, istaklarini inobatga olish, pedagogning turli-tuman bilishga oid mehnat, maishiy o‘zaro munosabatlarda, o‘yinlar va boshqa faoliyatlarda bolalar bilan hamkorlikka intilishini qurishni ko‘zda tutadi. Pedagogik texnologiyalarni izlash strategiyasi bolaning rivojlantiruvchi hayot obrazini, turli ta’limiy va tarbiyaviy muhitlarni qurish strategiyasini ko‘zda tutadi. Muloqotdagi pozitsiya tarbiyachining bolaga umumiy munosabati bilan belgilanadi. Katta insonning bolalar bilan o‘zaro munosabatlarini belgilovchi quyidagi vaziyatlar shakllanadi: bolalar oldiga ma’lum topshiriqlar qo‘yuvchi va ularning xatti-harakatlarini baholovchi “pedagog” vaziyati, bolalar faoliyatiga kirishgan “teng” sherik vaziyati; bolaga mustaqil harakat qilish imkoniyati berib, atrof rivojlantiruvchi muhitni “yaratuvchi” vaziyati.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘zaro munosabat doimo dialog shaklida amalga oshirilishini ta’kidlash lozim bo‘lib ta’lim jarayoni subyektlarining shaxsiy rivojlanishlarini ta’minlaydi. Masalan, san’atni insonlarning muloqotlari vositasi va tasviriy dialog rejimida tasviriy san’at asarlarini estetik idrok etishni shakllantirish jarayonida pedagogik maqsadga muvofiq o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish mumkin. Tasviriy san’atni estetik idrok etishni shakllantirish jarayonida tarbiyachi va bolalalarning samarali o‘zaro munosabati sharti deb hamkorlik prinsipiga rioya etish, mazkur prinsipni amalga oshirish asosini quyidagilar tashkil etadi:

1) sheriklarning o‘zaro munosabatda o‘zaro faolliklari;
2) o‘quv topshiriqlarini yechishning muvaffaqiyatliligi;
3) sheriklarning bir-birlarini qadriyatli idrok etishlari.

Dialogik o‘zaro munosabat strukturali modelida quyidagi tashkil etuvchilarni ajratadi:

– o‘zaro aloqadagi sheriklar (tarbiyachi va bolalar);

– muloqot vositalari;

– sheriklarning o‘zaro munosabatlarini amalga oshiriladigan muhit.

Bunda dialogik muloqotning zaruriy sharti quyidagilar hisoblanadi:

– sheriklarning prinsipial tengligi;

– fikrlaridagi nuqtayi nazarlarining farqliligi va o‘ziga xosligi (verbal, tasviriy);

– har birining o‘z nuqtayi nazarini sherigi tomonidan tushunishi va faol interpretatsiyasiga yo‘nalganlik;

– javobni kutish va uni o‘z mulohazasida ma’qullash.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida tarbiyachi va bolalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatning alohida uslubi – “hamkorlik” yotadi. Aynan hamkorlik vaziyati bolaning psixik rivojlanishiga ko‘maklashadi, chunki hamkorlikdagi xatti-harakatlar va ular asosida yuzaga keluvchi shaxslararo munosabatlarni bola o‘zining shaxsiy faoliyatini tartibga solish uchun vosita sifatida foydalanishi mumkin. Bolalar tengdoshlari bilan hamkorlikdagi faoliyatda kattalarning xulqlari shakllaridan foydalana boshlaydilar (ma’qullash, baholash va h.k.).

Dastlabki yetti yosh davrida bolalar va kattalar muloqotining bir qancha: bevosita-emotsional, ishbilarmonlik, vaziyatdan tashqari bilishga oid va shaxsiy shakllari asta-sekin yuzaga kelishi va bir-biri bilan almashinish jarayonidir.

Mazkur holatlarda muloqotni bolalarni kattalarga munosabatlarining rivojlanishini aniqlovchi eng muhim jihatlardan biri sifatida tushunish kerak. Shu tariqa, aynan maktabgacha yosh davrida bolada katta inson bilan o‘zaro munosabatini o‘rnatish orqali faoliyatning tayanch shaxsiy darajasi shakllanadi, bu bolaning faoliyat subyekti sifatida rivojlanishiga, uning shaxsi shakllanishiga yordam beradi.

Jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim va tarbiyasi uchun zarur bo‘lgan muayyan bilim va ko‘nikmalar hajmini oddiy o‘zlashtirishdan bo‘lajak tarbiyachilarning erkin va mas’uliyatli shaxsini shakllantirishga yo‘naltirishni talab etadi

Yuqoridagilardan kurinadiki, bo‘lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o‘zaro munosabati jarayonida ijtimoiy-pedagogik vaziyatlarning yechimini izlab topishga faol jalb etish ularda ijtimoiy-ma’naviy hayot voqeliklariga ongli munosabatda bulish kompetensiyasini tarkib toptirishga, pedagogik mas’ullikni rivojlantirishga, daxldorlik xissini kuchaytirishga xizmat kiladi. Bu esa, o‘z navbatida, maktagacha ta’lim tizimida sifat va samaradorlikni oshirishning eng muhim va asosiy omillaridan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Л.С. Выготский. Педагогическая психология. – М., 2000.

2. М.И. Лисина. Общение и его влияние на развитие психики дошкольников. – М., 2004.

3. Н.А. Короткова. Продуктивная деятельность детей старшего дошкольного возраста // Дошкольное воспитание – 2001- №11

4. С.И. Земляная. Взаимодействие педагога и детей в процессе формирования эстетического восприятия произведений изобразительного искусства.: Автореф. дис.канд. пед. наук. – М., 1999.

5. К.М. Дурай-Новакова. Формирование профессиональной готовности студентов к педагогической деятельности: Автореф. дис...д-ра пед. наук. – М., 2001.

Gulshod UMAROV,
Guliston Davlat universiteti
boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim metodikasi
kafedrasi katta o‘qituvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING NAFOSAT TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada nafosat tarbiyasini shakllantirishning o‘ziga xos pedagogik xususiyatlari haqidagi fikrlar bayon etilgan. Shuningdek, muallif maktabgacha tarbiya muassasalari tarbiyalanuvchilarida estetik tarbiyani shakllantirish bo‘yicha o‘z mulohazalarini berib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Estetik tarbiya, didaktika, o‘qitish, metodika, tarbiya, o‘quvchi, dunyoqarash, odob-axloq.

В данной статье изложены специфические педагогические особенности математического образования. Автор также комментирует формирование эстетического воспитания в дошкольных учреждениях.

Ключевые слова. Элегантность, дидактика, обучение, методика, воспитание, ученик, мировоззрение, манера поведения.

This article discusses the peculiar pedagogical features of fostering education. The author also made his remarks on the formation of aesthetic education in preschoolers.

Key words. Aesthetic education, didactics, training, methods, education, student, worldview, behavior.

Shaxs kamolotining eng asosiy omillari sifatida irsiyat (biologik), ijtimoiy muhit, ta’lim va tarbiya hamda faollik tushuniladi. Shaxsning komilligi deyilganda, aqliy va axloqiy, ruhiy hamda nafosat jihatlardan kamolotga erishgan kishilar nazarda tutiladi. Shaxsning aqliy, axloqiy, jismoniy va mehnat tarbiyasini nafosatsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Nafosat lotincha “estyozio” – go‘zallikni his etaman ma’nosini bildiradi.

Umuman olganda, nafosat tarbiyasining maqsadi va vazifasi o‘quvchilarni tabiat va jamiyatdagi go‘zallikni idrok qilish, uni to‘g‘ri tushunish va fahmlash, qadriga yetish, shu asnoda o‘z shaxsiy hayotining go‘zal tomonini ko‘ra bilishga, go‘zal bo‘lishi uchun kurashishga o‘rgatishdan iboratdir. Nafosat axloqiy qiyofa, ijobiy xulq-atvor normalarini tarkib toptirishga, ularning ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirishga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, umumta’lim maktablardagi musiqa, rasm, adabiyot va boshqa fanlar nafosat tarbiyasining vositasi hisoblanadi.

Nafosat faqat narsa va hodisalarni mohiyatini bilish, go‘zal tomonlarini ko‘ra bilishnigina emas, balki botiniy go‘zallikni his qilishni ham tarbiyalaydi. Insondagi xulqiy go‘zallikning qadriga yetishga undaydi. Insoniy go‘zallik aql, burch, iymon, insof, kam-

tarlik, latofat, lafz, mehmondo‘stlik, muloyimlik, poklik, yaxshilik va hokazo sifatlarda o‘zini namoyon qiladi. Nafosat ta’limning didaktik asoslari pedagogika fani qonuniyatlariga chuqur bog‘langan holda bayon etilgan. Ba’zi hollarda ayrim didaktik masalalar o‘quv mashg‘ulotlari berish muammolari bilan aralash holda talqin etilgan.

Abdumalikov R., Abdullayev A., Karimov F., Salomov R., Mahkamjonov K., Usmonxo‘jayev T., Yunusov T. va boshqalar bevosita o‘quv mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi muammolarini tadqiq etganlar.[1]

Yuqorida ko‘rib chiqilgan tadqiqotlarda didaktikaning bir qator masalalari o‘quv mashg‘ulotlari talablariga moslashtirilgan holda o‘z ilmiy yechimlarini topganligini ko‘rsatib o‘tishni lozim deb topdik.

Birinchi navbatda ta’lim jarayoni va uning tarkibiy qismlari tahlil etilgan. O‘quvchi-yoshlarda bilim, ko‘nikma va malakalarning hosil bo‘lishi, takomillashib borishi va amaliyotdagi tadbiqi ma’lum qonuniyatlarga bog‘liq ekanligi, ulardan tashqari o‘quv mashg‘ulotlari berishning o‘ziga xos prinsiplari aniq ko‘rsatilgan.

Ikkinchidan, nafosat ta’limining nimalardan iborat bo‘lishi va turli yoshdagi, individual tafovvutga ega bo‘lganlari uchun mos mazmun tanlash zarurligi aniq ko‘rsatilgan. Ta’lim mazmunining milliylashtirilganligi e’tiborga loyiq holat hisoblanadi.

Uchinchidan, ta’lim metodlari batafsil tadqiq etilgan holda qanday qilib ulardan samarali foydalanish yo‘llari ko‘rsatilgan.

Ta’limning og‘zaki, amaliy, mashq qildirish, qisman izlanuvchanlik va ijodiy o‘zlashtirish metodlari batafsil yoritilgan.

To‘rtinchidan, ta’limni tashkil etishning shakllari an’anaviy va zamonaviy talablar asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, ularni bajarishning xususiyatlari to‘g‘ri ochib berilgan.

Beshinchidan, o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar tekshirilishi, nazorat qilinishi va baholanishi zarur. Bu didaktik masala ham o‘zining to‘g‘ri yechimini topgan.

Qayd etilgan muammolarning ilmiy tahlili va amaliyotga tadbiq etilishida munozaraga sabab bo‘ladigan joylari ham yo‘q emas. Agar ilmda u yoki bu masalaga faqatgina bitta to‘g‘ri yo‘l bo‘ladi deb qaralsa rivojlanish to‘xtab qolgan bo‘lar edi. Har xil yondashuvlar va qarashlar fanning, ilm sohalarining rivojlanishi uchun xizmat qilishini esdan chiqarmaslik kerak.

Tabiat o‘ziga xos go‘zalliklarga ega bo‘lib, ma’lum qonuniyatlari asosida o‘zgarib, jilolashtiradi. Yil fasllarning almashinuvi tabiatning ranglarini, shakllarining xushbo‘y hidlar-u, turli, jonzotlarning yoqimli tovushini, inson shu o‘ringa tortiq etadi. Ular har bir kishini baxtiyor poklik, beg‘uborlik olamiga olib kiradi.

Nafosatning yana bir tarbiyasi badiiy ijod namunalari hisoblanadi. Ayrim pedagogik adabiyotlarda badiiy tarbiya deb nomlanib, bu o‘z ichiga badiiy adabiyot, musiqa, qo‘shiq va raqs san’ati, teatr va kino san’ati, tasviriy san’ati, haykaltaroshlik, me’morchilik, xalq amaliy san’ati va boshqalarni oladi. Bu san’at asarlarini qiymati dunyoviy boyliklarda imkoniyatlari cheksizdir. Ayrim san’at asarlarini qiymati dunyoviy boyliklarda nihoyat darajada ustun turganidek, badiiy tarbiya ham odamlarning ma’naviy boyishlarida tengi yo‘q ta’sir kuchiga egadir.

Bulardan tashqari adabiyot, ona tili, odobnoma, tabiatshunoslik, jug‘rofiya va boshqa fanlarni o‘qitishda mavzuning mazmuniga mos holda nafosat tarbiyasi beriladi.

Bevosita nafosat tarbiyasini beruvchi rasm va ashula darslari o‘quvchilarning eng qiziqadigan hamda ijodiy o‘rgandigan o‘quv darslaridir. Bu darslarda o‘quvchilar

[1] Abdumalikov R., Abdullayev A. va boshqalar. O‘quv mashg‘ulotlari ta’limi ilmini takomillashtirish masalalari.

go‘zallikni ongli idrok etibgina qolmasdan, ko‘nikma va malakalar hosil qiladi. Buyuk rassomlar, bastakorlarning asari bilan tanishadi. O‘zlari rasm chizadi, musiqa tinglaydi, ma’nosini tushunadi, imkoniyat darajasida ijrochilik mahoratlarini egallaydilar.

Shuningdek, o‘quvchilarga nafosat tarbiyani berishda maktabda tashkil etilgan badiiy to‘garaklarning ahamiyati katta. O‘quvchilar qobiliyati va qiziqishlariga mos holda rasm, musiqa, raqs, xalq amaliy san’ati to‘garaklarida ishtirok etib, tegishli malakalarni egallaydilar.

Maktabda havaskor rassomlarning ko‘rgazmalari tashkil etilishi mumkin. Unda “chevar qo‘llar” to‘garagi qatnashchilarining maktab ustaxonasida tayyorlangan amaliy san’at namunalarni ham namoyish etish foydalidir. Maktab yoshlariga nafosat tarbiya berishning markazi vazifasini o‘tay oladi.

Nafosat tarbiyasining barcha o‘quvchilar uchun asosiy, majburiy-tashkiliy shakli bo‘lgan darsdagi beriladigan bilim, o‘quvi va ko‘nikmalarining o‘quv dasturida ko‘zda tutilgan va o‘quvchilarning umumiy nafosat tayyorgarligining asosli bo‘lgan minimumni ta’minlaydi. Nafosat tarbiya darslarining o‘quvchi uchun har tomonlama ta’sir ko‘rsatishi maqsadida nafosat tarbiyaning amaldagi barcha asosiy vositalari turli birikmalaridan foydalaniladi.

Nafosat tarbiya darslarining tuzilishiga umumdidaktik va maxsus talablar qo‘yiladi. Bu talabni qondirish, nafosat ta’sirning kuchini oshira borib darsning ikkinchi yarmida uni maksimumga yetkazish, so‘ngra tobora susaytirib avvalgi holatga kelishni taqozo etadi. Nafosat zo‘riqish darsning asosiy qismida uning markaziy pedagogik vazifasi hal qilinayotganda kuchayadi Ushbu bosqichda mashqni o‘zlashtirishga taalluqli barcha narsalarni o‘rganadilar va takomillashtiradilar, ularga dasturga tegishli nazariy ma’lumotlar beriladi.

Nafosat tarbiya darsiga guruhlarda o‘tkaziladigan umumiy nafosat tayyorgarlik kelib qo‘shiladi. Ular ortda qolayotganlarga o‘quv dasturini o‘zlashtirishda va ularni nafosat tayyorgarligi darajasini oshirishga yordam beradi; o‘quvchilarni muntazam shug‘ullanishga jalb qiladi.

O‘rta umumiy ta’lim maktablari, kichik yoshdagilarda o‘quv mashg‘ulotlari mashqlari har qancha samarali tashkil etilmasin, o‘quvchi yoshlarning nafosat mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondira olmaydi. Chunki, u haftada bor-yo‘g‘i ikki soat o‘qitiladi, xolos. Qolgan paytlarda mashg‘ulotlar mustaqil tarzda amalga oshiriladi. Shuning uchun ham o‘quv mashg‘ulotlari mashqlari bilan mustaqil shug‘ullanish o‘ziga xos tizimni tashkil etadi. Shuningdek, tarbiya va ta’lim jarayonida katta yoshli odam bolaga tushunarli bo‘lgan mazmunni tanlaydi, uning o‘zlashtirishiga rahbarlik qiladi. Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning yetakchilik roli shu bilan belgilanadi. Bunda bolaning ruhiy-fiziologik imkoniyatlari, ularning jo‘shqinligi hisobga olinadi. Shu munosabat bilan tarbiya jarayonining o‘zi doimiy bo‘lib qolmaydi. U o‘zgarib boradi: uning mazmuni boyiydi va murakkablashadi, shakllari o‘zgaradi, o‘sayotgan odam shaxsiga ta’sir ko‘rsatish usullari tobora xilma xil bo‘lib boradi.

Mustaqil nafosat mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanish tizimiga oiladagi nafosat mashqlarni, maktabda darsdan tashqari nafosat tayyorgarlikni, sport to‘garaklari va seksiyalardagi mashg‘ulotlarni, ertalabki badan-tarbiya mashqlarini, sog‘lomlashtiruvchi mashg‘ulotlarni, sport mahorati mashqlarini, harakatli o‘yinlar, sport musobaqalari, turistik sayohatlar, o‘quv mashg‘ulotlari bayramlarini kiritish mumkin.

Pedagogik va metodik adabiyotlarda ularning ahamiyati, tashkil etilish tartibi, shart-sharoiti haqida ko‘plab fikrlar bildirilgan. Biz izlanishlarimizda mustaqil o‘quv

mashg‘ulotlari mashqlari bilan shug‘ullanishga qo‘yiladigan talablar, o‘quvchi yoshlarga mo‘ljallangan mashqlarning mazmuni va bajarish tartibi, umumiy nafosat rivojlanishga ta’siri, shug‘ullanuvchining o‘zini-o‘zi nazorat qilishi hamda ayrim metodik tavsiya va ko‘rsatmalarni ishlab chiqishga harakat qildik.

O‘quv mashg‘ulotlari mashqlari inson organizmini chiniqtiradi, kuchlilik va chaqqonlikka o‘rgatadi. Sog‘liqni mustahkamlaydi, gavdani to‘g‘ri shakllanishini ta’minlaydi. O‘quv mashg‘ulotlari orqali nafosat mahorati tarkib topadi va eng yuksak natijalarni qo‘lga kiritishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shaxsning aqliy, axloqiy va mehnat tarbiyalariga ham kuchli ta’sir etadi. Bir so‘z bilan aytganda, shaxsdagi komillik belgilarining ortib borishiga ta’sir qiladi. Faqat o‘quv mashg‘ulotlari tor ma’nodagi o‘quv mashg‘ulotlari darslari shaklida emas, keng ma’noda, har qanday nafosat tadbirlarda ishtirok etish shaklida tasavvur qilish zarur bo‘ladi. Chunki murakkab nafosat mashqlarni bajarishda, sport o‘yinlari va musobaqalarda ishtirok etishda eng noyob insoniy fazilatlar nomoyon bo‘ladi. Oddiy holatda o‘ylab ham ko‘rilmaydigan fazilatlar o‘yin va musobaqalar jarayonida osonlik bilan amalga oshiriladi. Nafosat tarbiya yoshlarda xulq-atvor, odob, yurish-turish normalarining tarkib topishi va ularga amal qilishni ta’minlaydi. Xususan, maktabgacha ta’lim pedagogikasi jamiyat va insonni o‘rganuvchi fanlar bilan chambarchas bog‘langan. Pedagogika ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyani o‘rganar ekan, sotsiologiya, anatomiya, fiziologiya, psixologiya, falsafa bilan chambarchas bog‘liqdir. Chunki mazkur fanlar asosida tarbiyaning maqsadi va vazifalarini o‘rganish metodologiyasi belgilanadi. Tarbiyaning paydo bo‘lishi va rivojlanishi ijtimoiy hodisa ekanligi, jamiyat hayotida va kishi shaxsining rivojlanishida tarbiyaning rolini baholashga yordam beradi. Didaktik masalalarni ishlab chiqishda pedagogika bilish nazariyasiga suyanadi, axloqiy tarbiya masalalarini o‘rgatishda pedagogika etikaning axloq to‘g‘risidagi ta’limotiga, estetik tarbiyaning maqsadini, yo‘llarini, metodlarini belgilashda etika faniga asoslanadi. Etika axloqni nazariy jihatdan asoslab, yosh avlodni, uning axloqiy tarbiyasi muammolarini, inson shaxsini shakllantirishda axloqiy g‘oyalar rolini tushunishni chuqurlashtiradi. Estetika insonlarning voqelikka, san’atga estetik munosabatlari rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi, nafosat tarbiyasining ilmiy asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barkamol avlod orzusi (“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni amalga oshirish borasidagi publitsistik mulohazalar). – T.:Sharq, 1998.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sog‘lom avlod uchun davlat dasturi”. 1997.

3. A.A. Abdullayev. O‘quv mashg‘ulotlari vositalari. O‘quv qo‘llanma. Farg‘ona, 1999.

4. Abdumalikov R., Abdullayev A. va boshqalar. O‘quv mashg‘ulotlari ta’limi ilmini takomillashtirish masalalari.

5. A.K. Akramov. O‘zbekistonda nafosat madaniyat va sport tarixi. O‘quv qo‘llanma. O‘zJTI nashri, 1997.

Zulayho SARIYEVA,
Qarshi muxandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti

TA'LIM MUASSASALARI O'QUV JARAYONINI TIZIMLI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION YONDASHUV

Annotatsiya

Maqolada ta'lim tizimida hozirgi kundagi kadrlar salohiyatini oshirish va o'qituvchilarni kasbiy tajribasi va mahoratini tubdan yaxshilash ta'lim, fan, texnika va texnologiyalar, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lim dasturlarini tubdan o'zgartirish, milliy mustaqillik prinsiplari va xalqning boy intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlarning ustuvorligi asosida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar. Texnologiya, innovatsion jarayon, innovatsiya, ta'lim muassasalari, mexanizm, ta'lim funksiyasi.

В статье подчеркивается современный уровень кадрового обеспечения в системе образования и кардинальное повышение квалификации учителей, коренная трансформация образовательных программ с учетом достижений мирового уровня в области образования, науки, техники и технологии, повышение качества образования на основе принципов независимости и богатого интеллектуального наследия народа и приоритета общечеловеческих ценностей.

Ключевые слова. Технология, инновационный процесс, инновация, образовательные учреждения, механизм, образовательная функция.

The article emphasizes the modern level of staffing in the education system and a radical training of teachers, a radical transformation of educational programs, taking into account the achievements of the world level in the field of education, science and technology, improving the quality of education based on the principles of independence and the rich intellectual heritage of the people and the priority of human values.

Key words. Technology, innovation process, innovation, educational institutions, mechanism, educational function.

Ta'lim tizimining kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, o'qituvchilarning kasbiy nufuzini oshirish, ta'limning barcha darajalari va bo'g'inlarida talabalarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish, uzluksiz ta'limni ishlab chiqarish bilan integratsiyalashtirishning puxta mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash, innovatsion texnologiyalarni keng o'zlashtirish pedagogning kasbiy mahoratini oshirishning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqishni talab etadi. Innovatsiyalar ta'limga oid tashabbus va yangiliklarni to'plash, ularni yanada yaxshilab, ta'lim sohasidagi muayyan o'zgarishlarga, uning sifati va mazmunini transformatsiyalashga olib keladi. Innovatsiyalar ta'lim sohasidagi pedagogik faoliyatning istiqbolli shakl va vositalarini izlash, hayotbaxsh metodika va usullarni sinovdan o'tkazish natijasida

vujudga keladigan tabiiy jarayondir. Ta’lim taraqqiyotining innovatsion mexanizmlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– turli (barcha) ta’lim muassasalari va tuzilmalarida ijodiy muhit yaratish, ilmiy-pedagogik jamoatchilikka tashabbus va yangiliklar joriy etishga qiziqishni singdirish;

– turfa xil yangiliklarni qabul qilish va joriy etish uchun ijtimoiy-madaniy va moddiy (iqtisodiy) shart-sharoit yaratish;

– tadqiqotchilik ta’lim tizimi tashabbuskori bo‘lish va uning mexanizmlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash;

– real faoliyat ko‘rsatayotgan ta’lim tizimiga eng istiqbolli yangilik va mahsuldor loyihalarni integratsiyalash hamda to‘plangan innovatsiyalarni doimiy faoliyatdagi tadqiqotchilik va eksperimental ta’lim tizimi rejimiga o‘tkazish.

Ta’limning innovatsion texnologiyalari o‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan yangi, zamonaviy ta’lim usul, shakl va vositalarining izchil aloqador tizimi demakdir. Bunda innovatsiya – yangi, yangilik, texnologiya esa mahorat so‘zi bilan bog‘lanib, chuqur va sertarmoq mazmun hamda samaradorlikka ega ta’lim shart-sharoitlariga aloqador tushunchadir.

“Innovatsiya” tushunchasi yangilik, yangi narsa, o‘zgarish ma’nosini anglatadi. Innovatsiya vosita va jarayon sifatida qandaydir yangi narsani kiritishni taxmin qiladi. Pedagogik jarayonga muvofiq innovatsiya o‘qitish va tarbiyalashning maqsadlari, mohiyati, usullari va shakllarida yangilik kiritishni, o‘qituvchi va o‘quvchining birgalikda faoliyatini tashkil etishni nazarda tutadi.

Innovatsionlik – yangilik kiritishning tematik yadrosi bo‘ladi – yangi sifatli ta’lim samarasini (natija) olishni ta’minlovchi tizimlar va tuzilmalarni, maqsad va vazifalarni, mohiyat va texnologiyalarni, shuningdek, o‘quv-fazoviy muhitlarini o‘zgartirishning integrativ tavsifidir. Innovatsionlikning asosiy tavsiflari:

● innovatsion jarayonning noaniqligi, chunki uning natijasini har doim ham oldindan bashorat qilib bo‘lmaydi;

● innovatsiya subyektlarini yangi bilimlar, mahorat va kompetensiya bilan, kreativlikni va kasbiy-shaxsiy imkoniyatlarini faollashtirishni boytish;

● kiritilgan yangilikka qarama-qarshilik, chunki ular faoliyatni bajarishning turib qolgan texnologiyasini yengib o‘tish zaruriyati bilan bog‘liq.

Shu o‘rinda, texnologiya atamasi zamirini tashkil etuvchi tamoyillar mohiyatiga e’tibor qarataylik: bu, avvalo, o‘quv jarayonini tizimli yondashuv tamoyillariga tayanib loyihalash; istalgan etalonga muvofiq ta’lim oluvchining o‘quv maqsadiga maksimal darajada erishuvi; ta’lim oluvchilarning xatti-harakatlari asosida ta’lim berish; tuzatuvchi teskari aloqa asosida o‘quv jarayoniga muayyan tuzatishlar kiritib borish, ya’ni, nazorat-tuzatish va qayta nazorat; darajali nazorat; bilim va ko‘nikmalarni to‘liq o‘zlashtirish; rejalashtirilgan natijalarga erishish kafolati; ta’lim samaradorligi kabilar demakdir. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv innovatsion texnologiyalarning amaliy mazmunini asoslab beruvchi, ularning mavjudligini kafolatlovchi hayotiy dolzarb yo‘nalishlar sirasiga kiradi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, ya’ni insonparvarlik pedagogikasining asosini tashkil etuvchi, innovatsion texnologiyalarning barqarorligini ta’minlovchi muhim g‘oyalar esa quyidagilardan iborat:

– maktab dasturlarini tuzishda o‘quv jarayonini hissiy qo‘llab-quvvatlovchi muhitni hisobga olish; o‘quvchilarning tashabbuskorligini rag‘batlantirish; fanlararo yondashuv; ta’lim oluvchilarda o‘z-o‘zini boshqarish va erkinlikni anglangan zarurat ekanligi tuyg‘usini tarbiyalash;

— ta’lim ishtirokchilari orasida iliq munosabatlar ustuvorligi; o‘qituvchini o‘quvchisini o‘ta hissiyotga berilib ayblamasligi va unga do‘q-po‘pisa qilmasligi;

— o‘quv jarayonining o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamfikrligi asosida strukturalashtirilishi;

— o‘qituvchining maslahatgo‘y va hamisha yordamga hozir “bilim manbayi” sifatidagi mavqening cheklanishi;

— o‘qituvchining ta’lim oluvchida o‘z-o‘zini namoyon etishga intilishni rag‘batlantirish;

— ta’lim dasturlarining o‘quvchi ijodkorligi va kreativ tafakkurini tarbiyalashga muvofiq takomillashtirib borilishi;

Har qanday innovatsion ta’lim texnologiyasi ta’lim oluvchilarga bilim va tarbiya berish jarayonida yuqorida qayd etilgan g‘oyalarni u yoki bu darajada amalga tatbiq etish vositasi sifatida ahamiyatga molik hodisa hisoblanadi.

Ta’limning innovatsion modellari o‘quv jarayoni samaradorligiga ko‘rsatadigan ta’siriga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

— o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va intensifikatsiyalashga asoslangan innovatsion texnologiyalar;

— ta’lim jarayonini tashkil etish va boshqarish samaradorligiga asoslanuvchi innovatsion texnologiyalar;

— o‘quv materialini metodik jihatdan takomillashtirish va didaktik qayta qurishga asoslanuvchi innovatsion texnologiyalar.

Innovatsion texnologiyalarning asosiy xususiyati o‘quv jarayoni ijtimoiy tashkil etishning tarixan yangi tipi sifatida zamonaviy jamiyat madaniy rivojiga mos kelishi, innovatsion o‘qitish jarayonida shaxsni rivojlantirishning zarur shart-sharoitlari yaratilishi, o‘quv jarayonida ta’lim oluvchining shaxsiy ijodiy ulush qo‘shish huquqi, tashabbuskorligi, o‘z-o‘zini rivojlantirish huquqi e’tirof etilishi bilan izohlanadi. Bunda eng asosiysi, ta’limning markaziy figurasi hisoblangan ikki shaxs, ya’ni ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasida asrlar davomida qaror topgan reproduktiv ta’lim usulidan farq qiluvchi, tenghuquqlilik, hamkorlik, demokratik munosabatning ustuvor ahamiyatga ega bo‘lishidir. Shu sababli, innovatsion texnologiya bilim olishni ta’lim oluvchi shaxsi uchun quvonch, taraqqiyot, ishonch va hayot manbayiga aylantirishga intiladi.

Ushbu murakkab muammolarning yechimini topib ularni amalda keng qo‘llash oliy ta’lim tizimi xodimlari oldiga juda katta vazifalar qo‘yadi. Bunda aniq vazifalar sifatida bevosita o‘quv jarayonini yakunlash, o‘quv dasturlarini yanada takomillashtirish, o‘qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini amalda joriy qilish, texnik vositalardan keng foydalanish va shu asosida masofadan o‘qitishni keng joriy qilishdan iborat. Shunday ekan har bir o‘qituvchi dars mashg‘ulotlarini DTS talablaridan kelib chiqib, ta’limning innovatsion texnologiyalari asosida tashkil etishi lozim.

Ta’lim muassasalarida dars jarayonida “Ta’lim funksiyalari va tamoyillari” mavzusi haqida ma’ruza o‘qigandan so‘ng, o‘qituvchi “Tanqidiy fikrlash” metodini darsda qo‘llaydi. Dars “Tanqidiy fikrlash” metodi bilan boshlanadi bunda o‘qituvchi doskaga “Ta’lim funksiyalari va tamoyillari” deb yozadi. Darsning “Anglash” bosqichida o‘qituvchi talabalarni 4-5 kishidan iborat guruhlarga bo‘ladi. Darsdagi matndan kelib chiqqan holda guruhlarga quyidagicha topshiriqlar beradi:

Ta’limning ilmiylik tamoyili.

Guruhdagi ishtirokchilar: (o‘quv yurtlarida beriladigan bilim ilmiy xarakterga ega bo‘lishi, fan-texnikaning so‘nggi yutuq va kashfiyotlarini o‘zida ifoda etishi lozim).

So‘nggi guruh a’zolari mulohaza bildiruvchilar deb ataladi, ular mulohaza bildiruvchilar guruhi a’zolari, umuman, yuqoridagi 5 ta guruh tomonidan izohlangan topshiriqlar haqida o‘z fikr-mulohazalarini bildiradilar.

“Tanqidiy fikrlash” metodi o‘qituvchilarda tinglash, muloqot olib borish, turlicha fikrlarni taqqoslash kabi xislatlarni shakllantiradi. Analitik fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, ma’lum ketma-ketlikda tafakkur yurgizish, to‘g‘ri yechimlarni topish malakalarini o‘stiradi. Talabalarni yangilash fikrlashga qarshi kurashishga, voqealarni to‘g‘ri sharxlashga, noo‘rin fikrlarga o‘z vaqtida qarshilik ko‘rsatish, bahslashishni o‘rgatadi. “Tanqidiy fikrlash” metodi o‘qituvchilarga o‘z o‘rnini topishlari uchun ko‘maklashadi, voqealarga tanqidiy ko‘z bilan qarash, o‘z munosabatini bildirishi, obyektiv baholash imkonini beradi. Talabalarning o‘zaro suhbat qilish, bahslashish, tanqid qilish, o‘z fikrini o‘tkaza olish, ta’sir eta olish madaniyatiga o‘rgatadi. Yakka tartibda, kichik guruhlar tarzida amalga oshirish mumkin.

Dars mavzusiga taalluqli savollar beradi. Masalan,

Ta’lim funksiyalari nima?

1. Ta’limning ilmiyligi deganda nimani tushunasiz?
2. Ta’limning nazariya va amaliyot bilan bog‘liq bo‘lishi qanday amalga oshiriladi:

Bunda o‘qituvchilar darsda faol ishtirok etadilar va quyidagi vazifalarni bajaradilar.

– berilgan muammo va masalalar talabalar tomonidan mustaqil o‘rganiladi;
– talabalar o‘z fikrini erkin ifodalashadi;
– har bir guruh a’zosi o‘z fikrini oydinlashtirishadi;
– boshqa guruh a’zolari tomonidan bildirilgan fikrlar tanqid qilinadi;
– tanqidiy fikrlar asoslanib beriladi;
– boshqalarni fikri tinglab o‘rganiladi;
– har bir bildirilgan fikr qayd etib boriladi.

Bu metodda birinchi kichik guruhning savolga bergan javobi va fikrlari noto‘g‘ri bo‘lsa, ikkinchi guruh tomonidan tanqid qilinadi, to‘g‘ri javob izohlab beriladi va baho olishi mumkin. Bunda o‘qituvchi guruh a’zolari tomonidan berilgan javoblarni qayd etadi, umumlashtiradi, qo‘yilgan savolning aniq javobini aniqlaydi, bildirilgan fikrlarni tahlil qiladi, o‘quvchilar faoliyatini baholaydi, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni e’tirof etadi, oldini olish usullarini tushuntiradi. Bu metod asosan bilimni mustahkamlab qolmasdan, uning mavzu to‘g‘risida bahs yuritish va gapira olish qobiliyatini oshiradi, bahs asosan fikrlarning rang-barangligi bilan yuzaga keladi.

Xulosa o‘rnida shuni takidlash mumkinki, o‘quvchilarga zamon talablariga mos ravishda ta’lim-tarbiya berish, turli pedagogik texnologiyalar hamda, zamonaviy uslublarni qo‘llash, ularni mustaqil erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondoshishga undaydi. Shuningdek, kelajakda ilmiy va ijodiy ishlarni tashkil etishda va tadqiqot ishlarini olib borishda, eng asosiysi, ta’lim olishga, fanga va o‘zi tanlagan kasbga bo‘lgan qiziqishlarini hamda ustozlarga nisbatan hurmat hissini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuxamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). –T.: Iste’dod, 2008. –180-b.

2. N.N. Azizxojayeva. Педагогическая технология и педагогическое мастерство. –T.: ТГПУ, 2003. – С-174.

Bahodir AKBAROV,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘ZPFITI mustaqil izlanuvchisi

KLASTER TIZIMI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI O‘QUVCHILARIDA KASBIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 10-11-sinf o‘quvchilari uchun tashkil etilgan o‘quv-ishlab chiqarish majmualari faoliyatini takomillashtirish va yanada rivojlantirish masalasi yoritilgan. Ya’ni muallif nazarida o‘quv-ishlab chiqarish majmualarining o‘quv jarayonini klaster tizimida tashkil etish sohadagi muammolarni bartaraf etib, unda sifat va samaradorlikni ta’minlaydi, boshlang‘ich kasbiy ma’lumotga ega raqobatbardosh yosh kadrlar tayyorlanadi, tayyor mahsulot va xizmatlar ishlab chiqariladi.

Kalit so‘zlar. 10-11-sinflar, o‘quv-ishlab chiqarish majmualari, klaster tizimi, sifat va samaradorlik, tayyor mahsulot va xizmat, ishlab chiqarish korxonalari, raqobatbardosh kadr.

В статье рассматриваются вопросы совершенствования и дальнейшего развития учебно-производственной базы для учащихся 10 и 11 классов общеобразовательных школ. По мнению автора, организация образовательного процесса в кластерной системе устраняет проблемы на местах, обеспечивает качество и эффективность, готовит конкурентоспособных молодых специалистов с начальным профессиональным образованием, производится готовые продукты и услуги.

Ключевые слова. 10-11 классы, учебно-производственные комплексы, кластерные системы, качество и эффективность, готовая продукция и услуги, производственные предприятия, конкурентоспособный персонал.

The article deals with the issues of improvement and further development of the training and production base for students in grades 10 and 11 of secondary schools. According to the author, the organization of the educational process in the cluster system eliminates problems on the ground, ensures quality and efficiency, prepares competitive young professionals with initial vocational education and produces finished products and services.

Key words. 10-11 grades, educational and production complexes, cluster systems, quality and efficiency, finished products and services, manufacturing enterprises, competitive staff.

Jahon mamlakatlarida ta’lim tizimi birinchi navbatda davlat va jamiyatning ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan. Mazkur yo‘nalishdagi ta’lim siyosati yoshlarni eng optimal ravishda kasb-hunarga yo‘naltirish imkonini beradi. Dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan o‘quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirishning tashkiliy-pedagogik tizimini takomillashtirish, o‘quvchilarga o‘zlarini ma’lum kasb-hunar turlarida sinab ko‘rish va mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilib, tegishli bilim, ko‘nikma va malakalar umumta’lim fanlari Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari mazmuniga singdirilmoqda. Biroq, ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, ta’limning zamonaviy sharoiti hamda istiqbolga yo‘naltirilgan strategik yondashuvlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimining samarali ishlashini ta’minlash uchun nafaqat oliy ta’lim muassasalarida olib borilayotgan ta’limiy jarayonlarning samaradorligini oshirish, balki bo‘lajak mutaxassislarni umumta’lim maktabidanoq bir qator omillarni to‘g‘ri baholagan holda dars va darsdan tashqari ta’lim jarayonida kasb tanlashga obyektiv va maqsadga muvofiq tarzda yondashish ko‘nikmalari hamda kasbiy tafakkurini shakllantirishning amaliy-ta’sirchan mexanizmlarini yaratish, hozirgi kun talablaridan kelib chiqqan holda umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarida kasbiy tafakkurni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish zaruriyati tug‘ilmoqda.

O‘zbekistonda mamlakat ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim shartlaridan biri – jamiyat rivoji talablariga to‘la javob bera oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan mukammal uzluksiz ta’lim tizimi hisoblanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uzluksiz ta’lim tizimida muhim o‘rin tutadi. U yerda ta’lim-tarbiya olayotgan o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish masalasi bugungi kunda uni yanada takomillashtirish zarurati yuzaga kelganini ko‘rsatmoqda. Chunki, jamiyat taraqqiyoti shiddat bilan rivojlanib, yangidan-yangi kasb-hunarlar paydo bo‘lmoqda, yoshlarning bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan kasb-hunarlarni egallashga ishtiyoqi kuchayib bormoqda. Shu bois, o‘quvchilar bilan olib boriladigan kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini yangitdan ko‘rib chiqish, ularni ongli va mustaqil kasb tanlashga tayyorlash bu masalaga o‘zini mas’ul degan tashkilotlarning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Shu jihatdan qaraganda, o‘quvchi-yoshlarni kasb-hunar tanlashga tayyorlash masalasiga e’tiborli bo‘lish, ularning ma’lum bir kasb-hunarga bo‘lgan layoqat, moyillik, iqtidor, iste’dod, qobiliyat, qiziqish va aql-zakovatiga ahamiyat berishda ota-onalar, ta’lim muassasalari, jamoat tashkilotlarining mas’uliyatini oshirish va ularning ijtimoiy hamkorligini ta’minlash talab etiladi.

2017-2018 o‘quv yilida maktablarda 10-11-sinflar tashkil etilgach, o‘quvchilarga kasb-hunar o‘rgatishning yangi tizimini joriy etish vazifasi kun tartibiga chiqdi. Kasb-hunar kollejlariga bormagan o‘quvchilarning bandligi ta’minlash, ularni biror to‘garak yoki mashg‘ulotga, kasb-hunar o‘rganishga jalb etish muhim vazifaga aylandi.

Bugungi kunda xuddi shu vazifani hozirda kasb-hunar kollejlarining o‘quv ustaxonalari negizida, umumiy o‘rta ta’lim muasssalarida tashkil etilgan o‘quv-ishlab chiqarish majmualari bajarmoqda. O‘quv-ishlab chiqarish majmualarida chuqurlashtirilgan maxsus tayyorgarlikni talab etmaydigan tikuvchi, oshpaz, sartarosh, kashtachi, duradgor, suvoqchi, bo‘yoqchi, chilangar, nonvoy, qandolatchi kabi 50 dan ziyod kasb-hunarlar o‘rgatiladi.

O‘quv-ishlab chiqarish majmualari faoliyatini yanada takomillashtirish va rivojlantirish uchun 2017-yilning 24-oktabrida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 10-11-sinflari o‘quvchilariga kasbiy ta’lim berishga ixtisoslashgan o‘quv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 868-sonli qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorga ko‘ra, 10-11-sinf o‘quvchilari ta’lim olish bilan birgalikda ularga kasb-hunar o‘rgatish, o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda

kelajakda ularning ta’limni davom ettirishlari yoki egallagan kasblari bo‘yicha mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishlariga shart-sharoitlar yaratish, o‘quv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish va ularni zarur jihozlar bilan ta’minlash kabi masalalar amalga oshiriladi.

O‘tgan qisqa vaqt ichida o‘quv-ishlab chiqarish majmualarida umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-11-sinf o‘quvchilariga kasbiy ta’lim berish maqsadida zarur xom-ashyo va materiallar bilan ta’minlanish ko‘zda tutilgan bo‘lsa-da, bu borada turli muammolar, uzilishlar paydo bo‘ldi. Ayniqsa, hududlarda 50 dan ortiq kasb-hunarlarni o‘rganish uchun sharoitning yo‘qligi, ularga bo‘lgan talabning ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasida mavjud emasligi ushbu kasb-hunarlarni yana qaytadan ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Shuningdek, mazkur muammolar ham o‘quv-ishlab chiqarish majmualari faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan:

– amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish uchun jihozlarning yetishmasligi;
– kasbiy ta’lim berish uchun malakali mutaxassislarning kamligi;
– kasb-hunarlar bo‘yicha darslik va qo‘llanmalarning tayyorlanmaganligi;
– o‘quv mashg‘ulotlar uchun shart-sharoitning yetishmasligi;
– davomadning sustligi va h.k.

Shuning uchun ayni paytda, o‘quv-ishlab chiqarish majmualarining samarali faoliyat yuritishi va yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish uchun unga zamonaviy usullarni tatbiq qilish zarurati paydo bo‘layapti. Shunday innovatsion usullardan biri – klasterdir.

Mazkur atama kompyuter muhandisligida, musiqa, ta’lim, astronomiya, iqtisodiyot kabi sohalarda qo‘llaniladi va vazifasi jihatidan bir-biriga bog‘liq va bir “marjon”dek tizilgan obyektlarga nisbatan qo‘llaniladi.

Bugungi kunda ta’limda “klaster” tushunchasi faqat metod doirasida qo‘llanib kelingan. Klasterni yaxlit tizim sifatida ta’limga joriy etish masalasi ilmiy izlanishlar va tadqiqotlarni kutib turibdi.

Ayrim olimlar nazariyalarida klasterlar (iqtisodiyotda) ishlab chiqaruvchilar raqobat ustunligini oshirishda yuqori samarali bo‘lib, ularning hududdagi ta’lim, fan, texnologik, iqtisodiy va boshqa xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar faoliyati bilan uyg‘unlashgan tizimi ekanligi ta’kidlanadi.

Klasterning amaliy ahamiyati mamlakatlar, tarmoqlar va korxonalar iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish va yuqori samaradorlikka erishishni nazarda tutadi.

Klaster (ing. cluster – to‘plam) – bir nechta o‘xshash elementlardan tashkil topgan o‘ziga xos xususiyatlarga ega mustaqil tizim sifatida talqin etiladi.[1] Ta’lim klasteri tarmoq xususiyatlariga ko‘ra o‘zaro bir-biriga yaqin bo‘lgan ta’lim muassasalari faoliyatini sohadagi ishlab chiqarish korxonalari bilan yaxlit maqomga birlashtirishdan iborat. Ayni paytda ta’lim klasterlarini amaliyotga tatbiq etish orqali ta’lim muassasalarini moliyalashtirish borasidagi qiyinchiliklar, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy-amaliy kompetentligini ta’minlashdagi muammolarni bartaraf etish hamda fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini samarali amalga oshirish imkoniyati yaratiladi.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda ta’lim klasteri tushunchasi borasida turli xil ta’riflar mavjud. Jumladan, ‘‘klaster – bu o‘zaro bir biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan va bir birini to‘ldiruvchi, ma’lum bir sohada faoliyat olib boruvchi kompaniya va tashkilot-

[1] Н.М. Волков, Состояние и перспективы развития рынка труда рабочих и специалистов / / Н.М. Волков // Современные подходы к подготовке рабочих и специалистов по приоритетным направлениям развития экономики. – Казань: РИЦ ‘‘Школа’’, 2005. – 152 С. – С. 6-9.

lar majmuasidir"[2] degan ta'rifni keltirib o'tish mumkin. Adabiyotlarda "klaster" tushunchasiga o'zaro chambarchas bog'langan va bir-birining raqobatbardoshligini oshirish imkonini beruvchi ishlab chiqarish korxonalarining tarmoq hamda geografik jihatdan birikishi natijasidir degan ta'rif ham mavjud.[3]

Pedagogikada klaster quyidagi tushunchalarni anglatadi:

O'quv-ishlab chiqarish majmualari yordamida ish beruvchi va ta'lim muassasalari hamkorligi.

Maktab klasteri: "Har bir klasterda tayanch maktabi pedagogik hamkorlar (hamroh maktablar), ijtimoiy hamkorlar (oliy ta'lim muassasalari, kutubxonalar, OAVlar)ga ega.

Kasbiy klaster: bir-biriga bog'liq bo'lgan ta'limiy, madaniy, ilmiy, ijtimoiy, texnologik va ishlab chiqarish tashkilotlarni birlashtirgan madaniy-tarbiyaviy tizimdir.

O'quv-ishlab chiqarish majmualarida o'quvchilarni maqsadli kasbga yo'naltirish:

Tashkilot va korxonalarning yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini yanada to'liqroq qondirish uchun maqsadli tayyorlash tashkillashtiriladi.

Ishlab chiqarish korxonasi talablariga muvofiq o'quv-ishlab chiqarish majmualarining maqsadli o'quv rejasi, o'quv fanlari, maxsus kurslarini shakllantiradi. Masalan, hududdagi xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatiga plastik trubalarda ishlashga ixtisoslashgan santexnik zarur bo'lsa, bu mutaxassisni o'quv-ishlab chiqarish majmuasi tayyorlab berishi kerak.

Ish beruvchi korxonalar bitiruv imtihonlarda tashkil etilgan kengashlarida, attestatsiya komissiyalarida, bo'sh ish o'rinlari yarmarkalarida faol qatnashadi.

Korxonalar o'z sohalari bo'yicha maxsus loyihalar, stipendiyalar hamda konkurslar tashkillashtiriladi.

Demak, o'quv-ishlab chiqarish majmualari faoliyatiga klaster tizimini joriy etish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

– kasb-hunarlar bo'yicha malaka talablari, o'quv rejalari va dasturlarini takomillashtirish;

– o'quvchilarning kasb-hunar o'rganishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

– ishlab chiqarish korxonalari va o'quv-ishlab chiqarish majmualari o'rtasida uyg'unlashgan hamkorlikni ta'minlash;

– o'quv-ishlab chiqarish majmualarini bitirgan o'quvchilarni ta'limning keyingi bosqichiga yoki ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish faoliyatiga yo'naltirishga ko'maklashish;

– "Kasb-hunar ta'limi to'g'risida"gi yangi Qonun loyihasini ishlab chiqish va unda o'quv-ishlab chiqarish majmualarning huquq va majburiyatlarini belgilash;

– zamonaviy kasb-hunar bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanmalar, elektron vositalar yaratish;

– amaliy mashg'ulotlar, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish uchun mustahkam moddiy-texnik bazani tashkil qilish;

– mohir ustalar, hunarmandlar, ishbilarmonlar, tikuvchilar, nonvoylar va boshqa kasb egalarining ish tajribalaridan foydalanish;

---

[2] Ю.В. Громыко, Что такое кластеры и как их создавать? // Альманах ''Восток''. – 2007.–Вып.1.–[Электронныйресурс]. – URL: http://www.situation.ru/app/j_artp_1178.htm (дата обращения 18.04.2019).

[3] Д.Ю. Лапыгин, Методическое обеспечение процесса разработки плана стратегического развития региона // Менеджмент в России и за рубежом. – 2005. – №6 [Электронный ресурс] http://dis.ru/library/manag/ archive/2005/6/3971.html

– O‘IChMdagi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasini jahon talablari darajasida takomillashtirish va uning sifat va samaradorligini ta’minlash;

– ta’lim muassasalari va ta’lim tizimlarini birlashtirish asosida doimiy professional ta’lim tizimini yaratish;

– samarali moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish;

– kasbiy malakalarni sertifikatlash;

– ta’lim muassasalari uchun sifat menejmenti tizimini yaratish;

– nogironligi bor odamlarga kasbiy ta’lim olish imkoniyatini ta’minlash.

Klasterli tizimni o‘quv-ishlab chiqarish majmualarida rivojlantirish ijtimoiy sohadagi mehnat bozori va ta’lim xizmatlari bozori o‘rtasida dinamik muvozanatga erishishni talab etadi. Buning uchun:

– istiqbolli mehnat bozorining ehtiyojlariga qaratilgan innovatsion tarmoq infratuzilmasini yaratish;

– kasbiy ta’lim sifatini oshirish;

– yosh kadrlar oqimini ijtimoiy sohaga yo‘naltirish kerak.

Mazkur fikrlardan kelib chiqib aytish joizki, o‘quv-ishlab chiqarish majmualari faoliyatiga klaster tizimini joriy etish quyidagi natijalarga olib keladi:

– o‘quv-ishlab chiqarish majmualarilar korxona (firma)larga, xizmat ko‘rsatish sohasiga, malakaviy xodimlarga, axborotlarga va ta’lim muassasalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanishlari sababli mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga imkoniyatlar yaratiladi;

– ta’lim va ilmiy-tadqiqot markazlari yangi ilmiy-uslubiy ishlanmalar yaratishi, ularni qisqa muddatda O‘IChMdan sinovdan o‘tkazishi, ishlab chiqarishga joriy etishi uchun shart-sharoitlar yuzaga keladi;

– O‘IChMdagi ishlab chiqarish va ilmiy izlanishlardagi xodimlar va mutaxassislar mehnatlarini ko‘proq rag‘batlantirishga va yangi tovarlarni yaratishga imtiyozli sharoitlar yaratiladi;

– boshlang‘ich kasbiy ta’limga ega raqobatbardosh yosh kadrlar tayyorlanadi;

– iste’molchilarga tayyor mahsulotlar va xizmatlar yetkazib beriladi.

O‘quv-ishlab chiqarish majmualarida klaster tizimini joriy etishning afzalliklari

	Maqsad	Natija
1	O‘quv-uslubiy majmuaning mazmunini takomillashtirish va yangilash	Ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish sohalarida yangi bilim va texnologiyalarni tarqatish tizimi yaratiladi, shuningdek, innovatsion faoliyat rag‘batlantiriladi, natijada innovatsion mahsulotning alohida shakli yaratiladi
2	Ta’lim sifati va samaradorligini takomillashtirish	O‘quv-ishlab chiqarish jarayonining samaradorligi va sifati oshadi
3	O‘quv-ishlab chiqarish majmualari o‘quvchilariga hududning ehtiyoj va talablariga mos holda kasb-hunar o‘rgatish	O‘quv-ishlab chiqarish majmualari bitiruvchilarini jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlariga va mehnat bozorining talablariga moslashtirish ta’minlanadi
4	O‘quv-ishlab chiqarish majmualari bilan davlat va jamoat tashkilotlarining ijtimoiy hamkorligini ta’minlash	O‘quvchilar davlat-xususiy sektor hamkorligi prinsiplariga muvofiq ilmiy-tadqiqot muassasalari va korxonalar xodimlarining ta’lim, ilmiy va innovatsion jarayonlarida ishtirok etadi

5	O‘quv-ishlab chiqarish majmualarining zamon talablari asosida moddiy-texnik bazasini yaratish	Moddiy va axborot resurslaridan foydalanish samaradorligi oshiriladi
6	O‘quv-ishlab chiqarish majmualari o‘qituvchilarining ilmiy salohiyatini yuksaltirish	Ta’lim, iqtisodiyot va ijtimoiy ahamiyatga molik keng ko‘lamli loyihalarni amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratiladi, ilmiy tadqiqotlar va innovatsion faoliyat faollashadi
7	Amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish faoliyatini takomillashtirish	Malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi
8	Ishlab chiqarish korxonalarining imkoniyatlaridan foydalanish	Turli darajalardagi kasb ta’limi dasturlarini amalga oshiradigan asbob-uskunalarni sinovdan o‘tkazish uchun tajriba uchastkalari shakllantiriladi
9	O‘qituvchilarning o‘quv va ishlab chiqarish faoliyatini takomillashtirish, ularga sharoit yaratish	O‘quv-pedagogik kadrlarning ijodiy salohiyatini va uslubiy yutuqlarini to‘plash va jamlash, ularning ijodiy ishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi
10	O‘quv-uslubiy jarayonni doimiy tarzda takomillashtirib borish	O‘IChMning kadrlar salohiyati doimiy ravishda takomillashib boradi, ilmiy va pedagogik maktab faoliyati rivojlanadi, ilmiy va pedagogik an’analarning ko‘payishi ta’minlanadi
11	O‘quv-ishlab chiqarish majmualarida o‘quvchilar uchun qulay ta’lim jarayonini tashkil etish	O‘quvchilar uchun qulay o‘quv sharoitlari shakllanib, o‘quvchilarning talab va istaklari bo‘yicha ta’limning optimal darajasi oshiriladi, ta’lim xizmatlari kengayadi va takomillashadi
12	O‘IChM va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘rtasida uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash	Ta’limni boshqaruv organlari bilan ijtimoiy hamkorlik tizimi yaratiladi

Ta’lim klasteri bu – uni tashkil etuvchi tashkilotlarning, ularning ijtimoiy sherikligini jadal rivojlantirishni ta’minlaydigan integratsion mexanizmdir.

Shunday qilib, o‘quv-ishlab chiqarish majmualari klasteri deb, bir-biriga bog‘liq bo‘lgan ta’limiy, kasbiy, ilmiy, ijtimoiy, texnologik va ishlab chiqarish tashkilotlarini bir maqsad yo‘lida birlashtirgan va qat’iy natija beradigan kasbiy-tarbiyaviy tizimga aytiladi.

Agar klaster tizimi O‘IChMlarga tatbiq etilsa, quyidagi manfaatlarga erishish mumkin:

Davlat manfaati – raqobatbardosh kadr yetishib chiqadi, ish sifati yaxshilanadi, mahsulot sifati oshadi, migratsiya masalalari ijobiy hal bo‘ladi, iqtisodiy o‘sish yuzaga keladi.

Ishlab chiqarish korxonasi manfaati – sifatli kadrlar bilan ta’minlanadi, raqobat kuchayadi, moliyaviy holati rivojlanadi, chetga eksport tizimi yo‘lga qo‘yiladi, ishlab chiqarish turlari kengayadi, yangi zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan ta’minlanadi. Xalqaro hamkorlik yo‘lga qo‘yiladi, sifat ko‘rsatkichiga, ya’ni o‘z “Brend”iga va yirik zavod-fabrikalarga ega bo‘ladi.

Ta’lim muassasasi manfaati – kasbiy ta’lim sifati va samaradorligi oshadi, o‘quvchining bandligi ta’minlanadi, Ustoz-shogird an’analari rivojlanadi, sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhit shakllanadi, o‘quvchilarning ma’naviy dunyoqarashi mustahkamlanadi.

Mahalla manfaati – yoshlar bandligi ta’minlanadi, ishbilarmonlik taraqqiy etadi,

yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati rivojlanadi.

Ota-onalar manfaati – iqtisodiy barqarorlik, bandlik, turli xil oqimlarga kirib ketishning oldi olinadi, qadriyatlar tiklanadi, ota-onani hurmat qilish, ularni qadriga yetish, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi xususiyatlar rivojlanadi.

O‘quvchilar manfaati – jamiyatga kerakli shaxs bo‘lib yetishadi, malakali mutaxassisga aylanadi, qo‘shimcha daromad olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

O‘quv-ishlab chiqarish majmuasi manfaati – moddiy ta’minot bazasi kengayadi, sifatli kadr tayyorlanadi, ishlab chiqarish, tadbirkorlik rivojlanadi, iqtisodiy ta’minot yaxshilanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi shiddat bilan rivojlanish pallasida raqobatbardosh kadrlarga e’tibor har qachongidan kuchaygan.

Kasb-hunar ta’limining dastlabki bosqichi bo‘lgan o‘quv-ishlab chiqarish majmualari faoliyatini zamon talablari darajasida rivojlantirish, unga klaster usulini joriy etish ko‘zlangan maqsadga, natijaga erishishning, muammolarni bartaraf etishning birdan-bir yo‘lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi “Umumiy o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5313-son Farmoni. www.lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 24-oktabrdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 10-11-sinflari o‘quvchilariga kasbiy ta’lim berishga ixtisoslashgan o‘quv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi №868-sonli qarori. www.lex.uz

3. Н.М. Волков, Состояние и перспективы развития рынка труда рабочих и специалистов / Н.М. Волков // Современные подходы к подготовке рабочих и специалистов по приоритетным направлениям развития экономики. – Казань: РИЦ “Школа”, 2005. – 152 С. – С. 6-9.

4. Ю.В. Громыко, Что такое кластеры и как их создавать? // Альманах‘ ‘Восток”. – 2007. – Вып.1. – [Электронный ресурс]. – URL: http://www.situation.ru/app/j_artp_1178.htm (дата обращения 18.04.2019).

5. Д.Ю. Лапыгин Методическое обеспечение процесса разработки плана стратегического развития региона // Менеджмент в России и за рубежом. – 2005. – №6 [Электронный ресурс] http://dis.ru/library/manag/ archive/2005/6/3971.html.

Farhod ABDULLAYEV,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI
tayanch doktoranti (Phd)

TA’LIM JARAYONINING SIFAT MENEJMENTIDA AXBOROT XIZMATINI MODELLASHTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada ta’limning hamma bosqichlarida ta’lim natijalarini sifatli boshqarish, samaradorligini oshirish uchun axborot-kommunikatsiya xizmatlaridan foydalanish usullarini takomillashtirish mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risida fikr yuritilgan bo‘lib, muallifning bu sohadagi modellashtirish tarkibi xususidagi qarashlari o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar. Ta’lim sifati, axborot-kommunikatsiya, modellashtirish, ta’lim jarayoni, ta’lim subyektlari, ehtiyojlari.

В данной статье отражены вопросы, касающиеся внедрению механизмов, позволяющих улучшить использование информационных и коммуникационных услуг для повышения эффективности результатов обучения на всех этапах образования, а также с точки зрения авторской позиции указана структура моделирования в этой области.

Ключевые слова. Качество образования, информационно-коммуникационные технологии, моделирование, образовательные процессы, потребности субъектов образовательного процесса.

This article reflects issues related to the introduction of mechanisms to improve the use of information and communication services to improve the effectiveness of learning outcomes at all stages of education and also from the point of view of the author’s position, the structure of modeling in this area is indicated.

Key words. Quality of education, information and communication, modeling, educational processes, subjects of education, needs of education.

Dunyo hamjamiyati va davlatlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ma’rifiy munosabatlarning integratsiyalashuvi ta’limning hamma bosqichlarida ta’lim natijalarini sifatli boshqarish, samaradorligini oshirish, axborot-kommunikatsiya xizmatlaridan foydalanish usullarini takomillashtirish mexanizmlarini joriy etish orqali insonning butun umri mobaynida sifatli ta’lim olish imkoniyatini yaratishni dolzarb vazifa qilib qo‘ymoqda. Butun dunyo ta’lim muassasalarida “shaxs”, “davlat” va “jamiyat” talablariga javob beruvchi ta’lim sifati tizimini yaratish asosiy omil qilib belgilanmoqda. Shu jihatdan olganda ta’lim jarayonining sifat menejmentida axborot xizmati tizimini modellashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ning 4.4.“Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish” yo‘nalishida: Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish yo‘lini davom ettirish,

sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq o‘qitish va ta’lim olishning zamonaviy usullarini tadbiq etgan holda yuqori malakali kadrlar tayyorlash masalalariga alohida o‘rin ajratilgan bo‘lib, unda davlat tomonidan yoshlar bilan ishlash siyosatini takomillashtirish, intellektual rivojlangan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash, ta’lim muassasalarida ta’lim sifati va uni baholash mezonlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, zamonaviy pedagogik nazariyalar, ilg‘or tajribalar, axborot-kommunikatsion vositalar asosida o‘z faoliyatini tashkil qila oladigan, yangi dunyoqarashdagi shaxsni shakllantirish, ta’lim tizimini isloh qilish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi.[1]

Shu ma’noda ta’lim tizimining sifat darajasini oshirish ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarini zamonaviy talablarni hisobga olgan holda tanqidiy tahlil qilish hamda yangilash bilan bir qatorda, ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish tizimini axborot kontekstida ham takomillashtirishni taqozo etadi. Chunki, hozirgi kunda ta’lim muassasalarida yaratilayotgan zamonaviy sharoit va imkoniyatlardan samarali foydalana oladigan, axborot-kommunikatsiya xizmatlaridan xabardor, o‘z ishiga nisbatan talabchan, ta’lim muassasasi, oila va mahalla hamkorligini yo‘lga qo‘ya oladigan, chuqur bilimli hamda o‘zini-o‘zi rivojlantiruvchi rahbar va pedagog kadrlarning faoliyat ko‘rsatishini talab qilmoqda.

O‘zbekiston Davlatining boshqa mamlakatlar bilan o‘zaro integratsiyalashuv jarayonlarida ishtirok etishi, bunda axborot-kommunikatsiya xizmatlaridan foydalanishga bo‘lgan ijtimoiy talabning ortishi oliy ta’lim muassasalarida axborot-kommunikatsion xizmatni optimal tashkil qilishga undaydi. Mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy sohalarda o‘zga mamlakatlar bilan aloqaga kirishivudagi tutgan o‘rni, yuksak salohiyatli, o‘z kasbini puxta bilgan raqobatbardosh kadrlar va mutaxassislarga bo‘lgan talabning keskin o‘sishi, o‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya tizimlari, elektron va multimedia darsliklarini yaratish vazifalarini amalga oshirishni taqozo etmoqda. Biroq aynan innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va ular asosida yangi mazmundagi turli axborot-kommunikatsiyalari xizmatidan foydalana olishga asoslangan ta’lim jarayonini tashkil qilishda xalq ta’limi tizimida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning bu boradagi salohiyatini oshirish zarurati ko‘zga tashlanmoqda. Shu sababli, pedagogik jarayonni innovatsiyalarga asoslanib yangicha tarzda tashkil qila olishda pedagogning o‘rni, uning mehnati va mehnat jarayonini tashkil qila olishi muhim ahamiyat kasb etib, o‘qituvchi roliga bo‘lgan talabning o‘zgarganligi va zarurati axborot xizmati tizimini modellashtirishda o‘z ifodasini topishi kerak.

Zamonaviy pedagogikada ta’lim modellarini ishlab chiqish va ularni pedagogik jarayonda qo‘llash bo‘yicha yetarlicha tajriba orttirilgan. Modellashtirish nazariyasida quyidagi model turlari farqlanadi:

- maqsadlarni oydinlashtirish va resurslardan oqilona foydalanishga mo‘ljallangan **nazariy modellar**;
- qo‘yilgan maqsadlarni amalga oshirish va ta’sir o‘tkazish vositalari bilan ishlashga mo‘ljallangan **vositachilik modellari**;
- kutilmagan vaziyatlarda qarorlar qabul qilish va ishlab chiqishga yo‘naltiruvchi **refleksiv modellar**;
- metodologik manba bo‘lib xizmat qiluvchi, ma’lumotlar bazasi va harakatlar dasturiga tayangan **konseptual modellar**;

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.

● pedagogik jarayonda teskari aloqa o‘rnatuvchi, mexanizmlarni yaratishga mo‘ljallangan va kafolatlangan natijaga erishishda og‘ish holatlarini oldini oluvchi **monitoring modellari.**

Yuqorida keltirib o‘tilgan modellar tahlillari natijasida ta’lim muassasalarida elektron axborot xizmatini tashkil qilish konseptual model asosida shakllantirilishi maqsadga muvofiq. Ushbu model ijtimoiy buyurtma sifatida: Ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilayotgan mutasaddilarning axborot xizmati tizimini modellashtirish kontekstida ta’lim sifatini oshirish boshqaruvining zamonaviy texnologiyalarini amaliyotga tadbiq etish; xalq ta’limi (rahbar, pedagog va mutaxassis) xodimlarining malaka oshirishga bo‘lgan ehtiyojlarni o‘rganish, tahlil qilish va obyektiv baholash; tahsil oluvchilarning kelgusidagi pedagogik faoliyatlarini samarali tashkil etish mexanizmlaridan xabardor bo‘lishi uchun shart-sharoit yaratish, ilg‘or tajribalarni o‘rganish, ulardan eng samaralilarini amaliyotda qo‘llash, bu orqali ta’lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish, pedagogik jamoaning ma’naviy-ma’rifiy salohiyatini kengaytirishga bo‘lgan talabning oshishida o‘z ifodasini topadi.

Oliy ta’lim muassasalari didaktik jarayonining sifatini oshirishda axborot xizmati tizimini modellashtirish bir qator bosqichlarni o‘z ichiga oladi: Bular *maqsadni aniqlash, tahlil qilish, bashorat qilish, rejalashtirish, ijroni tashkil etish, nazorat, tartibga solish va korreksiyalash.*

Bunda axborot xizmati funksiyasi bilan boshqaruv organi faoliyati o‘rtasidagi munosabatlarni oydinlashtirishda, asosiy e’tibor, boshqaruv obyektlari bilan aloqador bo‘lgan masalalar yechimiga qaratiladi. Ushbu masalalar boshqaruv organi faoliyatining mazmunini tashkil etadi va uning funksiyalariga aylanadi. “Boshqaruv organining har bir funksiyasi boshqaruv siklining barcha bosqichlarini qamrab oladi. Boshqaruvning xususiy funksiyalari integratsiyasi sifatida rahbar va mutaxassis xodimlarning faoliyatini institutsional tashkil etish orqali amalga oshiriladigan axborot xizmati namoyon bo‘ladi”.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 27-may “2013–2016-yillarda ta’lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya, o‘qitishning texnik vositalari va anjomlari bilan jihozlash (qo‘shimcha jihozlash)ni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 143-sonli Qarori e’lon qilindi.

Qarorda ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik uslub va texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta’lim resurslari va multimedia taqdimotlaridan foydalanish borasida chet el tajribasini chuqur va har tomonlama o‘rganib chiqish, chet el tajribasini inobatga olgan holda ta’lim jarayonini yangi mazmunda tashkil qilish uchun yangi o‘quv rejalari va dasturlarini qaytadan ishlab chiqish, ularda an’anaviy maktab ta’limi uslublaridan voz kechib, amaliy mashg‘ulotlar va ishlab chiqarish amaliyoti bo‘yicha soatlar ko‘paytirilishini ta’minlash belgilab qo‘yildi. Binobarin, ta’lim muassasasidagi axborot xizmati tizimi, bu – axborot-kommunikatsiya vositalari asosida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan komponentlar majmuasidan iborat bo‘lib, ularning o‘ziga xos bog‘liqligi va aloqadorligi hisobiga boshqaruv funksiyalarini bajarish jarayoni amalga oshiriladi va pedagogik jamoaning faoliyati tashkil etiladi hamda muvofiqlashtiriladi. Mazkur tizimning funksiyalari ikki asosiy katta guruhlarga bo‘linadi: maktab faoliyatining barqarorligini ta’minlash va uning rivojlanishini boshqarish.

Qayd etish kerakki, Respublikamizda pedagogika oliy ta’lim muassasalarining didaktik axborot xizmatini modellashtirishda optimal-pedagogik metodlar izlanmoqda. Ammo bu urinishlar quyidagi muammolar tufayli yetarli darajada samara bermayapti:

— pedagogika oliy ta’lim muassasalarining ta’lim jarayonini sifatli tashkil etishda axborot xizmatini modellashtirish ta’lim ehtiyojlarini qondirishga yetarlicha moslashtirilmagan;

— pedagogika oliy ta’lim muassasalarining ta’lim jarayonida axborot xizmati tizimi bir tizimning ikkinchisiga ko‘rsatgan ta’sirini aks ettiradi. Bunda axborot almashinuvi subyektlarining boshqaruv obyektiga ko‘rsatadigan maqsadga yo‘naltirilgan va ta’lim sifatining o‘zgarishiga olib keladigan ta’siri sifatida qaraladi. Bunday yondashish boshqaruvning subyektlararo tabiatini e’tiborga olmaydi, chunki faollik faqat boshqaruvchi tomonidan amalga oshirilishi ko‘zda tutiladi, boshqariluvchi esa hech qanday aks ta’sir qobiliyatiga ega bo‘lmagan passiv element sifatida namoyon bo‘lmoqda;

— ta’lim jarayonining axborot xizmati tizimini modellashtirishda boshqaruv ta’lim ishtirokchilarining xatti-harakatini tartibga keltirish bilan bog‘liq faoliyat sifatida izohlanishiga ehtiyoj paydo bo‘lganligi bilan izohlanadi. Bunday yondashish ta’lim jarayonini unda ishtirok etuvchi shaxslarga bog‘liq bo‘lmagan holda o‘rganish zarurligini anglatadi;

— ta’lim jarayonining axborot xizmati tizimi boshqaruv subyektlarining o‘zaro ta’sir faoliyati sifatida yetarlicha e’tirof etilmayotganligi;

— ta’lim jarayoni sifatini oshirish menejmentining axborotli xizmati tizimida o‘zaro ta’sir etuvchilarning barchasida o‘zgarishlar yuz berishini va mazkur o‘zgarishlar, ma’lum darajada, bir-biriga bog‘liqlikda namoyon bo‘lishiga yetarli darajada e’tibor qaratilmayotganligi;

— pedagogika oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari ta’lim jarayoni sifatini oshirish menejmentining axborotli xizmatini modellashtirish bo‘yicha tizimli texnologiyalarga ehtiyoj sezishayotganligi, bu borada shaxsiy tashabbusning kamyobligi; bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashda mutaxassislik fanlari blokiga kiruvchi “Informatika o‘qitish metodikasi” darslarini zamonaviy modifikatsiyalashga talab kuchayganligi;

— ta’lim jarayonining sifat menejmentida axborot xizmati bir-biriga ta’sir etuvchi subyektlardagi o‘zgarishlarning mutanosibligi va subyektlararo o‘zaro to‘g‘ri va teskari aloqalarning uzviy bog‘liqligi talab darajasida emasligi; talabalarda ta’lim ehtiyojlarini shakllantirishga, uni qoniqtirish uchun sharoitlar yaratishga intilish yetarli darajada emasligi;

— pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining “Informatika” o‘quv kurslarida modellashtirish texnologiyalaridan xabardor bo‘lishga, didaktik vaziyatli topshiriqlarni o‘quv-biluv faoliyatga qaratilishi zaruratining paydo bo‘lishi;

— pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining “Informatika” o‘quv kurslarida kelgusi mutaxassisliklari bo‘yicha modellashtirish texnologiyasi ko‘pincha, tasodifiy topshiriqlardan foydalanish evaziga amalga oshirilmoqda (ularning mazmuni shaklidan tashqarida qaraladi, o‘zaro bog‘liq holda ifodalanmaydi, shakli esa mazmunidan alohida olib borilishi kuzatiladi);

— tadqiqot doirasida pedagogik jarayonda virtual laboratoriyalarga ehtiyoj sezilishi;

— bo‘lajak informatika o‘qituvchilari – ertangi kun umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchilari mazkur muammoning zamonaviy metodologik hamda nazariy asoslari (ayniqsa, nazariy-pedagogik) bo‘yicha tavsiyalarga ehtiyoj sezadilar. Shunday qilib, ta’lim jarayonida axborot xizmatidan foydalanish darajasi sust ekanligi tahlillar natijasidan ma’lum bo‘ldi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda pedagogika oliy ta'lim muassasalari ta'lim jarayonida axborot xizmatini modellashtirish alohida tadqiq qilinishi zarur bo'lgan masalalar sirasiga kiradi.

Tadqiqot natijasida aksariyat pedagogika oliy ta'lim muassasalarining Informatika yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarni kelgusi innovatsion pedagogik faoliyatga yo'naltirish ishlari tizimli ravishda emasligi, axborot xizmatini modellashtirish texnologiyalari rejalashtirilgan darajada emasligi aniqlandi. Shundan kelib chiqib, pedagogika oliy ta'lim muassasalari ta'lim jarayonida axborot xizmatini modellashtirish muammosi pedagogik jihatdan ilmiy asoslash va amaliyotda tizimli axborot xizmatini tashkil qilish zarurati mavjud.

Bu maqsadni amalga oshirishda rivojlangan davlatlarning pedagogika oliy ta'lim muassasalari ta'lim jarayonida axborot xizmatini modellashtirishga oid izlanishlar, axborotli didaktik yondashuvlar tendensiyalari tahlil qilinishi lozim.

Ta'lim jarayoniga axborot xizmatini tatbiq etilishiga oid mavjud adabiyotlarning tahlillari, bu muammoning turli mamlakatlarda o'ziga xos milliy xususiyatlarga ega ekanligini va ijtimoiy-iqtisodiy muhitdan kelib chiqib, anchagina farq qilishini ko'rsatdi. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda ta'lim jarayoni sifat menejmentida axborot xizmatini modellashtirish ijtimoiy-iqtisodiy, axborot-texnologiya hamda milliy an'ana sifatida davlat tomonidan tartibga solinishidagi tajribasi kuzatildi. To'plangan tajribalar mamlakatimizdagi pedagogika oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda yaratilayotgan yangi avlod adabiyotlari, metodikalar asosida pedagogika oliy ta'lim muassasalarining ta'lim jarayonida axborot xizmatini takomillashtirish, ma'lumotlardan keng foydalanish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari masofada tashkil etilgan pedagogik vebinarlar, konsiliumlar, seminar-treninglar, darslar pedagogik tajriba almashish bilan birgalikda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ta'lim muassasalarining har birida olib borilayotgan namunali ishlar ommalashtirilib, monitoringi olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-aprel "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami // 22-son, 283-modda; // 34-son, 453-modda.T., 2013-y.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 27-may "2013–2016-yillarda ta'lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya, o'qitishning texnik vositalari va anjomlari bilan jihozlash (qo'shimcha jihozlash)ni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 143-sonli Qarori.

5. Указ Президента Республики Узбекистан "О мерах по дальнейшему совершенствованию сферы информационных технологий и коммуникаций" № УП-5349. – Т., 2018 г., 19 февраля.

6. A.A. Abduqadirov. Наука, просвещение и культура в системе непрерывного образования: проблемы и решения. – Т.: Ma'naviyat, 2017 г.

Muzaffar SHIRINOV,
A.Avloniy nomidagi XTTRMXQTMOIning tayanch doktaranti

TABIATSHUNOSLIK FANINI O‘QITISH UZVIYLIGI VA UZLUKSIZLIGINI TA’MINLASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada tabiatshunoslik fanini o‘qitish uzviyligi va uzluksizligini ta’minlashning psixologik xususiyatlari haqidagi fikrlar bayon etilgan. Shuningdek, muallif tabiatshunoslik fanini uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash bo‘yicha o‘z tavsiyalarini bergan.

Kalit so‘zlar. Tabiatshunoslik, o‘qitish, uzviylik, idrok, tushuncha, xotira, taffakur, diqqat, obyektiv kuzatish.

В статье излагаются мысли о психологических особенностях обеспечения преемственности и непрерывности преподавания естественнонаучной науки. Также автор дал свои рекомендации по обеспечению преемственности и непрерывности науки естествознания.

Ключевые слова. Естествознание, преподавание, преемственность, восприятие, понимание, память, толкование, внимание, объективное наблюдение.

The article describes the views on the psychological features of ensuring the continuity and continuity of teaching of Natural Science. The author also gave his recommendations to ensure the continuity and continuity of science.

Key words. Natural Science, teaching, continuity, perception, consciousness, memory, thinking, attention, object observation.

Ta’lim talabaga muayyan darajada bilim, ko‘nikma va malaka berishga, shuningdek, shaxsning aqliy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan murakkab jarayon hisoblanadi. Ta’lim ikki tomonlama xususiyatga ega bo‘lib, o‘qituvchi (ta’lim olishga o‘rgatadi) va talaba (ta’lim olishni o‘rganadi) hamkorlikdagi faoliyati tufayli amalga oshiriladi. Ta’limning muvaffaqiyati, birinchidan, o‘qituvchi bilan talablar jamoasi hamkorlikdagi faoliyatiga, ikkinchidan nimalardan saboq berishga kim tomonidan tashkil qilinishiga, uni qanday metodlar bilan amalga oshirishga va kimlarni o‘qitishga ko‘p jihatdan bog‘liq.

Oliy ta’lim tizimida o‘qish o‘qituvchi rahbarligida o‘qitish jarayoning bir tomonini tavsiflaydi. O‘qitishdagi muvaffaqiyatni ta’minlovchi asosiy omil talabaning mustaqilligidir. Mustaqillik ta’limning obyektiv sabablari (o‘quv materali, o‘qitish sur’ati, metodi, darsliklar va boshqalar) va subyektiv (talabaning o‘quv motivi, mayli, idroki kabilar) sabablariga ta’sir qiladi.

Tabiatshunoslik fannini o‘qish (o‘rganish) bilan bir qatorda o‘zlashtirish tushunchasi ham qo‘llaniladi. Oliy ta’limda tabiatshunoslik fannini o‘qitishdan maqsad o‘qish va o‘qitish oldiga qo‘yiladigan asosiy vazifa talablar bilim, ko‘nikma va malakalarni

o‘zlashtirishdan iborat. Tabiatshunoslik fanining tushunchalarini o‘zlashtirish jarayoni inson faoliyatining ajralmas qismi bo‘lib, pedagogik, psixologik ta’sirlar talablar qay yo‘sinda tasavvur obrazlari, fikr va mulohazalar bo‘layotganligini, ularning amaliy faoliyatida qanday shaklda aks etayotganligini, psixik o‘sishga, ilmiy dunyoqarash va e’tiqodlarni egallashga yordam berayotganligini aks ettiriuvchi murakkab jarayon hisoblanadi.

O‘quv materiallarida o‘zlashtirishda idrok etish jarayoni alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu masalaga genetik nuqtayi nazardan yondashsak, yaqqol materiallar mavhum tushunchalarga nisbatan osonroq idrok qilinadi. Dastavval bilish jarayoni atrof-muhitni amaliy jihatdan inson tamonidan o‘rganish tariqasida bo‘lganligi tufayli o‘z qiymatini saqlab kelmoqda.

Ta’lim jarayonida yaqqol tasavvur qilishga yordam beruvchi, tasviriylik, “jonli mushohodaga” undovchi materiallarning roli nihoyatda muhim. O‘zlashtirilayotgan o‘quv materiallarning ma’lum qismi hissiy organlarimiz tomonidan aks ettiriladi. Talabalar “Tabiatshunoslik”ga doir bilimlarni egallash paytida yaqqol predmet, obyekt, hodisa, holat, jismlarni yoki ularning ramziy tasvirini kuzatish (xarita, globus, turli tabiiy mulyajlar) natijasida yaqqol tasavvur obrazlarini yaratadilar. Psixologik nuqtayi nazardan, ko‘rgazmalilik tabiiy-predmetli, tasviriy va jonli nutq yoki “jonli mushohada”lik turlariga ajratiladi.

O‘qitishda yangi mavzular auditoriyada tajriba o‘tkazish yoki ba’zi obyektlarga ekskursiya uyushtirish bilan bog‘liq ravishda olib boriladi. Mazkur holat materialning talaba tomonidan puxta o‘zlashtirilishi uchun keng imkoniyat yaratadi. Tajriba-sinov maydonda, o‘quv labortoriyalarida, jonli burchaklarda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar ham shular qatoriga kiradi.

Tasviriy chizma-jadvallar, sxemalar, grafiklar, diagrammalar va boshqa ramziy belgilar yordamida namoyish qilinadi. Tabiatshunoslikni o‘qitishda jonli nutq orqali o‘qituvchi talabalarda yaqqol tasvirlar va obrazlarni uyg‘otadigan yorqin, ta’sirli iboralardan unumli foydalanish orqali bilimlarni puxta o‘zlashtirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Biroq hissiy organlardan, idrokdan meyorida ortiqcha foydalanish talablardagi rivojlanishni su’niy ravishda tormozlanishiga olib kelib, mavhum, nazariy tafakkurga salbiy ta’sir o‘tkazish mumkin. Natijada talablarda mustaqil fikrlash, mulohaza yuritish, munozaraga kirishish xususiyatlari susayadi. Shuning uchun talablarning kuzatuvchanligini takomillashtirish, mashq qildirish, oqilona, omilkorlik bilan taraqqiy ettirish maqsadga muvofiq.

Talablarda kuzatuvchanlikni shakllantirish uchun o‘qituvchi ularga aniq va muayyan maqsad qo‘yishni, yaxlit predmetdan bo‘lak va qisimlarni ajratishni, obyektlarni o‘zaro taqqoslashni, muhim va nomuhim belgilarini farqlashni o‘rgatish lozim. Kuzatish yordamida o‘rganilgan narsa va hodisalar talablar tomonidan rasm, chizma, loyiha esdalik, mulohazalar tarzida qayd qilib boriladi. Faol maqsadga yo‘naltirilgan uzluksiz kuzatish natijasida ularda kuzatuvchanlik xususiyati tarkib topib, bilimlarni puxta tez va aniq o‘zlashtirish uchun xizmat qiladi.

Tabiatshunoslik fanini o‘qitishda bilimlarni o‘zlashtirishining muhim tomonlaridan biri o‘quv materialini tushunishdan iborat bo‘lib, ularning o‘zaro bog‘liqligi, predmetlararo aloqasi, muayyan soha va tizimlarga taalluqligini anglash bosqichiga ko‘tariladi. Talaba o‘rganilayotgan materialning o‘tilgan mavzular bilan murakkab ichki bog‘lanishga egaligi, qonuniyat ta’rifi, sabab-oqibat munosabatlari kelib chiqishini tushunish imkoniyatiga ega bo‘lmog‘i zarur.

Tabiatshunoslikni o‘qitishda oddiy idrok qilish yoki kuzatish orqali anglab bo‘lmay-

di. Shuning uchun u fikrlash, mulohoza yuritish, ijodiy izlanish (kreativlik), ya’ni taffakur bilan aniqlanadi.

Tabiatshunoslikni o‘qitishda o‘quv materiallarini o‘zlashtirish uchun talablar matndagi bir tushunchani to‘liq anglab yetishlari kerak. Masalan “o‘simliklar” umumiy tushuncha, ya’ni bunda bir jinsdan bo‘lgan ko‘p narsa va holatlar gavdalanadi. “Olma”– yakka tushuncha, chunki yakka nom haqida ma’lumot beradi; “daraxt”– yaqqol tushuncha, bu yerda alohida olingan bir butun narsaga aloqadorlik aks ettirilmoqda. Hatto talablar “gulzor” tushunchasiga taalluqli ekanligini isbotlashi zarur. Bilimlarni anglash va ularni mustaqil o‘zlashtirish jarayonida fikr yuritish jarayonlarining uzviyligi va uzluksizligiga alohida e’tibor qaratishda tahlil, sintez qilish, taqqoslash, umumlashtirish tushunchalaridan o‘rinli foydalanish muhim hisoblanadi.

Tahlil – yozish, tekshirish, surishtirish, hal qilish, biror narsa, ma’lumot va shu kabilarni ma’lum nuqtayi nazardan o‘rganish, baholash.[1] Tahlil narsa va hodisalarni fikran tarkibiy qismlarga ajratishdan iborat bo‘lib, unda butunning bo‘laklarga nisbatan munosabati aniqlanadi.

Masalan: O‘rmonda daraxtli, butali va o‘t o‘simliklarning o‘ziga xos xususiyatlari bor. Ya’ni bu yerda o‘simliklarning tana tuzilishi va rivojlanish xususiyatlari tahlil qilinadi.

Sintez esa, aksincha, fikr obyekti bo‘lgan narsa va hodisalarning tarkibiy qismlarini fikran bir butun qilib qo‘shishdir.

Sintez – hodisalarni o‘zaro bog‘langan, bir butun holda tekshirish o‘zaro bog‘langan bir butun holda tekshirish, olingan natijani umumlashtirish va xulosa chiqarish.[2]

Masalan: O‘rmondagi barcha o‘simliklar tarkibi xujayradan iborat, ularda fotosintez jarayoni ro‘y beradi. Ya’ni bu yerda o‘simliklarning rivojlanishi va yashash tarzi tabiiy qonuniyat asosida rivojlanish umumiy sintez qilinadi.

Talabalar oldida muammoli vaziyatlar vujudga keltirilganda, ularning yechimini mustaqil ravishda topshirish kerak bo‘ladi. Aytaylik, mana bunday vaziyat maydonga keldi: “Atmosfera ifloslanishining asosiy sabablarni aniqlang va ifloslanishning oldini olish bo‘yicha chora-tadbir ishlab chiqing” Mazkur muammo yechimini aniqlash uchun birinchi navbatda, uning mohiyatini anglash, yechim yo‘llari va vositalarini topish va tatbiq qilish, yechimini tekshirish kabi murakkab faoliyatni amalga oshirish zarur. Ana shundan so‘ng talabada o‘quv materiallarni o‘zlashtirishga ongli yondashish ko‘nikmasi vujudga keladi. Shu bilan birga ular narsa va hodisalarning mohiyatini aks ettiruvchi tushunchalarga tayanib, fikr yuritishning turli ko‘rinishlarni mustaqil ravishda qo‘llashni boshlaydilar.

O‘quv materialini esda saqlash, esga tushurish uchun xotiraning bir necha xil vositalaridan foydalaniladi. Dastlab bilim, axborotlar talaba ongiga assotsiativ yo‘l bilan kirib boradi. Jumladan, o‘rganilayotgan narsa va hodisalarning o‘zaro o‘xshashligi, yondoshligi, qarama-qarshiligi (kontrast holati) mavjud bo‘lganligi sababli ular yengilroq o‘zlashtiriladi. Ba’zan qonun va qoidalar ma’nosiga tushunilmay, mexanik ravishda yod olinadi. Lekin bunday materiallar mohiyatini imkoni boricha mantiqiy yo‘l bilan esda olib qolishning omilkor usullaridan foydalanish o‘zlashtirish sifatini oshiradi. Chunonchi, ma’nosiga ko‘ra matndagi tayanch nuqtalarni topish, matn bo‘yicha reja tuzish, o‘tilgan mavzularni idrok qilgan holda yangi mavzuni takrorlashning o‘rni katta hisoblanadi.

---

[1] O‘zbek tilining izohli lug‘ati O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 4-tom 2007-yil, 42-bet

[2] O‘zbek tilining izohli lug‘ati O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 3-tom 2007-yil, 517-bet.

O‘zlashtirish jarayonidagi samaradorlik ko‘p jihatdan talablarga beriladigan tavsiyalar (ularning ruhan shu narsani qabul qilishga tayyorgarligi, yaqqol ko‘rsatmalar berilishi, inson o‘zini o‘zi yo‘naltirish jarayoni) ga bog‘liq. Odatda, ular (manbalar)ni, xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, uzoq yoki qisqa muddat esda saqlashga, aniq esga tushurishga, erkin fikr yuritishga mo‘ljallangan ko‘rinishlarga ajratish mumkin. O‘qituvchi talablarda esda olib qolish ko‘rsatmalari (ustanovka)ni hosil qilishda qaysi materialni uzoq muddat saqlash, qaysi turkumdagi materialning mohiyatini tushunib olish; nimalarni aynan esda qoldirish, qanday axborotlarni o‘z so‘zi bilan ifodalangan holda xotirasiga joylash kabilarning usul va vositalarini tushuntirib berish lozim.

Bilish jarayonining barqarorligi, mazmundorligi va tartibliligi bevosita diqqatga bog‘liq. Diqqat passiv, kuchsiz bo‘lgan vaqtda bilish jarayoni sekinlashadi yoki tormozlanadi. Talabalarning diqqati uzoq vaqt davomida muayyan vazifaga qaratilgandagina bilish jarayoni amalga oshadi. Tabiatshunoslik fanini o‘qitish jarayonida ham diqqat quyidagi turlarga bo‘linadi: faolligiga ko‘ra (ixtiyorsiz, ixtiyoriy, ixtiyordan keyingi); obyektga ko‘ra (tashqi, ichki); faoliyat shakliga binoan (yakkahol, guruhiy, jamoviy).

Tabiatshunoslikni o‘qitishda o‘ta qiziqarli ma’ruza, mashg‘ulotlar talabalarning fikr yurtishiga, qiyinchiliklarni yengishga ixtiyoriy diqqat tayanish yaxshi natija beradi. Chunki irodaviy diqqat bilan emotsional qiziqishning birlashuvi diqqatini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Tabiatshunoslikni o‘qitish jarayonida qiziqishning muhim ahamiyati bo‘lib, qiziqishlar talabalarning o‘qishga munosabatini, o‘quv predmetlarning mazmuniga ko‘ra moyillik kuchini aks ettiradi.

Qiziqishlar, odatda, bevosita va bavosita, beqaror va barqaror, keng va tor, umumiy va maxsus turlarga bo‘linadi. U sinchkovlik, bilishga qiziqish, turg‘un qiziqish bosqichlarini bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, bilimlarni oddiydan murakkab tomonga o‘zlashtirishga idrok qilishga turtki bo‘ladi va tabiatshunoslik fanidagi predmet, voqea va hodisalarni o‘zaro jamlab, umumiy xulosa chiqarishga harakat qiladilar.

Pedagogika fanida bo‘lgani kabi psixologiya fanida ham kuzatish metodidan foydalaniladi. Ya’ni obyektiv, sirtdan kuzatishdir. Tabiatshunoslik fanini o‘rganishda obyektiv kuzatish jarayonida psixologik jarayon (sezgi, idrok, diqqat kabi) tabiiy sharoitida qanday yuz bersa shundayligicha o‘rganishda muhim hisoblanadi. Tabiatni tabiiy-ilmiy bilishi, narsalarni, xodisalarni, inson ongida to‘g‘ri ifodalanishi, haqiqiy real tushunchalar, nazariyalar chuqur o‘ylangan obyektiv va bilishning natijasida o‘rganiladi. Tabiiy-ilmiy bilishi tabiatshunoslik fanini o‘qitishning psixologik xususiyatida uzviylik murakkab psixologik rivojlanish qonuniyatlari yosh bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlarni o‘rganish; bilimlarni bosqichma-bochqich o‘zlashtirish; faoliyatning yetakchi turlarini o‘zgarish doirasida ko‘rib chiqish; idrok, tasavvur, diqqat, xotira, tafakkur, tushuncha, kategoriyalariga alohida e’tibor berish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.G‘. G‘oziyev Pedagogik-psixologiya. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Noshir nashiryoti” 2014.

2. E.G‘. G‘oziyev Oliy maktab psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma.T.: TDPU. 1997.

3. Xayriddinov B., Jurayev Sh., Risboyev A., Tashatov A. Tabiiy fanlarning zamonaviy konsepsiyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Noshir nashiryoti” 2014.

4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 3-tom. 2007.

Farog'at SOLIYEVA,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti (Phd)

JANUBIY KOREYA TAJRIBASI ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

Annotatsiya

Maqolada mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim tizimi va Janubiy Koreya boshlang'ich maktablari o'qituvchilarining pedagogik faoliyati qiyosiy tahlil qilingan bo'lib, unda ilg'or xorij tajribalarini o'rganish asnosida ta'lim sifatini tubdan o'zgartirish, o'qitishning yangi metodlarini joriy etish, o'qituvchining faoliyatini oqilona tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirish xususida fikr bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Boshlang'ich ta'lim, Janubiy Koreya, pedagogik faoliyat, o'qituvchi va o'quvchi shaxsi, ta'lim sifati.

В статье дается сравнительный анализ педагогической деятельности учителей начального образования страны и учителей начальных школ Южной Кореи путем изучения передового международного опыта, радикального изменения качества образования, внедрения новых методов обучения и способов расширения возможностей оптимальной организации учебного процесса.

Ключевые слова. Начальное образование, Южная Корея, педагогическая деятельность, личность учителя и ученика, качество образования.

The article provides a comparative analysis of the pedagogical activities of primary education teachers in the country and primary school teachers in South Korea by examining international best practices, dramatically changing the quality of education, introducing new teaching methods and ways to expand the possibilities for optimally organizing the educational process.

Key words. Primary education, South Korea, pedagogical activity, teacher and student personality, quality of education.

Respublikamizda so'nggi yillarda boshlang'ich ta'lim jarayonida ta'lim sifatini tubdan o'zgartirish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda o'qitishning ilg'or metodlarini joriy etish, o'qituvchining faoliyatini oqilona tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirishga yo'l ochildi. Bunda xorij ta'limidagi innovatsion ish uslublarini o'rganish, ularni qiyosiy tahlil qilish va ilg'or tajribalarni ommalashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

''2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi''da ham davlat tomonidan yoshlar bilan ishlash siyosatini takomillashtirish, intellektual rivojlangan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash, ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va uni baholash mezonlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, bunda o'qituvchining yangi ish uslubini joriy etish, boshlang'ich ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish borasida dunyo va respublikamizda olib borilayotgan tadqiqotlar ko‘rsatishicha, bugungi kunda o‘qituvchining innovatsion faoliyatini tashkil etish, pedagogik jarayonni boshqarish, pedagogik jarayondagi xorij tajribalarini o‘rganish, ularni yangicha izohlash masalalarini tadqiq etish, uning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash, ta’lim mazmunini umumyevropa xalqaro standartlari asosida tashkil etish, mutaxassislarning umummadaniy, maxsus, kasbiy va shaxsiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan masalalar alohida dolzarblik va ahamiyat kasb etmoqda.

Ma’lumki, Janubiy Koreya davlati ta’lim muassasalari o‘quv faoliyatining sifati o‘quv jarayonini rejalashtirish, uni amalga oshirish, o‘quv reja, dasturlarining mazmun mohiyati bilan dunyodagi rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin olgan.

Shunday ekan, bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faoliyatini tashkil etish texnologiyalarini xorij davlatlari, xususan Janubiy Koreya misolida tadqiq etish va takomillashtirish pedagogikadagi dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli qarori asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllantiriladigan tayanch va fanga oid kompetensiyalar belgilab berildi. Unga ko‘ra boshlang‘ich ta’lim modernizatsiyasi sharoitida o‘qituvchilar faoliyatini tashkil etish texnologiyalarini xorij davlatlari, xususan Janubiy Koreya misolida tadqiq etish pedagogikada alohida qiziqish uyg‘otayotgan masalalar sirasiga kiradi, chunki o‘rganilayotgan mamlakat ta’lim tizimi:

1) alohida geopolitik qiziqish uyg‘otayotgan davlatlar sifatida bugun dunyo hamjamiyati e’tirof etayotganligi;

2) boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faoliyat darajasi kengayib, ijodkorlik imkoniyatlari va o‘z-o‘zini namoyon qilish ko‘nikmalari tarkib topayotganligi;

3) ta’lim jarayonida barqarorlikning katta ahamiyatga ega ekanligi e’tirof etilayotganligi va boshqalar bunga misol bo‘la oladi.

Uzluksiz ta’lim tizimining ilk pog‘onalarida faoliyat yuritayotgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida xorij tajribalarining eng ilg‘orlarini o‘rganish orqali quyidagi xislatlarni tarkib toptirish muhim ahamiyat kasb etadi:

– insonparvarlik xislatlarini rivojlantirish;

– kommunikativ (muloqotga moyillik) malakalarini shakllantirish;

– kasbiy mustaqillik, ishchanlik, hissiy barqarorlik, o‘z ishiga ijodiy yondashish xislatlarini tarkib toptirish;

– pedagogik nazokat va pedagogik texnikadan oqilona foydalanishni shakllantirish;

– nutq texnikasini, o‘z tovush, mimika va gavdasini boshqarish, jamoaga va shaxsga ta’sir ko‘rsatish qobiliyatlarini takomillashtirish;

– zamonaviy fan va ishlab chiqarishdagi muammolar, pedagogik, axborot va yuqori darajadagi texnologiyalardan xabardor bo‘lish hamda ulardan zarurlarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish va boshqalar.

“Bugungi kunda bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadigan boshlang‘ich sinflarga eng yetuk, eng tajribali o‘qituvchilar faoliyat yuritishi muhim ahamiyat kasb etadi”.

Binobarin, respublikamizning boshlang‘ich ta’limida faoliyat yuritayotgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari quyidagi kasbiy tizilma asosida ish faoliyati tashkil etilishi lozim:

1) maxsus tayyorgarlik hajmi va mazmuni;

2) o‘qituvchining ruhiy pedagogik tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar;

3) o‘qituvchi shaxsining xususiyatlari;

4) ixtisosga oid umumiy tayyorgarlik mazmuni.

Demak, zamonaviy o‘qituvchi shaxsining xususiyatlari quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

G‘oyaviy sohada: ilmiy dunyoqarash va e’tiqod, ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruriyatlarni chuqur tushunish, ijtimoiy va fuqarolik burchini anglash, ijtimoiy-siyosiy faollik.

Kasbiy sohada: bolalarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, o‘z kasbini sevish, ruhiy pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlik, pedagogik nazokat, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik qobiliyati, adolatparvarlik, samimiylik, dilkashlik, talabchanlik qat’iylik va maqsadga intilish, vazminlik, o‘zini tuta bilish, kasbiy layoqatlilik.

Bilim sohasida: keng ilmiy saviya, ma’naviy ehtiyoj va qiziqish, intellektual qiziqish, yangilikni his qila bilish va boshqalar.

Pedagogik faoliyat va uning o‘ziga xosligi. O‘qituvchi mehnati – bu bebaho izlanish, mashaqqat, azob-uqubatli kechinmalar, quvonch, o‘z faoliyatidan qanoat xosil qilishdir. Pedagoglik faoliyati – inson mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir.

Pedagogik faoliyat – pedagogning tahsil oluvchilarga ta’lim va tarbiya berish vazifalarini hal qilishga qaratilgan hamda pedagogik ta’sir o‘tkazish vositalari bilan amalga oshiriladigan kasbiy faolligidir. O‘qituvchi bu mazkur faoliyatning bir necha turlarini bajaradi: *o‘qitadi, tarbiyalaydi, yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatadi, tashkil qiladi, targ‘ibot yurg‘izadi, mustaqil bilim olish bilan shug‘ullanadi*.

Janubiy Koreya boshlang‘ich ta’lim tizimida shaxsning tajriba orqali orttirgan xususiyati, biror sohasidagi moslashuvchan ko‘nikma va ijodkorlik asosida hosil bo‘lgan kasbiy ko‘nikmalarning nazariy darajasi muhim hisoblanadi.

Janubiy Koreya boshlang‘ich ta’lim tizimida har bir o‘qituvchining zarur bo‘lgan umumiy pedagogik malakalarini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat, odatdan tashqari kuch-g‘ayratni, qat’iyatlilikni, tirishqoqlikni, vaziyatga, yangi jamoaga kirish qobiliyatini, samimiyatni, to‘g‘rilik va halollikni, o‘tkir aql-idrokni, bir vositani boshqasi bilan tekshirib ko‘rish malakasini talab qiladi.

Janubiy Koreya boshlang‘ich ta’lim tizimida faoliyat – izlanish, ijodiy mehnat maxsuli.

Mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim tizimida va Janubiy Koreya boshlang‘ich maktablarida inson faoliyatining boshqa turlari kabi pedagogik faoliyat ham o‘z xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turuvchi: maqsad, obyekt, subyekt va vositalardan tashkil topadi. Ikkala mamlakat o‘qituvchilarining faoliyatlari tahlil qilinganda, quyidagilar namoyon bo‘ldi:

– *birinchidan,* pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya’ni pedagog faoliyatning natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog‘liqdir. Uning mehnati yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo‘naltirilgan. Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy uzviyligini (ketma-ketligini) ta’minlaydi, bir avlod tajribasini ikkinchi avlodga o‘tkazadi, yoshlarni ijtimoiy munosabatlar tomon yo‘llaydi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqaradi. Demak, tahlil qilinayotgan sohada mamlakatimiz boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va Janubiy Koreya boshlang‘ich maktablari o‘qituvchilarining pedagogik faoliyatining maqsadlari o‘xshashlik kasb etadi.

– *ikkinchidan*, mamlakatimiz boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va Janubiy Koreya boshlang‘ich maktablari o‘qituvchilarining pedagog faoliyati doimo shaxs faoliyatini

boshqarish bilan bog‘liq. Bunda pedagogik maqsad o‘quvchi maqsadiga aylanishi muhimdir. Unga erishish osonlikcha kechmaydi. Pedagog o‘z faoliyati maqsadini va unga erishish yo‘llarini aniq tasavvur qilishi va maqsadga erishish o‘quvchilar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglata olishi zarur.

– *uchinchidan*, mamlakatimiz boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va Janubiy Koreya boshlang‘ich maktablari o‘qituvchilarining pedagogik (ta’lim, tarbiya) jarayonida o‘quvchi faoliyatini boshqarish shuning uchun ham murakkabki-pedagog maqsadi doimo o‘quvchi kelajagi tomon yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bu maqsadni o‘quvchidan ko‘ra pedagog yaqqolroq tasavvur qiladi. O‘quvchi esa ko‘p hollarda, hayotiy tajribasi yetishmasligi sababli hozirgi hayot, shu bugun tashvishlari bilan yashaydi, kelajakni esa to‘la tasavvur qila olmaydi.

Shunday qilib, mamlakatimiz boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va Janubiy Koreya boshlang‘ich maktablari o‘qituvchilarining pedagogik faoliyatlari bevosita yoki bilvosita o‘qitish va tarbiyalash vazifalarini hal qilishga yo‘naltiriladi. Pedagogik faoliyat mobaynida motivatsion – mo‘ljalli bosqich, vaziyatni tushunish bosqichi namoyon bo‘ladi; motivlar tug‘iladi, faoliyatga ruhiy tayyorgarlik vujudga keltiriladi, maqsad va vazifalar qo‘yiladi va o‘zgartiriladi; pedagogning tarbiyalanuvchilar ruhiy rivojlanishiga ta’sir o‘tkazishi muvofiqlashtiriladi; pedagogik o‘z-o‘zini tahlil qilish usullari (diagnostika, bashorat, nazorat)dan foydalaniladi, qo‘yilgan vazifa hal etiladi, yo‘l qo‘yilgan pedagogik nuqsonlar bartaraf etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.–T.: 2017-yil, 7-fevral.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi “2017-2021-yillarda ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli Qarori.

4. 2017-yil 30-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3304-sonli Qarori.

5. Incheon declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22-may 2015, Incheon, Republic of Korea).

6. Sh.A. Abdullayeva Hamkorlik pedagogikasi.–Toshkent: Fan va axborot texnologiyalari, 2017.-178-b.

Мухайё БАЙБАЕВА,
кандидат педагогических наук, доцент кафедры "Педагогики и психологии" института переподготовки и повышения квалификации руководящих кадров и специалистов системы народного образования имени А.Авлоний.

ОСОБЕННОСТИ ПРОТЕКАНИЯ КОНФЛИКТОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Аннотация

Maqolada dars jarayonida vujudga keluvchi ziddiyatlarning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan. Shuningdek, mazkur muammoning kelib chiqish sabablari, uning turlari hamda ushbu muammoni hal qilish uchun muhim bo'lgan tavsiyalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Pedagogik ziddiyat, pedagogik ziddiyat turlari, muammoli vaziyat, pedagogik vaziyat.

В статье описаны особенности протекания конфликтов в образовательной среде. В нем также перечислены причины этой проблемы, ее типы и рекомендации, которые имеют решающее значение для решения этой проблемы.

Ключевые слова. Педагогический конфликт, типы педагогических конфликтов, проблемная ситуация, педагогическая ситуация.

The article describes the features of the flow of conflicts in the educational environment. It also lists the causes of this problem, its types and recommendations, which are crucial for solving this problem.

Key words. Pedagogical conflict, types of pedagogical conflicts, problem situation, pedagogical situation.

Основные теоретические положения педагогический конфликт как разновидность социальных конфликтов анализируется в средовом аспекте, т.е. сферой его протекания является образовательная среда, образовательный процесс. Педагогический конфликт рассматривают как возникающую в результате профессионального и межличностного взаимодействия участников учебно-воспитательного процесса форму проявления обострившихся субъект-субъектных противоречий, создающих отрицательный эмоциональный фон общения, предполагающую перевод столкновения сторон конфликта в заинтересованное устранение его причин. Причинами возникновения любого конфликта являются противоречия, которые испытывает личность при взаимодействии в социуме. В образовательном пространстве такими противоречиями могут являться:

● с позиции педагога: неудовлетворенность выбранной профессией; повышенная ответственность за качество образования; ответственность за жизнь и здоровье учащихся; неудовлетворенность потребности в признании, уважении педагога как со стороны учащихся, так и со стороны администрации, педагогического коллектива, родителей; жесткое планирование и четкое следование ему

в рамках данной педагогической системы; использование традиционных форм обучения и оценки;

● с позиции учащегося: наличие возрастных сензитивных периодов, ведущих к изменению поведения, реакций на происходящее; психологические, индивидуальные особенности личности учащегося; неудовлетворенность формами подачи материала; непонимание действий педагога (как следствие отсутствия гендерно-ориентированного подхода в межличностном взаимодействии);

● со стороны родителей: повышенные требования к школе как к социальному институту образования и воспитания; социальные и статусные противоречия. Причины педагогических конфликтов педагогический конфликт – сложное явление, происходящее, как правило, в силу объективных и субъективных причин.

Педагогический конфликт, как правило, возникает на базе объективных условий, при этом в провокации конфликтов в образовательном учреждении приоритетную роль играет субъективный фактор. Наиболее распространенными конфликтами в педагогической деятельности являются конфликты межличностных взаимоотношений: ‘‘учащийся – учащийся’’, ‘‘педагог – учащийся’’, ‘‘педагог – педагог’’, ‘‘педагог – родители’’. В основе данных конфликтов лежат противоречия систем ценностей, мировоззренческих позиций, взглядов, мнений, установок. Между учащимися часто происходят конфликты лидерства, в которых отражается борьба двух – трех лидеров и их группировок за свое первенство в классе, в школе. В средней школе имеют место конфликты между мальчиками и девочками по причине несформированной коммуникативной компетентности среди учащихся разного пола, а также межличностные, межгрупповые конфликты. Речь идет о конфликтах между членами педагогического коллектива, которые могут являться следствием проблем, связанных с организацией педагогического процесса (расписание занятий и др.); иметь интимно-личный характер; возникать между преподавателями начальной школы и средних и старших классов вследствие отсутствия преемственности в содержании и организации обучения в начальной и средней школе. Во взаимодействиях ‘‘педагог – администрация’’ нередки конфликты, вызванные решением проблем власти и подчинения; конфликты, связанные с инновационными разработками и введением их в образовательный процесс молодыми педагогами. Конфликты во взаимодействии ‘‘родитель – педагог’’ могут иметь статусно-ролевой характер, нравственно-этический или быть вызваны проблемами власти и подчинения. Задача педагогов и членов педагогического коллектива – предотвращать конфликты в рамках учебно-воспитательного процесса, для чего необходимо осознавать причины и условия их возникновения, а также регулярно оценивать состояние педагогической системы в целом. Структура педагогических конфликтов, конфликты в педагогической деятельности, как и социальные конфликты, имеют общую структуру. Структурными компонентами педагогических конфликтов являются конфликтная ситуация, участники конфликта, объект конфликта, условия протекания конфликта, образы конфликтной ситуации и конфликтное взаимодействие. Конфликтная ситуация в педагогике предшествует конфликту, ее составляющими являются субъекты и объект конфликта с их отношениями и характеристиками (М.Р. Битянова, Н.М. Вереникина). Конфликтная педагогическая ситуация представляет собой совокупность объективных и субъективных условий, возникающих в образовательном пространстве и создающих определенное психологическое напряжение, благодаря чему ослабляется

рациональный контроль субъектов общения и активизируется их эмоциональное восприятие сложившихся противоречий. Конфликтной ситуации предшествует инцидент. По мнению М.Р. Битяновой, инцидент – это ситуация взаимодействия, позволяющая осознать его участникам наличие объективного противоречия в интересах и целях. Инцидент является неосознанным фактом и выступает как повод к конфронтации. Инцидент способствует переходу конфликтной ситуации в конфликтное взаимодействие, которое проявляется в поведении субъектов (культура конфликтного поведения субъектов). В педагогической конфликтологии под конфликтующими сторонами подразумевают субъектов конфликта. Ими могут быть отдельные личности или группы лиц (учащиеся, педагоги, педагогические коллективы, администрация, родители). Объектом педагогического конфликта служат различия в системе ценностей, ресурсы или статус, по поводу которых этот конфликт происходит. Под предметом педагогического конфликта подразумеваются материальные образования, с ним связанные. Классификация педагогических конфликтов педагогические конфликты рассматривают не только в соответствии с общепринятой классификацией конфликтов, но и с учетом типа их проявления. По типу проявления выделяют следующие виды педагогических конфликтов:

- подлинный, когда столкновение интересов существует объективно, осознается участниками и не зависит от какого-либо изменяющегося фактора;
- случайный (или условный), в котором конфликтные отношения возникают в силу случайных, поддающихся изменению обстоятельств, не осознаваемых участниками конфликта. Такие конфликты могут быть прекращены, если участники осознают реально имеющиеся возможности;
- смещенный, где воспринимаемые причины конфликта косвенно связаны с объективными причинами, лежащими в его основе. Такой конфликт может быть выражением истинных конфликтных отношений, но в символической форме;
- неверно приписанный, когда конфликтные отношения приписываются не тем сторонам, между которыми разыгрывается действительный конфликт. Это делается либо преднамеренно с целью спровоцировать столкновение в группе противника, ‘‘затушевав’’ тем самым конфликт между его истинными участниками, либо непреднамеренно, в силу отсутствия истинной информации о существующем конфликте;
- скрытый, в котором конфликтные отношения в силу объективных причин должны иметь место, но не актуализируются;
- ложный, не имеющий объективных оснований и возникающий в результате ложных представлений или недоразумений. Педагогические конфликты классифицируются также по направленности и временным характеристикам. По направленности конфликты подразделяются на горизонтальные, возникающие между коллегами в учебном заведении или учащимися одного класса, группы, и вертикальные – в диадах ‘‘педагог – учащийся’’, ‘‘администрация – педагог’’, ‘‘педагог – родитель’’. По временным параметрам конфликты подразделяются на кратковременные, быстротечные, длительные.

Проявление деструктивной функции педагогического конфликта заключается в разрушении формальных и неформальных отношений, психологическом дискомфорте в общении и совместной деятельности. Подобные обстоятельства, конечно же, не способствуют преодолению противоречий, имеющихся в субъектно-субъектных отношениях. Когда мы говорим об образовательном учреждении,

то здесь особенно важно оставаться в рамках конструктивной фазы конфликта. Для этого необходимо учитывать особенности педагогических конфликтов:

- различный социальный статус участников конфликта;
- разная степень ответственности при разрешении педагогического конфликта в связи с разницей в возрасте и жизненном опыте участников;
- профессиональная позиция педагога в конфликте: инициатива разрешения конфликта ложится на плечи педагога, который в первую очередь должен учитывать интересы учащегося как формирующейся личности. Особенностью педагогических конфликтов является острое начало: нарушение социально ценных норм одним из его участников;
- кризис, когда обычные нормы поведения теряют силу, и человек становится способным на крайности;
- недоразумение, вызванное тем, что фрустрирующая ситуация связана с эмоциональной напряженностью одного из участников и приводит к искажению им восприятия действительности;
- инциденты, когда незначительный поступок или слово вызывает неадекватную реакцию, раздражение;
- напряжение – состояние, которое искажает восприятие человека и изменяет его поступки, действия, поведение, вызывает негативные эмоции и чувства; взаимоотношения с оппонентом становятся источником непрерывного беспокойства; в такой ситуации любое недоразумение может перерасти в конфликт;
- дискомфорт – неспокойное внутреннее или внешнее состояние, оказывающее влияние на физическое самочувствие, настроение (интуитивное ощущение опасности, волнение, страх).

Сознательное управление конфликтной ситуацией возможно лишь с позиций конструктивного отношения к конфликту, что подразумевает дифференцирование конфликтов на нереалистические (эмоциональные, беспредметные) и реалистические (предметные, деловые). Разрешение конфликта, по мнению ученых – педагогов, психологов, социологов, философов, приводит к развитию личности в целом, поскольку конфликтное противоречие, как и любое другое противоречие, является источником развития. Предотвращение инцидента возможно в случае устранения реального объекта противоречия. Для этого необходимо привлечь в качестве эксперта незаинтересованное лицо или способствовать тому, чтобы один из конфликтующих отказался от предмета конфликта в пользу другого.

Использованная литература:

1. А.Я. Анцупов. Конфликтология / А.Я. Анцупов, А.И. Шипилов. Москва: Юнити, 2000. – С. 551.

2. Н.В. Гришина. Психология конфликта / Н.В. Гришина. – Санкт-Петербург: Питер, 2000. – С.464.

3. Конфликтология / под ред. А.С. Кармина. Санкт-Петербург: Лань, 1999. – С. 448.

Давлатбек САЪДУЛЛАЕВ,
доцент Тошкентского Государственного педагогического университета им. Низами, к.п.н.
Абдуназар НУРМАНОВ, преподовательТошкентского Государственного педагогического университета им. Низами, д.п.н.

О ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ НА ОСНОВЕ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Аннотация

Maqolada lingvokulturologik yondashuv orqali umumta'lim muassasalarida rus tilini o'qitishning sifat darajasini oshirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, mualliflar tomonidan yetakchi mutaxassislarning mazkur masalaga bag'ishlangan ishlari tahlil qilingan hamda olingan natijalarga asoslangan holda o'zining taklif va tavsiyalarini keltirgan.

Kalit so'zlar. Lingvomadaniyatshunoslik yondashuv, lingvomadaniyatshunoslik kompetensiya, madaniyatlararo muloqot, madaniyatlar dialogi, rus tilini o'qitishning yangi konsepsiyasi.

В статье освещены вопросы повышения уровня преподавания русского языка в общеобразовательных школах с помощью лингвокультурологического подхода. Авторы также проанализировали работы ведущих экспертов по этому вопросу и дал рекомендации, основанные на полученных данных.

Ключевые слова. Лингвокультурологический подход, лингвокультурологическая компетенция, межкультурное общение, диалог культур, новая концепция преподавания русского языка.

The article highlights the issues of improving the level of teaching Russian in secondary schools using the linguocultural approach. The author also analyzed the works of leading experts on this issue and made recommendations based on the data obtained.

Key words. Linguoculturological approach, linguocultural competence, intercultural communication, dialogue of cultures, a new concept of teaching Russian language.

Формирование культурологической компетенции учащихся на уроках русского языка является сегодня одной из актуальных лингвометодических задач в системе непрерывного образования республики. Новая концепция обучения русскому языку, суть которой - формирование и развитие языковой личности, предполагает работу над усвоением национально-культурного компонента значения языковых единиц, прежде всего лексики, фразеологии и текста. Усвоение слов не только как единиц языка и речи, но и как концептов культуры, изучение текста как явления культуры должно способствовать формированию и развитию у учащихся компетенций к реальному диалогу в межкультурной коммуникации.

Создание сегодня различных учебных, учебно-методических пособий, пособий для учителя, условно называемые «Русский язык в диалоге культур», должно идти в русле лингвокультурологической концепции обучения русскому языку, ведущим принципом которой является соизучение языка и культуры, выработка не только языковой (лингвистической), но и коммуникативно-культурологической компетенции учащихся, что вполне отвечает требованиям новых стандартов образования.

Содержание, обеспечивающее формирование культуроведческой компетенции, должно быть обязательно отражено в стандарте образования как отражение в языке культуры и истории народа с учетом взаимообогащения языков, единиц русского языка с национально-культурным компонентом значения, норм русского речевого этикета, его особенностей в сопоставлении с речевым этикетом родного народа. Культуроведческая компетенция более конкретно и в более полной мере реализуется в региональном компоненте образования в России, в частности, целенаправленная работа в этом плане проводится в Республике Башкортостан (БГУ, проф. Л.Г. Саяхова), в Москве (РУДН, проф. Воробьев В.В.; ГИРЯ им. А.С.Пушкина, проф. Прохоров Ю.Е.).

Новая концепция обучения русскому языку, суть которой - формирование и развитие языковой личности, предполагает работу над усвоением национально-культурного компонента значения языковых единиц, прежде всего лексики, фразеологии и текста: усвоение слов не только как единиц языка и речи, но и как концептов культуры, изучение текста как явления культуры.

В названия пособий нового поколения, изданных в России, заложено понятие ***диалог культур.*** Каково же его содержание, являющегося одним из основных в лингвокультурологической концепции обучения русскому языку? Диалог в обиходном понимании – разговор двух лиц. В школьном курсе русского языка – это особый вид устной речевой деятельности, в котором участвуют минимум два человека. Единицей обучения диалогу является диалогическое единство: просьба/предложение – согласие/отказ, вопрос – ответ; информация – подтверждение/опровержение; взаимопонимание. Целью и кульминацией любого общения, диалогического в том числе, является достижение **взаимопонимания.**

В последнее время термин “диалог” широко применяется в педагогической теории и практике для обозначения гуманистического образовательного процесса. В современных условиях, когда проблема межнационального взаимопонимания приобретает особую значимость, диалог культур важен как средство формирования не только толерантности, но и уважения друг к другу, понимания многообразия нашего духовного и материального мира, в конечном счёте, средство формирования умения жить и общаться в многонациональной стране.

Диалог культур – не только средство познания другой, инонациональной культуры, но и более глубокого проникновения в свою родную культуру. Диалог культур способствует социализации личности как носителя языка с его этническими особенностями.

